

Z.Umarov, U. Ortiqov, N.Sharipova



TO'LOV TIZIMI VA BANK XAVFSIZLIGI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYA VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Z.A.UMAROV

U.D.ORTIQOV

N.H.SHARIPOVA

TO'LOV TIZIMI VA BANK XAVFSIZLIGI

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT

“TAHRIRIY NASHRIYOT”

2023

UO'K: 336.71:005.334(075.8)

KBK: 65.262.1ya73

Taqrizchilar:

I.f.n., dotsent I. Sayfiddinov

DSc, dotsent Sh.To'rayev

ISBN: 978-9943-9162-7-2

«To'lov tizimi va bank xavfsizligi»: O'quv qo'llanma (barcha bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun) Z.Umarov, U. Ortiqov, N.Sharipova. – T.: "Tahririy Nashriyot", 2023. – 196 b.

O'quv qo'llanmada to'lov tizimining mohiyati, turlari, to'lov instrumentlari xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar, metodologik hamda me'yoriy-huquqiy asoslari, xorijiy mamlakatlarning bu boradagi ilg'or tajribasi va uning amaliy ahamiyati, respublikamizda to'lovlar va to'lov tizimining amaldagi holati tahlili natijalari, shu bilan birga, banklarda to'lov tizimlari bilan bog'liq mavjud muammolar va ularning yechimiga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Shuningdek, o'quv qo'llanmada bank xavfsizligi, uning mohiyati, bank operatsiyalari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar, ularning oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Iqtisodiyot yo'nalishidagi magistratura mutaxassisliklari, tadqiqotchi-izlanuvchilar va mutaxassis-amaliyotchilar uchun mo'ljallangan ushbu o'quv qo'llanma Toshkent moliya instituti kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

© Z.A.Umarov, U.D.Ortiqov,

N.H.Sharipova 2023.

© "Tahririy nashriyot" bo'limi, TMI 2023.

KIRISH

To'lovlarning uzluksizligini ta'minlash iste'molchilarning to'lov xizmatlariga ishonchini oshirib, moliya bozorlarida pul oqimlari bilan bog'liq risklarni kamaytiradi hamda rivojlanib borayotgan raqamli innovatsiyalarning onlayn va mobil ilovalar orqali to'lovlarga joriy etilishi aholi orasida moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirishga olib keladi. Shu sababdan to'lov tizimini takomillashtirish masalasi dolzarb bo'lib hisoblanadi. McKinsey tashkiloti hisobotiga ko'ra, "jahonda jami naqd pul orqali to'lovlarning ulushi 2020 yilda 2019 yilga nisbatan 16 foizga kamayib, naqd pulsiz tranzaksiyalar ulushi 6 foizga ortishi kontaktsiz hamda elektron hamyonlar orqali to'lovlar tushumining kengayishi hisobiga yuzaga keldi"¹. Iqtisodiyotda globallashtirishning chuqurlashishi, to'lov tizimlari orasidagi raqobatning kuchayishi amaliyotda banklarda to'lov tizimini muntazam takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda "naqdsiz hisob-kitoblar hajmi va qamrovini oshirish, shu jumladan, iqtisodiyot sohalarida to'lovlarning zamonaviy elektron shakllarini joriy etish va tadbirkorlik sub'yektlarini rag'batlantirish, shuningdek, bankdan tashqari aylanishini qisqartirish"² iqtisodiyot tarmoqlarining muhim yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Mamlakatdagi to'lov tizimining xalqaro talab va prinsiplarga moslashuvi vazifasi ijrosini ta'minlash hamda xalqaro pul o'tkazmalarini bank ilovalari orqali o'tkazilishini ommalashtirish, tijorat banklarining mobil ilovalari xizmatlari jozibadorligini oshirish orqali masofadan to'lovlar hajmini oshishi, bank to'lov infratuzilmasini kengaytirish va faoliyat samaradorligiga erishish zarurligini keltirib chiqaradi.

Ushbu vazifalarni hal qilish maqsadida mamlakatimizda banklar va to'lov tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan to'lov xizmatlarining ommabopligini yanada oshirish, bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan naqd pulsiz hisob-kitoblar jozibadorligini oshirish, mamlakat to'lov tizimini xalqaro prinsiplarga moslash,

¹ The 2021 McKinsey Global Payments Report, 2021 – pp.7-8. (<https://www.mckinsey.com>, report/2021-mckinsey-global-payments-report.pdf).

² O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. PF-4947-son, 2017 yil 7 fevral //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. - №6 (766). - 88 b.

to'lov tizimi imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasiga ko'ra, mamlakat hududida to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar quyidagilardan iborat: Markaziy bank, banklar, to'lov tashkilotlari, to'lov agentlari, to'lov subagentlari.

Hozirgi paytda Markaziy bank tarkibida Banklararo to'lov tizimi, Hisob-kitoblar kliring tizimi va Tezkor to'lovlar tizimi to'lov xizmatlarini yetkazib beradi. Tijorat banklari to'lov markazi orqali to'lov xizmatlarini amalga oshirsa, ular bilan bir paytda to'lov tashkilotlari, to'lov agentlari va subagentlari to'lov xizmatlarini amalga oshiradi. Shuningdek, bank kartalari bo'yicha "UZKART" hamda "HUMO" to'lov tizimlari milliy to'lov tizimining tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Mamlakatda naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish, to'lov tizimini takomillashtirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar bilan bir qatorda ushbu masalalarni yorituvchi darslik va o'quv qo'llanmalarining tayyorlanishi ham o'z ahamiyatiga ega. Shu maqsadda mualliflar tomonidan mazkur "To'lov tizimi va bank xavfsizligi" nomli o'quv qo'llanma yaratildi. O'quv qo'llanma mazkur fan bo'yicha tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanmada to'lov tizimining mazmuni va tuzilishi, to'lovlarning va to'lov tizimlarining turlari, to'lov instrumentlari, O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimining arxitekturasi, to'lov tizimlarining ishlash prinsiplari, elektron pul tizimlari, pul o'tkazish tizimlari faoliyatining mohiyati o'z ifodasini topgan. Naqd pulsiz hisob-kitoblar, yagona vakillik hisobvarag'i bo'yicha hisob-kitoblar, Internet-banking, Bank-mijoz, SMS-banking xizmatlari, yangi raqamli moliyaviy texnologiyalarning to'lovlarda qo'llanilishi kabi masalalar yoritilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmadan 70410501 – Bank ishi va audit magistratura mutaxassisligi talabalari foydalanishi mumkin. Shuningdek, ushbu o'quv qo'llanma iqtisodiyot yo'nalishida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar va bank xodimlari uchun ham foydali bo'lib hisoblanadi.

I BOB. TO'LOV TIZIMI VA UNING STRUKTURASI

1.1. To'lov va to'lov tizimining mohiyati va uning turlari hamda tashkiliy asoslari

To'lov tizimi mamlakat iqtisodiyotining muhim infratizimi sifatida ko'plab olimlar va mutaxassislar tadqiqotlarining ob'yekti bo'lib hisoblanadi. To'lov tizimi davlat moliyasining barqarorligiga asos bo'lib, iqtisodiyotdagi operatsion xarajatlarni kamaytiradi, moliyaviy va boshqa resurslarning samarali ishlatilishini oshiradi, moliya bozorining likvidligini kuchaytiradi. Dunyo iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning keng rivojlanib borayotganligi to'lov tizimlari faoliyatida takomillashuvga olib keldi.

To'lov tizimining istalgan turi va uning ishlash mexanizmining mohiyatini tushunish uchun bu masalaga tizimli yondashuv talab qilinadi. To'lov tizimi tor ma'noda va keng ma'noda ta'riflanishi mumkin. Tor ma'noda to'lov tizimi, odatda, banklararo pul o'tkazmalari tizimi sifatida ta'riflanadi. Keng ma'noda, to'lov tizimi iqtisodiyot sub'yektlarining bir-biriga pul mablag'larini o'tkazish infratizimini belgilangan qoidalar va jarayonlar asosida ta'minlovchi o'rnatilgan tartibda tashkil qilingan o'zaro munosabatlari tizimidir. Keng ma'noda to'lov tizimini funksional va institutsional nuqtai nazardan ta'riflash, izohlash mumkin.

Milliy qonunchilikda to'lov - pul majburiyatini naqd pul mablag'lari bilan bajarish yoki pul mablag'larini to'lov vositalaridan foydalangan holda o'tkazish³ sifatida talqin qilinadi. Bundan shuni ko'rish mumkinki, to'lovlarda pul mablag'lari harakati sodir bo'ladi.

Texnik vositalarning takomillashuvi to'lovlarning elektron usulda amalga oshirilishini ommalashuviga olib keldi. Shunday ekan, bugungi paytda to'lovlarning asosiy qismi elektron usulda amalga oshirilmoqda.

O.I.Lavrushin to'lov tizimini iqtisodiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan qarz majburiyatlarining bajarilishini qonunchilik orqali tartibga solinadigan elementlari yig'indisidan iboratligini⁴ qayd etadi.

³ O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida", O'RQ-578-son Qonuni, 2019 yil 1 noyabr.

⁴ Банковское дело: учебник/ Лаврушин О.И. и др. – 9 издание – М.: КНОРУС, 2011. – 366 с.

H.U.Raximova mamlakat to'lov tizimini – bu pul vositalarining uzluksiz harakatini ta'minlovchi va bozor sub'yektlari o'rtasidagi shartnoma majburiyatlarini bajarilishiga yordam beruvchi ixtisoslashgan institutlar, to'lov-hisob mexanizmlari va prinsiplari yig'indisidir⁵ deb ta'riflaydi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, to'lov tizimiga yanada aniqroq qilib quyidagicha izoh keltirish o'rinlidir:


Mamlakat to'lov tizimi – to'lov infratizimi a'zolari o'rtasida belgilangan qoidalar asosida pul vositalarining uzluksiz harakatini va axborot texnologiyalari vositasida iqtisodiy sub'yektlarning o'zaro majburiyatlari bajarilishini ta'minlovchi munosabatlar majmuidir.

“To'lov infratizimi a'zolari” sifatida to'lov tizimi operatorlari va to'lov tizimi ishtirokchilari nazarda tutilgan. “Belgilangan qoidalar” sifatida esa, mamlakat qonunchiligi, to'lov tizimi operatori belgilangan qoidalar hamda xo'jalik shartnomalaridagi boshqa qoidalar nazarda tutilmoqda.

To'lov tizimiga iqtisodiy kategoriya sifatida ta'rif berilganidan keyin mavjud to'lov tizimlarini turli belgilariga ko'ra tasnifini aniqlashtirish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi. To'lov tizimlarining asosiy belgilariga ko'ra tasnifi ilmiy va o'quv adabiyotlarida keng yoritilgan, shu bilan birga qo'shimcha belgilariga ko'ra tasnifini kam uchramiz. Aslida keyingi paytda internet to'lov tizimlari, virtual valyutalar bilan hisob-kitoblar sxemalarining vujudga kelishi to'lovlar sohasidagi muhim innovatsiya bo'lib hisoblanadi va to'lov tizimlarining an'anaviy tasnifini kengaytirishni talab qiladi.

To'lov tizimlarini tasniflashda ularni asosiy va qo'shimcha belgilariga ko'ra 1.1-rasmdagi kabi turlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

⁵ Рахимова Х.У., «Организация и развитие платежной системы Республики Узбекистан» автореферат диссертация канд. экон. наук, Банковско-финансовая акад.РУз. 2006г.



1.1-rasm. To'lov tizimi funksiyalari va shakllariga ko'ra turlari

Asosiy belgilariga ko'ra to'lov tizimlari to'lov summasiga ko'ra, hudud qamroviga ko'ra, mulkdorlik shakliga ko'ra, to'lov hisob-kitoblarini o'tkazish usuliga ko'ra, muhimlilik darajasiga ko'ra turlarga bo'linadi. Asosiy belgilaridan tashqari, to'lov tizimlari qo'shimcha belgilariga ko'ra ham turlarga ajratiladi.

Hisob-kitoblarda ishlatiladigan valyutaga ko'ra **yagona valyutali to'lov tizimlari va ko'pvalyutali to'lov tizimlarini** ajratib keltirish mumkin.

To'lov vositasi sifatida ishlatiladigan valyuta turiga ko'ra davlat **valyuta birliklaridagi (milliy valyutadagi) to'lov tizimlari, xususiy valyutadagi (virtual valyutadagi) to'lov tizimlari** mavjud.

Hisobvaraqdagi pul mablag'lari qoldig'i bo'yicha daromad olish imkoniyatiga qarab, **hisobvaraqdagi pul qoldig'i moliyaviy oqibatlarga olib kelmaydigan to'lov tizimlari, hisobvaraqdagi pul qoldig'i uchun foydalanuvchi komissiya to'lashi lozim bo'lgan to'lov tizimlari, hisobvaraqdagi pul qoldig'i uchun tizim mukofot to'laydigan to'lov tizimlari** faoliyat ko'rsatadi.

Yuqorida yaqqolroq bo'lishi uchun to'lov tizimlarining turlari belgilariga ko'ra keltirildi. Ularning xususiyatlariga birma-bir to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, to'lov tizimlarini asosiy belgilariga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin.

To'lov summasiga ko'ra to'lov tizimlari ikki asosiy turga bo'linadi:

- yirik to'lovlar tizimi;
- chakana to'lovlar tizimi.

Yirik to'lovlar tizimi muddatli va katta summali to'lovlarni amalga oshirishga mo'ljallangan. Asosan, katta summalardagi to'lov o'tkazmalari moliya bozorlaridagi moliya tashkilotlari orasida o'zaro to'lovlar uchun ishlatiladi, qoida bo'yicha, bunday to'lovlarda muddatlilik va to'lovlarning o'z vaqtida o'tkazib berilishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun bunday to'lovlarning qayta ishlash tizimlari xavfsizlik va samaradorlik standartlariga yuqori darajada javob berishi lozim.


Yirik to'lov tizimlarini uch turga bo'lib o'rganish mumkin, bular:

1. Kechiktirilgan sof hisob-kitoblar tizimi.
2. Real vaqtdagi yalpi hisob-kitoblar tizimi.
3. Gibridd to'lov tizimlari.

Chakana to'lovlar tizimi qiymatiga ko'ra nisbatan kichik bo'lgan ko'plab sonli to'lovlarni kredit o'tkazmalari, to'g'ridan-to'g'ri debet va to'lov kartalari orqali qayta ishlashga mo'ljallangan. Chakana to'lovlar tizimlari Markaziy bank va tijorat banklarining pul bilan bog'liq to'lov operatsiyalarini amalga oshirishlari

mumkin. Odatda, bunday tizimlar sof hisob-kitoblarning kechiktirilgan ko‘p tomonlama mexanizmlaridan foydalanishadi, lekin ularda ham real vaqtda yalpi hisob-kitoblar mexanizmini qo‘llash imkoniyati mavjud.

Quyidagi rasmda chakana to‘lovlarni o‘tkazishda ishtirok etadigan turli ishtirokchilarning operatsion oqimi aks ettirilgan. Odatda xarid qiluvchi tomon to‘lovchi, tovar va xizmatlarni sotadigan tomon esa pul mablag‘ini qabul qiluvchi bo‘lib ishtirok etadi, to‘lov tarmog‘i yoki kliring tizimi mablag‘larni moliya tashkilotlariga yo‘naltiradi.



1.2-rasm. Chakana to‘lov tizimlari ishtirokidagi to‘lovlar sxemasi

Shuningdek, barcha to‘lov tizimlarini hisob-kitoblarni yopish usuliga ko‘ra, real vaqt rejimida yoki kechiktirilgan ijro, ya‘ni operatsiyani tizimga kiritish vaqti bilan uning ijrosi o‘rtasida interval bilan bajarish usullariga bo‘lish mumkin.

To‘lov tizimlarini hudud qamroviga ko‘ra, xalqaro, mamlakat doirasidagi va mahalliy to‘lov tizimlariga ajratiladi.

Xalqaro to‘lov tizimlari mamlakatlar orasida to‘lovlarni amalga oshirish uchun yaratiladi. Bunday tizimlardan biri Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o‘rtasida yevrodagi hisob-kitoblarni amalga oshirishga mo‘ljallangan TARGET Yevropa tizimi bo‘lib hisoblanadi. Xalqaro to‘lov tizimlarida operator rezident ham, norezident ham bo‘lishi mumkin. Bunday tizimlar o‘z faoliyatini ikki yoki undan ortiq mamlakatlarda amalga oshiradi va bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga to‘lovlar o‘tkazib berilishini ta‘minlaydi.

Mamlakat doirasidagi to'lov tizimlari – to'lov operatori rezident bo'lib hisoblangan va pul o'tkazmalarini faqat bir mamlakat doirasida amalga oshirib, faqat shu mamlakatda faoliyat yurituvchi tizimlardir.

Mahalliy to'lov tizimlari alohida hududlarda, asosan, chakana hamda kichik ulgurji bitimlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat yuritadi.

Mulkchilik shakliga ko'ra, to'lov tizimlari o'z ta'sischisi yoki operatorining huquqiy shaklini aks ettiradi, ya'ni tizimni boshqarish va yuritish huquqi kimga tegishli ekanligini ko'rsatadi:

1. Davlat to'lov tizimlarining mulkdori va operatori Markaziy bank bo'lib hisoblanadi, bunda Markaziy bank bir paytning o'zida tizim ishtirokchisi vazifasini ham bajaradi, masalan, O'zbekiston, Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Fransiya, Germaniya, AQSH va boshqa ko'plab mamlakatlarda shunday tizim joriy etilgan.

2. Xususiy to'lov tizimlarida tizim egasi va operatori sifatida bir necha tijorat banklari guruhi kliring palatasi sifatida chiqadi, bunda Markaziy bank tizim ishtirokchisi bo'lmasdan so'nggi hisob-kitob agenti vazifasini bajaradi (masalan, Kanadada).

3. Aralash mulkchilik shakli, bunda elektron to'lov tizimi yo tijorat banklari va Markaziy bankning birgalikdagi mulki sifatida, yo Markaziy bank va xususiy agentlar bilan mulkdor va operator funksiyasini alohida bajarish asosida faoliyat yuritadi.

Shuningdek, to'lov tizimlari muhimlilik darajasiga ko'ra muhim va boshqa to'lov tizimlariga ajratiladi. Ushbu xususiyatlar turli mamlakatlar qonunchiligida ma'lum farqlarga ega bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, to'lov tizimlari muhim to'lov tizimlari va boshqa to'lov tizimlariga bo'linadi. Quyidagi 1.1-jadvalda to'lov tizimining muhim deb tan olinishi uchun lozim bo'lgan qonunchilik bilan belgilangan mezonlar hamda ularga qo'shimcha talablar keltirilgan.

To'lov tizimlarining muhimligini aniqlash mezonlari hamda ularga qo'shimcha talablar

To'lov tizimlarining muhimligini aniqlash mezonlari:	Muhim to'lov tizimi operatoriga qo'shimcha talablar:
➤ to'lov tizimi infratuzilmasida 2 mln dan ortiq faol, bir oy davomida kamida 1 marta hisobvarag'iga mablag' kirim qilingan to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilar mavjud bo'lishi lozim.	➤ muhim to'lov tizimining ishlashi 3 yilda kamida 1 marta o'zini o'zi baholashdan o'tkaziladi.
➤ 1 yil davomida to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi ushbu turdagi to'lovlar umumiy hajmining 25%idan ko'p ulushini egallagan bo'lishi lozim.	➤ muhim to'lov tizimining uzluksiz faoliyat ko'rsatishida buzilishlar bo'lgan taqdirda Markaziy bank navbatdan tashqari inspeksiya tekshiruvini o'tkazishga haqli.
➤ bir yil davomida to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 12 trln so'mdan ko'p bo'lishi lozim.	➤ muhim to'lov tizimlarining ishlashi ustidan kuzatuv amalga oshirilayotganda Markaziy bank ularning xalqaro standartlarga va o'z talablariga muvofiqligi yuzasidan baholashni o'tkazadi, ularning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

To'lov tizimini **muhim to'lov tizimi** sifatida e'tirof etish uchun yuqoridagi jadvalda keltirilgan mezonlardan kamida ikkita mezon sharti bajarilishi lozim. Bundan tashqari, muhim to'lov tizimlarining ishlashi har 3 yilda bir marta o'zini-o'zi baholashdan o'tkazishi lozimligi, uzluksiz faoliyatida uzilishlar bo'lganida Markaziy bank tomonidan navbatdan tashqari inspeksiya tekshiruvi o'tkazilishi mumkinligi, muhim to'lov tizimini faoliyati xalqaro standartlarga mos bo'lishi kabi qo'shimcha talablar qonunchilik bilan belgilangan.

Muhimlik mezonidan tashqari, to'lov tizimlari *hisob-kitoblarda ishlatiladigan valyutaga ko'ra*, yagona valyutali va ko'p valyutali to'lov tizimlariga bo'linadi.

Yagona valyutali to'lov tizimlarida faqat bir valyuta ishlatiladi: yo davlatning rasmiy pul birligi yoki to'lov tizimining hisob-kitobi doirasida belgilangan o'z pul birligi (xususiy yoki virtual). Masalan, O'zbekiston Markaziy bankining to'lov tizimi yagona valyutali to'lov tizimi bo'lib hisoblanadi, chunki hisob-kitoblarda faqat so'm ishlatiladi.

Ko‘p valyutali to‘lov tizimi o‘zida ikki yoki undan ortiq valyutali to‘lov tizimini aks ettiradi. Bu kabi tizimlarda qaysi valyutada qancha hisob-kitoblarning amalga oshirilishi mijozlarning talabiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, WebMoney to‘lov tizimida hozirgi paytda bir necha valyuta ishlatiladi.

To‘lov vositasi sifatida ishlatiladigan valyuta turiga ko‘ra davlat valyuta birliklaridagi (milliy valyutalardagi) va xususiy valyuta birliklaridagi (virtual valyuta) to‘lov tizimlariga bo‘linadi.

Davlat milliy valyuta birliklaridagi to‘lov tizimlari hozirgi paytda to‘lov tizimlarining asosiy qismini tashkil qiladi. Mamlakatlar milliy iqtisodiyotida milliy valyuta birliklari qonuniy to‘lov vositasi bo‘lib hisoblanadi (AQSH dollari, yevro, so‘m va boshqalar) va ularning emissiyasi davlat pul-kredit tizimini nazorat qiluvchi / tartibga soluvchi organlar tomonidan ta‘minlanadi. Yirik va chakana to‘lovlarning asosiy ulushi aynan shu kabi tizimlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Xususiy valyuta birliklaridagi to‘lov tizimlari to‘lov tizimining rivojlanishida yangi yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Virtual valyuta birliklari faqat raqamli shaklda xususiy emitentlar tomonidan chiqariladi va hech qanday huquqiy organ kafolatiga ega bo‘lmaydi (Bitcoin, Litecoin, Ripple va boshqalar). Ular virtual valyuta foydalanuvchilarining tarmoqdagi kelishuvlariga asoslanib pulning asosiy funksiyalarini bajaradi.

1.2. To‘lov tizimlarida qo‘llaniladigan to‘lov instrumentlari va to‘lov usullari

Hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida pul aholi hamda iqtisodiy sub’yektlar o‘rtasida milliy va transchegaraviy to‘lovlarda turli ko‘rinishlarda harakatlanishi lozim (naqd va naqd pulsiz ko‘rinishda).

To‘lov tizimi elementlari: to‘lov jarayoni ishtirokchilari, to‘lov instrumentlari, to‘lov usullari va mexanizmlari, pul tizimi, to‘lov xizmatlarini taqdim qiluvchi tashkilotlar (banklar, to‘lov agenti va to‘lov subagentlari, to‘lov

tashkilotlari, elektron pul tizimlari), to'lov tizimini tashkil qilish prinsiplari bo'lib hisoblanadi.

To'lov tizimining tartibga soluvchi organi Markaziy bank bo'lib, uning asosiy maqsadlaridan biri – to'lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta'minlashdan iboratdir. To'lov tizimlarining barqaror ishlashi to'lov aylanmasining barqarorligiga, shuningdek, pul-kredit siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Shu o'rinda mamlakat “pul aylanmasi” hamda “to'lov aylanmasi” kabi iqtisodiy tushunchalarga aniqlik kiritib o'tish lozim. Mamlakat pul aylanmasi iqtisodiyotdagi naqd va naqd pulsiz pul aylanmasini o'z ichiga oladi.

Sh.Z. Abdullaeva shunday ta'rif keltiradi: “To'lov aylanmasi deb pulning to'lov vositasi sifatidagi harakati tufayli vujudga kelgan pul aylanmaga aytiladi. To'lov aylanmasining tarkibiy qismi bo'lib, to'liq naqd pulsiz aylanma va naqd pul aylanmasining pulning to'lov vositasi funksiyasi tufayli yuzaga keluvchi qismi hisoblanadi”⁶.

H.U.Raximova o'z tadqiqotida, “qarz majburiyatlarini qoplash uchun ishlatiluvchi, to'lov vositasini bajaruvchi pullar (naqd va naqdsiz) mamlakat to'lov aylanmasini tashkil qiladi” degan ta'rifni beradi⁷. Bunda pulning to'lov vositasi funksiyasiga asosiy e'tibor qaratilayapti.

I.F.Sayfiddinov to'lov aylanmasiga ta'rif berishda bunda pulning barcha funksiyalari yuzaga chiqishini ta'kidlagan holda quyidagicha ta'rif beradi: “tovarlar qiymati, kapitallar va daromadlarning realizatsiya qilinishi, taqsimlanishi va muomalada bo'lishi sodir bo'ladigan pul va kredit to'lov oqimlari o'zaro bog'liqligining tashkil etilish shakliga to'lov aylanmasi deyiladi”⁸.

Yuqoridagi olimlar tadqiqotlarini hamda xorijiy adabiyotlarni o'rganish asosida, to'lov aylanmasiga quyidagicha ta'rifni keltirish o'rinlidir: **to'lov aylanmasi** - mamlakatda mavjud bo'lgan barcha to'lov vositalarining uzluksiz

⁶Sh.Z. Abdullaeva – “Pul, kredit va banklar” - T.: -Iqtisod-moliya – 2007, 31-bet.

⁷Raximova X.U., “Организация и развитие платежной системы Республики Узбекистан” автореферат диссертация канд. экон. наук, Банковско-финансовая акад.РУз. 2006.

⁸Sayfiddinov I.F. “To'lov aylanmasi, uning muammolari va hal etish yo'llari” - Iqtisod fanlari nomzodi drajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati – Toshkent, 2012, 25-bet.

harakati majmuidir. Demak, to'lov aylanmasiga nafaqat pul vositalari, balki chek, depozit sertifikat, veksel kabi boshqa to'lov vositalari asosidagi to'lovlar ham kiradi. Bundan kelib chiqib, mamlakatdagi pul aylanmasi to'lov aylanmasining tarkibiy qismidir, degan xulosaga kelamiz.

Qonunchilikda to'lov vositasiga quyidagicha izoh beriladi: to'lov vositasi — to'lovni amalga oshirish uchun asos bo'ladigan yoki foydalaniladigan to'lov hujjati yoki elektron to'lov vositasi⁹.


To'lovni amalga oshirish uchun asos bo'ladigan to'lov hujjatlari, qonunchilikka ko'ra, to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, inkasso topshiriqnomasi, memorial order, akkreditivga ariza, kirim va chiqim kassa to'lov hujjatlari qilib belgilanganini qayd etish zarur¹⁰.

Elektron to'lov vositasi – bu pul egasining topshirig'iga binoan moliyaviy mablag'larning operator orqali maxsus texnik qurilmalar yoki dasturiy ta'minot yordamida o'tkazilishini ta'minlovchi vositalardir. Bularga bank debet va kredit kartalari, elektron hamyonlar hamda “Bank-mijoz” dasturiy ta'minoti, banklar va to'lov tashkilotlarining mobil ilovalari kiradi.

To'lov vositalari esa kengroq tushuncha bo'lib, unga naqd pul, to'lov hujjatlari hamda elektron to'lov vositalari kiradi. Bundan tashqari, to'lov vositalariga pul o'rnini bosuvchi vositalar ham kiradi. Ya'ni chek, veksel kabi to'lov hujjatlari pulning to'lov vositasi funksiyasini bajarganida to'lov vositalari bo'lib hisoblanadi. Sanalgan to'lov vositalarining barchasi elektron to'lov tizimining uzviy faoliyatida qo'llaniladigan instrumentlar bo'lib hisoblanadi.

⁹ O'zbekiston Respublikasi “To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida”gi Qonuni 01.112019 y.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi “To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida”gi Qonuni 01.112019 y. – 33-modda.



1.3-rasm. To'lov vositalari

1.3-rasmda aks ettirilganidek, to'lov instrumentlari pul va pul o'rnini bosuvchi vositalardan iborat.

Pul vositalari naqd pullar, talab qilib olinguncha bank hisobvarag'idagi naqdsiz pullarni o'tkazish bo'yicha to'lov hujjatlari, debet karta, kredit karta mablag'lari, elektron hamyonlardagi elektron pul mablag'lari, banklarning yoki nobank to'lov tashkilotlarining mobil ilovalari orqali to'lovlardan iboratdir. Bunda internet-banking hamda mobil-banking orqali to'lovlarni talab qilib olinguncha bank hisobvarag'idagi naqdsiz pullarni o'tkazish bo'yicha to'lov hujjatlari qatoriga kiritish o'rinlidir. Pul o'rnini bosuvchi vositalar bu naqd pulsiz to'lovlarda qo'llaniluvchi cheklar hamda vekselar bo'lib hisoblanadi.


Shunisi e'tiborga loyiqki, mobil qurilmalardagi elektron hamyonlar orqali to'lovlar yildan-yilga dunyo bo'ylab ommalashib bormoqda. Juniper Research ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yil oxirida 2,1 mlrd. aholi to'lovlarni amalga oshirish yoki pul yuborish maqsadida elektron hamyonlardan foydalangan. yStats ma'lumotlariga ko'ra, bu aholining uchdan ikki qismi Osiyo-Tinch okeani hududi aholisiga to'g'ri keladi. Eng yirik mobil elektron hamyonlar Apple Pay, Google Pay va Samsung Pay bo'lib hisoblanadi¹¹.

To'lov instrumentlari u yoki bu turining keng tarqalishi bozordagi to'lov xizmatlari talab va taklifiga bog'liq. To'lov vositalarining rivojlanishi iste'molchilar

¹¹Raluca Constantinescu, "E-wallets, Mobile Wallets, and P2P Payments the Evolution and Adoption of E-wallets" – The Paypers - Payment Methods Report 2019 Innovations in the Way We Pay, p.27.

tabiati, ularning u yoki bu to'lov vositalariga nisbatan tanloviga bog'liq. Iste'molchilar tanloviga turli ijtimoiy-demografik omillar ta'sir qiladi, masalan, ularning yoshi, ta'lim darajasi, foydasi, oilaviy holati, jinsi, irqi, mashg'ulligi va dini. To'lov instrumentini tanlash uchun iste'molchilar birinchi navbatda iqtisodiy jihatini (xizmat narxining yuqori bo'lmasligi), tezligi, ishonchliligi (xavfsizligi), ish tizimining soddaligi, shuningdek, shakllangan to'lov odatlarini hisobga oladi. Ma'lum bir to'lov vositasi juda xavfsiz, biroq qimmat bo'lishi mumkin, boshqasi esa, past tarifda, ammo ko'p vaqtni talab qilishi mumkin.

To'lov vositasi tushunchasini aniqlashtirib olgandan keyin, elektron to'lov tizimlarida foydalaniluvchi to'lov usullarini tadqiq qilish maqsadga muvofiq. Raqamli iqtisodiyotning rivojlantirilishi yordamida yangicha to'lov usullari yuzaga kelmoqda. To'lov usullari informatsion texnologiyalar tufayli yangilanib boradi, biroq mohiyati avvalgicha qolaveradi. Elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladigan to'lov usullarini 1.5-rasmda keltirilgan kredit o'tkazmalar, to'g'ridan-to'g'ri debet, kechiktirilgan to'lov (pay later) va elektron hamyon orqali to'lovlarga bo'lib o'rganish to'g'ri bo'ladi.



1.4-rasm. To'lov usullari

Yuqoridagi to'lov usullarga kengroq to'xtalsak, **kredit o'tkazmasi** to'lovchining o'z bankiga o'z hisobvarag'ini debetlab, to'lovni qabul qiluvchining hisobvarag'ini kreditlash to'g'risidagi farmoyishi bilan amalga oshiriluvchi to'lovdur. Kredit o'tkazmalari eng keng tarqalgan to'lov vositasi bo'lib hisoblanadi.

Kredit o'tkazmalari to'lovchi bankiga qog'oz yoki elektron ko'rinishda taqdim qilinadi, keyingi qayta ishlash jarayoni, qoidaga ko'ra, elektron ko'rinishda amalga oshiriladi.

Bank o'tkazmalari pullarni yo'qotmaslik jihatdan riski kamroq bo'lgan to'lov usuli hisoblanadi. Birinchidan, har bir pul mablag'lari egasi identifikatsiya qilinadi, ikkinchidan, o'tkazmalarni chaqirib olish imkoniyati mavjud. Pul o'tkazmasidagi ma'lumotlar shifrlangan xabar orqali yuboriladi.

Bank o'tkazmasi dunyoning istalgan bankida hisobvarag'i mavjud bo'lgan shaxsga pullarni o'tkazish imkonini beradi. Xalqaro bank o'tkazmalari maxsus davlat xizmati va tashkilotlarining nazorati ostida bo'ladi. Bank o'tkazmalaridan tashqari, chakana pul o'tkazmalari tizimi mavjud. Chakana pul o'tkazmalari tizimi to'lov tizimining bir qismi bo'lib hisoblanadi va bu tizimda provayder tomonidan aholidan pul mablag'larini ular ko'rsatgan manzilga o'tkazib berish uchun qabul qilinadi.

Ko'plab xalqaro o'tkazmalar **SWIFT** Belgiya tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi, ushbu tizim *moliyaviy xabarlarini yo'naltirishni ta'minlovchi Butunjahon tarmoq operatori* bo'lib hisoblanadi.

Yevropa banklari YEI doirasida o'tkazmalarni o'tkazishda "Bank hisobvarag'ining xalqaro raqami" kodi - International Bank Account Number (IBAN)ni qo'llaydi.

To'g'ridan-to'g'ri debet to'lovchining hisobvarag'ini oldindan kelishilgan tarzda benefitsiar qabul qiluvchining tashabbusi bilan debetlanishini ifodalaydi. Jami naqd pulsiz hisob-kitoblarning qariyb $\frac{1}{4}$ qismi to'g'ridan-to'g'ri debet shaklida amalga oshiriladi.

Debet to'lov instrumentlarining asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri debet, kartochkalar orqali to'lovlar va cheklar bo'lib hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri debet bank mijozlari tomonidan takrorlanuvchi to'lovlar (kommunal to'lovlar) va summasi belgilab qo'yilgan to'lovlar (sug'urta badallari, ipoteka va boshqalar) uchun ishlatiladi. To'g'ridan-to'g'ri debetni amalga oshirish uchun, albatta, to'lovchi tashkilot o'z hisobvarag'ida yetarli mablag' bo'lishini ta'minlashi lozim.

To'g'ridan-to'g'ri debet, qoida bo'yicha, elektron ko'rinishda amalga oshiriladi. Hozirgi paytda SlimPay, GoCardless, AcceptEasy, Nuapay, TrustPay yoki BlueSnap kabi to'g'ridan-to'g'ri debet provayderlari takrorlanuvchi to'lovlar uchun to'g'ridan-to'g'ri debet to'lov usulini ma'qul ko'ruvchi tashkilotlar ishini osonlashtirmoqda. Bu kabi to'lov provayderlari banklarga nisbatan arzonroq komissiya asosida, qulay va tez to'lovlarni amalga oshirayotganligi bilan banklar uchun munosib raqobatchi bo'lyapti¹². Masalan, Yevropadagi SlimPay to'lov provayderi o'z mijozlariga to'g'ridan-to'g'ri debet va to'lov kartalari orqali to'lovlarni qabul qilishlariga imkon yaratadi, mijozlarining hisobvaraqlari bo'yicha hisobotlarni taqdim qilish imkoniga ega. Bu imkoniyatlar to'lov provayderlarining banklar uchun haqiqiy raqobatchi bo'lib borayotganligini tasdiqlaydi.

Elektron tijoratga xos bo'lgan yana bir to'lov usullari sifatida **kechiktirilgan to'lov** (pay later) mexanizmini ham keltirishimiz mumkin. Qoida bo'yicha ushbu to'lov mexanizmi ikki usulda amalga oshiriladi:


Tovar yoki xizmatni qabul qilgandan keyin kechiktirilgan holda, biroq hech qanday komissiya va foizlarsiz to'lovni amalga oshirish. Afterpay, Klarna va Splitit kabi to'lov provayderlari shu kabi kechiktirilgan to'lov usullarini taqdim etadi. Olingan tovar uchun keyingi bir necha oy davomida bo'lib-bo'lib to'lash sharti asosida beriladigan iste'mol krediti. Bunda iste'molchi foiz to'lovlarini amalga oshiradi. Bu kabi to'lov mexanizmining ommalashuviga *machine learning* texnologiyalari hamda *sun'iy intellekt* texnologiyalarining rivojlanishi yordam beradi. Chunki bunday to'lovlarda sotuvchi tomon xaridorning to'lovga layoqatliligini lahzada aniqlab, kechiktirilgan to'lov asosida tovar va xizmatlarini taqdim qilishi talab qilinadi.

To'lov kartochohalari (debet va kredit kartalar) – to'lov vositasi bo'lib, kredit tashkiloti yoki maxsus kartochohalar bo'yicha tashkilot tomonidan chiqariladi, bu karta shuni anglatadiki, karta egasi o'z kartasidan pul yechishi (debet karta bo'yicha) yoki belgilangan limit doirasida kredit liniyasidan foydalanishi (kredit kartasi

¹²Ana Păstrăvanu, "Direct DebitTrends and Updates" – The Paypers - Payment Methods Report 2019 Innovations in the Way We Pay, p.63.

bo'yicha) mumkin. To'lov kartochkalari naqd pulsiz to'lovlarning katta qismini tashkil qiladi. Debet kartalari bank hisobvarag'iga ulab qo'yilgan va karta egasiga xaridlar uchun terminal orqali to'lovlarni amalga oshirishga hamda bankomat orqali naqd pul yechishga imkon beradi. Karta egasi debet kartani ishlatganida to'lov uning hisobvarag'idan o'sha lahzada yoki bir necha kun davomida yechiladi, debet karta bo'yicha kechiktirilgan to'lovlar bo'lmaydi.

Kredit kartalari karta egasiga kredit liniyasini taqdim qiladi, shuningdek, to'lovlarni kechiktirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Kredit liniyasining miqdori va davomiyligi karta egasi va emitenti o'rtasidagi kelishuv shartnomasiga bog'liq bo'ladi. Kredit liniyasi ishlatilganida qarzdorlik summasi belgilangan davr mobaynida to'liq ishlatilishi yoki belgilangan davrda qisman ishlatilib, kreditning ishlatilmay qolgan qismiga foiz hisoblab, uning muddatini cho'zilishi mumkin. Kredit kartalar orqali to'lovlar jahonda keng tarqalgan bo'lib, Mastercard, Visa, JCB, Discover & Diners Club, American Express, China UnionPay, RuPay, Chase kredit karta brendlarini misol keltirish mumkin. Debet kartalar bo'yicha to'lovlar Visa Debit, Debit Mastercard, Maestro, Dankort (DK), V PAY card, PostFinance Card, Interac debit cards xalqaro debet karta brendlari tomonidan amalga oshiriladi.



1.5-rasm. Markaziy banklar tomonidan muhim deb tan olingan to'lov instrumentlari¹³.

¹³“Payment systems worldwide a snapshot - summary outcomes of the fourth global payment systems survey”, september 2018//The World Bank Group, p.39.

Shuni ta'kidlash lozimki, rivojlanayotgan mamlakatlar va rivojlangan mamlakatlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda Markaziy banklar tomonidan muhim deb tan olingan to'lov vositalari farq qiladi. 1.6-rasmdan ko'rish mumkin, Jahon banki olib borgan tadqiqotlarida, rivojlanayotgan mamlakatlarning katta ulushi naqd pulni muhim to'lov vositasi sifatida e'tirof etgan.

1.3. To'lov tizimlarining samarali faoliyati bo'yicha ilg'or xorij tajribasi

Turli mamlakatlardagi to'lovlar, moliya bozorining infratizimi va instrumentlari to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash maqsadida Xalqaro Hisob-kitoblar banki tomonidan "Qizil kitob" statistik ma'lumotlari chop etib boriladi.

Quyida turli rivojlangan mamlakatlarning to'lov tizimlari, ularning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib, mamlakat milliy to'lov tizimi bilan qiyosiy tahlilini keltiramiz.

AQSH to'lov tizimida Fedwire to'lov tizimi real vaqt rejimidagi yalpi hisob-kitoblar tizimidir. Ushbu to'lov tizimi AQSHning Federal rezerv banki tomonidan ta'sis qilingan bo'lib, uning faoliyati Federal rezerv banki tomonidan amalga oshiriladi. Fedwire faqat Federal rezerv bankida hisobvarag'i bo'lgan hamda Fedwire to'lov tizimi kredit o'tkazmalar fondi xizmati to'lovlariga ruxsati bo'lgan moliyaviy tashkilotlarga xizmat ko'rsatadi. Fedwire to'lov tizimi ishtirokchilari pul o'tkazmalarini amalga oshirish uchun to'lov hujjatini (shu jumladan, to'lov hujjatini elektron tarzda yuborish tizmidan foydalangan holda) Federal rezerv bankiga yuboradi va o'z hisobvarag'idan pul mablag'ini oluvchining hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risida ko'rsatma beradi. Boshqa barcha banklar Federal rezerv to'lov xizmatlari vositasida pul o'tkazmalarini amalga oshirish imkoniyatiga egadirlar. Fedwire Funds tizimi orqali odatda yirik muddatli to'lovlar amalga oshiriladi. Banklararo elektron o'tkazmalarga asoslangan maxsus kliring to'lov tizimi Avtomatlashtirilgan Kliring tizimi deb nomlanadi (ASN). ASN operatorlari rezerv banklari va Elektron to'lovlar tarmog'i (EPN) dir. Rezerv banklari ASN to'lovlari

fayllarini banklardan oladilar, to'lovlarni qayta ishlab, saralagach, ularni qabul qiluvchi bankka yetkazadilar, to'lovlarni hisoblash va ushbu banklarning hisob-kitob schetini debetlash yo'li bilan hisobga oladilar. AQSH to'lov tizimida Elektron to'lovlar assotsiatsiyasi – NACHA mavjud bo'lib, ASN to'lovlarning katta qismi bir kunda amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida rezerv banklarining so'rovlari orqali qoidalarni takomillashtirish uchun qoidalarni ishlab chiqadi va doimiy ravishda ularni taqdim qilib boradi.

Fedwire tizimi sutkaning belgilangan paytida to'lovlarni o'tkazadi, shuningdek, dam olish va bayram kunlarida faoliyat yuritmaydi. FedNowSM tizimi esa lahzalik to'lovlar tizimi bo'lib, 2019 yil avgust oyidan ishga tushirilgan¹⁴.

Buyuk Britaniyada CHAPS Sterling Avtomatlashgan to'lov tizimi Kliring uyi (Clearing House Automated Payments System) funt-sterlingdagi muddatli to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. To'lovlar to'lov hujjati taqdim qilingan kunning o'zida amalga oshiriladi, ammo komission to'lovlari yuqori.

CHAPS tizimi orqali to'lovlardan, asosan, yuridik shaxslar katta summadagi to'lovlarni o'tkazishda foydalanib, jismoniy shaxslar ham uy yoki avtomobil xaridi kabi to'lovlarda to'lov tizimi xizmatlaridan foydalanishlari mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, CHAPS tizimi ham sutkaning belgilangan ish vaqtida faoliyat yuritadi, operatsion kun tugagandan keyin kelib tushgan to'lov hujjatlari keyingi ish kunida amalga oshiriladi. Chakana va banklararo elektron hujjatlar yalpi kliringi uchun Buyuk Britaniyada BACS tizimi javob beradi. Bu tizim 1968 yilda banklararo kompyuter byurosi sifatida banklararo o'tkazmalarni magnit lenta yordamida samarali qayta ishlash maqsadida ta'sis etilgan. Hozirgi paytda bu tizimdagi o'tkazmalar faqat telekommunikatsion kanallar orqali amalga oshiriladi. BACS tizimi tarkibiga Angliya banki, tizim aksioneri bo'lgan banklar va bir qurilish jamiyati kiradi. Ushbu banklar barcha banklararo majburiyatlarni tartibga solishga javobgar bo'lib hisoblanadi¹⁵.

¹⁴“The Fed Explained What the Central Bank Does”// Fostering Payment and Settlement System Safety and Efficiency//Board of Governors of the Federal Reserve System, August 2021.

¹⁵<https://www.bankofengland.co.uk/payment-and-settlement>.

Shvetsariyada to'lov operatsiyalari Shvetsariya Markaziy banki - Swiss National Bank (SNB), tijorat banklari va maxsus tashkil qilingan PostFinance kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. Shvetsariya Markaziy banki 1987 yilda tashkil qilingan banklararo kliring to'lov tizimi - SIX Interbank Clearing Ltd (SIC) faoliyatini ta'minlaydi va uni boshqaradi. Tizim bir paytning o'zida ham yirik, ham chakana to'lovlarni qayta ishlaydi. SIC tizimi ishtirokchilari tarkibiga shvetsariya banklari, PostFinance kompaniyasi, shuningdek, moliya bozorining boshqa ishtirokchilari kiradi. Qo'shimcha talablarni bajargan holda chet el banklari ham tizimga a'zo bo'lishlari mumkin.

SIC tizimi ishtirokchilari ularning ushbu tizimdagi likvidligini ta'minlash maqsadida Shvetsariya Markaziy bankida talab qilib olinguncha hisobvaraqga ega bo'lishlari talab qilinadi. Zamonaviy til bilan aytganda, SIC tizimi – real vaqtdagi yalpi hisob-kitoblar tizimidir (RTGS). Bunday tizimlar har bir to'lovni alohida hisobga oladi, adekvat qoplash manbai bo'lishi sharti bilan Markaziy bank mablag'laridan foydalanadi, to'lovlar chaqirib olinmaydi.

SIC tizimi ishtirokchilarga barcha bank ish kunida sutkalik xizmatlarni taqdim qiladi, bunda to'lov topshiriqnomalari o'rtacha 23 soat davomida yuborilib, qayta ishlanadi. PostFinance kompaniyasi Shvetsariya bank tizimining raqamli innovatsiyalariga ixtisoslashgan va bosqichma-bosqich ravishda an'anaviy moliyaviy xizmatlarni raqamli xizmatlarga almashtirmoqda¹⁶.

Fransiya milliy to'lov tizimi Fransiyaning Core hamda Yevropaning SEPA to'lov tizimlarini o'z ichiga oluvchi chakana to'lov tizimlari hamda yalpi to'lovlar tizimidan iborat.

Chakana to'lov tizimlari yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatadi, ular orqali to'lovlarning katta qismi o'tadi.

Core to'lov tizimi STET kompaniyasi tomonidan boshqariladi va besh yirik Fransiya banklariga tegishli - BNP Paribas, BPCE, CréditAgricole, Banque Fédérative du Crédit Mutuel va Societe Generale. 2016 yilda ishga tushirilgan SEPA

¹⁶<https://www.snb.ch/en/i/about/paytrans>

to'lov tizimi ham STET kompaniyasi tomonidan boshqarilib, ushbu to'lov tizimi to'g'ridan-to'g'ri debetlash hamda lahzalik to'lovlarni amalga oshiradi¹⁷.

Yevropa Ittifoqi davlatlarining ichki to'lov tizimlarini birlashtirish va real vaqtda ishlaydigan yirik summadagi xalqaro to'lov tizimi bu TARGET tizimidir. Statistik ma'lumotlar ko'rsatishicha, 2019 yilda TARGET tizimida 1003ta bevosita, 862 ta bilvosita ishtirokchi, shuningdek, 4959 vakil mavjud bo'lgan. Tizimning o'rtacha kunlik o'tkazish xajmi 363099 ta to'lov xujjatini, summasi esa o'rtacha 1,9 trln. yevroni tashkil qiladi, ya'ni bir tranzaksiyaning o'rtacha summa miqdori 5,3 mln. yevro atrofida.

O'tkazilgan tranzaksiyalarning uchdan ikki qismi o'rtacha 50 ming yevrodan past summani, 12 foizi 1 mln. yevrodan yuqorini tashkil qiladi. Yalpi to'lovlar TARGET2 – real vaqtdagi yalpi to'lovlar tizimi orqali amalga oshiriladi. To'lovlar faqat yevroda amalga oshiriladi, tizim Yevrotizim tomonidan ishlab chiqilgan va boshqariladi. To'lovlar kun davomida to'xtovsiz amalga oshiriladi. Hisob-kitoblarning yakuniyligi to'g'risidagi Yevropa direktivasida tizimning huquqiy asoslari belgilab berilgan¹⁸.

Rossiyada 2017 yilda Rossiya banki tomonidan Bank elektron muddatli to'lovlari tizimi (“Банковские электронные срочные платежи”) joriy etilgan bo'lib, ushbu tizim Rossiya banki to'lov tizimining bir qismi bo'lib hisoblanadi. Ushbu tizim real vaqt rejimida Rossiya hududining butun masshtabi bo'ylab hisob-kitoblarni amalga oshirishga mo'ljallangan.

Shuningdek, Rossiya banki to'lov tizimi tarkibiga quyidagi tizimlar ham kiradi:

- uzluksiz rejimda ishlovchi 70 dan ortiq alohida hudud ichidagi elektron hisob-kitoblar tizimi;
- reyslar rejimida ham, uzluksiz rejimda ham ishlovchi Moskva hududiy elektron hisob-kitoblar tizimi;

¹⁷<https://www.banque-france.fr/en/page-sommaire/market-infrastructure-and-payment-systems>

¹⁸<https://www.ecb.europa.eu/paym/html/index.en.html>

- Rossiya hududlari orasida pul mablag'larini bir-ikki operatsion kun mobaynida o'tkazib berilishini ta'minlovchi hududlararo elektron hisob-kitoblar tizimi;

- Rossiyaning alohida hududlari va Rossiya bankining bo'limlari uchun bir qator maxsus hisob-kitob mexanizmlari (Bir hisob-kitob markazi orqali xizmat ko'rsatiluvchi Rossiya banki bo'limlari orasida hisob-kitoblar, Rossiya bankining bitta bo'limi doirasidagi hisob-kitoblar, davlat qimmatli qog'ozlari bozori bitimlari bo'yicha hududlararo hisob-kitoblar, Banklararo valyuta birjasi yagona savdo sessiyasi bo'yicha hududlararo hisob-kitoblar).

2015 yil dekabr oyiga qadar Rossiyada to'lov tizimlari o'zaro ma'lumotlarni almashish uchun Xalqaro banklararo ma'lumotlarni jo'natish va to'lovlarni amalga oshirish tizimi - SWIFT tarmog'idan foydalangan bo'lsa, shu davrga kelib, Rossiya banki SWIFT tizimining ruscha analogi – Rossiya bankining moliyaviy xabarlarini o'tkazish tizimi (Система передачи финансовых сообщений Банка России - СПФС) ni ishga tushirdi.

СПФС moliyaviy operatsiyalar bo'yicha elektron xabarlarini yuborish bo'yicha xizmatlarni kafolatlangan va uzluksiz ravishda taqdim qilinishini ta'minlaydi. СПФС ning maqsadlaridan biri moliyaviy operatsiyalar bo'yicha elektron xabarlarini yuborish xizmatining xavfsizligi va konfidentsialligiga ta'sir qiluvchi risklarni kamaytirish bo'lib hisoblanadi¹⁹.

Xorij mamlakatlarining to'lov tizimlari bo'yicha tajribasi o'rganilganida qo'shni **Qozog'iston Respublikasining** to'lov tizimi ham diqqatga sazovor. Qozog'iston milliy to'lov tizimi O'zbekiston to'lov tizimi kabi asosiy to'lovlarni amalga oshiruvchi brutto asosida ishlovchi Banklararo pul o'tkazmalari tizimi va netto hisob-kitoblar uchun Banklararo kliring tizimidan iborat. To'lovlarni o'tkazish vaqti 09:00-19:00²⁰. Bizningcha, to'lovlarni o'tkazish uchun vaqtning uzoqroq belgilanishi mijozlar uchun qulaylik yaratib, to'lov tizimining samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, Qozog'iston Banklararo pul o'tkazmalari tizimidagi har

¹⁹https://www.cbr.ru/PSystem/payment_system/

²⁰https://nationalbank.kz/ru/links/platezhnye_sistemy

bir to'lov hujjati agar hisobvaraqda pul yetarli bo'lmasa, pul kelib tushgunicha navbatda turadi, Yaponiya BOJ-NET tizimi esa, bunday hujjatlarni darhol bekor qiladi. Qozog'iston Banklararo pul o'tkazmalari tizimida keng tarqalmagan bo'lsa-da, to'lovlarni amalga oshirishda overdraft taqdim qilinishi imkoniyati ham mavjud. Bizningcha, bunday imkoniyatning yaratilishi mijozlar uchun juda katta qulaylikni taqdim qiladi.

E'tiborga sazovor to'lov tizimlaridan yana biri **Belarusiya** to'lov tizimi bo'lib, Belarusiya to'lov tizimi tarkibiga quyidagilar kiradi: Belarusiya Milliy banki to'lov tizimi, nobank kredit-moliya tashkilotlari to'lov tizimi, shuningdek, pul o'tkazmalari tizimlari, qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisob-kliring tizimi, yagona hisob-kitob va informatsion maydon avtomatlashgan informatsion tizimi, chakana to'lovlar bo'yicha naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi: bank kartalari hisob-kitoblari tizimi va elektron pullar hisob-kitob tizimlari.

Belarusiya Milliy banki avtomatlashgan banklararo to'lov tizimi tarkibiga BISS (Belarus Interbank Settlement System), Moliyaviy ma'lumotlarni almashish tizimi (Система передачи финансовой информации - СПФИ), "Belarusiya Milliy banki banklararo hisob-kitoblar Markaziy arxivi" avtomatlashgan tizimi kiradi²¹.

BISS tizimida banklararo to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar real vaqt rejimida yoki tegishli tizimlarda (qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisob-kliring tizimi, bank kartalari bilan hisoblar tizimlari (BELKART, VISA, MasterCard), "Расчет" avtomatlashtirilgan informatsion tizimi) kliringni amalga oshirish yo'li bilan o'tkaziladi.

Jahon amaliyotida kliring tashkiloti yoki kliring palatasi – litsenziya asosida kliring faoliyatini yurituvchi yuridik shaxs bo'lib hisoblanadi. Banklararo kliring bank infratizimi rivojlangan barcha mamlakatlarda mavjud bo'lib, yagona hisob-kitob markazi orqali banklararo amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblarni o'zida aks ettiradi. Ba'zi mamlakatlarda banklar o'zaro hisob-kitoblarni kliring tizimisiz, biri ikkinchisida vakillik hisobvarag'ini ochish orqali amalga oshiradi. Banklar orasidagi bunday munosabatlar faqat to'lov tizimidan o'tuvchi to'lovlarning

²¹<https://www.nbrb.by/>

katta hajmga ega bo'lmagan hollarida samarali bo'lishi mumkin. Bank tizimi rivojlangan davlatlarda kliringning asosan uch xil ko'rinishi mavjud.

Masalan, Fransiya, Buyuk Britaniyada banklar orasidagi o'zaro hisob-kitoblar mamlakat markaziy banki orqali, Rossiyada joylarda tashkil qilingan hisob-kassa markazlari orqali amalga oshiriladi. Ayrim mamlakatlarda yirik banklar va ularning filiallari orqali tashkil qilingan bir necha avtomatlashgan hisob tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Bunga yaqqol misol Germaniya bo'lib, ushbu davlatda bir paytning o'zida Kommersbank, Doychebank, Berlinerbank, Drezdenbank, Doychebundesbank va boshqalarning hisob-kitob tizimlari faoliyat yuritadi. Har bir to'lov tizimi ushbu kredit-moliya tashkilotining manfaatlariga va maqsadlariga xizmat qiladi.

Bunday istalgan to'lov tizimiga istalgan kredit tashkiloti a'zo bo'lishi mumkin. O'zining kliring tizimini yaratmagan boshqa kredit tashkilotlari o'zlariga mos kliring tizimini tanlab ulanadilar. Mamlakatda bir necha bunday tizimlar mavjud bo'lishi mumkin. Amerika Qo'shma Shtatlarida o'ttizdan ortiq bunday tizimlar mavjud. Barcha hududiy to'lov tizimlari ikkita umummilliy kliring tizimiga birlashadi: federal (Fedwire) – mamlakat ichidagi to'lovlar uchun va xalqaro (CHIPS) – xalqaro to'lovlar uchun tizim.

Avstriya, Shvetsariya, Vengriya kabi mamlakatlarda GIRO deb nom olgan tizim ishlaydi. Ushbu tizim tijorat banklari tomonidan texnik vositalarni, texnologiyani, asosiysi, moliyaviy resurslarni birlashtirib, ochiq aktsiyadorlik jamiyati sifatida tashkil qilinadi. Tizim ishtirokchilar o'rtasida GIRO-hisob-kitoblarni ta'minlaydi va ushbu hisob-kitoblar uchun mablag'larni umumlashtiradi. Qoida bo'yicha, markaziy bank GIRO-tizimning ta'sischilaridan biri bo'ladi²².

Yuqori texnologik imkoniyatlarning yuzaga kelishi mijozlar talabini qondirish maqsadida to'lov operatsiyalarining maksimal darajada tez va maksimal darajada xavfsiz o'tkazilishiga olib kelmoqda. Bunday mexanizmlar bilan pul

²²https://studbooks.net/1253909/bankovskoe_delo/teoreticheskie_osnovy_funktsionirovaniya_kliringovyh_sistem_raschetov.

vositalarini o'tkazish bo'yicha informatsion xabarlar elektron tizimidan foydalanuvchi tizimlar ishlaydi. Bunday to'lov tizimlari elektron to'lov tizimlaridir.

Elektron xabarlar bilan almashinish uchun, ko'rsatilgan xabarlarni to'lovkliring markaziga va hisob-kitob markaziga yuborish uchun, istalgan mamlakatning milliy to'lov tizimi ishtirokchilari to'lov hujjatlarining amalga oshirilganligi to'g'risidagi xabarnoma(tasdiqnoma)larni taqdim etishi uchun har bir mamlakatning operatsion markazlari mavjud bo'ladi va ular bir vaqtning o'zida bir yoki bir necha to'lov tizimlariga xizmat qiladi. To'lov hujjatlari banklararo ma'lumotlarni elektron almashinuv tizimi orqali yuborilishi mumkin bo'ladi.

Dunyo mamlakatlarining deyarli barchasida hozirgi paytda real vaqt rejimidagi hisob-kitoblarni taqdim etuvchi to'lov tizimlari mavjud. To'lov tizimlarining operatsion vaqti sutka davomida ishlashgacha borib yetmoqda. Yuqorida keltirib o'tilgan TARGET2 (Trans-European Automated Real-time Gross Settlement Express Transfer System) tizimida tizimning ish vaqti 19-00 da boshlanib, keyingi kunning 18-00 igacha davom etadi. 18-00 dan 19-00 gacha bo'lgan vaqtda operatsion kunning yopilishi va yangi operatsion kunning ochilishiga tayyorgarlik ko'riladi. Ushbu grafik to'lov oqimini teng taqsimlashga yordam beradi, banklar o'z likvidligini boshqarishiga yengillik tug'diradi, mijozlarning to'lov xizmatlaridan foydalanishlarini yanada osonlashtiradi, to'lovlarni o'tkazish muddatini qisqartiradi.

Xalqaro amaliyotga muvofiq, to'lov oqimlarini optimallashtirish uchun Markaziy (Milliy) banklar tomonidan hisob-kitoblarni o'tkazishda narx siyosatini belgilashda tabaqalangan yondashuv qo'llanmoqda – belgilangan summadagi to'lovlar uchun o'suvchi va kamayuvchi koeffitsientlar, chegirma yoki ustamalarni qo'llash, shuningdek, tizimga ayrim qaysidir vaqt oralig'ida juda ko'plab to'lovlar bir paytda kelib qolmasligi uchun operatsion kun mobaynida to'lovlar kelib tushishining bir maromligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni keltirishimiz mumkin.

Oxirgi o'n yillikda jahon moliya bozorlarining kuchli integratsiyasini kuzatishimiz mumkin, shu sababli milliy huquqiy chegaralar kuchsizlanib,

transchegaraviy to'lovlarning salmog'i oshib bormoqda. Integratsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, to'lov texnologiyasi va to'lov instrumentlarining yangicha turlari yuzaga kelishi, to'lov infratizimi va kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi uchun yangicha texnik yechimlarning yuzaga kelishi, to'g'ridan-to'g'ri uzluksiz qayta ishlash prinsipining (Straight Through Processing (STP)) joriy qilinishi;
- Moliyaviy bozorlarning ham ishtirokchi sifatida, ham tartibga soluvchi sifatida ish jarayonlarining takomillashuvi (MHXS ning joriy qilinishi, moliyaviy faoliyatni auditdan o'tkazishning xalqaro standartlarining amaliyotda qo'llanilishi, moliyaviy tashkilotlar boshqaruv tizimida tavakkalchilikka yo'naltirilgan yondashuvning joriy qilinishi, Moliyaviy bozorlar infratizimi (MBI) prinsiplariga to'lov tizimlarida rioya qilinishi monitoringining yuritilishi, axborot almashinuvi standartlarining rivojlanishi va boshqalar).

STP hisob-kitoblar amalga oshirilishi texnologiyalarini moliyaviy axborotlar almashinuvi doirasida yagona texnologik qoidalar va standartlarning qo'llanilishini, samarali avtomatlashgan qayta ishlashni ta'minlovchi, qo'lda amalga oshiriladigan operatsiyalarni minimallashtiruvchi, keyinchalik umuman qo'ldagi operatsiyalarni istisno qiluvchi strategiya sifatida keltirish mumkin.

Shunday qilib, yalpi hisob-kitoblar va netto hisob-kitoblar tizimi rivojlanishidagi asosiy tendensiya naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalari va jarayonlarining yagona qoidalarga erishilishini ta'minlash, yuborilayotgan axborotlarning moliyaviy tashkilot – ishtirokchining o'ziga xos xususiyatlaridan, aniq bir moliyaviy operatsiyadan, dasturiy-texnik kompleksdan qat'i-nazar, ma'no va mazmun jihatidan bir xilligiga erishishdan iborat. Ushbu tendensiya doirasida amalga oshirilayotgan ishlardan asosiysi sifatida Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot (ISO) tomonidan 2004 yilda qabul qilingan ISO 20022 (Universal Financial Industry message scheme – moliyaviy industriya uchun axborotlarning universal sxemasi) ni keltirish mumkin.

ISO 20022 Xalqaro standartining uslubiyoti moliya sohasida maksimal keng ishtirokchilar doirasida qo'llash mumkin bo'lgan universal elektron moliyaviy va informatsion xabarlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. ISO 20022 Xalqaro standartining mamlakat to'lov tizimida qo'llanilishi moliyaviy axborotlar uchun STP darajasini oshiradi, turli moliyaviy institutlarning avtomatlashtirilgan tizimlarini bir-biriga mos tushishi muammosini bartaraf qiladi, shuningdek, elektron hujjatlar qo'llanilish sohasini kengaytiradi, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va to'lov instrumentlarini qo'llash orqali tizimning avtomatlashish darajasini oshiradi.

ISO 20022 Xalqaro standarti Yagona Yevropa to'lov maydoni (Single Europe Payment Area (SEPA)) da, Yaponiya, Braziliya, Janubiy Afrika to'lov tizimlarida qo'llaniladi. Federal rezerv tizimining (AQSH) transchegaraviy to'lovlar uchun global standart IPF (International Payment Framework)ni yaratish bo'yicha taklifi ISO 20022 Xalqaro standartiga asoslanadi. CLS va Euroclear kabi xalqaro to'lov tizimlari ISO 20022 Xalqaro standarti bo'yicha loyihalangan axborot almashinuvini ta'minlaydi, bu esa ushbu tizimlar ishtirokchilarini ushbu standartlarga o'tishiga undaydi.

SWIFT banklararo axborot tizimi axborotlarning hozirgi paytda qo'llanilayotgan SWIFT MT formatidan bosqichma-bosqich ravishda axborotlarning ISO 20022 Xalqaro standarti uslubiga asosan loyihalashtirilgan SWIFT MX formatiga o'tishni rejalashtirgan.

JP Morgan, HSBC, Deutsche Bank va boshqa yirik banklar dunyo bo'ylab o'z mijozlariga informatsion axborotlarni ISO 20022 standarti bo'yicha loyihalashtirilgan formatda taqdim qilish imkoniyatini yaratib berganlar.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida moliya bozorida banklar va korporativ sektorning o'zaro hamkorligini tahlil qilish hamda qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus guruhlar ish olib boradi. Ko'rsatilgan guruhlarning asosiy maqsadi moliya bozorining asosiy segmenti uchun (to'lovlar, bank kartalari, qimmatli qog'ozlar va boshqalar) axborotlarning shakllantirilishi va ulardan foydalanilishi bo'yicha ISO

20022 xalqaro standartiga asoslangan hamda milliy xususiyatlarni hisobga oluvchi yagona talablarni va aniq tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

1.4. O'zbekiston Respublikasi to'lov tizimi, uning rivojlanish bosqichlari hamda mamlakat to'lov tizimi arxitekturasi

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida elektron to'lov tizimiga 1995 yil oxirida o'tildi. 1991 yildan boshlab 1994 yilgacha bo'lgan davrda mustaqil O'zbekistonning bank tizimida buxgalteriya hisob-kitoblarni va bank amaliy ish kunini umumiy bir ko'rinishga keltirish uchun zarur ishlar amalga oshirilgan bo'lsa, 1995 yilda elektron to'lov tizimi texnologiyasi yaratildi, 1995 yilning oxirigacha respublikada 2 tizim: elektron pochta va elektron to'lov tizimlari ishlagan. 1995 yil oxirida barcha tijorat banklari Markaziy bankning hisob-kitob markazlari, kliring markazlari elektron to'lov tizimiga qo'shildi.

1997 yilda Respublika bank tizimida yangi hisob tizimi rejasiga o'tilishi, elektron to'lov tizimi katta o'tkazish qobiliyati va hujjatlarning yuqori tezlikda qayta ishlanishi pul mablag'lari aylanishini tezlashtirishga hissa qo'shdi. Bu esa respublika xo'jalik yurituvchi sub'yektlarining faoliyatiga ijobiy ta'sir etdi, banklarga vaqtincha bo'sh turgan mablag'lardan samarali foydalanish va kredit xavf-xatari darajasini hamda likvidlilik xavf-xatarini tezkorlikda boshqarish imkonini berdi.


2002 yildan boshlab tijorat banklarining banklararo to'lovlarni yagona vakillik hisobvarag'i orqali amalga oshirish tizimiga o'tish boshlandi. 2004 yilda bank kartalar asosida hisob-kitob qilish tizimi, shuningdek, mamlakatda Yagona umumrespublika protsessing markazi tashkil etildi.

Qonunchilik mezonlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking to'lov tizimlari muhim to'lov tizimlari bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'lov tizimi Respublika hududidagi asosiy to'lovlarni amalga oshiruvchi tizim bo'lib, uning tarkibiy qismlari yalpi to'lov tizimlari bo'lib hisoblanuvchi Markaziy bankning Banklararo to'lov

tizimi, Hisob-kitoblar kliring tizimi, Tezkor to‘lovlar tizimi bo‘lib, Uzcard va Humo chakana to‘lov tizimlari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasida to‘lovlar va to‘lov tizimlari sohasidagi asosiy yo‘nalishlar, to‘lov tizimining qisqa arxitekturasi quyida 1.6-rasmda aks ettirildi.



1.6-rasm. O‘zbekiston Respublikasi to‘lov tizimi

Hozirgi paytda mamlakatda mavjud tijorat banklarining barchasi Markaziy bankda Hisob-kitob kassa markazida ro‘yxatdan o‘tkazilgan To‘lov markazlari orqali Markaziy bankning Banklararo to‘lov tizimi, Hisob-kitob kliring tizimi hamda Tezkor to‘lov tizimlari orqali to‘lovlarni amalga oshiradilar.

Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi va Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi banklararo to‘lov tizimining ishtirokchilari hisoblanadi. Banklararo to‘lov tizimining foydalanuvchilari Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida vakillik hisobvarag‘iga ega bo‘lgan banklar va moliyaviy institutlardir.

Markaziy bankning Banklararo to‘lov tizimining operatsion kuni, ya’ni banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha elektron to‘lov hujjatlarni uzatish - qabul qilish -

nazorat qilish vaqti soat 9-00 dan 17-00 gacha qilib belgilangan. Banklar mazkur davrning har qanday vaqtida Markaziy bankning Hisob-kitoblar markaziga elektron to'lov hujjatlarni uzatishlari mumkin.

1.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi milliy to'lov tizimi asosiy ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi va ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liqligi²³

Ko'rsatkichlar	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021y.
Muomaladagi bank kartalari soni, ming dona	19 523	19 226	17 686	20 547	25 776	27 106
To'lov terminallari orqali amalga oshirilgan milliy valyutadagi tranzaksiyalar summasi, mlrd so'm	53 050	52 972	63 712	80 673	90 452	111 137
Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi, mlrd so'm	838 628	640 835	865 311	1 126 936	1 890 510	2785651
Markaziy bankning hisob-kitob Kliring tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi, mlrd so'm	-	5 206	10 155	20 030	24 915	36 038
Markaziy bankning Tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi, mlrd so'm	-	-	-	-	128 300	315 780
Elektron pullar tizimida o'tkazilgan to'lovlar, mlrd so'm	-	-	-	-	22,3	*
Keng ma'nodagi pul massasi (M2), mlrd.so'm	50 227	70 816	80 165	91 266	107 604	140 184
Muomaladagi naqd pullar (M0), mlrd.so'm	13 209	19 449	22 164	24 246	24 920	28 657
YaIM, mlrd.so'm	255 422	317 476	424 729	529 391	602 193	734 587
Aholi umumiy daromadlari, mlrd.so'm	197 962	236 893	300 843	365 736	415 085	515 661
Aholi soni, ming kishi	32 121	32 657	33 256	33 905	34 559	35 271
Aholi jon boshiga bank kartalari soni, dona	0,60	0,59	0,53	0,60	0,75	0,77
Aholi jon boshiga terminallar orqali tranzaksiyalar summasi, mln.so'm	1,65	1,62	1,92	2,38	2,62	3,15
Terminallar orqali to'lovlarning aholi umumiy daromadidagi ulushi, %	26,8	22,4	21,2	22,0	21,5	21,6
Naqd pullarning M2 dagi ulushi, %	26,3	27,5	27,6	26,6	23,2	20,4
Naqd pullarning YaIMdagi ulushi, %	5,1	6,3	5,2	4,6	4,1	3,9

1.2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda to'lov tizimlarida yangi ishtirokchilar – Tezkor to'lovlar tizimi, to'lov tashkilotlari, elektron pullar tizimlarining ish boshlashi to'lov xizmatlarining ommabopligi va sifatini oshirishga

hakana to'lov tizimlari faoliyatini takomillashtirishdagi yo'nalishlardan yana biri banklar tomonidan kobeyjing kartalarining amaliyotini kengaytirish bilan bog'liqdir.

m

a

²³ cbu.uz hamda stat.uz saytlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab shakllantirildi.

²⁴ <https://stats.bis.org/statx/toc/CPMI.html>.

integratsiyasini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Yevropaning SEPA yagona to'lov maydoni kabi regional to'lov

b

o
‘ Naqd pullarning muomaladagi keng ma'nodagi pul massasi tarkibida hamda aylanmasining Banklararo to'lov tizimidagi ulushining kamayib borish tendensiyasi

H

a

m

UO'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar kliring tizimi to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 2570, 2014 yil 4 aprel) talablari asosida tartibga solinadi. Bugungi kunga kelib, hisob-kitoblar kliring tizimi orqali jami 35 dan ortiq xizmatlar bo'yicha to'lovlar real vaqt rejimida amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash lozim, Hisob-kitoblar kliring tizimi respublikada faoliyat yuritayotgan ahakana to'lov tizimlarining (Uzcard va Humo) bank kartalari orqali o'tkazilgan tranzaksiyalari natijasi bo'yicha kliring amaliyotlarini bajarish bo'yicha «Hisob-kitob banki» vazifasini amalga oshiradi.

a Hisob-kitoblar Kliring tizimida kommunal tashkilotlar, byudjet to'lovlari, yoliq va bojxona to'lovlari, davlat bojlari va jarimalar, notariat hamda FHDYO to'lovlari, pasport yig'imlari, davlat va kadastr xizmatlari to'lovlari, avtomashinalar kotib olish, aloqa xizmatlari va boshqa ko'plab xizmatlar uchun to'lovlar real vaqt rejimida amalga oshiriladi.

b Tezkor to'lovlar tizimi 2020 yilda ishga tushirilgan bo'lib, yuridik shaxslar va vakka tartibdagi tadbirkorlarga masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali to'lovlarni tunu-kun 24/7 rejimida amalga oshirish imkonini yaratmoqda. 2020 yilning sentyabr oyida Tezkor to'lovlar tizimi orqali Moliya vazirligi G'aznachiligiga byudjet va soliq to'lovlarini o'tkazish hamda banklarning ssuda hisobvaraqlaridan to'lovlarni 24/7 rejimida amalga oshirish imkoniyati ham yaratildi.

k

a

r

Bank kartalaridan foydalanish bo'yicha chakana to'lov tizimi tarkibiga Uzcard hamda Humo to'lov tizimlari kiradi. Hozirgi paytda mavjud milliy chakana to'lov tizimlari - Uzcard hamda Humo xalqaro to'lov tizimlaridan Visa, Mastercard, China Union Pay hamda Mir bilan integratsiyasi qilingan. Bunday integratsiya natijasida kobeyjing kartalarining muomalaga chiqarilishi mamlakatga tashrif buyuruvchi turistlar, mehmonlar uchun ularning xalqaro kartalari yordamida Uzcard hamda Humo to'lov infratuzilmasiga kiruvchi bankomatlar va to'lov terminallari tarmog'i orqali milliy valyutada to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

O'z navbatida, naqd pulsiz to'lov vositalarini rivojlantirish va uning ko'lamini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar natijasida muomaladagi bank kartalari soni 2016 yildagi 19,5 mln. donadan, 2021 yil oxiriga kelib, 27,1 mln. donaga yetdi. Shuni ta'kidlash o'rinli, to'lov terminallari orqali o'tkazilayotgan tranzaksiyalar summasining ortishi muomalada bank kartalari sonining oshishi bilan izohlanmaydi. Buni to'lov tizimi ko'rsatkichlarining o'zaro korrelyatsion bog'liqligini hisoblash jarayonida kuzatildi. Naqd pulsiz to'lovlar hajmining oshishi uchun muomaladagi kartalar sonining ortishi yordamchi bir turtki vazifasini o'tashi mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bank kartalari amaliyotida raqamli texnologiyalarning keng kirib kelishi natijasida kobeyjing karta, virtual karta, kontaktsiz to'lovlar kabi yangi tushunchalar kirib keldi. Kobeyjing bank kartasi – bu bir vaqtning o'zida turli to'lov tizimlarida ishlovchi bank kartasi bo'lib (masalan, UZCARD va UnionPay), bunday kartaga har ikkala to'lov tizimi logotipi yopishtirilgan bo'ladi. Bu kabi kartalar mamlakat hududida so'm kartalari, xorijda valyutaviy kartalar sifatida ishlatiladi. Hozirgi paytga kelib, tijorat banklari hamda UZCARD va HUMO to'lov tizimlari o'zlarining xalqaro to'lov tizimlari bilan hamkorligini kengaytirib, Mastercard, MIR, Visa to'lov tizimlari bilan bir paytda ishlovchi kobeyjing kartalarini muomalaga chiqarmoqda.

Tijorat banklari to'lov tizimida to'lov tizimining operatori yoki to'lov tizimining ishtirokchisi sifatida ishtirok etishlari mumkin.

To'lov tizimi doirasida hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun tijorat banklari Markaziy bankda **vakillik hisobvarag'ini** va To'lov kliring markazida **to'lov**

kliring hisobvaraqlarini ochadilar. Qonunchilikka ko‘ra, to‘lov tizimi operatori bilan hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi va to‘lov tizimida ishtirok etish to‘g‘risida shartnoma tuzgan banklar to‘lov tizimining ishtirokchilari hisoblanadi²⁵.

To‘lov xizmatlari bozoriga yangi ishtirokchilarning kirib kelishini ta‘minlash orqali raqobatni kuchaytirish maqsadida to‘lov tashkilotlari faoliyati rag‘batlantirilmoqda. 03.01.2023 yil holatiga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 44 ta tashkilotga (Click, Oson, Payme va h.k.) to‘lov tashkiloti hamda 3 ta yuridik shaxsga (“Milliy banklararo protsessing markazi” MChJ va “Yagona umumrespublika protsessing markazi” MChJ, “QULAY PUL” MChJ (UNITED FINTECH)) to‘lov tizimi operatori faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar taqdim etilgan.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

To‘lov tizimi, to‘lov instrumentlari, to‘lov usullari, to‘lov aylanmasi, hisob-kitoblar, elektron to‘lov, to‘lov tizimi elementlari, naqd pulsiz hisob-kitoblar, chakana to‘lov tizimi, to‘lovlarni o‘tkazish mexanizmi, to‘lov tizimi turlari.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. To‘lov tizimiga ta‘rif bering.
2. To‘lov tizimi ishtirokchilari kimlar?
3. To‘lov tizimi operatori nima bilan shug‘ullanadi?
4. To‘lov tizimi foydalanuvchilari kimlar bo‘lishi mumkin?
5. To‘lov tizimining elementlarini sanab bering.
6. To‘lov tizimi instrumentlari deganda nimani tushunasiz?
7. Qanday to‘lov usullari mavjud?
8. O‘zbekiston Respublikasi to‘lov tizimi arxitekturasini tushuntirib bering.

²⁵O‘zbekiston Respublikasi “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi 01.11.2019 yildagi 578-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – 5-modda.

TESTLAR:

1. To'lov tizimi bu...

A) to'lov infratizimi a'zolari o'rtasida belgilangan qoidalar asosida pul vositalarining uzluksiz harakatini va axborot texnologiyalari vositasida iqtisodiy sub'yektlarning o'zaro majburiyatlari bajarilishini ta'minlovchi munosabatlar majmuidir;

B) tijorat banklarining barcha majburiyatlari summasini aks ettiruvchi tizim;

C) alohida olingan tizim bo'lib, barcha debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari munosabatlarining majmuidir;

D) A va B javoblar to'g'ri.

2. To'lov tizimining muhimlik darajasiga ko'ra turlari qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

A) muhim va boshqa to'lov tizimlari;

B) muhim, ijtimoiy jihatdan muhim va boshqa to'lov tizimlari;

C) bir valyutali, ko'p valyutali to'lov tizimlari;

D) davlat to'lov tizimlari, xususiy to'lov tizimlari va aralash to'lov tizimlari.

3. To'lov vositalari qaysi javobda to'g'ri keltirilgan:

A) Naqd pullar, talab qilib olinguncha bank hisobraqamidagi naqdsiz pullar orqali to'lovlar;

B) Debet karta, kredit karta mablag'lari, elektron hamyonlardagi elektron pullar, mobil ilova orqali to'lovlar

C) Chek va veksellar;

D) Barcha javoblar to'g'ri.

4. Yirik to'lov tizimlarining turlari qaysi javobda to'g'ri keltirilgan:

A) kechiktirilgan sof hisob-kitoblar tizimi, real vaqtdagi yalpi hisob-kitoblar tizimi, gibrid to'lov tizimlari.

B) muhim, ijtimoiy jihatdan muhim va boshqa to'lov tizimlari.

C) bir valyutali, ko'pvalyutali to'lov tizimlari.

D) muhim va boshqa to'lov tizimlari.

5. Qaysi javobda muhim to'lov tizimlarini aniqlash mezonini to'g'ri keltirilgan?

- A) Quyidagi shartlardan istalgan ikkitasining bajarilishi.
- B) to'lov tizimi infratuzilmasida 2 mln dan ortiq faol, bir oy davomida kamida 1 marta hisobvarag'iga mablag' kirim qilingan to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilar mavjud bo'lishi lozim.
- C) 1 yil davomida to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi ushbu turdagi to'lovlar umumiy hajmining 25%idan ko'p ulushini egallagan bo'lishi lozim.
- D) bir yil davomida to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 12 trln so'mdan ko'p bo'lishi lozim.

6. Qaysi javobda to'lov usullari to'g'ri keltirilgan?

- A) kredit o'tkazmalar, to'g'ridan-to'g'ri debet, kechiktirilgan to'lov (pay later) va elektron hamyon orqali to'lovlar.
- B) kredit o'tkazmalar, to'g'ridan-to'g'ri debet, va elektron hamyon orqali to'lovlar.
- C) kredit o'tkazmalar, to'g'ridan-to'g'ri debet, kechiktirilgan to'lov (pay later).
- D) debet va kredit to'lovlari.

7. BISS banklararo to'lovlar tizimi qaysi davlatga tegishli to'lov tizimi bo'lib hisoblanadi?

- A) Belorusiya.
- V) Belgiya.
- S) Qozog'iston.
- D) Shvetsariya.

8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tarkibiga kiruvchi to'lov tizimlari to'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

- A) Banklararo to'lov tizimi, Hisob-kitoblar kliring tizimi, Tezkor to'lovlar tizimi.
- V) Banklararo to'lov tizimi, Hisob-kitoblar kliring tizimi, Tezkor to'lovlar tizimi, Uzkart, Humo.
- S) Banklararo to'lov tizimi, Hisob-kitoblar kliring tizimi, Tezkor to'lovlar tizimi va barcha mavjud to'lov tashkilotlari.
- D) Banklararo to'lov tizimi, Hisob-kitoblar kliring tizimi, Tezkor to'lovlar tizimi va barcha elektron pul tizimlari.

9. Markaziy bankning Tezkor to'lovlar tizimi nechanchi yilda ishga tushgan?

A) 2020 yilda.

V) 2021 yilda.

S) 2012 yilda.

D) 1997 yilda.

10. Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimida operatsion kun qanday vaqni o'z ichiga oladi?

A) soat 9-00 dan 17-00 gacha.

V) soat 9-00 dan 18-00 gacha.

S) soat 9-00 dan 20-00 gacha.

D) sutkada 24 soat.

II BOB. NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR TIZIMI

2.1. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning mazmuni va tamoyillari

So‘nggi yillarda mamlakatimiz naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini isloh qilish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, to‘lov xizmatlar bozori ishtirokchilari munosabatlarining huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga yangi ishtirokchilarni jalb qilish hamda to‘lov infratuzilmasi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida to‘lov xizmatlari bozorini yanada liberallashtirish, bu boradagi cheklovlarni keskin qisqartirib, qo‘shimcha imkoniyatlarni kiritish va naqd pulsiz to‘lov xizmatlari turlarini kengaytirishni hamda to‘lov vositalarining rivojlanishi tizimni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanadi. Bunda aholining barcha qatlamlari uchun mos ravishda narx, qulaylik, himoyalanganlik va boshqa ko‘rsatkichlar yuzasidan eng maqbul yechimlar yuzaga keladi. Pirovard natijada naqd pulsiz to‘lovlarning, ayniqsa, zamonaviy turlari va vositalarining rivojlanishiga erishiladi, raqamli moliyaviy xizmatlarning keng tarqalishi natijasida amalga oshadigan moliyaviy integratsiya yalpi iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini oshirishi mumkin. Mamlakat to‘lov tizimining ko‘rsatkichlari asosida o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, to‘lov tizimlaridan masofadan foydalanuvchilar sonining bir donaga oshishi YAIMni 24,92 mln. so‘mga oshishiga olib kelsa, to‘lov terminallari orqali o‘tkazilgan tranzaksiyalar summasini 1 mlrd. so‘mga oshirilishi YAIMni 3,43 mlrd. so‘mga oshishiga olib keladi²⁶.

Naqd pulsiz iqtisodiyotning muhim jihati naqd pul va naqd pulsiz to‘lovlar o‘rtasida tafovutning bo‘lmasligi, jumladan, to‘lov usulining tanlovi to‘lovni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar va infratuzilmadan qat’iy nazar iste’molchining xohishiga bog‘liqligidir.

Amalga oshirilgan ishlar va ko‘rilgan choralar natijasiga ko‘ra, bugungi kunda iqtisodiyotda naqd pulsiz to‘lovlar hajmi tobora ortib bormoqda.

²⁶ Sharipova N.H. “Banklarda to‘lov tizimini takomillashtirish yo‘llari” mavzusidagi dissertatsiya ishi avtoreferati.

Xususan, 2021 yil 1 yanvar holatiga naqd pulsiz to'lovlar ulushi 77%ni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilning 1 yanvar holatiga bu ko'rsatkich 80%ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasida to'lov tizimlarida raqamli texnologiyalar orqali keskin o'zgarishlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Jumladan, pul massasida naqd pul ulushi 2017 yildagi 27% dan 2035 yilda 5% ga tushirilishi belgilangan. Hujjatga binoan, bank tizimini yanada rivojlantirishga raqamli mehnat sohasidagi innovatsiyalar, ma'lumotlarni tahlil qilish va masofadan xizmat ko'rsatish asosida erishiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar – iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining, ya'ni turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlarning, yakka tartibdagi tadbirkorlarning, dehqon-fermer xo'jaliklarining, shuningdek, aholi sub'yektlarining sotib olingan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni naqd pul ishlatmasdan, elektron to'lov vositalari yordamida bir hisobdan ikkinchi hisobga o'tkazish tizimidir.

O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunining 21-moddasida, Markaziy bankka respublika hududida naqd pulsiz to'lovlarning amalga oshirilishi tartibini belgilash vakolati yuklatilgan.

Adliya vazirligida 2020 yilning 13 aprelida 3229-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizom bilan mamlakatda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi belgilangan.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning tamoyillari;
- naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakllari va hisob-kitoblarda foydalaniladigan hujjatlar;
- to'lov usuli, muddati va manbai;
- to'lovlar ketma-ketligi;
- naqd pulsiz hisob-kitoblarning sub'yektlari.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning tamoyillariga quyida kengroq to'xtalamiz.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning *birinchi tamoyili* – hisob-kitoblar va to‘lovlarga nisbatan qonunchilik talablariga rioya etilishidir. Chunki moliyaviy tuzilmalarning asosiy elementi to‘lov tizimi bo‘lib hisoblanadi. Mamlakat hududida hisob-kitoblar O‘zR Fuqarolik Kodeksi, “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonun, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun, “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonun, “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi Nizom va boshqa tegishli qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Ikkinchi tamoyil – bank hisobvaraqlari bo‘yicha hisob-kitoblar. Hisob-kitoblarni amalga oshirishning asosiy talabi to‘lovlarni yuboruvchi va qabul qiluvchi tomonlarning bank hisobvarag‘iga ega bo‘lishidir. Banklar tomonidan hisob-kitob operatsiyalari bank va mijoz tomonidan bank hisobraqamiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladi. Bunday shartnoma ikkitomonlama fuqarolik-huquqiy hujjat bo‘lib hisoblanadi. Mijozlar bankda qonunchilik asosida turli valyutada bir necha hisobraqamlarni ochishlari mumkin.

Banklarda mijozlarga talab qilib olinguncha depozitlar, muddatli va jamg‘arma depozitlari ochilishi mumkin. Talab qilib olinguncha hisobraqam mijozlarning birinchi talabi bilan to‘lovlarni o‘tkazib beradigan hisobraqami bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar davlat ro‘yxatidan o‘tgandan keyingi bankda birinchi marta ochiladigan milliy valyutadagi hisobvarag‘idir. Asosiy hisobvaraq ochilganidan keyin ochilgan barcha milliy va chet el valyutasidagi hisobraqamlar ikkilamchi hisobvaraq bo‘lib hisoblanadi.

Uchinchi tamoyil – to‘lovchining to‘lovlarni o‘tkazish uchun roziligi (aksept) mavjudligidir. Mijozning bank hisobvarag‘idagi mablag‘lar faqat uning roziligi bilan yechilishi mumkin. Qonunchilikda belgilangan holatlarda soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mablag‘lar mijoz roziligisiz uning hisobvarag‘idan yechilishi mumkin.

To‘rtinchi tamoyil – to‘lovlarni o‘tkazishning muddatida bajarilishi, ya‘ni barcha iqtisodiy sub‘yektlar o‘z to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarishi zarurligini anglatadi. To‘lovlar shartnomada belgilangan muddatda

o‘tkazilishi zarur. Qonunchilikka ko‘ra, bank hisobvarag‘i shartnomasida boshqa muddatlar belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, tegishli to‘lov hujjati bankka kelib tushgan operatsion kunda to‘lov amalga oshiriladi. Xalqaro to‘lovlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilgan holda, to‘lov hujjatlari olingan paytdan e‘tiboran ikki operatsion kundan kechiktirmay bajariladi. Akseptli to‘lov talabnomasini akseptlash muddati, mijozning hududiy joylashuvidan qat‘i nazar, talabnoma to‘lovchiga topshirilgan kundan keyingi kundan boshlab besh operatsion kun yoki to‘lovchining asosli arizasi bilan murojaat qilinganda o‘n operatsion kun etib belgilangan. Xo‘jalik sub’yektlari o‘rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga ko‘ra to‘lov muddatlariga rioya qilinishi iqtisodiyotda noto‘lovlarning kelib chiqishining oldini oladi.

Beshinchi tamoyil – to‘lovlarning ta‘minlanganligi. To‘lovning ta‘minlanganligi bo‘lib mijoz hisobraqamida pul mablag‘larining mavjudligi yoki bank krediti orqali to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyati hisoblanadi. Ta‘minlanganlik bir necha ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin: mijoz hisobraqamida doimiy pul mablag‘larining mavjud bo‘lishi, akkreditiv orqali to‘lovlarda mablag‘larning oldindan o‘tkazib qo‘yilishi, asosiy hisobraqam bo‘yicha overdraftning rasmiylashtirilishi. To‘lovning ta‘minlanganlik tamoyili to‘lov amalga oshirilishiga kafolat bo‘lib, naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi ishtirokchilarining to‘lovga layoqatliligini oshiradi.

Oltinchi tamoyil – hisob-kitoblar ishtirokchilarining nazorat qilinishi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar amalga oshirilganida hisob-kitoblarning to‘g‘ri amalga oshirilishi bo‘yicha barcha ishtirokchilar nazorat qilinadi. Banklar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish, soliq hamda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish sohasidagi qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan talablarga muvofiq hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turishga yoki ularni amalga oshirishni rad etishga haqli.

Yettinchi tamoyil - naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda naqd pulsiz hisob-kitob hujjati shaklini tanlashdagi erkinlikdir.

2.2. O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitob shakllari

“To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida”gi Qonunning 33-moddasiga binoan, to'lov hujjati qog'ozda tuzilgan yoki elektron shaklda shakllantirilgan hujjat bo'lib, to'lov uning asosida yoki yordamida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida to'lovlarni amalga oshirishda quyidagi to'lov hujjatlaridan foydalaniladi:

- to'lov topshiriqnomasi;
- to'lov talabnomasi;
- inkasso topshiriqnomasi;
- memorial order;
- akkreditivga ariza;
- kirim va chiqim kassa to'lov hujjatlari.

To'lov hujjatlarining shakllari, majburiy rekvizitlari va ularning mazmuniga doir boshqa talablar, elektron to'lov vositalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Memorial order - banklar tomonidan foydalaniladigan naqd pulsiz to'lov hujjati bo'lib, undan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- mijozlar bilan bog'liq bank operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarda;
- bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha hisob-kitoblarda;
- banklarning ichki operatsiyalarida;
- to'lov hujjatlari bo'yicha qisman to'lov amalga oshirilganda;
- ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshirilganda;
- mijozning qarzdorlik mablag'larini qoplashda, agar ushbu talab bank bilan mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomada belgilab qo'yilgan bo'lsa;
- buxgalteriya hisobidagi xato yozuvlarni tuzatishda;
- jismoniy shaxslarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo'jaliklaridan tashqari) yozma murojaati bo'yicha mablag'larni naqd pulsiz shaklda o'tkazishni amalga oshirishda, bunda to'lov

amalgga oshirilgandan so‘ng, mazkur murojaat memorial order bilan birga bankning buxgalteriya kunlik hujjatlar yig‘majildiga tikib qo‘yiladi;

- mijozlar bilan tuziladigan shartnomalarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

To'lov topshiriqnomasi - mijozning unga xizmat ko'rsatuvchi bankka o'z hisobvarag'idan topshiriqnomada belgilangan summani mablag'larni oluvchining hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi topshirig'i nazarda tutilgan to'lov hujjatidir.

To‘lov topshiriqnomalari bilan tovarlar (ishlar, xizmatlar), soliqlar va yig‘imlar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar amalga oshirilishi mumkin.

Bank hisobvarag‘i shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, to‘lov topshiriqnomasi bank tomonidan mijozning hisobvarag‘ida mablag‘lar mavjud bo‘lgandagina qabul qilinadi, bundan soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha taqdim etilgan to‘lov topshiriqnomalari mustasno.

Mijozning hisobvarag‘ida mablag‘ bo‘lmagan taqdirda, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha taqdim etilgan to‘lov topshiriqnomalari 2-son kartotekaga kirim qilinadi hamda mablag‘larning kelib tushishiga qarab qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda to‘lanadi.

To‘lov topshiriqnomasining “Hujjat sanasi” grafasidagi sana u bankka taqdim etilgan sana bilan bir xil bo‘lishi kerak, ular mos kelmagan taqdirda, to‘lov topshiriqnomasi bank tomonidan ijro uchun qabul qilinmaydi.

To'lov talabnomasi - mablag'larni to'lovchining hisobvarag'idan unda ko'rsatilgan summani to'lash to'g'risidagi mablag'larni oluvchining talabi nazarda tutilgan to'lov hujjati hisoblanadi.

To'lov talabnomasi faqat asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga taqdim etilishi mumkin, bundan chet el valyutasidagi bank hisobvaraqlariga taqdim etiladigan to'lov talabnomalari mustasno.

To'lov talabnomalari quyidagi turlarga bo'linadi:

akseptli to'lov talabnomasi, unga muvofiq to'lov talabnomasida nazarda tutilgan to'lovlar mablag'larni to'lovchi tomonidan akseptlanganidan keyin amalga oshiriladi;

akseptsiz to'lov talabnomasi, unga muvofiq to'lov talabnomasida nazarda tutilgan to'lovlar mablag'larni to'lovchining roziligi bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

To'lov talabnomalari qog'oz shaklda yoki Tizim orqali elektron shaklda taqdim etilishi mumkin.

Inkasso topshiriqnomasi - unda ko'rsatilgan mablag'larni to'lovchining banki hisobvarag'idan so'zsiz ravishda hisobdan chiqarish bo'yicha mablag'larni oluvchining topshirig'i nazarda tutilgan to'lov hujjati.

Quyidagilar inkasso topshiriqnomalarini taqdim etish huquqiga ega:

a) davlat soliq xizmati organlari — o'z muddatida to'lanmagan byudjet tizimiga o'tkaziladigan soliqlar va yig'implarni undirish to'g'risida;

b) bojxona organlari — o'z muddatida to'lanmagan bojxona to'lovlarini undirish to'g'risida;

v) davlat ijrochilari va undiruvchilar ijro hujjatlari bo'yicha pul mablag'larini undirish to'g'risida;

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi — O'zbekiston Respublikasining berilgan davlat kafolatlari bilan amalga oshirilgan to'lovlar va ular bilan bog'liq xarajatlar summasini qarz oluvchidan undirish hamda byudjet ssudasi yoki kredit liniyasi, shu jumladan foizlarni qaytarish to'g'risida;

d) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi — Jamg'arma mablag'lari hisobidan tijorat agentlariga (“O'zpaxtasanoat” AJ, “O'zdonmahsulot” AJ, “O'zagrolizing” AJ, “O'zmashlizing” MChJ) ajratilgan maqsadli mablag'larni qaytarish bo'yicha majburiyatlar tijorat agentlari tomonidan bajarilmagan taqdirda, ularning bank hisobvaraqlariga.

Mablag'larni to'lovchining hisobvarag'ida mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, inkasso topshiriqnomasi 2-son kartotekada hisobga olinadi hamda mablag'larning kelib tushishiga qarab to'lab boriladi.

Akkreditivga ariza – mablag'larni to'lovchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summani oluvchining akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar uchun ochilgan bank hisobvarag'iga o'tkazishida qo'llaniladigan to'lov hujjati.

Akkreditiv bo'yicha hisob-kitob qilinganida to'lovchining topshirig'i bilan va uning ko'rsatmalariga muvofiq akkreditiv ochgan bank (bank-emitent), mablag'larni oluvchi yoki u ko'rsatgan shaxs hujjatlarni taqdim etgan va akkreditivda nazarda tutilgan boshqa shartlarni bajargan taqdirda to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

Akkreditiv qoplangan (deponentlangan) va qoplanmagan bo'lishi mumkin.

Qoplangan (deponentlangan) akkreditiv ochilgan taqdirda mablag'larni to'lovchining banki uni ochish vaqtida mijozning mablag'larini yoki unga berilgan kreditni to'lovchining banki majburiyatlari amal qilib turadigan butun muddatga mablag'larni oluvchining banki ixtiyoriga o'tkazadi.

Qoplanmagan akkreditiv ochilgan taqdirda mablag'larni to'lovchining banki mablag'larni oluvchining bankiga akkreditivning butun summasini to'lovchining bankiga mablag'larni oluvchining bankida yuritilayotgan hisobvarag'idan o'chirish huquqini beradi.

Akkreditiv bo'yicha xalqaro hisob-kitoblarda chet el banklari ishtirok etganda, ushbu operatsiyalar Xalqaro savdo palatasining standartlari asosida amalga oshiriladi.

Akkreditivlar banklar tomonidan 1-son kartotekada va "Mijozlarning akkreditivlar bo'yicha depozitlari" 22602 balans hisobvarag'ida hisobga olinadi. Mablag'larni oluvchi uchun unga xizmat ko'rsatuvchi bankda akkreditivlar bo'yicha alohida depozit hisobvaraqlari ochiladi.

Qoplangan va qoplanmagan akkreditivlar o'zgartirish kiritish tartibiga ko'ra chaqirib olinadigan va chaqirib olinmaydigan turlarga bo'linadi. Akkreditivda uning chaqirib olinmasligi nazarda tutilmagan bo'lsa, bunday akkreditiv chaqirib olinadigan akkreditiv hisoblanadi.

Chaqirib olinadigan akkreditiv mablag'larni to'lovchining banki tomonidan mablag'larni oluvchi bilan oldindan kelishilmasdan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Akkreditivning chaqirib olinishi to'lovchining banki uchun hech qanday majburiyatni vujudga keltirmaydi.

Chaqirib olinadigan akkreditiv shartlarini o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha mablag'larni to'lovchining topshiriqlari mablag'larni to'lovchining banki orqali beriladi va mablag'larni to'lovchining banki tomonidan mablag'larni oluvchining bankiga, oluvchining banki tomonidan esa mablag'larni oluvchiga xabar beriladi.

Mablag'larni oluvchining banki akkreditivni o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha xabarnoma olmagan taqdirda, chaqirib olinadigan akkreditiv bo'yicha barcha operatsiyalarni amalga oshirishga majbur.

Chaqirib olinmaydigan akkreditiv mablag'larni oluvchining roziligisiz o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Mablag'larni oluvchining banki chaqirib olinmaydigan akkreditivni mablag'larni to'lovchining banki bilan tuzilgan shartnoma asosida tasdiqlashi mumkin. Bunda chaqirib olinmaydigan akkreditiv tasdiqlangan akkreditiv hisoblanadi.

Tasdiqlangan akkreditivlarda mablag‘larni oluvchining banki to‘lovni amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha majburiyatlar oladi. Tasdiqlangan akkreditiv mablag‘larni oluvchining banki rozilgisiz o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Akkreditivlar bo‘yicha hisob-kitoblar, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, naqd pulsiz tartibda amalga oshiriladi.

Yuqoridagi to‘lov hujjatlari bo‘yicha tranzaksiyalar soni va summasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar dinamikasi quyida keltirilgan.

2.1.– jadval

2017-2021-yillarda Markaziy bankning Banklararo to‘lov tizimi orqali o‘tkazilgan tranzaksiyalarning to‘lov hujjatlari bo‘yicha summasi²⁷.

mlrd. so‘mda

Yillar	Memorial order	To‘lov topshiriqnomasi	To‘lov talabnomasi	Akkreditivga ariza	Inkasso topshiriqnomasi
2017	250 528	387 916	634	107	1 648
2018	278 439	563 909	716	95	2 460
2019	371 452	749 207	775	117	5 383
2020	1 116 297	767 399	1 021	170	5 621
2021	1 861 265	914 879	1 543	75	7 886

Ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, asosiy to‘lovlar ulushi memorial order va to‘lov topshiriqnomalari asosida amalga oshirilgan.

Markaziy bankning to‘lov tizimlari bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida qo‘yidagi normativ-huquqiy hujjatlar asos bo‘lib hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni (11.11.2019 y., O‘RQ-582);
- O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (05.11.2019 y., O‘RQ-580);

²⁷Markaziy bank yillik Statistik byulletenlari ma‘lumotlari asosida shakllantirildi.

- O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni (01.11.2019 y., № O'RQ-578);
- "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom (14.02.2006 y., № 1545);
- "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami № 3229, 13.04.2020 y.).
- "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar kliring tizimi to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 2570, 2014 yil 4 aprel);
- "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi Qoidalari", (ro'yxat raqami 3231, 2020 yil 29 aprel) va boshqa tegishli qonunchilik hujjatlari.

2.3. Bank kartalari bilan operatsiyalar va ularning milliy to'lov tizimidagi o'rni

Bank kartasi — uni saqlovchisiga to'lov infratuzilmari orqali to'lovlarni amalga oshirish yoki naqd pul mablag'larini olish yoki valyuta ayirboshlashni amalga oshirish va bank kartasining emitenti tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalarni bajarish imkonini beruvchi to'lov vositasidir.

Bank kartalari karta hisobvarag'ining sub'yektlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

shaxsiy bank kartasi — o'z saqlovchisiga jismoniy shaxsning (yakka tartibdagi tadbirkordan tashqari) karta hisobvarag'ida (karta hisobvaraqlarida)gi pul mablag'larini boshqarish imkoniyatini beradi. Shaxsiy bank kartalari bank kartasi saqlovchisining ruxsati bilan boshqa shaxslar (oila a'zolari va boshqalar) tomonidan foydalanilishi mumkin;

korporativ bank kartasi — o'z saqlovchisiga, ya'ni yuridik shaxsning vakolatiga ega xodimi yoki yakka tartibdagi tadbirkorga karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini boshqarish imkoniyatini beradi.

Bank kartalarining amal qilish tartibiga ko'ra turlari:

debit bank kartasi — o‘z saqlovchisiga u va bank kartasi emitenti o‘rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga binoan tegishli karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari qoldig‘i doirasida to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish va (yoki) naqd pul mablag‘larini olish uchun (korporativ bank kartasi bundan mustasno) tasarruf etish imkonini beradi;

kredit bank kartasi — o‘z saqlovchisiga u va bank kartasi emitenti o‘rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga binoan to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish va (yoki) naqd pul mablag‘larini olish uchun (bundan korporativ bank kartasi mustasno) tegishli karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari qoldig‘idan ortiq operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Ikki va undan ortiq to‘lov tizimlarida ishlaydigan va ularning logotiplarini o‘zida aks ettirgan bank kartalari **kobeydjing kartalari** deb hisoblanadi.

Ikki va undan ortiq tovar belgisi ostida emissiya qilingan bank kartalari **kobrend bank kartalari** deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarini emissiya qilish O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan banklar tomonidan amalga oshiriladi.

Respublika hududida bank kartalari bilan bog‘liq operatsiyalar o‘tkazilishi qoidalari “O‘zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo‘lishi qoidalari to‘g‘risida”gi Nizom (№3294, 03.04.2021y.)ga asosan yuritiladi.

Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan “Uzcard” hamda “Humo” to‘lov tizimlarining milliy valyutadagi bank kartalari muomalaga chiqarilib, ularning infratuzilmasi kengaytirib borilmoqda.


O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentyabrdagi “Plastik kartalar orqali hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 445-sonli qaroriga asosan Yagona umumrespublika protsessing markazi tashkil etilib, “Uzcard” to‘lov tizimi faoliyat yurita boshladi.

2020 yil 11 aprelda Yagona umumrespublika protsessing markazi MChJga “Uzcard” to‘lov tizimi operatori litsenziyasi Markaziy bank tomonidan taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3945-sonli qaroriga asosan Milliy banklararo protsessing markazi tashkil etilib, 2019 yilning I-choragidan boshlab "Humo" to'lov tizimi ishga tushirildi.

Milliy banklararo protsessing markazi MChJga 2020 yil 11 aprelda "Humo" to'lov tizimi operatori litsenziyasi Markaziy bank tomonidan berildi.

Humo –davlat hududida pul harakatini va xorijiy to'lov tizimlari bilan o'zaro munosabatlarni ta'minlaydigan hisob-kitoblar ishtirokchilari, to'lov instrumentlari va vositalari, dasturiy-texnik vositalar, shuningdek, banklararo pul o'tkazmalari tizimlari majmuidir.




2.1-rasm. Muomaladagi bank kartalari soni, ming dona²⁸.

O'z navbatida, naqd pulsiz to'lov vositalarini rivojlantirish va uning ko'lamini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar natijasida muomaladagi bank kartalari soni 2017 yildagi 19,2 mln. donadan, 2021 yil oxiriga kelib, 27,1 mln. donaga yetdi. 2020 yilning o'zida tijorat banklari tomonidan aholi va tadbirkorlik sub'yektlari uchun 1,3 mln.dona bank kartalari muomalaga chiqarildi hamda ularning umumiy soni 2019

²⁸cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

yilga nisbatan 5,1 foizga ortib, 2022 yilning 1 yanvar holatiga 27,1 mln. donani tashkil etgan (2.1-rasm).




2.2-rasm. To'lov terminallari orqali amalga oshirilgan milliy valyutadagi tranzaksiyalar summasi, mlrd.so'm²⁹.

To'lov terminallari orqali amalga oshirilgan jami tranzaksiyalar summasi oxirgi besh yilda o'sib boorish xarakteriga ega bo'lib, 2021 yil oxirida 111 137 mlrd.so'mni tashkil etgan.

To'lov tizimi bozorida raqobatni rivojlantirish maqsadida HUMO chakana to'lovlar tizimining joriy etilishi hamda uning funksionali, infratuzilmasini rivojlantirish va ommabopligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2020 yilda terminallar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmida HUMO terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar ulushining 2019 yildagi 3 foizdan 15 foizgacha oshishi kuzatilgan (2.3 - rasm).

²⁹cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



2.3 –rasm. To‘lov terminallari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar, mlrd.so‘mda³⁰

Xalqaro to‘lov tizimlari (VISA, Mastercard, Unionpay) bilan hamkorlikning kengaytirib borilayotganligi natijasida 2021 yil 1 yanvar holatiga emissiya qilingan VISA kartalari soni – 598 mingta, Mastercard kartalari – 39 mingta, Unionpay kartalari – 67 mingtaga etdi. Bunda jismoniy shaxslarning xalqaro bank kartalaridagi mablag‘lar qoldig‘i 2021 yil 1 yanvar holatiga jami 160,2 mln. AQSH dollarini tashkil etgan.

Shuningdek, hozirgi paytda mahalliy to‘lov tizimlarining VISA, Mastercard, UnionPay va MIR xalqaro to‘lov tizimlari bilan o‘zaro integratsiyasi amalga oshirilib, foydalanuvchilar uchun konversiya amaliyotisiz bank kartasi orqali tovar va xizmatlar haqini to‘lash uchun shart-sharoit yaratilgan. Xususan, 2020 yilda xalqaro to‘lov tizimlarining bank kartalari orqali 1 334,4 mln. AQSH dollarlik tranzaksiyalar amalga oshirilib, mazkur tranzaksiyalarning 671,3 mln. AQSH dollari (jami tranzaksiyalarning 50,3 foizi) bankomatlar orqali (bank terminallaridan) naqdlashtirilgan mablag‘lar hamda 663,1 mln. AQSH dollari (49,7 foizi) naqd pulsiz to‘lovlar hisobiga to‘g‘ri keladi.

2020 yilda naqd pulsiz tranzaksiyalarning 437,9 mln. AQSH dollarini (66 foizi) tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to‘lovlar, 225,2 mln. AQSH dollarini (34 foiz) kartadan karta (P2P) o‘tkazmalar tashkil etadi. Bunda tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to‘lovlarning 223,9 mln. AQSH dollari (jami amalga oshirilgan to‘lovlarning

³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020 yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot, Toshkent-2021, 132-bet.

51 foizi) Unionpay kartalari, 203,4 mln. AQSH dollari (46 foizi) VISA kartalari, 10,5 mln. AQSH dollari (2 foizi) Mastercard bank kartalari orqali amalga oshirilgan.

Izlanishlar mamlakatda elektron to'lovlarni rivojlantirish bilan bog'liq chora-tadbirlar bilan bir qatorda 2020 yilda boshlangan pandemiya jarayoni elektron to'lovlar ulushining oshishi va naqd pullar hajmining jami pul massasidagi ulushi qisqarishiga xizmat qilganini ko'rsatdi.

2.2-jadval

Bank kartalari mablag'larining naqdlashtirilishi va naqd pullarning pul massasidagi ulushi dinamikasi³¹, mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar	01.10.2019 y.	01.10.2020 y.	01.10.2021 y.
Bank kartalariga tushgan mablag'lar	70 194	107 575	178 080
Bank kartalaridan yechilgan jami naqd pullar	22 117	37 325	58 765
Shundan bankomatlar orqali yechilgan naqd pullar	15 038	28 833	46 769
Bank kartalariga tushgan mablag'larda naqdlashtirilgan pullar ulushi	32%	35%	33%
Muomaladagi naqd pullar	25 587	29 261	27 161
Pul massasi (M2)	92 375	105 402	120 032
Muomaladagi naqd pullarning M2 ga nisbati	28%	28%	23%

2.2-jadvalda muomaladagi naqd pulning M2ga nisbati joriy yilda oldingi ikki yilga nisbatan 5%ga kamayganini ko'rsatmoqda. Mamlakatdagi pul massasi rasmiy inflyatsiya darajasiga qaraganda ortiqroq o'sish darajasiga ega ekanligini hisobga olsak, muomalada naqd pullar kamayib, elektron pul aylanmasi ortgan degan xulosaga kelamiz.

2.4. Elektron pullar bilan bog'liq hisob-kitoblar, ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Mamlakatda elektron to'lov tizimlarini takomillashtirishda yangi moliyaviy texnologiyalarni va to'lov tizimlarining raqamlashtirilishi bilan bog'liq muhim vazifalar o'rganilganida, xalqaro PwC kompaniyasi ekspertlarining "To'lov industriyasi 2025 va unday keyin" nomli Hisobotida to'lov industriyasining olti

³¹cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab shakllantirildi.

makrotrendi sifatida quyidagi yo‘nalishlar keltirilgan: inklyuzivlik va ishonch, Markaziy banklarning raqamli valyutalari, elektron hamyonlar, tizimlar raqobati, xalqaro to‘lovlar, moliyaviy jinoyatlar.

Raqamli iqtisodiyotda pul funksiyalari avvalgicha qolayotgan bo‘lsa-da, endilikda elektron pullar va kriptovalyutalar ham pul vazifasini bajarmoqda.


Elektron pullar — elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to‘lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlaridir. So‘ngi yillarda elektron tijorat orqali xaridlarda onlayn xaridorlarning, asosan, elektron hamyonlar orqali elektron pullar vositasida to‘lovlarni amalga oshirayotganligini kuzatish mumkin. Elektron to‘lovlar xizmati ommaviylik bo‘yicha kredit kartalardan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. “O‘zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo‘lishi qoidalari”ga asosan O‘zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilingan tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishda faqat respublika hududida chiqarilgan elektron pullar qabul qilinishi belgilangan.

Kriptovalyutalar - nofiat (ya‘ni davlat tomonidan tartibga solinmaydigan) pullar bo‘lib, bitkoin kabi kriptoaktivlar qiymatga asoslangan instrument bo‘lib hisoblanmaydi va o‘zida emitentga bo‘lgan talabni ifodalamaydi. Kriptoaktivlarning asosiy maqsadi alohida shaxslar va tashkilotlarning o‘zaro tranzaksiyalarini bevosita 3-shaxslarning aralashuvisiz DLTni ishlatgan holda bitimlarni amalga oshirishlariga yo‘naltirilgan. Jahon amaliyotida kriptoaktivlar narxi juda o‘zgaruvchanligi sababli ularning to‘lov vositasi sifatida ishlatilishi chegaralangan. Shu sababli kriptovalyutalarning qonuniylashtirilishini istiqboldagi yo‘nalishlardan biri sifatida keltira olmaymiz. Ammo elektron pullardan foydalanishning yanada ommalashtirilishi asosiy vazifalardan bo‘lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, Markaziy banklarning raqamli pullari joriy qilinishi ham yaqin istiqboldagi qilinishi lozim bo‘lgan ishlardan biridir. Markaziy banklar raqamli valyutasini joriy qilish zaruriyati raqamlashtirish tendensiyalari va boshqa zaruriyatlardan kelib chiqadi. Raqamli valyutalar ulgurji va chakana to‘lovlarda

ishlatilishi mumkin. 1.7-rasmda aks ettirilganidek, Markaziy banklar raqamli pullarining joriy etilishi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun, asosan, to'lov xavfsizligi hamda moliyaviy barqarorlik jihatlaridan muhim bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, asosan, ichki to'lov samaradorligi hamda jahon iqtisodiyotiga integratsiya jihatidan zarur bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatda elektron pullarning ishlatilishi bo'yicha qoidalar bo'yicha emitent elektron pullar egasi tomonidan taqdim qilingan elektron pullarni elektron pullar tizimi qoidalari hamda emitent va elektron pullar egasi o'rtasida tuzilgan elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnomaga muvofiq naqd pulga almashtirish yoki naqd pulsiz mablag'larni elektron pullar egasining bank hisobvarag'iga kirim qilish orqali qoplaydi³². Buni quyida ko'rish mumkin.



2.4.-rasm. Elektron pulning elektron pullar tizimida qoplanish jarayoni³³.

Elektron pullarning real pullarga almashinuvi, ya'ni elektron pullarning elektron pullar tizimida qoplanish jarayoni yuqorida aks ettirilgan.

Izlanishlar elektron pullarni qabul qilgan yuridik shaxslar ularni qoplashi lozim deb belgilangan talabni bu kabi to'lovlarning ommalashuviga to'siq bo'lmoqda, deb xulosa qilinishiga olib kelmoqda. Yuridik shaxslar elektron pul orqali qabul qilingan mablag'larni to'lovlarda ishlatishi elektron pul muomalasini

³²O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" 3231-sonli nizomi 29.04.2020 y.

³³https://cbu.uz/ru/press_center/news/269533/ - «В Узбекистане установлен новый порядок использования электронных денег» – 12.05.2020г.


kengaytiradi. Elektron pullar saqlash xarajatlarini talab qilmasligini ta'kidlandi. Chunki bunday pullar elektron hamyonlarda saqlanadi. Elektron pullar bilan bog'liq amaliyotlar dinamikasi tahlili quyida keltirilgan.

2019 yil 1 noyabrda qabul qilingan "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonun mamlakatimizda elektron pullar muomalasini, jumladan, elektron pullarni chiqarish, foydalanish va ularni qoplash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatning huquqiy asosini yaratib berdi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, dunyoning ko'plab mamlakatlarida hanuzgacha elektron pullardan foydalanish ma'lum ma'noda cheklangan va elektron pullar orqali o'tkazilgan tranzaksiyalar davlat miqyosida o'tkazilgan jami to'lovlarning kam ulushini tashkil qiladi, shunga qaramay, ko'plab ekspertlar elektron pullar tizimi kelgusida eng ommalashgan to'lov tizimlaridan biri bo'lishini ta'kidlashmoqda. Yurtimizda esa, jahon tajribasiga tayangan holda, elektron pullar tizimi faoliyatini tashkil etish, elektron pullar muomalasi, elektron pullar tizimida risklarni boshqarish hamda tizimda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida 2020 yil 29 aprelda 3231-son bilan "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" ishlab chiqildi. Bu hujjatning qabul qilinishi mamlakatimizda hali endi rivojlanib kelayotgan elektron pullar muomalasi jarayonini qonuniy tartibga soladi. Hozirgi paytda chakana to'lovlar uchun asosiy vosita bo'lib hisoblangan naqd pulning o'rnini kelgusida elektron pullar egallashi tabiiy. Shunday ekan, Markaziy banklar uchun elektron pullar emissiyasi va muomalasi masalalari muhim bo'lib hisoblanadi.

Jahon tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, Yevropa ittifoqida 2000 yilda elektron pullar va ular bilan bog'liq bo'lgan elektron to'lovlarni tartibga solish maqsadida elektron pullar bo'yicha Direktiva (EMD — Electronic Money Directive) qabul qilindi. Ushbu Direktiva 2007 va 2009 yillarda qayta ko'rib chiqilgan va tegishli o'zgartirishlar kiritilgan. Ushbu direktiva elektron pullar yetkazib beruvchi tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lishlari majburiy ekanligini va ularning kapitaliga doimiy minimal talablarni belgilab bergan. Direktivaga ko'ra, E-money depozit bo'lib hisoblanmaydi, shuning uchun ham depozitlar kafolati bo'yicha qoidalar

elektron pullarga tatbiq qilinmaydi (6-modda). Elektron pul yetkazib beruvchilarga mablag‘larini qarzga berishga ruxsat etilmaydi. Mablag‘lar buning o‘rniga xavfsiz kapital qo‘yilmalarida saqlanishi lozim (7-modda). To‘lov tashkilotlari mablag‘lar uchun foiz to‘lashlari mumkin, lekin majburiy emas. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu foizlar mablag‘larni saqlash muddatlariga bog‘liq bo‘lmasligi kerak. Mablag‘larni bloklab qo‘yishga ruxsat etilmaydi, hisobraqamdagi elektron pullar mijozning xohishiga ko‘ra istalgan paytda to‘liq yoki qisman nominal qiymati bo‘yicha yechib olinishi imkoniyati yaratilishi lozim (12-modda). Mablag‘larni yechib olish uchun katta bo‘lmagan to‘lov o‘rnatilishiga ruxsat etiladi (11-modda)³⁴.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida asosiy naqd pulsiz to‘lovlar plastik kartalar orqali to‘lovlar, kredit transferlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri debet, cheklar, elektron pullar va boshqa to‘lov turlariga ajraladi. Umumiy to‘lovlar ulushida elektron pul orqali o‘tkaziladigan to‘lovlar katta ulushga ega bo‘lmasada, bu ko‘rsatkich yildan yilga oshib bormoqda. 2018 yil oxirida Yevroittifoqdagi jami elektron pul orqali o‘tkazilgan to‘lovlar hajmi 4 033.40 mln.yevroni tashkil qilgan (2.5-rasm).



2.5-rasm. Yevroittifoqda elektron pul orqali to‘lovlar, mln. yevro³⁵.

O‘zbekistonda elektron pullarga 2019 yil 1 noyabrda qabul qilingan “To‘lov va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonunda elektron pullarga quyidagicha izoh beriladi: elektron pullar — elektron pullar emitentining elektron shaklda

³⁴<http://sdw.ecb.europa.eu/reports.do?node=1000001387> “Number of payments per type of payment service” ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

³⁵<https://www.ecb.europa.eu/press/pr/stats/paysec/html/ecb.pis2018~c758d7e773.en.html> ma’lumotlari asosida shakllantirildi.

saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlaridir.

Elektron pullar tizimi operatorining elektron pullar emitenti va (yoki) elektron pullar egalari bilan hamkorligi orqali elektron pullardan foydalangan holda to'lovlar va boshqa operatsiyalar amalga oshirilishini ta'minlovchi to'lov tizimi elektron pullar tizimidir³⁶.

Markaziy bank va banklar elektron pullarning emitentidir.

O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullar emitenti tomonidan chiqariladigan elektron pullar faqat milliy valyutada nominallashtirilgan bo'lishi kerak.

Elektron pullar emitenti tomonidan jismoniy shaxsga elektron pullarni ularning nominal qiymatiga teng bo'lgan pul mablag'lari summasiga almashtirish yo'li bilan to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) elektron pullar tizimining operatori yoxud elektron pullar tizimining agenti orqali berilishini nazarda tutuvchi to'lov xizmati elektron pullarni chiqarishdir.

Quyidagilar elektron pullarning egalari bo'lishi mumkin:

- boshqa jismoniy shaxslardan, elektron pullarning emitentidan, elektron pullar tizimining operatoridan yoki elektron pullar tizimining agentidan elektron pullarni olgan jismoniy shaxslar;
- elektron pullar tizimining agentlari — elektron pullar emitenti yoki elektron pullar tizimining operatori bilan tuzilgan shartnoma asosida elektron pullarni olish va jismoniy shaxslarga realizatsiya qilish operatsiyalarini amalga oshiruvchi banklar yoki to'lov agentlari;
- jismoniy shaxslardan elektron pullarni bitimlar bo'yicha to'lov sifatida olgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar.

Elektron pullar egasining huquqlari elektron pullarni olgan paytdan e'tiboran yuzaga keladi.

³⁶O'zbekiston Respublikasi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi 01.11.2019 yildagi O'zRQ-578-sonli Qonuni. – 39-modda.

Mamlakatimiz qonunchiligi bo'yicha emitent elektron pullar egasi tomonidan taqdim qilingan elektron pullarni elektron pullar tizimi qoidalari hamda emitent va elektron pullar egasi o'rtasida tuzilgan elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnomaga muvofiq naqd pulga almashtirish yoki naqd pulsiz mablag'larni elektron pullar egasining bank hisobvarag'iga kiritish orqali qoplaydi³⁷.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 5 ta elektron pul tizimlariga tegishli faoliyatni amalga oshirishi uchun litsenziya berilgan. Elektron pullarning joriy etilishi mijozlar tomonidan hisob-kitoblarni amalga oshirishda zamonaviy texnologik yechimlarga asoslangan holda to'lovlarni tezkor va qulay usulda bajarish imkoniyatini kengaytirdi. Elektron pullarga oid huquqiy asosning yaratilishi to'lov xizmatlari bozorida yangi innovatsion xizmatlarni taklif etuvchi ishtirokchilarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, elektron pullarni emissiya qilish xarajatlarining kamligi hamda elektron pullar orqali xalqaro internet savdo platformalarida xaridlarni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi, undan foydalanishning jozibadorligi va ommabopligini oshirmoqda.

2.3 – jadval

Elektron pullar tizimlari to'g'risida ma'lumot³⁸


№	Elektron pullar tizimi nomi	Operator nomi	Emitent nomi
1	“OSON”	“BRIO GROUP” MChJ	AT “Aloqabank”
2	“E-CARD”	“INSPIRED” MChJ	ATB “Universal bank”
3	“CLICK”	“CLICK” MChJ	“Agrobank” ATB
4	“WOOPPAY”	“WOOPPAY UZ” MChJ	“Uzum bank” AJ
5	“alif.mobi”	“ALIF TECH” MChJ	AT “Aloqabank”
6	“Interpay”	“Interpay sys” MChJ	“Uzum bank” AJ
7	“A-pay”	“CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” MChJ	“Uzum bank” AJ
8	“QIWI Uzbekistan”	“Payment Aggregation Systems” MChJ	“Uzum bank” AJ
9	“1HLSW”	“Genesis Innovation” MChJ	AT “Aloqabank”

³⁷3231-sonli “O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari” 29.04.2020y. – 5-modda.

³⁸ [https://cbu.uz/oz/payment-systems/documents-license-applicati/operators-of-payment-systems/03.01.2023 yil holatiga](https://cbu.uz/oz/payment-systems/documents-license-applicati/operators-of-payment-systems/03.01.2023%20yil%20holatiga)

10	“GlobalPay”	“Global Solutions” MChJ	AT “Aloqabank”
11	“Payway”	“Payway” MChJ	“Uzum bank” AJ
12	“Apelsin”	“Uzum bank” AJ	“Uzum bank” AJ
13	“ExMoney”	“O‘zbekiston Respublikasi Tovar-xomashyo birjasi” AJ	“Trastbank” XAB
14	“AIST”	“Ozinterpay” MChJ	ATB “Universal bank”
15	“PAYNET WALLET”	“INSTANT PAYMENT SOLUTIONS” MChJ	AT Xalq banki

Xususan, 2020 yilda elektron pullar vositasida 22,3 mlrd. so‘mlik qariyb 1,5 mln.ta tranzaksiyalar amalga oshirilgan bo‘lib, shundan 84 foizi yoki 18,8 mlrd. so‘mi elektron pullar orqali xaridlar hissasiga, qolgan 16 foizi yoki 3,5 mlrd. so‘mi bir jismoniy shaxsning elektron hamyonidan boshqa jismoniy shaxsning elektron hamyoniga (P2P) o‘tkazilgan tranzaksiyalar hissasiga to‘g‘ri keladi.




2.6- rasm. 2020 yilda elektron pullar tizimida o‘tkazilgan to‘lovlar³⁹.

Elektron pullar saqlash xarajatlarini talab qilmaydi. Chunki bunday pullar elektron hamyonlarda saqlanadi. Elektron hamyon yoki e-wallet – bu elektron pullarni saqlashga va bir to‘lov tizimi doirasida ishlatishga mo‘ljallangan dasturiy ta‘minotdir. Elektron hamyonlardagi pullarning xavfsizligiga keladigan bo‘lsak,

³⁹ O‘zR Markaziy bankining 2020 yildagi faoliti to‘g‘risidagi Hisobot, Toshkent – 2021.


barcha elektron to'lov tizimlari xavfsizlik bilan yetarli ta'minlangan. Lekin har bir ishtirokchi o'z mablag'larining xavfsizligini o'zi ta'minlab, uni kibermaydonda ishtirok etuvchi chayqovchilardan maksimal himoya qilishi zarur. Shuning uchun ham elektron hamyon uchun maksimal himoyalangan dasturiy tizimni tanlash kerak. Hozirgi paytda eng ommaviy elektron hamyonlar bo'lib PAYEER to'lov tizimi, Advcash elektron hamyoni, Perfect Money elektron hamyoni, Epayments elektron hamyoni, Webmoney elektron hamyoni, QIWI elektron hamyoni, "Yandeks. Dengi" elektron hamyoni bo'lib hisoblanadi. Elektron pullar bilan hisob-kitoblar jarayonining huquqiy asoslari yaratilishi mamlakatimizda elektron hamyonlar soni, ular orqali o'tkazilgan tranzaksiyalar miqdorini kuzatish va tahlil qilish imkonini berdi. Xususan, 2020 yilda 1 521 mingta elektron hamyonlar ochilgan bo'lib, mazkur hamyonlardagi mablag'lar qoldig'i 2021 yil 1 yanvar holatiga qariyb 7 mlrd. so'mni tashkil qildi (2.7 - diagramma).



2.7- rasm. Elektron hamyonlar soni va ulardagi mablag'lar miqdori dinamikasi, 2020 yil⁴⁰.

⁴⁰ O'zR Markaziy bankining 2020 yildagi faoliti to'g'risidagi Hisobot, Toshkent – 2021.

Elektron pullar tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlarning 74 foizi mobil operatorlar, 13 foizi internet provayderlar, 5 foizi kommunal tashkilotlari va qolgan qismi boshqa xizmatlar uchun amalga oshirilgan.



2.8- diagramma. Elektron hamyonlar orqali o'tkazilgan to'lovlar tarkibi⁴¹.

Bundan elektron hamyonlar orqali o'tkazilgan tranzaksiyalarning asosiy ulushi mobil operatorlar uchun o'tkazilgan to'lovlar ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, mamlakatimizda hali internet do'konlardan elektron hamyonlar orqali xaridlarning, elektron tijoratda aholi ulushining yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Bu muammoni aholining raqamli to'lov xizmatlar bo'yicha moliyaviy savodxonligini oshirish orqali yechish mumkin.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Naqd pul orqali hisob-kitoblar, naqd pulsiz hisob-kitoblar, to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, inkasso topshiriqnomasi, akkreditivga ariza, memorial order, debet karta, kredit karta, elektron pul, elektron hamyon.

⁴¹ O'zR Markaziy bankining 2020 yildagi faoliti to'g'risidagi Hisobot, Toshkent – 2021.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tamoyillarini aytib bering.
2. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllariga ta'rif bering?
3. Elektron pul nima va uni qaysi tashkilotlar emissiya qilish huquqiga ega?
4. Elektron hamyon nima?
5. O'zbekistonda mavjud elektron pul tizimlarini sanab bering.
6. Elektron pullarning elektron pul tizimida qoplash jarayonini tushuntirib bering?
7. Debet karta deganda nimani tushunasiz?
8. Kredit kartaga ta'rif bering.

TESTLAR:

1. O'zbekistonda naqd pulsiz to'lovlar jami to'lovlarning necha foizini tashkil qiladi?
A) 80 foiz;
B) 65 foiz;
C) 50 foiz;
D) 30 foiz.
2. Muomalada qo'llaniladigan naqd pulsiz hisob-kitob shakllarini belgilang.
A) to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, inkasso topshiriqnomasi, akkreditivga ariza, memorial order;
B) to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, inkasso topshiriqnomasi, akkreditivga ariza, memorial order, chek;
C) to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, inkasso topshiriqnomasi, akkreditivga ariza, memorial order, veksel;
D) to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, inkasso topshiriqnomasi, akkreditivga ariza, chek.

3. *Inkasso topshiriqnomasi* –

A) unda ko'rsatilgan mablag'larni to'lovchining banki hisobvarag'idan so'zsiz ravishda hisobdan chiqarish bo'yicha mablag'larni oluvchining topshirig'i nazarda tutilgan to'lov hujjati;

B) mablag'larni to'lovchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summani oluvchining akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar uchun ochilgan bank hisobvarag'iga o'tkazishida qo'llaniladigan to'lov hujjati;

C) mijozning unga xizmat ko'rsatuvchi bankka o'z hisobvarag'idan topshiriqnomada belgilangan summani mablag'larni oluvchining hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi topshirig'i nazarda tutilgan to'lov hujjatidir;

D) A va B javoblar to'g'ri.

4. Elektron pullar —

A) elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlaridir;

B) elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinadigan pul majburiyatlaridir;

C) elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan aktivlaridir;

D) elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinmaydigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlaridir.

5. Korporativ bank kartasi –

A) o'z saqlovchisiga, ya'ni yuridik shaxsning vakolatiga ega xodimi yoki yakka tartibdagi tadbirkorga karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini boshqarish imkoniyatini beradi;

B) o'z saqllovchisiga u va bank kartasi emitenti o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga binoan tegishli karta hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'i doirasida to'lov operatsiyalarini amalga oshirish va (yoki) naqd pul mablag'larini olish uchun (korporativ bank kartasi bundan mustasno) tasarruf etish imkonini beradi;

C) o'z saqllovchisiga u va bank kartasi emitenti o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga binoan to'lov operatsiyalarini amalga oshirish va (yoki) naqd pul mablag'larini olish uchun (bundan korporativ bank kartasi mustasno) tegishli karta hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'idan ortiq operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi;

D) A va B javoblar to'g'ri.

6. Debet karta -

A) o'z saqllovchisiga u va bank kartasi emitenti o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga binoan tegishli karta hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'i doirasida to'lov operatsiyalarini amalga oshirish va (yoki) naqd pul mablag'larini olish uchun (korporativ bank kartasi bundan mustasno) tasarruf etish imkonini beradi;

B) o'z saqllovchisiga, ya'ni yuridik shaxsning vakolatiga ega xodimi yoki yakka tartibdagi tadbirkorga karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini boshqarish imkoniyatini beradi;

C) o'z saqllovchisiga u va bank kartasi emitenti o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga binoan to'lov operatsiyalarini amalga oshirish va (yoki) naqd pul mablag'larini olish uchun (bundan korporativ bank kartasi mustasno) tegishli karta hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'idan ortiq operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi;

D) A va B javoblar to'g'ri.

7. Kredit karta –

A) o'z saqllovchisiga u va bank kartasi emitenti o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga binoan to'lov operatsiyalarini amalga oshirish va (yoki) naqd pul mablag'larini olish uchun (bundan korporativ bank kartasi mustasno) tegishli karta

hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'idan ortiq operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi;

B) o'z saqlovchisiga u va bank kartasi emitenti o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga binoan tegishli karta hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'i doirasida to'lov operatsiyalarini amalga oshirish va (yoki) naqd pul mablag'larini olish uchun (korporativ bank kartasi bundan mustasno) tasarruf etish imkonini beradi;

C) o'z saqlovchisiga, ya'ni yuridik shaxsning vakolatiga ega xodimi yoki yakka tartibdagi tadbirkorga karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini boshqarish imkoniyatini beradi;

D) A va B javoblar to'g'ri.

8. E-wallet – bu...

A) elektron pullarni saqlashga va bir to'lov tizimi doirasida ishlatishga mo'ljallangan dasturiy ta'minotdir;

B) o'z saqlovchisiga, ya'ni yuridik shaxsning vakolatiga ega xodimi yoki yakka tartibdagi tadbirkorga karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini boshqarish imkoniyatini beradi;

C) o'z saqlovchisiga u va bank kartasi emitenti o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga binoan tegishli karta hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'i doirasida to'lov operatsiyalarini amalga oshirish va (yoki) naqd pul mablag'larini olish uchun (korporativ bank kartasi bundan mustasno) tasarruf etish imkonini beradi;

D) kriptovalyuta.

III BOB. ELEKTRON TO'LOV TIZIMI VA UNING BANKLARARO HISOB-KITOBLARNI TASHKIL ETISHDAGI O'RNI

3.1. Elektron to'lov tizimining mohiyati va uning O'zbekistonda tashkil etilishi asoslari

Elektron to'lov tizimi to'g'risida so'z yuritishdan avval elektron to'lovlar to'g'risida to'xtalib o'tish o'rinlidir. Elektron to'lovlar sifatida keng ma'noda elektron usulda hisobga olinuvchi, qayta ishlanuvchi va qabul qilinuvchi to'lovlar tushuniladi. Elektron to'lovlar elektron tijorat tranzaksiyalari (business to consumer, B2C), xaridorlar orasidagi elektron to'lovlar (person to person, P2P) hamda bank tizimi tomonidan taqdim qilinayotgan an'anaviy to'lov instrumentlari asosidagi yangi konsepsiyalarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida "elektron to'lov" - axbot texnologiya vositalarini qo'llagan holda xo'jalik shartnomalari yoki boshqa asos bo'luvchi to'lov hujjatlari orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarning amalga oshirilishidir. Pulning muomala vositasi va to'lov vositasi funksiyalarining amalga oshishi jarayonida elektron to'lovlar yuzaga keladi.

Pul muomalasini tashkil qilishda to'lovlarda qatnashuvchi jismoniy va yuridik shaxslarning ishtiroki, umumqabul qilingan to'lov instrumentlari hamda belgilangan tartibda to'lovlarni amalga oshirish jarayonlari mavjud bo'ladi. Pulning kapital sifatida harakat qilishi uchun lozim bo'lgan Pul – Tovar - Pul formulasining mamlakat iqtisodiyotida amal qilishi pul oqimlarining tez va to'liq amalga oshirilishi bilan bog'liq. Ushbu jarayon esa to'lov tizimlarining samarali va to'laqonli faoliyat yuritishi bilan uzviy bog'liq bo'lib hisoblanadi.

Tijorat banklari to'lov tizimida *to'lov tizimining operatori* yoki *to'lov tizimining ishtirokchisi* sifatida ishtirok etishlari mumkin.

To'lov tizimi doirasida hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun tijorat banklari Markaziy bankda vakillik hisobraqamini ochadilar va To'lov kliring markazida to'lov kliring hisobraqamlarini ochadilar. Qonunchilikka ko'ra, to'lov tizimi

operatori bilan hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi va to'lov tizimida ishtirok etish to'g'risida shartnoma tuzgan banklar *to'lov tizimining ishtirokchilari* hisoblanadi⁴².

Banklar va to'lov tashkilotlari to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarga to'lov xizmatlarini to'lov agenti va to'lov subagenti orqali ko'rsatishga haqli.

To'lov tizimi operatori o'z faoliyatini tegishli tartibda Markaziy bankdan litsenziya olganidan va to'lov tizimi qoidalarini kelishib olganidan keyin amalga oshiradi.

2006 yil 14 fevraldagi 1545-son "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom" qoidalariga asosan, ABM bilan tuziladigan shartnoma asosida MB HKM orqali elektron to'lovlarni amalga oshiruvchi banklar banklararo to'lov tizimining ishtirokchilari hisoblanadi.

Banklararo to'lov tizimiga ulanishning uchta varianti mavjud:

- 1) bankning To'lov (Hisob-kitob) markazini ulanishi;
- 2) filialga ega bo'lmagan banklarni ulanishi (bunda elektron to'lovlar bankning amaliyot boshqarmasi orqali amalga oshiriladi);
- 3) bank filialini ulanishi.

To'lov tizimining tarkibiga:


- A) to'lov tizimining operatori (TT qoidalarini belgilaydi);
- B) bir yoki bir necha to'lov infratizimi xizmatlari operatorlari;
- C) TT ishtirokchilari, ulardan kamida uchta to'lov operatorlari bo'lishi lozim (barcha tijorat banklari to'lov operatorlari sifatida qaralishi mumkin). To'lov infratizimi operatorlariga operatsion markaz, to'lov kliring markazi va hisob-kitob markazi kiradi.

To'lov tizimi xizmatlariga Operatsion Markaz orqali ruxsat beriladi. Bunda To'lov kliring markazi to'lov hujjatlarini tekshiradi, to'lov kliring pozitsiyalarini hisob-kitobini amalga oshiradi, jami to'lov kliring hisob-kitoblari (To'lov kliring markazi ma'lumoti asosida banklarning vakillik hisobraqamlariga pul

⁴²O'zbekiston Respublikasi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi 01.11.2019 yildagi O'zRQ-578-sonli Qonuni.
– 5-modda

mablag‘larining kelib tushishi va chiqib ketishi) ni Hisob-kitob markazi amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari filiallar sonining o‘shish dinamikasini 3.1 - rasm ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin.




3.1-rasm. Tijorat banklari filiallari soni dinamikasi⁴³

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, tijorat banklari filiallari soni 2016-2018 yillar davomida ortib borgan, bu esa, Markaziy bankning elektron to‘lov tizimlariga ulangan foydalanuvchilar sonining ortishiga olib keladi. 2019 yilda filiallar sonining kamayishi iqtisodiy samaradorligi bo‘lmagan bank filiallarining yopilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu mijozlarga to‘lov xizmatlari sifatining ortishiga olib kelgan.

Tijorat banklarining Markaziy bank banklararo to‘lov tizimidagi foydalanuvchi sifatidagi ishtirokini quyidagicha elektron to‘lov hujjatlarining o‘tish sxemasida ifodalash mumkin.


⁴³ O‘zR Markaziy bankining 2016-2020 yillar Statistik Byulleteni ma’lumotlari asosida shakllantirildi.



3.2-rasm. Elektron to'lov hujjatlarining o'tish sxemasi⁴⁴.

To'lov xizmatlari bozoriga yangi ishtirokchilarning kirib kelishini ta'minlash orqali raqobatni kuchaytirish maqsadida to'lov tashkilotlari faoliyati rag'batlantirilmoqda. 03.01.2023 yil holatiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 44 ta tashkilotga (Click, Oson, Payme va h.k.) to'lov tashkiloti hamda 2 ta yuridik shaxsga ("Milliy banklararo protsessing markazi" MChJ va "Yagona umumrespublika protsessing markazi" MChJ) to'lov tizimi operatori faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar taqdim etilgan. Hozirgi paytda mamlakatimiz to'lov xizmatlari bozorida to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi sub'yektlar sifatida 31 ta tijorat banki, 44 ta to'lov tashkilotlari, 15 ta elektron pul operatorlari faoliyat yuritmoqda. Quyida to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar aks ettirilgan.

⁴⁴ <https://cbu.uz/oz/payment-systems/interbank/>



3.3 – rasm. To‘lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar⁴⁵.

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi tijorat banklari o‘rtasidagi so‘mdagi hisob-kitoblarning katta qismi O‘zR Markaziy bankining Banklararo to‘lov tizimi orqali o‘tkaziladi. Mazkur to‘lov tizimida to‘lovlar real vaqt rejimida yalpi hisob-kitob tamoyili asosida ishlaydi, ya’ni to‘lov hujjati kelib tushgan vaqtdan boshlab bir necha soniyalar ichida to‘lov amalga oshiriladi hamda natijasi haqida tashabbuskor va benefitsiarga xabar yuboriladi.

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi 01.11.2019 yildagi O‘zRQ-578-sonli Qonuni – 13-modda.

3.2. Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi, uning ishlash prinsiplari

Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi mamlakatimizning mustaqillikdan keyingi dastlabki to'lov tizimi sifatida barcha to'lov tizimlari ishlashi uchun poydevor bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi kunda Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimida to'lovlarni amalga oshirish maqsadida barcha tijorat banklari to'lov tizimi foydalanuvchilari sifatida ulangan.

Mazkur to'lov tizimida to'lovlar real vaqt rejimida yalpi hisob-kitob tamoyili asosida ishlaydi, ya'ni to'lov hujjati kelib tushgan vaqtdan boshlab bir necha soniyalar ichida to'lov amalga oshiriladi hamda natijasi haqida tashabbuskor va benefitsiarga xabar yuboriladi.

Banklararo to'lov tizimining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi quyidagi normativ -huquqiy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi:

- O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida» gi Qonuni (11.11.2019 y., O'RQ-582);
- O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi Qonuni (05.11.2019 y., O'RQ-580);
- O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida» gi Qonuni (01.11.2019 y., № O'RQ-578);
- "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida" gi Nizom (14.02.2006 y., № 1545);
- "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida" gi Nizom (13.04.2020 y., № 3229).

Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi va Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi banklararo to'lov tizimining *ishtirokchilari* hisoblanadi. Banklararo to'lov tizimining *foydalanuvchilari* Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida vakillik hisobvarag'iga ega bo'lgan banklar va moliyaviy institutlardir.

Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi (MB HKM) - tijorat banklarining Bosh ofislariga (banklar) vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko'rsatish hamda ular o'rtasida elektron to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash vazifasini amalga oshiradi.

Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi (ABM) — amaldagi qonunchilik hamda ABM va banklar o'rtasidagi shartnomalarga muvofiq banklararo to'lov tizimining texnik, dasturiy va ekspluatatsion xizmatlarini ta'minlaydigan markazdir.

Banklararo to'lov tizimining ishtirokchilari va foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlari banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko'rsatish uchun foydalanuvchi banklarning MB HKM bilan, banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlar o'tkazish uchun esa — ABM bilan tuzilgan ikki tomonlama shartnoma asosida tartibga solinadi.

To'lovlar banklardan faqatgina vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i doirasida amalga oshiriladi, MB HKM va bank o'rtasidagi shartnomada boshqa holat kelishilgan hollar bundan mustasno.

Soat 9-00 dan 17-00 gacha — banklararo hisob-kitoblar bo'yicha elektron to'lov hujjatlar (ETH)ni uzatish - qabul qilish - nazorat qilish vaqti. Banklar mazkur davrning har qanday vaqtida MB HKMga ETHlarni uzatishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kreditni boshqarish xususiyat (parametr) laridan kelib chiqqan holda, banklararo ETHlarining o'tkazish vaqtini to'lov tizimi masalalarini nazorat qiluvchi rais o'rinbosarining yozma farmoyishiga asosan uzaytirishi mumkin. Bu haqda tizim qatnashchilari va foydalanuvchilari ETHga ishlov berish vaqtining tugashiga bir soat qolguniga qadar kechiktirilmasdan xabardor qilinadi.

Mamlakatimizda Markaziy bank to'lov tizimidan foydalanuvchilar sonining yildan-yilga oshib borayotganligi Bank depozitorlari milliy axborotlar bazasi(BDMAB)da ro'yxatga olingan mijozlar va ularning hisobvaraqlarining soni bo'yicha quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotdan yaqqol ko'rinadi. 2011 yil 1 yanvarda mijozlar soni 1 159 890 tani, hisobvaraqlar soni esa 3 926 356 tani tashkil

qilgan bo‘lsa, 2020 yil 1 yanvariga kelib, mijozlar soni mos ravishda 2 094 262 tani, hisobvaraqlar soni esa 7 740 964 tani tashkil qilgan. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, 10 yil davomida mamlakatimizda BDMABda ro‘yxatga olingan mijozlar soni ham, hisobvaraqlar soni ham qariyb ikki baravarga ortgan (3.1-jadval).

3.1-jadval

Bank depozitorlari milliy axborotlar bazasida ro‘yxatga olingan mijozlar va ular hisobvaraqlarining soni⁴⁶

Yil	Mijozlar soni	Hisobvaraqlar soni
2011	1 159 890	3 926 356
2012	1 224 732	4 207 601
2013	1 285 424	4 289 556
2014	1 359 831	4 622 770
2015	1 432 849	5 030 704
2016	1 515 004	5 364 838
2017	1 638 673	5 809 172
2018	1 755 492	6 469 921
2019	1 880 634	7 263 621
2020	2 094 262	7 740 964


BDMABda ro‘yxatga olingan mijozlar va hisobvaraqlar sonining ortishi parallel ravishda Banklararo to‘lov tizimi orqali o‘tkazilayotgan tranzaksiyalar summasining ortishiga olib kelgan. 2015 yilda ushbu tizim orqali o‘tkazilgan tranzaksiyalar soni 65 096 mingtani tashkil qilib, ularning summasi 673 017 mln.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib, tizim orqali o‘tkazilgan tranzaksiyalar soni 53 000 ming donani, summasi esa 1 890 510 mln so‘mni tashkil qilgan.

2020 yilda Markaziy bankning Banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2019 yilga nisbatan 67,8 foizga oshib, 1 890,5 trln. so‘mni tashkil etgani, asosan, Markaziy bankning qisqa muddatli pul-kredit instrumentlari – “Repo” va “Svop” hamda depozit operatsiyalari amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

2020 yilda Banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar sonining 2019 yilga nisbatan 24 foizga yoki 70 mln.tadan 53 mln.tagacha kamayishi pandemiya ta’sirida iqtisodiy faollikning pasayishi hamda Tezkor to‘lovlar


⁴⁶ cbu.uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

tizimining ishga tushishi bilan bog‘liq. 2021 yil davomida esa ushbu to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2020 yilga nisbatan keskin oshgan, ya’ni 2020 yil davomida amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 1 890 510 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 yil davomida amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2 785 600 mlrd so‘mni tashkil etgan (3.4-rasm).



3.4-rasm. Markaziy bankning Banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni va summasi

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi tijorat banklari o‘rtasidagi so‘mdagi hisob-kitoblarning katta qismi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Banklararo to‘lov tizimi orqali o‘tkaziladi. Mazkur to‘lov tizimida to‘lovlar real vaqt rejimida yalpi hisob-kitob tamoyili asosida ishlaydi, ya’ni to‘lov hujjati kelib tushgan vaqtdan boshlab bir necha soniyalar ichida to‘lov amalga oshiriladi hamda natijasi haqida tashabbuskor va benefitsiarga xabar yuboriladi.



3.5 - rasm. Markaziy Bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblarda ishtirokchilar ulushi⁴⁷.


Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlarni tijorat banklari kesimida 2020 yil uchun tahlil qilinadigan bo'lsa, yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Banklararo to'lov tizimi orqali o'tkazilayotgan to'lovlarda eng katta ulush Markaziy bank hissasiga (59,95%) to'g'ri kelmoqda. Bu omil G'aznachilik byudjet hisob-kitoblarining Markaziy bank orqali o'tishi bilan bog'liq. Tijorat banklarining Banklararo to'lovlar tizimida eng ko'p summadagi tranzaksiyalari bo'yicha birinchi uch yirik ishtirokchi Milliybank (4,07%), O'zsanoatqurilishbank (3,73%), Agrobank (3,34%) bo'lib hisoblanadi.

⁴⁷O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020 yildagi faoliyati to'g'risidagi Hisobot, Toshkent – 2021.

3.3. Markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring tizimi, uning tashkil qilinishi va ishlash prinsiplari

Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi faoliyati “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar kliring tizimi to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami 2570, 2014 yil 4 aprel) talablari asosida tartibga solinadi. Bugungi kunga kelib, hisob-kitoblar kliring tizimi orqali jami 35 dan ortiq xizmatlar bo‘yicha to‘lovlar real vaqt rejimida amalga oshirilmoqda. Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi respublikada faoliyat yuritayotgan chakana to‘lov tizimlarining (Uzcard va Humo) bank kartalari orqali o‘tkazilgan tranzaksiyalari natijasi bo‘yicha kliring amaliyotlarini bajarish bo‘yicha “Hisob-kitob banki” vazifasini ham amalga oshirib kelmoqda.


2020 yilda Markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring tizimi orqali amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi 2019 yilga nisbatan qariyb 24 foizga o‘sib, 25 trln. so‘mni tashkil etdi. 2021 davomida Hisob-kitoblar kliring tizimi orqali amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi 36 trln. so‘mni tashkil etganini quyidagi ma’lumotlar orqali ko‘rish mumkin.



3.6-rasm. Markaziy bankning hisob-kitoblar Kliring tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi, mlrd so‘m⁴⁸.

⁴⁸cbu.uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Hisob-kitoblar Kliring tizimida kommunal tashkilotlar, byudjet to‘lovlari, soliq va bojxona to‘lovlari, davlat bojlari va jarimalar, notariat hamda FHDYO to‘lovlari, pasport yig‘imlari, davlat va kadastr xizmatlari to‘lovlari, avtomashinalar sotib olish, aloqa xizmatlari va boshqa ko‘plab xizmatlar uchun to‘lovlar real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Quyida ushbu to‘lov tizimi orqali o‘tkazilgan tranzaksiyalarni tizim ishtirokchilari kesimida 2020 yil ma’lumotlari asosida tahlilili keltirildi.



3.7-rasm. Markaziy Bankning Hisob kitoblar Kliring to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblarda ishtirokchilar ulushi⁴⁹.


Markaziy bankning Hisob-kitoblar Kliring to‘lov tizimida 2020 yilda o‘tkazilgan tranzaksiyalar summasi bo‘yicha eng yirik ishtirokchilar Ipotekabank (19,29%), Agrobank (14,19%) hamda Xalq banki (13,07%) bo‘lib hisoblanadi.

⁴⁹O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020 yildagi faoliyati to‘g‘risidagi Hisobot, Toshkent – 2021.

3.4. Markaziy bankning Tezkor to'lovlar tizimi, uning tashkil qilinishi va ishlash prinsiplari

2020 yilning fevral oyida **Tezkor to'lovlar tizimi** ishga tushirilishi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali to'lovlarni tunu-kun 24/7 rejimida amalga oshirish imkonini yaratdi. 2020 yilning sentyabr oyida Tezkor to'lovlar tizimi orqali Moliya vazirligi G'aznachiligiga byudjet va soliq to'lovlari o'tkazish hamda banklarning ssuda hisobvaraqlaridan to'lovlarni 24/7 rejimida amalga oshirish imkoniyati ham yaratildi. Natijada, 2020 yilda Tezkor to'lovlar tizimi orqali jami 128,3 trln. so'mlik qariyb 5,4 mln. ta tranzaksiyalar, jumladan, G'aznachilikka 232 mingdan ortiq 2 trln. so'mlik byudjet to'lovlari o'tkazildi (2.3 - rasm).


2021 yilda mazkur tizim orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi o'tgan yilga nisbatan 2,5 barobarga oshib, 315,8 trln. so'mni, tranzaksiyalar soni esa 2,3 barobarga oshib, 12,3 mln.tani tashkil etdi. Bunda, Moliya vazirligi G'aznachiligiga o'tkazilgan byudjet to'lovlari hajmi 2020 yilga nisbatan qariyb 6 barobarga o'sib, 11,7 trln.so'mga yetdi. Ushbu tizimdan amalga oshirilgan jami tranzaksiyalar sonining 14 foizi kechki/tungi vaqtda amalga oshirilgan operatsiyalar hisobiga to'g'ri kelgan⁵⁰.



3.8-rasm. Markaziy bankning Tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni va summasi, mlrd so'm⁵¹.

⁵⁰ Markaziy bankning 2021 yil uchun hisoboti, 127-bet.

⁵¹cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



3.9- rasm. Markaziy Bankning Tezkor to‘lovlar tizimi orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblarda ishtirokchilar ulushi⁵².

Markaziy bankning Tezkor to‘lovlar tizimi 2020 yilning I choragida ishga tushgan bo‘lsa-da, hozirgi paytda barcha tijorat banklari ushbu to‘lov tizimiga ulangan.

Tezkor to‘lovlar tizimi orqali amalga oshirilgan to‘lovlar hajmini ishtirokchilar kesimida 2020 yil yakunlariga ko‘ra tahlilini yuqoridagi ma‘lumotlar asosida o‘rganilganda, ushbu tizimning eng yirik ishtirokchilari Milliybank (18,50%), O‘zsanoatqurilishbank (16,60%) hamda Hamkorbank (10,60%) bo‘lib hisoblanadi.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

Elektron to‘lov, elektron to‘lov tizimi, elektron to‘lov tizimining operatori, elektron to‘lov tizimining ishtirokchilari, Markaziy bankning Banklararo to‘lov tizimi, Markaziy bankning Hisob-kitob kliring tizimi, Markaziy bankning Tezkor to‘lovlar tizimi.

⁵²O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020 yildagi faoliyati to‘g‘risidagi Hisobot, Toshkent – 2021.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Elektron to'lov nima?
2. Elektron to'lov tizimi deganda nimani tushunasiz?
3. Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi qaysi normativ - huquqiy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi?
4. To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi tashkilotlarni keltiring.
5. Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimida operatsion kun davomiyligini ayting.
6. Hisob-kitoblar kliring tizimining ishlash prinsiplarini keltiring.
7. Markaziy bankning Tezkor to'lovlar tizimi qachon ishga tushgan?
8. Chakana to'lov tizimlarining (Uzcard va Humo) bank kartalari orqali o'tkazilgan tranzaksiyalari natijasi bo'yicha kliring amaliyotlarini bajarish bo'yicha "Hisob-kitob banki" vazifasini qaysi to'lov tizimi amalga oshiradi?

TESTLAR:

1. Elektron to'lov -...
 - A) axbot texnologiya vositalarini qo'llagan holda xo'jalik shartnomalari yoki boshqa asos bo'luvchi to'lov hujjatlari orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarning amalga oshirilishidir;
 - B) xo'jalik shartnomalari yoki boshqa asos bo'luvchi to'lov hujjatlari orqali naqd puldagi hisob-kitoblarning amalga oshirilishidir;
 - C) axbot texnologiya vositalarini qo'llagan holda xo'jalik shartnomalari yoki boshqa asos bo'luvchi to'lov hujjatlari orqali naqd puldagi hisob-kitoblarning amalga oshirilishidir;
 - D) to'g'ri javob keltirilmagan.
2. To'lov tizimining tarkibiga nimalar kiradi?
 - A) to'lov tizimining operatori, bir yoki bir necha to'lov infratizimi xizmatlari operatorlari, to'lov tizimi ishtirokchilari;

- B) to'lov tizimining operatori, to'lov tizimi ishtirokchilari;
- C) to'lov tizimining operatori, bir yoki bir necha to'lov infratizimi xizmatlari operatorlari;
- D) to'g'ri javob keltirilmagan.

3. To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar kimlar?

- A) Markaziy bank, tijorat banklari, to'lov tashkilotlari, to'lov agentlari va subagentlari;
- B) Markaziy bank, tijorat banklari, to'lov tashkilotlari, to'lov agentlari;
- C) Markaziy bank, tijorat banklari, to'lov tashkilotlari;
- D) Markaziy bank va tijorat banklari.

4. Banklararo to'lov tizimining *ishtirokchilari* kimlar?

- A) Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi va Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi;
- B) tijorat banklari;
- C) to'lov tashkilotlari;
- D) to'g'ri javob keltirilmagan.

5. Banklararo to'lov tizimining *foydalanuvchilari* kimlar?

- A) Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida vakillik hisobvarag'iga ega bo'lgan banklar va moliyaviy institutlar;
- B) Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi va Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi;
- C) to'lov tashkilotlari;
- D) to'g'ri javob keltirilmagan.

6. Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi (ABM) — ...

- A) amaldagi qonunchilik hamda ABM va banklar o'rtasidagi shartnomalarga muvofiq banklararo to'lov tizimining texnik, dasturiy va ekspluatatsion xizmatlarini ta'minlaydigan markaz;
- B) amaldagi qonunchilik hamda ABM va banklar o'rtasidagi shartnomalarga muvofiq banklararo to'lov tizimining moliyaviy xizmatlarini ta'minlaydigan markaz;
- C) amaldagi qonunchilik hamda ABM va banklar o'rtasidagi shartnomalarga muvofiq banklararo to'lov tizimining faqat texnik xizmatlarini ta'minlaydigan markaz;
- D) to'g'ri javob keltirilmagan.

7. Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi (MB HKM) — ...

- A) tijorat banklarining Bosh ofislariga (banklar) vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko'rsatish hamda ular o'rtasida elektron to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash vazifasini amalga oshiradi;
- B) amaldagi qonunchilik hamda ABM va banklar o'rtasidagi shartnomalarga muvofiq banklararo to'lov tizimining texnik, dasturiy va ekspluatatsion xizmatlarini ta'minlaydigan markaz;
- C) amaldagi qonunchilik hamda ABM va banklar o'rtasidagi shartnomalarga muvofiq banklararo to'lov tizimining faqat texnik xizmatlarini ta'minlaydigan markaz;
- D) to'g'ri javob keltirilmagan.

8. Markaziy bankning Tezkor to'lovlar tizimi qachon ishga tushgan?

- A) 2020 yilning I choragida;
- B) 2021 yilning I choragida;
- C) 2020 yilning II choragida;
- D) to'g'ri javob keltirilmagan.

IV BOB. YAGONA VAKILLIK HISOBVARAG'I ORQALI HISOB-KITOBLARGA ASOSLANGAN TO'LOV TIZIMI

4.1. Tijorat banklarining vakillik munosabatlari, yagona vakillik hisobvarag'ining mohiyati, to'lov tizimida tutgan o'rni

Bir bank mijozining hisobvarag'idan ikkinchi bank mijozining hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazish zarurati yoki bir bankning ikkinchi bankka depozit, kredit bo'yicha va boshqa maqsadlarda mablag'larini o'tkazishga zaruriyat tug'ilganida tijorat banklari o'rtasida *vakillik munosabatlari* yuzaga keladi. Ya'ni bir bankdan ikkinchi bankka mablag'larni o'tkazish uchun vakillik munosabatlarini o'rnatish zaruriyati yuzaga keladi. Bunday munosabatlarni yo'lga qo'yish maqsadida tijorat banklari Markaziy bankda yagona vakillik hisobvarag'ini ochish orqali hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

Bundan tashqari, tijorat banklari o'zlari bir tijorat banki ikkinchi tijorat bankida vakillik hisobvarag'ini ochish orqali hisob-kitoblar ham amalga oshiriladi. Tijorat banklari o'zaro tuzilgan vakillik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma bo'yicha bir bankdan ikkinchi bankka o'tkazilayotgan to'lovlarni amalga oshirish uchun bir-birida vakillik hisobvaraqlarini ochadilar. Hisobvaraqlar qaysi bankda ochilayotgan bo'lsa, bu respondent-bank; hisobvaraqlar respondent-bankda ochilayotgan, ya'ni hisobvaraqlar ochtirayotgan bank korrespondent-bank deb yuritiladi.

Tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlari quyidagilarga bo'linadi:

Loro hisobvaraqlar – respondent-bankda korrespondent-bank uchun ochilgan hisobvaraqlardir. Loro hisobvaraqlar uni ochilayotgan bankning balansida balansning passiv qismida aks ettiriladi. Masalan, Asakabankda Milliybank uchun vakillik hisobvarag'i ochilgan bo'lsa, bu hisobvaraqlar Asakabank uchun Loro-hisobvaraqlardir.

Nostro hisobvaraqlar – respondent-bankning korrespondent-bankdagi ochilgan hisobvarag'i bo'lib hisoblanadi. Nostro hisobvaraqlar uni ochilayotgan bankning balansida aktiv qismida hisobga olinadi.

Quyida ta'kidlab o'tilgan vakillik hisobvaraqlari orqali hisob-kitoblar qanday amalga oshirilishiga yanada oydinlik kiritamiz. Demak, tijorat banklari bir-birida vakillik hisobvaraqlarini ochishlari mumkin. To'lovlarni o'tkazishga esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Banklararo to'lov tizimi xizmat qiladi, shuningdek, Markaziy bank tarkibida Hisob-kitoblar kliring tizimi va Tezkor to'lovlarni tizimi to'lovlarni o'tkazadi. Barcha tijorat banklari Markaziy bank Hisob-kitoblar markazida yagona vakillik hisobvaraqlariga ega.

Aynan Banklararo to'lov tizimi tarkibida **Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi** (keyingi o'rinlarda — MB HKM) tashkil etilgan bo'lib, uning funksiyalariga tijorat banklarining Bosh ofislariga va Markaziy bankka *vakillik hisobvaraqlarini* ochish va xizmat ko'rsatish hamda ular o'rtasida elektron to'lovlarning belgilangan vaqt davomida uzluksiz amalga oshirilishini ta'minlash kiradi.

Shu o'rinda vakillik hisobvarag'i tushunchasiga oydinlik kiritib o'tish zarur.

Vakillik hisobvaraqlari — bu bankka MB HKMda ochilgan va banklararo elektron to'lovlarni o'tkazishga mo'ljallangan hisobvaraqlardir⁵³.

Tijorat banklari orasida to'lovlarning Markaziy bank Banklararo to'lov tizimi tarkibida tashkil qilingan Hisob-kitoblar markazida bankning Bosh ofisi uchun ochilgan vakillik hisobvarag'i orqali elektron tarzda o'tkazilishi hozirgi davr uchun xos.

Mustaqillik yillarining dastlabki davrlarida hisob-kitoblar pochta va tashuvchilar orqali viloyatlarning yagona hisoblash markazida amalga oshirilgan. Viloyatlar ichidagi to'lovlarda bu jarayon bir haftani tashkil qilgan bo'lsa, viloyatlararo to'lovlarda bir mijozning hisobvarag'idan ikkinchi mijozning hisobvarag'iga bir oydan ikki oygacha bo'lgan muddat mobaynida kelib tushgan.

Mamlakatda elektron to'lov tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida 1995 yilning oxirida barcha tijorat banklari Markaziy bankning hisob-kitob markazlari, kliring markazlari elektron to'lov tizimiga qo'shildi. 2003

⁵³ "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida" 1545-son Nizom (14.02.2006).

yil 8 sentyabrda tijorat banklarini banklararo to'lovlarni yagona vakillik hisobvarag'i orqali amalga oshirish tizimi to'liq ishga tushirildi va barcha banklarda markazlashtirilgan axborot tizimi tashkil etildi. Bu banklarga kundalik to'lovlar o'tkazish uchun band bo'lgan mablag'larni bir qismini bo'shashiga va ularni o'rinli aktivlarga joylashtirishga, bank o'z filiallarini mavqeini tahlil qilib kerakli chora ko'rishga, bankning kunlik yagona balansi uning likvidligini, tavakkalchiliklarini, majburiyatlarni, o'z kapitalini aniq ifoda etishga imkon berdi.

Tijorat banklarining bosh ofislari Markaziy bankda ochgan yagona vakillik hisobvarag'ini 10301 – “Markaziy bankdagi vakillik hisobraqami - Nostro” deb nomlanadi. Yagona vakillik hisobvarag'iga o'tish tijorat banklarining barcha filiallari balanslari bosh bankdagi balans bilan birlashtirilib konsolidatsiyalangan yagona balansga o'tilishiga yordam berdi.

4.2. Tijorat banklarining yagona vakillik hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalari

Har bir tijorat bankining bosh ofisida To'lov (Hisob-kitob) markazi mavjud bo'lib, MB HKM ga bankning To'lov markazi ulanadi. Har bir bankning To'lov markazida filiallar uchun vakillik hisobvaraqlari ochiladi. Bank filiallarining bosh bank ofisidagi To'lov markazida ochgan vakillik hisobvarag'i mablag'lari bo'yicha operatsiyalar 22204 – “Banklararo hisob-kitoblar bo'yicha to'lanadigan mablag'lar” hisobraqamida aks ettiriladi.

MB HKMda ***vakillik hisobvaraqlari yuritilishida rioya qilinishi lozim bo'lgan tamoyillar*** quyidagilardir:

- 1) MB HKMda banklarning vakillik hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish amaliyot kuni davomida amalga oshiriladi. Banklararo to'lov tizimi amaliyot kuni bank ish kunida rasman soat 09-00dan 17-00gacha qilib belgilangan.
- 2) Elektron to'lovlar banklardan faqatgina vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i doirasida amalga oshiriladi, agarda shartnomada boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa.

- 3) Bank banklararo elektron to'lovlar o'tkazishga o'zining MB HKMdagi vakillik hisobvarag'i va bankdagi tegishli hisobvarag'idagi aylanma va qoldiq summalarining muvofiqligini tahlil qilgandan keyingina kirishadi.

Yagona vakillik hisobvarag'i asosida ishlashiga qaramay, *bank filiallari* o'zining mijozlari o'rtasidagi barcha to'lovlarni bank xizmatini ko'rsatish uchun tuzgan shartnomasiga muvofiq *mustaqil ravishda* amalga oshiradi.

Tijorat banki to'lov markazida har bir filialning vakillik hisobvarag'idagi qoldiq 22204- "Banklararo hisob-kitoblar bo'yicha to'lanadigan mablag'lar" balans hisobraqamida hisobga olinadi. Barcha banklararo va filiallararo hisob-kitoblar ushbu hisobraqamlar orqali amalga oshiriladi.

Tashabbuskor bankda, ichki nazorat va elektron raqamli imzo tekshiruvi o'tkazilganidan so'ng, banklararo hisob-kitoblar bo'yicha tegishli buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi.

Tashabbuskor bankning To'lov (Hisob-kitob) markazida filiallardan olingan elektron to'lov hujjatlariga asosan kredit operatsiyalari bo'yicha, ya'ni filial nomidan boshqa banklarga pul o'tkazilsa:

DEBET 22204 tegishli filial hisobvarag'i;

KREDIT 10301 bankning hisobvarag'i.

Debet operatsiyalari bo'yicha, ya'ni filial nomiga boshqa banklardan pul kelsa:


DEBET 10301 bankning hisobvarag'i;

KREDIT 22204 tegishli filial hisobvarag'i.

Agar mijozning hisobvaraqa raqami noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, bu holda mablag'lar oluvchi uchun 23206 — «Aniqlanish jarayonidagi transaksiyalar» hisobvarag'iga yoki to'lovchi uchun 17305 — «Aniqlanish jarayonidagi transaksiyalar» hisobvarag'iga o'tkaziladi, undan uch ish kuni mobaynida maqsadi bo'yicha hisobdan o'chirilishi kerak.

Quyida to'lovlarning A bank filialidan A bank bosh banki orqali Markaziy bank Hisob-kitoblar markaziga yuborilishi, to'lov hujjati Markaziy bank To'lov markazi, Markaziy bank Hisob-kitob kassa markazlarida hisobga olingan holda B

bankning bosh banki orqali uning filialiga o‘tkazib berilishi jarayonini ko‘rish mumkin. Ushbu jarayonlarda A va B bosh banklarning Markaziy bank HKMda ochilgan yagona vakillik hisobvaraqlari ishtirok etadi.



4.1.-rasm. Elektron to‘lov hujjatlarining o‘tish sxemasi⁵⁴

Banklararo to‘lovlar Markaziy bankning Tezkor to‘lovlar tizimi (keyingi o‘rinlarda — Tezkor to‘lovlar tizimi) orqali uzluksiz ravishda amalga oshirilishi ham mumkin. Ya’ni Tezkor to‘lovlar tizimi orqali banklararo hisob-kitoblar uzluksiz (dam olish kunlarisiz) tunu kun 24/7 rejimida onlayn tarzda amalga oshiriladi.

Bunda *tijorat banklarining Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘i qoldig‘idan kelib chiqqan holda limit belgilanadi va hisob-kitoblar mazkur limit qoldig‘i doirasida amalga oshiriladi*. Banklar to‘lovlar uzluksizligini ta’minlash maqsadida vakillik hisobvaraqlari likvidligini ta’minlashlari shart.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

Vakillik munosabatlari, vakillik hisobvarag‘i, loro hisobvaraq, nostro hisobvaraq, yagona vakillik hisovarag‘i, Markaziy bankning Hisob-kitob markazi, vakillik hisobvaraqlari yuritilishida rioya qilinishi lozim bo‘lgan tamoyillar.

⁵⁴ “Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali elektron to‘lovlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida” 1545-son Nizom (14.02.2006).

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Vakillik munosabatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Vakillik hisobvarag'i nima?
3. Markaziy bankning Hisob-kitob markazi faoliyatini tushuntirib bering?
4. Vakillik hisobvaraqlari yuritilishida rioya qilinishi lozim bo'lgan tamoyillarni sanab bering.
5. Loro hisobvarag'i nima?
6. Nostro hisobvarag'i nima?
7. Markaziy bankning Tezkor to'lovlar tizimida hisob-kitoblar qaysi vaqt oralig'ida amalga oshirilishi mumkin?
8. Tashabbuskor bankning To'lov (Hisob-kitob) markazida filiallardan olingan elektron to'lov hujjatlariga asosan kredit operatsiyalari bo'yicha, ya'ni filial nomidan boshqa banklarga pul o'tkazilgandagi buxgalteriya provodkasini keltiring?

TESTLAR:

1. *Loro hisobvaraqa* – ...

A) respondent-bankda korrespondent-bank uchun ochilgan hisobvaraqa. Loro hisobraqam uni ochayotgan bankning balansida balansning passiv qismida aks ettiriladi;

B) respondent-bankning korrespondent-bankdagi ochgan hisobvarag'i bo'lib hisoblanadi. Nostro hisobraqam uni ochtirayotgan bankning balansida aktiv qismida hisobga olinadi;

C) respondent-bankda korrespondent-bank uchun ochilgan hisobvaraqa. Loro hisobraqam uni ochayotgan bankning balansida balansning aktiv qismida aks ettiriladi;

D) to'g'ri javob keltirilmagan.

2. *Nostro hisobvaraqa* – ...

A) respondent-bankning korrespondent-bankdagi ochgan hisobvarag'i bo'lib hisoblanadi. Nostro hisobraqam uni ochtirayotgan bankning balansida aktiv qismida hisobga olinadi;

B) respondent-bankda korrespondent-bank uchun ochilgan hisobvaraqdir. Loro hisobraqam uni ochayotgan bankning balansida balansning passiv qismida aks ettiriladi;

C) respondent-bankda korrespondent-bank uchun ochilgan hisobvaraqdir. Loro hisobraqam uni ochayotgan bankning balansida balansning aktiv qismida aks ettiriladi;

D) to'g'ri javob keltirilmagan.

3. Banklararo to'lov tizimi tarkibidagi Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi funksiyalariga nimalar kiradi?

A) tijorat banklarining Bosh ofislariga va Markaziy bankka *vakillik hisobvaraqlarini* ochish va xizmat ko'rsatish hamda ular o'rtasida elektron to'lovlarning belgilangan vaqt davomida uzluksiz amalga oshirilishini ta'minlash;

B) tijorat banklarining filiallariga *vakillik hisobvaraqlarini* ochish va xizmat ko'rsatish hamda ular o'rtasida elektron to'lovlarning belgilangan vaqt davomida uzluksiz amalga oshirilishini ta'minlash;

C) faqat Markaziy bankka *vakillik hisobvaraqlarini* ochish va xizmat ko'rsatish hamda ular o'rtasida elektron to'lovlarning belgilangan vaqt davomida uzluksiz amalga oshirilishini ta'minlash;

D) to'g'ri javob keltirilmagan.

4. MB HKMda banklarning vakillik hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish ...

A) amaliyot kuni davomida amalga oshiriladi;

B) sutka davomida uzluksiz amalga oshiriladi;

C) soat 09-00 dan 16-00gacha amalga oshiriladi;

D) to'g'ri javob keltirilmagan.

5. Elektron to'lovlar banklardan ... doirasida amalga oshiriladi

- A) faqatgina vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar qoldig‘i doirasida;
- B) vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘laridan tashqari kredit mablag‘lari doirasida;
- C) Markaziy bank ajratgan overdraft summasi doirasida;
- D) to‘g‘ri javob keltirilmagan.

6. Bank filiallari o‘zining mijozlari o‘rtasidagi barcha to‘lovlarni bank xizmatini ko‘rsatish uchun tuzgan shartnomasiga muvofiq

- A) mustaqil ravishda amalga oshiradi;
- B) qat‘iy bosh bank ruxsati bilan amalga oshiradi;
- C) Markaziy bank ruxsati bilan amalga oshiradi;
- D) to‘g‘ri javob keltirilmagan.

7. Tijorat banklarining bosh ofislari Markaziy bankda ochgan yagona vakillik hisobvarag‘ini

- A) 10301 – “Markaziy bankdagi vakillik hisobraqami - Nostro” deb nomlanadi;
- B) 22204 – “Markaziy bankdagi vakillik hisobraqami - Nostro” deb nomlanadi;
- C) 17305 – “Markaziy bankdagi vakillik hisobraqami - Nostro” deb nomlanadi;
- D) to‘g‘ri javob keltirilmagan.


8. O‘zbekistonda qachon tijorat banklarini banklararo to‘lovlarni yagona vakillik hisobvarag‘i orqali amalga oshirish tizimi to‘liq ishga tushirildi?

- A) 2003 yil 8 sentyabrda;
- B) 1996 yil 8 sentyabrda;
- C) 2002 yil 8 sentyabrda;
- D) to‘g‘ri javob keltirilmagan.

V BOB. MIJOZLARGA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHDA "BANK – MIJOZ" DASTURINING O'RNI

5.1. Masofaviy bank xizmatlarining mazmuni va uning tashkil etilishi

Turli xorijiy davlatlar tajribasi to'lov tizimlarining rivojlanishi birinchi navbatda to'lov vositalari va xizmatlarini kengaytirish natijasida bank operatsion xarajatlarini kamaytirish va xizmatlar samaradorligini oshirishga olib kelishini ko'rsatmoqda. Shuning bilan birga, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali onlayn to'lovlarni keng qo'llanilishi to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'liq bank xizmatlarining shaffofligini va samaradorligini oshirilishiga xizmat qiladi. Jahon amaliyotida masofadan banking va masofadan to'lov xizmatlarini texnologik xizmatlar provayderlari ham (ACI Worldwide yoki Margeta), moliyaviy institutlar ham (JP Morgan Chase va ClearBank) yetkazib berishi mumkin.



5.1.-rasm. Masofadan-banking xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni, ming⁵⁵

****Bank-mijoz, internet-banking, mobil-banking, Sms-banking.*

Yuqoridagi ma'lumotlardan O'zbekistonda so'nggi 2017-2021 yillar davomida masofadan bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni juda sezilarli ravishda o'sganini ko'rish mumkin. Bunda, ayniqsa jismoniy

⁵⁵ <https://cbu.uz/oz/payment-systems/> ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

shaxslarning ulushi salmoqli bo‘lib, foydalanuvchilar soni 2017 yil oxiridagi 4 225 ming donadan 2021 yil oxirida 19 234 ming donaga etgan (5.1.-rasm).

Masofadan ko‘rsatiladigan bank xizmatlari kelajakda yanada ommalashib boradi, buni masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining keskin oshgani ham yaqqol isbotlaydi.

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlari – bu mijozning masofadan bergan topshiriqlariga asosan (bankka kelmasdan) bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalaridir. Bunda to‘lovlar asosan kompyuter va telefon tarmoqlari orqali amalga oshiriladi. Bunday tizimlarga **Bank-Mijoz**, **Internet-banking** va **SMS-banking tizimlari** misol bo‘ladi. Hozirgi kunda barcha tijorat banklari tomonidan raqamli banking texnologiyalarini, jumladan, mobil-banking xizmatlarini real vaqt rejimida ko‘rsatish tizimlarini yanada rivojlantirish, bank kartalarini to‘liq qamrab olish maqsadida barcha banklar tomonidan jismoniy shaxslar uchun mobil-ilova to‘lov dasturlari yaratilgan va amaliyotga joriy qilingan.

Shu bilan birga, mobil-ilova to‘lov dasturlari imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida banklardagi hisobvaraqlarini boshqarish, bank karta hisobvarag‘idan bank karta hisobvarag‘iga, depozit hisobvarag‘idan - depozit hisobvarag‘iga to‘lovlarni amalga oshirish, onlayn kreditlar berish (kreditlarni so‘ndirish) va to‘lovlarni amalga oshirish, onlayn jamg‘armalar ochish, onlayn konvertatsiya amallari, savdo va xizmat ko‘rsatish shahobchalariga onlayn to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi mexanizmlar deyarli barcha banklar tomonidan joriy etildi. Ushbu mexnizmlarning yagona platformada joriy qilinishi, bank mijozlari – jismoniy shaxslarga bankdagi o‘z hisobvaraqlarini har kuni 24/7 tamoyili asosida boshqarish hamda pul mablag‘larini tasarruf etish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda banklarning mobil ilova dasturlarida jismoniy shaxslar uchun barcha bazaviy bank xizmatlari, jumladan, to‘lovlarni amalga oshirish, bank kartasini bloklash (blokdan chiqarish), mikroqarz (kredit) olish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, onlayn konversiya) joriy etilgan. Bundan tashqari, aholiga qulaylik yaratish maqsadida banklarning mobil ilovalari (veb-saytlari) orqali bank kartalarini

olish (ochish) uchun aholi tomonidan onlayn ravishda buyurtmalarni taqdim etish hamda buyurtma olinganidan so'ng bank kartalari emissiya qilinib, zarur identifikatsiya asosida mijozga uning yashash manzili bo'yicha yetkazib berish mexanizmi joriy etilgan.

5.2. “Bank-mijoz” dasturiy ta'minoti va uning asosiy vazifalari

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

Bank-mijoz dasturiy qurilmasi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Mijozning joylashgan joyida bank xizmatini ko'rsatish;
- Bank hisob operatsiyalarini o'tkazishda mijozlarga qulay sharoit yaratish;
- Mijozlar vaqtini tejash hamda bank filiallariga borish zaruratini yo'qotish.

Bank bilan modem-alloqasi orqali axborotlar almashish amalga oshiriladi, natijada ixtiyoriy geografik uzoqlikda bo'lgan banklar bilan ishlash imkonini beradi.

“Bank-mijoz” dasturida axborotlar kriptografik himoyalangan va dastur mijozni bank hujjatlarini yuritish uchun xizmat qiladi. Mijozning bankdagi shaxsiy hisob-raqami va hujjatlari haqida aniq ishonarli axborotga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Dastur bank xujjatlarini to'g'ri to'ldirishga yordam berib, u hujjatlarning arxivini yuritadi. “Bank-mijoz” dasturiy tuzilmasi quyidagi hisobotlarni tayyorlaydi:

- Hujjatlar ro'yxati (hujjatlar haqidagi ma'lumotlarni, mijozning bankdagi kunlik hisob operatsiyasi);
- Hisobraqamdan ko'chirma (mijozning hisob raqamidagi harakatlari haqida axborot);

- Saldo — aylanma vedomosti (mijozning hisobraqami aylanmasi va qoldiq hisob haqidagi axborot).

Bank-mijoz dasturiga masofadan bank xizmatini ko'rsatish usullarining jamlanmasi sifatida qarash mumkin. Tizimdan faqat kompyuter yordamida foydalanish mumkin bo'ladi. Bank mijozga zarur dasturiy ta'minot, texnik va metodik yordamni yetkazadi.

Bank-mijoz dasturining internet bank dasturidan asosiy farqi shundaki, internet-bank tizimi to'liq internet vositasida ishlaydi (bank hisobraqami to'g'risidagi barcha ma'lumotlar bank serverida joylashgan bo'ladi), bank-mijoz dasturi esa foydalanuvchi kompyuterida o'rnatilgan dastur bo'yicha ishlaydi.

Bank-mijoz dasturi ilk bora Amerika Qo'shma Shtatlarida o'tgan asrning 90-yillarida yuzaga kela boshlagan virtual-banking natijasida kelib chiqqan. Bugungi kunda ushbu xizmat mijozlar uchun yangilik emas, bank texnologiyalari raqamli iqtisodiyot sharoitida tezlik bilan rivojlanib borar ekan, endilikda butunlay raqamli banklar xizmatlaridan foydalanish odatiy holga aylanib qoldi.

Bank-mijoz dasturini taqdim etuvchi banklar, albatta an'anaviy banklardir. Ushbu tizimning o'z afzalliklari va shu qatorda kamchiliklari ham mavjud. Bank-mijoz dasturining afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Mijozlar uchun keng funksional imkoniyatlar;
- Keng mijozlar qamrovi bilan ishlovchi ish grafigi;
- Asosiy server bilan aloqa mavjud bo'lmaganda ham ishlash imkoniyati;
- Ma'lumotlarni qayta ishlashning yuqori tezligi.

Bank-mijoz tizimining kamchiliklari sifatida esa quyidagilarni keltirish o'rinli:

- O'rnatiladigan qurilmaning katta hajmga ega ekanligi;
- O'rnatish jarayonining murakkabligi.

5.3. Bank-mijoz dasturi bo'yicha mijoz va bankning ish tartibi

Mijoz pul hujjatlarini Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan 2020 yil 13 aprelda ro'yxatga olingan 3229-sonli "Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom" qoidalariga asosan rasmiylashtiradi. Bank-mijoz dasturi orqali to'lovlarda elektron to'lov hujjati qo'llanilishi bois, mijoz hisob-kitob hujjatining asl nusxalariga asoslangan holda kompyuterga kiritish asosida to'lovlarni rasmiylashtiradi. Mijoz tashkilotining javobgar xodimi, ya'ni bosh hisobchi yoki uning majburiyati yuklangan boshqa bir xodim kompyuterga kiritilgan hujjatlarning ro'yxatini bosmadan chiqarishi, ularni pul hujjatlarining asl nusxalari bilan taqqoslashi, ularning mosligini tasdiqlashi lozim. Shundan keyin to'lov hujjatlarini bankka jo'natishga ruxsat beriladi. Elektron to'lov hujjatlari elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanganidan keyin u kriptografik himoyaga o'tadi va aloqa kanali orqali xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankiga uzatiladigan elektron fayl shakllaniriladi. Kriptografik himoyadan o'tgan faylni mijoz o'zi mustaqil bekor qila olmaydi.

Tijorat bankiga qabul qilingan axborotlar dasturiy ravishda qayta ishlanadi va kelib tushgan hujjatlar, elektron pul hisob-kitob hujjatlari, shaxsiy hisobvaraqlar ro'yxati shakllanadi.

Mijoz qabul qilingan ma'lumotlarni kompyuterdagi dastur orqali ko'rishi va uni hujjatlar yig'majildida saqlashi mumkin (elektron yoki bosma holda). Pul hisob-kitob hujjatlari bo'yicha bankdan jo'natilgan va qabul qilingan barcha axborotlar dasturiy ravishda arxivlanadi hamda o'rnatilgan tartibda saqlanadi. Axborotlarni saqlash muddati tugashi bilan dasturiy ravishda arxivdan o'chiriladi. Arxivga tashkilotning faqat mas'ul xodimi kirishi mumkin.

Mijozlar bilan axborotlar almashinish uchun bankda har bir mijozga alohida pochta qutisi tashkil etiladi. Mijozlardan kelgan barcha axborotlar dasturiy ravishda deshifratsiyalanadi, rekvizitlar bo'yicha nazorat qilinadi va qayta ishlash uchun bank mas'ul xodimiga yuboriladi. To'lov amalga oshirilganidan so'ng elektron to'lov hujjatlari reyestr ko'rinishida chop etiladi va bankning kunlik hujjatlar yig'majildiga tikiladi.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Masofadan bank xizmatlari, Bank-Mijoz, Internet-banking va SMS-banking tizimlari, masofadan bank xizmatidan foydalanuvchilar soni, internet, dasturiy ta'minot, elektron raqamli imzo.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Masofadan bank xizmatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Bank-Mijoz dasturining ishlash prinsiplarini tushuntirib bering?
3. Internet-banking nima va u qanday ishlaydi?
4. SMS-banking tizimini tushuntirib bering.
5. Elektron raqamli imzo nima?

TESTLAR:

1. Jahon amaliyotida masofadan banking va masofadan to'lov xizmatlarini ... amalga oshiradilar.
A) texnologik xizmatlar provayderlari va moliyaviy institutlar;
B) texnologik xizmatlar provayderlari;
C) moliyaviy institutlar;
D) to'g'ri javob keltirilmagan.
2. Bank-Mijoz – ...
A) kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi;
B) bankka kelib to'lovlarni amalga oshirish jarayoni;
C) internetdan to'lovlarni amalga oshirish;
D) to'g'ri javob keltirilmagan.
3. Mijoz pul hujjatlarini qaysi hujjatga asosan rasmiylashtiradi?

- A) Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan 2020 yil 13 aprelda ro'yxatga olingan 3229-sonli "Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom" qoidalariga binoan;
- B) Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan 2002 yil 13 aprelda ro'yxatga olingan 3229-sonli "Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom" qoidalariga binoan;
- C) Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan 2021 yil 13 aprelda ro'yxatga olingan 3229-sonli "Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom" qoidalariga binoan;
- D) to'g'ri javob keltirilmagan.

VI BOB. “INTERNET-BANKING” ELEKTRON TO’LOVLAR TIZIMI

6.1. “Internet-banking” xizmati va uning mohiyati

“Internet-banking” xizmati bank xizmatini masofadan taqdim etilishini ta’minlaydigan texnologiya asosida ishlaydi. Bank xizmatlariga ruxsat internetga ulangan kompyuter vositasida amalga oshiriladi. Bunda kompyuterga maxsus dasturiy ta’minot yoki ilovalarni o’rnatish talab qilinmaydi.

Internet-banking xizmati quyidagi imkoniyatlarni taqdim qiladi:

- Hisobraqamdan ko’chirma;
- Yangi bank xizmatlari haqida ma’lumot;
- Bank depozit, kredit xizmatlariga, shuningdek, bank kartasini ochish uchun ariza rasmiylashtirish;
- Mijoz hisobraqamidan boshqa hisobraqamlarga pul mablag‘larini o‘tkazish to‘g‘risida elektron to‘lov hujjatini yuborish;
- Pul mablag‘larini konvertatsiya qilish;
- Tovar va xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirish (mobil aloqa, internet, kommunal xizmatlar va boshqalar).


“Internet-banking” – “Bank-mijoz” xizmatining yanada takomillashtirilgan ko‘rinishi desak, o‘rinli bo‘ladi. Chunki Bank-mijoz tizimida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan masofadan bank xizmatlari Internet-bank xizmatida ham mavjud bo‘lib, asosiy farqi Bank-mijoz mijoz kompyuteriga o‘rnatilgan maxsus dasturiy ta’minot asosida internet aloqasi bo‘lmagan holda ham ishlasa, Internet-banking xizmatida dasturiy ta’minot o‘rnatilishi zaruriyati mavjud emas, faqat internet aloqasi bo‘lishi talab qilinadi.

Internet-banking orqali mijoz bank xizmatlaridan foydalanish jarayonida mijozdan hech qanday tasdiqlovchi hujjatlarning qog‘oz ko‘rinishdagi nusxalari talab qilinmaydi. Bank va mijoz o‘rtasidagi barcha rasmiylashtirish jarayonlari elektron ko‘rinishda amalga oshiriladi.

O'zbekistonda Infin bank va Ipak-yo'li banklari Internet-banking xizmatini ilk yo'lga qo'ygan tijorat banklari bo'lib hisoblanadi. Ushbu banklarda 2007 yilda internet-banking xizmati yo'lga qo'yilgan.

Elektron raqamli imzo internet-banking tizimida mijoz va bank o'rtasida masofadan olib boriladigan operatsiyalarga kafolat bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi raqamlashtirish jarayonida mobil-bankingning ommalashganini kuzatish mumkin. Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi.



6.1.-rasm. O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning umumiy soni (mln.kishi)⁵⁶


Bank mijozlarining internet-banking tizimidan foydalanishi ommalashuvi, albatta, mijzlarning internet bilan ta'minlanganligi va moliyaviy savodxonligi masalalariga borib taqaladi. Yuqorida rasmda O'zbekistonda so'nggi yillarda internetdan foydalanuvchi aholi sonining o'sib borish dinamikasini kuzatish mumkin.

Mamlakatda 2016 yilda internetdan foydalanuvchi aholi soni 12 mln atrofida bo'lgan bo'lsa, 2020 yilda bu ko'rsatkich 22,5 mln kishini tashkil qilgan. Aholining internetdan foydalanish darajasi o'sishi bank xizmatlaridan masofadan foydalanish, umuman, raqamli bank xizmatlariga o'tishni tezlashtiradi. Bu, o'z navbatida,

⁵⁶ mitc.uz/ru/stat ma'lumoti

mijozlarning bankka borish-kelish bo'yicha xarajatlari va vaqtini qisqartirishi bilan bir qatorda, tijorat banklarining bank xizmatlarini ko'rsatish uchun ketadigan operatsion xarajatlarini kamaytirib, tezkor va arzon sifatli bank xizmatlarining ommalashuviga xizmat qiladi.

Albatta, bank-mijoz va internet-banking tizimlaridan foydalanuvchi mijozlar, yuqorida ta'kidlanganidek, tegishli tartibda o'zlari mijoz bo'lgan bankdan elektron raqamli imzo (ERI) olib, shu vositasida bank xizmatidan masofadan foydalanadilar. Quyida O'zbekistonda 2014-2018 yillar oralig'ida elektron raqamli imzodan foydalanuvchilar sonining o'zgarish dinamikasi keltirildi.



6.2.-rasm. O'zbekistonda elektron raqamli imzo sonining o'sish dinamikasi (ming dona)⁵⁷

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, internetdan foydalanuvchilar sonining oshishi masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonini, shuning barobarida elektron raqamli imzo sonining oshishiga olib keladi.

Bank-mijoz va internet-banking kabi masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining o'sishi, albatta bank xizmatlaridan aholining manfaatdorligi bilan ham bog'liq. Tijorat banklari tomonidan masofadan bank

⁵⁷ mitc.uz/ru/stat ma'lumoti

xizmatlari ulushini kengaytirish maqsadida, odatda, bunday xizmatlar uchun arzonroq tariflar belgilanadi.

Internet-banking tizimi orqali o'tkazilayotgan elektron to'lov hujjatlari xuddi bank-mijoz tizimi kabi ishlaydi. Banklararo to'lov tizimi orqali o'tkazilayotgan elektron to'lov hujjatlari soat 9-00dan 17-00ga qadar o'tkazilsa, Tezkor to'lovlar tizimi orqali elektron to'lov hujjatlari sutkaning istalgan vaqtida amalga oshiriladi. Bunda elektron to'lov hujjatini to'ldirishga qo'yiladigan talablar 2020 yil 13 aprelda ro'yxatga olingan 3229-sonli "Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom" qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

To'lov topshiriqnomasini kiritishda quyidagi rekvizitlar to'g'ri to'ldirilishi kerak:

- hujjatning raqami;
- hujjatning sanasi;
- to'lovchining nomi;
- to'lovchining shaxsiy hisobvarag'i raqami;
- to'lovchining identifikatsiya raqami;
- to'lovchi bankning kodi;
- to'lovchi bankning nomi;
- hujjatning summasi (raqam bilan);
- oluvchining nomi;
- oluvchining shaxsiy hisobvarag'i raqami;
- oluvchi bankning kodi;
- oluvchi bankning nomi;
- hujjatning summasi so'z bilan (avtomatik tarzda yoziladi);
- to'lovning maqsadi.

To'lov maqsadida qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan hamda bank va uning mijozlari o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga mos keluvchi ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkin.

6.2. “SMS-banking” xizmati va uning asosiy xususiyatlari

SMS-banking–bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS xabar ko‘rinishdagi ma’lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag‘idan ma’lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so‘rovni yuborish kerak.

SMS-banking dasturiy majmuasi bank mijozlariga masofadan xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan va mijozlarning bank bilan SMS-xabar almashinishiga asoslangan bo‘ladi.

SMS-banking dasturiy majmuasi doirasida mijoz mobil telefoniga SMS-xabar olish orqali o‘z hisob raqamlaridagi mablag‘ harakatini tunu-kun nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

SMS-banking dasturiy majmuasi mijoz talabnomasiga ko‘ra ishlaydi.

SMS-banking dasturiy majmuasining funksiyalari:

- Mijozga bir necha mobil telefon raqamini biriktirish;
- Telefon raqamiga mijozning bir necha hisob raqamlarini biriktirish;
- Foydalanuvchilarni tizimga ulash/tizimdan chiqarish;
- Foydalanuvchining alohida telefon raqamlarini tizimga ulash/tizimdan chiqarish;
- Mijozning telefon raqamiga alohida xizmatlarni biriktirish;
- Mijozning telefon raqamiga bosh ofisning ma‘muri tomonidan tuzilgan xizmatlar paketini biriktirish.

SMS-banking xizmati orqali aynan quyidagi kabi ma’lumotlarni mijoz o‘z mobil telefoni orqali qabul qilish imkoniga ega bo‘ladi:

- Hisobdagi joriy qoldiq;
- Hisob bo‘yicha oxirgi kiruvchi operatsiyalar;
- Hisob bo‘yicha oxirgi chiquvchi operatsiyalar;
- Hisob bo‘yicha kirish operatsiyalarining miqdori va summasi;
- Hisob bo‘yicha chiqish operatsiyalarining miqdori va summmasi;
- Bank xizmatlari bo‘yicha yangiliklar.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Masofadan bank xizmatlari, Internet-banking va SMS-banking tizimlari, masofadan bank xizmatidan foydalanuvchilar soni, internet, dasturiy ta'minot, elektron raqamli imzo.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Masofadan bank xizmatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Internet-banking nima va u qanday ishlaydi?
3. SMS-banking tizimini tushuntirib bering.
4. Elektron raqamli imzo nima?
5. O'zbekistonda ilk bora qaysi banklar internet-banking tizimini yo'lga qo'ygan?

VII BOB. YANGI BANK TEXNOLOGIYALARI

7.1. Raqamli moliyaviy texnologiyalar va ularning to'lov tizimidagi o'rni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-sonli Qarori mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga bo'lgan muhim qadamlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, 2020 yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli Qarorda iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish bo'yicha tegishli vazifalar belgilab berildi. 2019 yil 1-noyabrdagi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'zRQ-578-sonli Qonuni bilan elektron pullar, elektron pullarni emissiya qiluvchi organlar, elektron pul o'tkazmalari ishtirokchilari, elektron pul o'tkazmalari tizimiga huquqiy asos yaratildi. Ammo bu borada hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p. Chunki mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi juda tez rivojlanib borayotgan moliyaviy texnologiyalar yangiliklari bilan uyg'unlikni, to'lov tizimlarida qo'llanilayotgan yangi texnologiyalarni vaqtida joriy qilinishini talab qiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda hanuzgacha raqamli iqtisodiyot atamasiga aniq bir ta'rif keltirilgani yo'q. Ko'plab xalqaro iqtisodiy manbalarda raqamli iqtisodiyot sifatida hamkorlarning o'zaro hamkorligidagi raqamli texnologiyalar va ular orqali yuzaga keladigan o'zgarishlarga urg'u beriladi.

Shu o'rinda quyidagi bir necha xalqaro manbalarda raqamli iqtisodiyotga berilgan ta'riflarni keltirish o'rinli.

Oliy Yevrosiyo iqtisodiy kengashi "2025-yilgacha Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqining raqamli rejasini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarorida raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot real sektoriga ta'siri belgilab berilgan va raqamli iqtisodiyotga quyidagicha ta'rif berilgan: raqamli iqtisodiyot –

iqtisodiyotning ishlab chiqarish, qayta taqsimlash, almashtirish va iste'mol jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida raqamli qayta shakllangan qismidir⁵⁸.

Jahon banki o'z hisobotida raqamli iqtisodiyot bilim va raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotning yangi bir qatlami bo'lib, uning doirasida jamiyatda, biznes va davlat sohasida yangi raqamli malakalar va imkoniyatlar shakllanadi, deb ta'rif keltiradi⁵⁹.

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida moliyaviy xizmatlar sohasida yangi texnologiyalar qo'llanilishi kengayib bormoqda. Ushbu moliyaviy texnologiyalar tranzaksion hisobraqamlardan foydalanish usullari, ularning ishlash qoidalarini o'zgartiradi, chunki lahzalik to'lovlar, elektron hamyonlar kabi yangi mahsulotlarning tadbiiq etilishi elektron to'lovlar jarayonini yangi darajaga olib chiqdi.

Mike Hobday va James Cook jahon iqtisodiyotida yangi sanoat inqilobi ro'y berayotganligi va bu holat moliyaviy xizmatlar sohasiga kuchli ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Bank biznes-modeli, ishchi kuchi, xizmat ko'rsatish jarayoni xarajatlarni va risklarni kamaytirish hamda iste'molchilar manfaatdorligini oshirish maqsadida butunlay transformatsiya qilinishi lozimligini ta'kidlaydi⁶⁰.

Prezidentimiz ta'birlari bilan aytganda, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin⁶¹.

Mamlakatimiz olimlaridan akademik S.S. Gulyamov va R.H. Ayupov, raqamli iqtisodiyot o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining zanjiridan iborat bo'lib, uning ajralmas elementi zanjirlararo

⁵⁸Решение Высшего Евразийского экономического совета "Об Основных направлениях реализации цифровой повестки Евразийского экономического союза до 2025 года" №12 от 11.10.2017 г.

⁵⁹Всемирный банк (2016a). Развитие цифровой экономики в России. <<http://www.vsemirnyjbank.org/ru/events/2016/12/20/developing-the-digital-economy-in-russia-international-seminar-1>> (дата обращения: 17.03.2019).

⁶⁰Mike Hobday, James Cook, "Banking automation: Designing for "no touch"" - Copyright IBM Corporation 2017.

⁶¹ O'zR Prezidenti Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga 2020 yil 24 yanvardagi Murojaatnomasi.

(insonlararo, mashinalararo, bulutlar orqali, ma'lumot markazlariaro) raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan ma'lumot almashinishdir, deb ta'rif keltirishgan⁶².

Yuqorida xalqaro va yurtimiz olimlarining raqamli iqtisodiyotga berilgan ta'riflarini keltirildi. Ushbu mulohazalarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyot - iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni keng qo'llagan tarzda murakkab moliyaviy operatsiyalarning bajarilishi soddalashib, ma'lumot almashinishini soniyalarda amalga oshirishini ta'minlovchi an'anaviy iqtisodiyotning qayta shakllangan qatlamidir.


Saul J. Berman va Ragna Bell (2011) o'z tadqiqotida moliyaviy xizmatlar raqamli transformatsiyasini uch bosqichda amalga oshirishni tavsiya qiladi, ya'ni 1) raqamli xizmatlarni birinchi bo'lib yaratish va integratsiyani amalga oshirish; 2) iste'molchiga taklif qilinayotgan raqamli kontentni kuchaytirish, kengaytirish va talabdan kelib chiqib o'zgartirish; 3) raqamli transformatsiya qilingan xizmat bo'yicha yangi imkoniyatlarni yaratish⁶³.

To'lov tizimlarida to'lov instrumentlari vaqt o'tishi bilan texnologiyalardagi innovatsiyalar sababli kengayib boradi. Raqamlashtirish jarayonlarining iqtisodiyotga keng kirib kelishi to'lov tizimlarida yangi sxema va yangi prinsiplarning hamda to'lov tizimlarining yangi ko'rinishlari yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Quyidagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin, moliyaviy texnologiyalar asosidagi to'lov xizmatlaridan foydalanishda iste'molchilar turli sabablarga ko'ra bunday xizmatlarga ustunlik beradilar.

⁶² Davlat statistika qo'mitasining "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali. 2019 yil, 2-son.

⁶³ Saul J. Berman, Ragna Bell, "Digital transformation Creating new business models where digital meets physical" - Copyright IBM Corporation 2011.



7.1.-rasm. To'lovlar bo'yicha moliyaviy texnologiyalar foydalanuvchilari ushbu xizmatlardan foydalanish sabablari⁶⁴


Iste'molchilar orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, 2017 yilda mijozlarni fintex to'lov xizmatlarining, asosan, hisobraqam ochishdagi qulaylik ko'proq qiziqtirgan bo'lsa, 2019 yildagi so'rovnoma natijalariga ko'ra, mijozlar endilikda to'lovlar bo'yicha arzon va jozibador narxlar sababli fintex xizmatlariga afzallik berganlarini ta'kidlaganlar.

To'lovlar bo'yicha fintex xizmatlari sifatida onlayn valyuta ayirboshlash, raqamli bank xizmatlari, onlayn to'lovlar protsessori, mobil savdo nuqtasi (mPOS, ya'ni mobil telefon orqali terminal xizmatining amalga oshirilishi), xorijiy pul o'tkazmalarining ilova orqali amalga oshirilishi imkoniyatlari, nobank tashkilotlar orqali pul o'tkazmalari imkoniyatlari (Click, Payme kabi to'lov tashkilotlari orqali P2P to'lovlari imkoniyati), kriptovalyuta hamyoni kabi to'lov xizmatlarini keltirish mumkin.

Mamlakat iqtisodiyotining raqamlashuv darajasiga qarab fintex xizmatlaridan aholining foydalanish darajasi oshib boraveradi. Ernst and Young Global Limited tomonidan tayyorlangan Global FinTech Adoption Index 2019 hisoboti

⁶⁴ ***Global FinTech Adoption Index 2019, Ernst and Young Global Limited tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar asosida shakllantirildi.

ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy faol aholining 2019 yilda fintex xizmatlaridan foydalanish ulushi dunyo mamlakatlari bo'yicha Xitoyda eng ko'p ulushni (87%) tashkil qilgan (7.2-rasm).



7.2.-rasm. Iqtisodiy faol aholining fintex xizmatlaridan foydalanish ulushi, 2019 yil⁶⁵

To'lov xizmatlari bo'yicha moliyaviy texnologiyalardan Xitoy, Hindiston, Rossiya davlatlari aholisi tomonidan juda keng foydalanilishini yuqoridagi ma'lumotlardan kuzatish mumkin.


7.2. Raqamli to'lov texnologiyalari va to'lov mahsulotlari

Moliyaviy xizmatlarga yo'l to'lovlardan boshlanadi. Omonatlar, kredit va sug'urta kabi boshqa moliyaviy xizmatlar to'lovlar orqali amalga oshiriladi. Raqamli texnologiyalar tranzaksion hisobraqamlar va to'lov mahsulotlarining

⁶⁵ Global FinTech Adoption Index 2019, Ernst and Young Global Limited tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar asosida shakllantirildi.

dizaynini yaxshilashga, hisobraqam bo'yicha ma'lumotlardan hisobraqam egasi xabardor bo'lish imkoniyatiga, vaqt jihatdan yutishga, to'lovlarni sutkaning istalgan paytida amalga oshirishga va shu kabi ko'plab qulayliklarga olib keladi. Biroq bu qulayliklar yaratilishi bilan operatsion va kibermustahkamlik riski, mijoz mablag'larining himoyasi, ma'lumotlar xavfsizligi va konfidentsialligi kabi risklar yuzaga keladi. Ushbu risklar o'z vaqtida boshqarilishi lozim, bu esa moliyaviy kuzatuvning zaruriyatini keltirib chiqaradi. Moliyaviy texnologiyalarning, asosan, tranchejaraviy va transvalyutali to'lovlarning rivojlanishi xalqaro va transchegaraviy koordinatsiyani kuchaytiradi. Shuningdek, moliyaviy texnologiyalar to'lov xizmatlarini amalga oshiruvchilar uchun kibermustahkamlik hamda transchegaraviy to'lovlarni o'tkaza olish imkoniyatini yaratib bermoqda. Quyida yangi to'lov mahsulotlari va xizmatlari yaratilishiga olib keluvchi texnologiyalar to'g'risida so'z yuritiladi.

Dasturlash interfeysi (API), katta ma'lumotlar (big data) tahlili, biometrik texnologiyalar, bulutli hisoblash, kontaktsiz to'lovlar (QR-kodi), raqamli identifikatsiya, alohida reyestr texnologiyalari (distributed ledger technologies) hozirgi paytda to'lov tizimlariga xos bo'lgan eng muhim raqamli texnologiyalar bo'lib hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar lahzalik to'lovlar, Markaziy bank raqamli pullari va steblkoin (stablecoins) kabi yangi to'lov mahsulotlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bunday texnologiyalar yangi to'lov mahsulotlaridan nafaqat elektron hamyon, open banking yoki maxsus ilovalar orqali, balki an'anaviy tranzaksion hisobraqamlar yoki to'lov instrumentlari orqali ham foydalanish imkonini yaratadi. Shuni ta'kidlash kerakki, yangi texnologiyalar mavjud to'lov xizmatlari uchun qo'llanilishi mumkin. Masalan, elektron hamyonlardan kartochkalar orqali to'lovlarni kontaktsiz to'lov usulida amalga oshirish imkoniyatini bunga misol qilish mumkin. Yoki lahzalik to'lovlarning nafaqat elektron hamyon orqali, balki mavjud onlayn-banking orqali amalga oshirilishini keltirish mumkin. "To'lovlarning moliyaviy texnologiyalar g'ildiragi" yangi texnologiyalarni markazlashtirilgan holda umumiy aks ettiradi (7.4-rasm).



7.4-rasm. Tranzaksion hisobraqamdan foydalanishning universal imkoniyati⁶⁶.

Dasturlash interfeysi (API) to'lovlar va moliyaviy xizmatlar uchun open banking modelida, know-your-customer (e-KYC) elektron jarayonida⁶⁷, noqonuniy mablag'larni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi tekshirishlarni qo'lab-quvvatlashda moliyaviy tashkilotlar tomonidan belgilangan ma'lumotlarni ularning konfidensialligini saqlagan holda o'zaro almashinishda qo'llaniladi.

Katta ma'lumotlar (Big Data)– bu raqamli qurilmalar va axborot tizimlarini kengroq qo'llash natijasida boshqariladigan juda ko'p ma'lumotlar hajmini bildiradi. Katta ma'lumotlar tahliliga ma'lumotlarning sezilarli darajada o'sib borayotgan hajmini, turli-tumanligini, tezligini va ularning ishonchliligini tahlil qilishga imkon beruvchi texnologiya sifatida tavsif berish mumkin. Hozirgi paytda ma'lumotlar soni shunchalik kattalashib ketdiki, ular xavfsizligini oddiy elektron jadvallar bilan boshqarib bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib, katta ma'lumotlar tahlili sun'iy intellekt, mashinali o'rganish (machine learning), chuqur o'rganish (deep learning) kabi turli vositalarni qo'llashni nazarda tutadi⁶⁸. Katta ma'lumotlar tahlili

⁶⁶“Payment aspects of financial inclusion in the fintech era”, Committee on Payments and Market Infrastructures, World Bank Group, April 2020, p.13

⁶⁷ E-KYC mijozni identifikatsiya qilish va uning shaxsini raqamli yoki onlayn tekshirishga imkon beruvchi elektron vositadir.

⁶⁸ *Sun'iy intellekt* - kompyuter tizimlariga odatda inson aqlini talab qiluvchi vazifalarni bajarishga yordam beradi. Machine learning – kompyuterlarga chegaralangan yoki inson aralashuvizis muammolarni hal qilish uchun harakatlar ketma-ketligi(algoritmi)dan kelib chiqib, tajriba bo'yicha yangilanadigan tarzda yangi ma'lumotlarni o'rganishga

moliyaviy xizmatlar olamida biznesni rivojlantirishning muhim omiliga aylanib bormoqda. To'lov provayderlari moliyaviy ma'lumotlarni boshqa ma'lumotlar bilan qo'shib o'rganishmoqda. Iste'molchi tabiatini yaxshiroq o'rganish uchun ular mijozlar bilan hamkorlikni kengaytirish hisobiga, o'z platformalarida, masalan mobil telefoniya, ijtimoiy tarmoqlarda mijoz tabiatini o'rganish orqali, shuningdek psixologik va joylashuv bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish natijasida faol ravishda ma'lumotlar yig'ishadi. Katta ma'lumotlar tahlili skrining jarayoni orqali yangi mijozlarni jalb qilishga yordam beradi (masalan, E-KYC jarayonida mijoz to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni taqdim qiladi, mijoz nomi turli sanksiya ro'yxatlarida bor yoki yo'qligini tekshiradi, shu orqali mijozning kreditga layoqatliligini belgilab beradi). Shu yo'l bilan katta ma'lumotlar mijoz kreditga layoqatliligini real vaqtda aniqlab berishga imkon yaratadi.

Biometrik texnologiyalar – shaxsni aniqlash va autentifikatsiya qilish uchun uning yagona jismoniy jihatlari va tabiati xususiyatlaridan kelib chiqadi. Jismoniy belgilar barmoq izlari, tomir nAQSHlari yoki yuz xarakteristikasi bo'lishi mumkin. Mijoz tabiati jihatlari yurish, husnixat belgilari, klavishni bosish, sensor ekranini va sichqonchani ishlatish shabloni bo'lishi mumkin. Biometrik ma'lumotlarning qo'llanilishi an'anaviy foydalanuvchining shaxsini tasdiqlash jarayonida qo'llanilishi va firibgarlikning oldini olishga imkon yaratishi mumkin.

Bulutli hisoblash hisoblash quvvatining masshtabi va egiluvchanligini oshirish uchun xosting protsessorlarining onlayn-tarmog'idan ("cloud") foydalanishga imkon yaratadi. Shu yo'l bilan bulutli hisoblash tarmoq, server, ma'lumotlar ombori, ilovalar va bulut orqali chiqarilib taqdim qilinishi mumkin bo'lgan xizmatlar kabi umumiy o'rnatilgan hisoblash resurslaridan foydalanishga imkon beradi. Bulutli texnologiyalar banking, asosan, to'lov xizmatlarini masofadan amalga oshirishda asosiy texnologiyadir. Shu bilan birgalikda bulutli hisoblash mavjud dasturiy ta'minot yoki to'lov jarayonini bulutga ko'chirish uchun ishlatiladi. Masofadan banking va masofadan to'lov xizmatlarini texnologik xizmatlar

yordam beradi. Deep learning – mashinali o'rganishning bir tarmog'i bo'lib, katta hajmdagi ma'lumotlardan ma'no chiqarish uchun o'qitish algoritmlarining bir necha darajasini qo'llaydi.

provayderlari ham (ACI Worldwide yoki Margeta), moliyaviy institutlar ham (JPMorgan Chase va ClearBank) yetkazib berishi mumkin⁶⁹.

Kontaktsiz texnologiyalar savdo nuqtasida to'lov instrumentini osonlashtiradi. Kontaktsiz to'lovlarning mohiyati shundan iboratki, bu jarayonda to'lovni qabul qiluvchi qurilma va to'lovchi qurilma o'rtasida jismoniy kontakt bo'lmagan holda to'lov amalga oshiriladi. Kontaktsiz to'lovlarda foydalaniladigan ma'lumot turli qurilmalarda saqlanishi va u orqali amalga oshirilishi mumkin: to'lov kartasi, mobil telefon, olib yurish mumkin bo'lgan boshqa qurilma. Mijoz savdo markazida kontaktsiz to'lovni amalga oshirganida uning qurilmasi POS-terminal bilan bog'lanadi, bunda radiochastotali identifikatsiya (RFID), yaqin aloqa maydoni (NFC), Bluetooth low-energy, QR10 codes kabi texnologiyalar ushbu aloqani ta'minlab beradi. So'nggi yillarda kontaktsiz to'lovlarning o'sib borayotgaligini kuzatishimiz mumkin. Niderlandiya, Shvetsiya, Shvetsariya, Buyuk Britaniya davlatlarida kontaktsiz to'lov kartalari oddiy kartalar sonidan ortiqni tashkil qiladi. O'zbekistonda ham kontaktsiz to'lovlar tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, so'nggi yillarda kontaktsiz to'lovlar hajmi ortib bormoqda. Bunday to'lovlar hajmining ortishida, ayniqsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanuvchi aholi sonining ortishi ham muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birgalikda bulutli hisoblash mavjud dasturiy ta'minot yoki to'lov jarayonini bulutga ko'chirish uchun ishlatiladi.


Xalqaro ekspertlarning hisob-kitobiga qaraganda, dunyo bo'yicha raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonlarining jadallashishi hisobiga yaqin yillarda zarur infratuzilmani yaratish uchun Internet tarmog'iga bo'lgan talab bir necha barobarga oshadi.

Shu o'rinda raqamli iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy samaradorligi bilan birga, insonlarning ma'naviy-madaniy dunyoqarashini o'zgartirishga olib kelishini ham ta'kidlash zarur.

⁶⁹ McKinsey & Company (2019): Global Payments Report 2019 – amid sustained growth, accelerating challenges demand bold actions, September, <https://www.mckinsey.com>

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida to'lov tizimlarida yuzaga kelgan yangi mahsulotlar va xizmatlar bu - lahzalik to'lovlar, Markaziy banklar raqamli pullari hamda stebkoinlar bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro hisob-kitoblar bankining to'lovlar va bozor infratuzilmalari bo'yicha qo'mitasining ta'rifiga ko'ra, lahzalik to'lovlar "to'lovni va to'lovchiga yakuniy mablag'larning mavjudligi to'g'risidagi xabarni real vaqtda yoki real vaqtga yaqin vaqt ichida va iloji boricha sutkasida 24-soat va haftasiga 7 kunlik asosda yetkazib berish imkoniga ega bo'lgan to'lovlardir"⁷⁰. 2020 yil fevral oyidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning banklararo pul o'tkazmalari uchun "Anor" lahzali to'lovlar tizimining pilot loyihasini ishga tushirdi. Ushbu tizimda elektron raqamli imzo orqali ishlanib, pul mablag'lari to'lov qabul qiluvchining hisobraqamiga o'tkazilishi bilan o'sha zahotiyoq uning hisobraqamiga kelib tushadi va ulardan foydalanilishi mumkin bo'ladi.



Bunda, 1 – unchalik muhim emas, 2 – qaysidir darajada muhim, 3 – muhim, 4 – juda muhim.

7.5.-rasm. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar misolida Markaziy bank raqamli pullarini joriy qilishga bo'lgan zaruriyat darajasi⁷¹.

⁷⁰<https://fasterpaymentscouncil.org/blog/1487/> Kim Ford , What-s-in-a-Faster-Payment-or-Faster-Payments-System-for-That-Matter- March 3, 2020

⁷¹ Central bank survey onCBDCs, Payment aspects of financial inclusion in the fintech era – April 2020, Bank for International Settlements 2020, p.19

Markaziy banklar raqamli valyutasini joriy qilish zaruriyati raqamlashtirish tendensiyalari va boshqa zaruriyatlardan kelib chiqadi.

Raqamli valyutalar ulgurji va chakana to'lovlarda ishlatilishi mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlar Markaziy banklari uchun raqamli pullarni chiqarish jahon iqtisodiyotiga integratsiya jihatidan zarur bo'lib hisoblanadi.

Stebkoinlar kryptoaktivlar tushunchasidan yuzaga kelgan bo'lib, steblkoinlar kryptoaktivlarning to'lovlarda o'zgaruvchanligini yengillashtiradi. Bitkoin kabi kryptoaktivlar qiymatga asoslangan instrument bo'lib hisoblanmaydi va o'zida emitentga bo'lgan talabni ifodalamaydi⁷². Kryptoaktivlarning asosiy maqsadi alohida shaxslar va tashkilotlarning o'zaro tranzaksiyalarini bevosita 3-shaxslarning aralashuvisiz DLTni ishlatgan holda bitimlarni amalga oshirishlariga yo'naltirilgan. Jahon amaliyotida kryptoaktivlar narxining juda o'zgaruvchanligi sababli to'lov vositasi sifatida ularning ishlatilishi chegaralangan. Steblkoinlar esa moliyaviy xizmatlardan foydalanishni osonlashtirib, transchegaraviy to'lovlarni osonlashtirishda yechim sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasiga asosan, to'lov tizimlarida raqamli texnologiyalar asosida keskin o'zgarishlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Jumladan, pul massasida naqd pul ulushi 2017 yildagi 27% dan 2035 yilda 5% ga tushirilishi belgilangan⁷³. Hujjatga binoan, bank tizimini yanada rivojlantirishga raqamli mehnat sohasidagi innovatsiyalar, ma'lumotlarni tahlil qilish va masofadan xizmat ko'rsatish asosida erishiladi.

Birinchi bosqich – 2020 yilgacha bank ilovalari, mijozlarni ulash, qo'llab-quvvatlash xizmati, kardrider va mobilterminallar, P2P hisob-kitoblarini yuritish, to'lovlarni fiskallashtirish, fiskal ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashni nazarda tutgan.

Ikkinchi bosqich-2025 yilgacha tranzaksiyalar boshqaruvi, mobil bankning kriptografik identifikatorlari, tegishli xizmatlarning banklar raqamli platformalariga

⁷²European Central Bank (2019a): "Crypto-assets: implications for financial stability, monetary policy, and payments and market infrastructures", Occasional Paper Series, no 223, May

⁷³O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi, 271-bet.

integratsiyalashuvi, aniq B2B, B2C tezkor o'tkazmalarini joriy qilish, ochiq API, bank biznesida masofadan identifikatsiya, sun'iy intellekt va mashinaga o'rgatish asosida mahsulotlar, chakana savdo va telekom orqali moliyaviy xizmatlarni taqdim qilish, bir qator fiskal operatorlarni joriy qilish kabilarning yo'lga qo'yilishini belgilab beradi.

SCA, API (PSD2 mumkin bo'lgan qonunchilik asosi sifatida) masofadan mijozni autentifikatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, shu jumladan biometrik ma'lumotlarni - SCA (Strong Customer Authentication) hamda banklararo o'zaro munosabatlarni rivojlantirish va bankdan tashqari xizmat ko'rsatuvchilarni integratsiyalashuvi uchun ochiq dasturiy platformalarni (API – Application Programming Interface) ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Ushbu chora-tadbirlarning barchasi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalariga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda raqamli texnologiyalar yangi-yangi zamonaviy elektron to'lov tizimlarining shakllanishi uchun munosib sharoit yaratmoqda.

7.3. Markaziy banklarning raqamli pullari, ularning xususiyatlari, O'zbekistonda joriy qilinishi imkoniyatlari

2021 yilning 20-22 oktyabrida Xelsinkida dunyoning rivojlangan mamlakatlari markaziy banklari vakillari ishtirokida o'tkazilgan "To'lovlar iqtisodiyoti" 10-Xalqaro konferentsiyasida to'lovlar bo'yicha istiqboldagi eng muhim vazifalardan biri sifatida pul-kredit siyosatiga to'lov tizimlarining ta'sirini belgilab beruvchi yo'nalish – *Markaziy banklarning raqamli pullarini joriy qilish masalasi* ko'rsatib o'tildi. Yevrotizim mamlakatlari 24 oy davomida ushbu masalani tadqiq qilgan holda uning joriy qilinishi bo'yicha ishlar olib borilishi belgilab berildi⁷⁴.

⁷⁴Economics of Payments X Conference virtually on 20-22 October 2021 (suomenpankki.fi) Gubernator Olli Ren: Perexod na tsifrovie texnologii – tendentsii v platejax vovremya i posle pandemii.

Shuningdek, O'zbekistonda Markaziy bankning raqamli pullarini amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini amaliyotda qo'llab o'rganish bo'yicha ishlar amalga oshirilishi belgilangan.

Kriptovalyutalarning paydo bo'lishi va juda keng tarqalishi hamda ularning asosidagi blokcheyn texnologiyasi markaziy banklarning o'z raqamli valyutalarini (MBRV) chiqarish imkoniyati va uning qanchalik maqsadga muvofiqligini o'rganish masalasini qo'yimoqda. Bunga turli omillar turtki bo'lmoqda, bular blokcheyn texnologiyasini amaliyotda, shuningdek, transchegaraviy to'lovlarda qo'llash, naqd pul hajmining barqaror kamayishi natijasida moliyaviy va to'lov barqarorligini oshirish, shuningdek, moliya sohasida o'rindosh to'lov mexanizmlarini qidirish kabi omillardir.

Hozirgi paytda Xitoy o'z raqamli valyutasini chiqarish arafasida turibdi. Xitoy Xalq bankining raqamli valyutasi 2019 yil dekabrda Xitoy Xalq Respublikasi Kengashi tomonidan tasdiqlangan. MBRV ning birinchi chiqarilishi 2020 yilning may oyidan boshlangan. Raqamli valyutaning chiqarilishi sababi Markaziy bank valyutasining to'lov funksiyasini optimallashtirish, uning mavqeini yaxshilash, pul kredit siyosatining samaradorligini oshirish deb ko'rsatilgan.

Xitoy raqamli valyutasi taxminan universal mobil ilova orqali (yagona raqamli hamyon) yoki boshqa tijorat to'lov platformalarining maxsus interfeysi orqali ishlatilishi mumkin bo'ladi. Pilot rejimi doirasida raqamli valyutani tovar va xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek, ichki banklararo to'lovlarni o'tkazishda foydalanilyapti. 2021 yil oxirida 261 million raqamli hamyonlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ular orqali 87,5 mlrd. yuanga teng tranzaksiyalar o'tkazilgan.

Shvetsiyada raqamli valyutaning pilot loyihasi davom etmoqda. Shvetsiya Banki (Riksbank) mamlakatda naqd pulning ishlatilishi keskin kamayishi natijasida elektron valyutani yo'lga qo'yish masalasini muhokama qilmoqda. Elektron kronani muomalaga chiqarish imkoniyatini o'rganish Loyihasi 2017 yil bahorda boshlangan. Bankning baholashicha, E-krona hisob-kitob vositasi sifatida naqd pullarga qo'shimcha ravishda ishlatilishi mumkin. 2020 yil fevralda Shvetsiya Markaziy banki raqamli kronani yanada chuqurroq o'rganish va fuqarolarning undan foydalanish imkoniyatini aniqlash uchun texnik yechimni ishlab chiqish maqsadida pilot loyihasini amalga oshirishni boshladi. Riksbank Accenture konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda yangi valyutani sinab ko'rmoqda, buning uchun

maxsus raqamli tarmoq yaratilgan. Loyiha Cordaning DLT (blokcheyn) platformasida amalga oshirilmoqda. E-kronani hamyonda saqlash imkoniyati, hisobraqamni to'ldirish, mobil ilova orqali mablag'larni yechish imkoniyatlari sinalmoqda. Boshqa fiat valyutalar kabi E-kronaning tarqalishi uchun bank tarmoqlaridan foydalanish nazarda tutilgan. Buning uchun blokcheyn tarmoq ishtirokchilari bo'lgan banklar mijozlar foydalanishi mumkin bo'lgan elektron hamyonlarni yaratadilar. Smart soatlar va kartalar orqali to'lovlarni amalga oshirish mumkin. Pilot loyiha, shuningdek, elektron krona oflayn rejimda ishlatilishi imkonini beruvchi texnologiyani yaratish imkoniyatini ham o'rganildi. Buning yechimi raqamli tokenlarga asoslangan. Shvetsiya Banki E-kronaning shved qonunchiligiga ta'siri, Markaziy bankning vazifalari, raqamli valyutaning mamlakat iqtisodiyotiga zaruriyati va samarasini o'rganmoqda. 2022 yilda pilot loyihaning ikkinchi bosqichi tugallandi. Ushbu bosqichda, asosan, E-kronaning mavjud raqamli bank infratuzilmasida ishlashi texnik jihatdan o'rganildi. Loyihaning uchinchi bosqichida raqamli valyutaning huquqiy asoslari o'rganilishi ko'zda tutilgan.

MBRVni joriy qilish imkoniyati, shuningdek, Fransiya tomonidan o'rganilmoqda. 2021 yilda qimmatli qog'ozlarni "ulgurji" raqamli yevroga sotish yo'li bilan muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazildi. Bitimlarda kontragent sifatida bir necha moliyaviy institutlar, shuningdek, Societe Generale banki ishtirok etdi. Shuningdek, Fransiya banki, Shveysariya banki hamda Xalqaro hisob-kitoblar banki ishtirokida yevro va shveysariya frankini ikkala mamlakat banklari yagona DLT-platformada uchinchi tomonlar orqali boshqariladigan Jura pilot loyahasini ishga tushirdi. Jura loyihasi CBDC ulgurji savdosi transchegaraviy hisob-kitoblarni optimallashtirishi imkoniyatlarini o'rganmoqda. Raqamli valyutani yaratish rejasi bo'yicha Janubiy Koreya Markaziy banki 2021 yilda e'lon qilgan bo'lib, raqamli vonni muomalaga chiqarish imkoniyatlari o'rganilmoqda. 2021 yilning 20-22 oktyabrida Xelsinkida dunyoning rivojlangan mamlakatlari markaziy banklari vakillari ishtirokida o'tkazilgan "To'lovlar iqtisodiyoti" 10-Xalqaro konferentsiyasida to'lovlar bo'yicha istiqboldagi eng muhim vazifalardan biri sifatida pul-kredit siyosatiga to'lov tizimlarining ta'sirini belgilab beruvchi yo'nalish sifatida Markaziy banklarning raqamli pullarini joriy qilish masalasi

ko'rsatib o'tildi. Yevrotizim mamlakatlari 24 oy davomida ushbu masalani tadqiq qilgan holda uning joriy qilinishi bo'yicha ishlar olib borilishi belgilab berildi.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Moliyaviy texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, to'lov texnologiyalari, to'lov mahsulotlari, katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt, bulutli hisoblash, biometrik texnologiyalar, kontaktsiz to'lovlar, QR-code orqali to'lovlar, kriptovalyutalar, markaziy banklarning raqamli pullari.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. To'lovlar bo'yicha fintex xizmatlarini sanab bering?
2. Raqamli iqtisodiyotga ta'rif bering?
3. Kriptovalyutalar nima?
4. Markaziy banklarning raqamli pullari xususiyatlari.
5. Raqamli to'lov mahsulotlari?
6. Raqamli to'lov texnologiyalarini sanab, tushuntirish bering.

TESTLAR:

1. Onlayn valyuta ayirboshlash, raqamli bank xizmatlari, onlayn to'lovlar protsessori, mobil savdo nuqtasi, xorijiy pul o'tkazmalarining ilova orqali amalga oshirilishi imkoniyatlari, P2P to'lovlari, kriptovalyuta hamyoni bular ...

- A) to'lovlar bo'yicha fintex xizmatlari;
- B) texnologik xizmatlar provayderlari;
- C) moliyaviy institutlar;
- D) to'g'ri javob keltirilmagan.

2. To'lov xizmatlari bo'yicha moliyaviy texnologiyalardan eng keng foydalanadigan davlat bu -...

- A) Xitoy;
- B) Hindiston;
- C) Rossiya;
- D) to'g'ri javob keltirilmagan.

3. *Biometrik texnologiyalar – ...*

- A) shaxsni aniqlash va autentifikatsiya qilish uchun uning yagona jismoniy jihatlari va tabiati xususiyatlaridan kelib chiqadi;
- B) hisoblash quvvatining masshtabi va egiluvchanligini oshirish uchun xosting protsessorlarining onlayn-tarmog'idan ("cloud") foydalanishga imkon yaratadi;
- C) to'lovni qabul qiluvchi qurilma va to'lovchi qurilma o'rtasida jismoniy kontakt bo'lmagan holda to'lovni amalga oshirishga yordam beradi;
- D) to'g'ri javob keltirilmagan.

4. *Bulutli hisoblash - ...*

- A) hisoblash quvvatining masshtabi va egiluvchanligini oshirish uchun xosting protsessorlarining onlayn-tarmog'idan ("cloud") foydalanishga imkon yaratadi;
- B) shaxsni aniqlash va autentifikatsiya qilish uchun uning yagona jismoniy jihatlari va tabiati xususiyatlaridan kelib chiqadi;
- C) to'lovni qabul qiluvchi qurilma va to'lovchi qurilma o'rtasida jismoniy kontakt bo'lmagan holda to'lovni amalga oshirishga yordam beradi;
- D) to'g'ri javob keltirilmagan.

5. *Kontaktsiz texnologiyalar –*

- A) to'lovni qabul qiluvchi qurilma va to'lovchi qurilma o'rtasida jismoniy kontakt bo'lmagan holda to'lovni amalga oshirishga yordam beradi;
- B) hisoblash quvvatining masshtabi va egiluvchanligini oshirish uchun xosting protsessorlarining onlayn-tarmog'idan ("cloud") foydalanishga imkon yaratadi;
- C) shaxsni aniqlash va autentifikatsiya qilish uchun uning yagona jismoniy jihatlari va tabiati xususiyatlaridan kelib chiqadi;

D) to'g'ri javob keltirilmagan.

6. 2021 yilning 20-22 oktyabrida Xelsinkida dunyoning rivojlangan mamlakatlari markaziy banklari vakillari ishtirokida o'tkazilgan "To'lovlar iqtisodiyoti" 10-Xalqaro konferentsiyasida to'lovlar bo'yicha istiqboldagi eng muhim vazifalardan biri sifatida pul-kredit siyosatiga to'lov tizimlarining ta'sirini belgilab beruvchi yo'nalish – bu

A) Markaziy banklarning raqamli pullarini joriy qilish masalasi;

B) elektron pullar muomalasini kengaytirish;

C) kriptovalyutalarni qonuniylashtirish masalasi;

D) to'g'ri javob keltirilmagan.

VIII BOB. SWIFT XALQARO TO'LOV TIZIMI

8.1. SWIFT xalqaro to'lov tizimining mazmuni va uning tashkil etilishi

Hozirgi davrda jahonda Fedwire, Ripple va CHIPS kabi rivojlangan mamlakatlar to'lov tizimlari o'z moliyaviy axborotlar yuborish formatlariga ega bo'lishlariga qaramay, SWIFT telekommunikatsiya tizimlari ichida yetakchi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

SWIFT (Society for World – Wide Interbank Financial Telecommunications) – jahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalar hamjamiyati bo'lib, moliyaviy telekommunikatsiyalar sohasida yetakchi xalqaro tashkilotdir. SWIFT tashkiloti faoliyatining asosiy yo'nalishlari banklar uchun operativ, ishonchli, samarali, konfidensial va himoyalangan telekommunikatsion xizmatni amalga oshirish va moliyaviy axborotlarni almashish usullari va shakllarini standartlashtirish bo'yicha ishlarni olib borish bo'lib hisoblanadi.

SWIFT tizimi faoliyati asosida quyidagi talablar mavjud:

- To'lov operatsiyalari qog'oz ishtirokisiz va ratsional tarzda amalga oshirilishi lozim;
- Banklar o'rtasidagi ma'lumotlarni almashinish jarayoni telekommunikatsiya vositalari yordamida iloji boricha tez amalga oshirilishiga erishish lozim;
- To'lovlarni noto'g'ri manzilga yuborish, to'lov hujjatlarini qalbakilashtirish kabi kichik bank risklari minimallashtirilishi lozim.

1968 yilda barcha ishtirokchilarga sutkalik rejimda yuqori tezlikda bank ma'lumotlarini almashish imkoniyatini beruvchi hamda yuqori himoyaga ega bo'lgan xalqaro tizim loyihasini ishlab chiqish bo'yicha tashabbus yuzaga kelgan. Shu yilning o'zida bank ma'lumotlarini almashish bo'yicha samarali tizimni ishlab chiqish bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirilib, yo'nalishlari belgilab olingan.

1973 yil may oyida 15 mamlakatning 239 banklari ishtirokida Belgiya davlati qonunchiligi asosida SWIFT tizimi ishga tushirilgan. *Tizimni ishga tushirishdan maqsad* moliyaviy axborotlar almashinuvining belgilangan usullarini ishlab chiqish

hamda standartlashgan axborotlar bo'yicha ma'lumotlar yuborishning xalqaro tarmog'ini yaratish edi.

SWIFT tashkiloti aksiyadorlik jamiyati bo'lib hisoblanadi, uning ta'rischilari a'zo banklardir. Tashkilot shtab-kvartirasi Bryusseldan uzoq bo'lmagan La-Ulp shahrida joylashgan bo'lib, Belgiya davlatida ro'yxatdan o'tkazilgan, shu sababli Belgiya qonunchilik normalariga ko'ra faoliyat ko'rsatadi. SWIFT tashkiloti ikki asosiy hujjatga asosan faoliyat ko'rsatadi, bular: Ustav, Asosiy kelishuv va shartlar. Aksiyalarning asosiy ulushi AQSH, Germaniya, Shveysariya, Fransiya, Buyuk Britaniya davlatlariga tegishli.

SWIFTga a'zo kredit tashkilotlari, Markaziy banklar dunyoning qaysi geografik qismida joylashganidan qat'i nazar, sutkanig istalgan qismida yiliga 365 kun hamkorlik qilish imkoniyatiga egadirlar.

SWIFT tizimi foydalanuvchilariga quyidagi imkoniyatlarni beradi:


- axborotlarni yuborish va qabul qilishning maxsus tartibi belgilangan tarmoq asosida hamda har bir axborot elementlarini rezervlash yordamida axborotlarni yuborishning ishonchliligi ta'minlanadi;
- jismoniy, texnik va tashkiliy himoya usullari ko'pdarajali kombinatsiyasi hisobiga mutlaq xavfsizlik kafolati;
- yuborilayotgan ma'lumotlarning to'liq saqlanishi va sir saqlanishi ta'minlanadi;
- telefon orqali aloqa bilan taqqoslanganda operatsion xarajatlar tejaladi.

SWIFT tizimi moliyaviy axborotlar almashinuvining bir necha muhim standartlarini ta'minlab bergan. Masalan, Swift MT standarti xalqaro to'lovlar, pul mablag'larini boshqarish, g'aznachilik yo'nalishidagi ma'lumotlar uchun ishlatiladi. Ushbu standartlar iste'molchilar talabiga muvofiq takomillashtirib boriladi. Axborotlar almashinuvining ISO 15022 standarti qimmatli qog'ozlar va aktivlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha hisob-kitoblarda qo'llaniladi. ISO 20022 standarti moliya tarmog'ining barcha jarayonlariga qo'llaniladi.

2022 yil SWIFT tashkiloti rasmiy saytining ma'lumotlariga ko'ra, tashkilotga jahonning 200 dan ortiq mamlakatlaridan 11 000 dan ortiq kredit tashkilotlari, markaziy banklar a'zo bo'lib hisoblanadi⁷⁵.

8.2. SWIFT tizimi orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi

SWIFT tizimining tranzaksion operatsiyalar sxemasi quyidagi 8.1-rasmda aks ettirilgan.



8.1 - rasm. SWIFT tizimida moliyaviy axborotlar yuborilishining soddalashtirilgan sxemasi

Yuqorida aks ettirilgan sxemani quyidagicha izohlash mumkin:

1-bosqichda to'lovchi o'z bankiga ma'lum summani DEUTSCHE BANK AG (SWIFT bank identifikatsiya kodi DEUTDEFF)ga yuborish uchun so'rov yuboradi.

2-bosqichda to'lovchi banki, o'z navbatida, SWIFT tizimining axborot ma'lumotidan ushbu bankning qaysi bank bilan o'zaro korrespondentsiyasi borligi to'g'risidagi va korrespondentlik hisobvarag'i nomeri to'g'risidagi ma'lumotni aniqlash uchun so'rov yuboradi.

3-bosqichda tizimdan javob kelgach, ushbu bank bevosita o'zining va DEUTSCHE BANK AG ning korrespondentlik aloqalari Citibank NA (SWIFT bank identifikatsiya kodi CITIGB2L) bankida borligi ma'lum bo'ldi (4-bosqich) va SWIFT ma'lumotini ushbu bank orqali DEUTSCHE BANK AG ga yuboradi (5-bosqich).

⁷⁵ <https://www.swift.com/about-us>.

Pul mablag'lari ham moliyaviy axborot bilan birgalikda LORO/NOSTRO korrespondentlik hisobvaraqlari orqali o'tkazib beriladi.

SWIFT tizimining asosiy mahsulotlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Davlat to'lovlari, kredit tashkilotlarining tranzaksiyalari (shuningdek, mijozlar to'lovlari), shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorida pul o'tkazmalarini o'tkazishda moliyaviy axborotlarning SWIFT tizimidagi yagona shakli orqali kliring operatsiyalarini amalga oshirish uchun dasturiy ta'minot;

- Axborot ma'lumotlar – ushbu tizimda yuborilgan va olingan moliyaviy axborotlarning holati, soni, hajmi hamda to'lov topshiriqnomalarining bajarilganligi to'g'risida real vaqt rejimida ma'lumotlar olish imkoniyati mavjud;

- Komplayens xizmatlari - KYC, AML usullari orqali moliyaviy axborotlarni avtomatik rejimda tekshiruvdan o'tkazish xizmati mavjud.


8.3.SWIFT tizimiga muqobil boshqa tizimlar

Quyida mavjud xalqaro to'lov tizimlarini jadvalda aks ettirilgan. Ushbu to'lov tizimlaridan Yevropa Markaziy bankining TARGET2 tizimi hamda xususiy to'lov tizimlaridan AQSHning CLS tizimiga to'xtalib o'tamiz. Continuous Linked Settlements (CLS) hamda TARGET2 turli davlatlarning milliy to'lov tizimlariga kiritilganligi bilan xarakterlanadi. Bu tizimlar transchegaraviy to'lov tizimlari hisoblanib, markazlashmagan formatda faoliyat ko'rsatadi, ularga turli mamlakatlarning normativ-huquqiy munosabatlari amal qiladi.

Xalqaro to'lov tizimlarining asosiy turlari

	Markaziy bank mablag'lari asosida	Tijorat banklari mablag'lari asosida
Ichki hisobvaraqlar	Markaziy banklarga tegishli tizimlar: Yevropa Markaziy banki TARGET tizimi; Fransiya Banki Euroclear France xususiy hisob-kitoblar tizimi(QQ) ⁷⁶ .	Xususiy to'lov tizimlari: - Clearstream Luxemburg (QQ); - Euroclear International (QQ).
Tashqi hisobvaraqlar	Xususiy to'lov tizimlari: - CLS tizimi (FX); - Clearstream Germany (QQ).	Bank kartalarini qo'llovchi hisob-kitob tizimlari.

CLS tizimi turli mamlakatlarning milliy valyutalarida tranzaksiyalarni o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ushbu tizim CLS Bank International kredit tashkiloti tomonidan tashkil qilingan bo'lib, AQSH qonunchiligi asosida ishlaydi, faoliyati Federal rezerv tizimi tomonidan tartibga solinadi. CLS tizimi bo'yicha o'tkazmalarining soddalashtirilgan sxemasi quyida aks ettirilgan.

**8.2-rasm. CLS tizimining ishlash sxemasi.**

Yuqorida aks ettirilganidek, har bir ishtirokchi, CLS tizimida o'z hisobvarag'iga ega bo'ladi va hisobvaraqlar valyuta turiga qarab subhisobvaraqlarga ajraladi. Ishtirokchilar ushbu subhisobvaraqlarda kunni nol balans bilan boshlaydilar va nol balans bilan yakunlaydilar. Xorijiy valyuta bilan bitimlar yalpi asosda, sotilgan valyutani subhisobvaraq debetida, sotib olinganini kreditida aks ettiradi. Subhisobvaraqlar debetida ishtirokchi valyutani sotuvchisi hisoblangan

⁷⁶ Ushbu jadvalda QQ-qimmatli qog'oz, FX – valyuta operatsiyalarini ifodalaydi.

operatsiyalar, kreditida xaridori hisoblangan operatsiyalar aks eataadi. Kun oxirida ishtirokchilar debet qoldiqni CLS tizimiga sotib tegishli valyuta hisobvarag'ini nol qiladilar. Kredit qoldiqni CLS tizimi ishtirokchiga to'lab beradi. O'tkazmalar CLS tizimi Markaziy banklarda ochgan tegishli RTGS tizimi orqali o'tkazib beriladi.

CLS tizimi qo'llaydigan PVP prinsipi valyuta hisob-kitoblaridagi risklarning oldini olish uchun ishlab chiqilgan.

Davlatlar o'rtasidagi SWIFT tizimining nazoratidan qochish maqsadida bank axborotlari bilan almashinuv muqobil tizimlari yaratilgan. Ammo bunday tizimlarda ishtirokchilar soni SWIFT tizimiga nisbatan kamroq. Quyida shunday tizimlarga to'xtalib o'tiladi.

SWIFT tizimining Eron muqobil tizimi. 2019 yili Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya davlatlari Eron bilan savdo munosabatlarini amalga oshirish maqsadida hamkorlikda **INSTEX** tizimini ishga tushirdi. Ushbu tizim Yevrozona davlatlariga AQSH sanksiyalariga qaramay Eron bilan hamkorlik qilishga imkoniyat tug'dirdi. Ushbu tizim ishtirokchilari sanoqli. Tizimda eksport va import maqsadida faqat belgilangan bir necha iste'mol mahsulotlari bitimlari doirasida moliyaviy axborotlar almashinuvi amalga oshiriladi.

SWIFT tizimining Xitoy muqobil tizimi. Xitoy davlati o'z CIPS (Cross-border Interbank Payment System) tizimiga ega. Ushbu tizim dollarlashuvni chegaralash, aniqrog'i, yuandagi to'lovlar xarajatlarini kamaytirish, shuning natijasida Xitoy valyutasini dunyo bo'yicha foydalanilishini rag'batlantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Ushbu tizim ishtirokchilari ham chegaralangan va to'lovlar faqat bir valyuta – yuanda amalga oshiriladi. Tizim ishtirokchilari 90 dan ortiq davlatlardan 1000 ga yaqin banklar bo'lib hisoblanadi.

Rossiya СПФС tizimi (Систему передачи финансовых сообщений) ham SWIFT tizimi muqobil tizimi sifatida 2014 yilda tashkil qilingan. Ushbu tizimda ham ishtirokchilar soni cheklangan.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Fedwire, Ripple va CHIPS to'lov tizimlari, SWIFT telekommunikatsiya tizimi, moliyaviy axborotlar almashinuvi, ichki hisobvaraqlar, tashqi hisobvaraqlar.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. SWIFT telekommunikatsiya tizimining ishlash prinsipini tushuntirib bering?
2. SWIFT tizimida moliyaviy axborotlar yuborilishining soddalashtirilgan sxemasini tushuntirib bering?
3. Xalqaro to'lov tizimlarining asosiy xususiyatlari, turlarini tushuntirib bering.
4. CLS tizimining ishlash sxemasini izohlab bering.

IX BOB. PUL O'TKAZISH TIZIMLARI

9.1. Pul o'tkazish tizimlarining mohiyati va ularning turlari

Pul o'tkazmalari tizimlari – asosan, jismoniy shaxslarga hisobraqam ochmasdan transchegaraviy to'lovlarni o'tkazish bo'yicha moliyaviy vositachi bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda bunday to'lovlar "To'lovlar va to'lovlar to'g'risida"gi Qonun bilan belgilangan qoidalar yordamida tartibga solinadi.

Pul o'tkazmalari tizimlari banklar orqali an'anaviy to'lovlarga muqobil to'lov xizmatlarini amalga oshiradi.


Banklardan farqli o'laroq, pul o'tkazmalari tizimlari dunyo bo'ylab keng filiallar tarmoqlariga ega. Ikkinchi asosiy farqi, bunday tizimlar mijoz uchun tranzaksiyani alohida hisobraqam ochmasdan amalga oshiradilar.

Pul o'tkazmalari tizimlari orqali to'lovlarni amalga oshirishdagi qulaylik ulardan aholi orasida keng foydalanilishiga olib kelgan bo'lsa-da, bunday to'lovlar narxi an'anaviy banklararo to'lovlardan ancha yuqori.

Pul o'tkazmalari tizimlari orqali to'lovlarning asosiy foydalanuvchilari mehnat migrantlari bo'lib hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, xalqaro pul o'tkazmalari - elektron to'lovlarda takomillashtirilishi lozim bo'lgan yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi. «Skolkovo» Fondi va VR_Bank 2019 yil holatiga pul o'tkazmalarining raqamlashtirilish darajasini o'rganganida quyidagi Top-8 pul o'tkazmalarining xizmatlari raqamlashtirilish darajasi yuqoriligini ta'kidlaydi: **Zolotaya Korona, Yunistrim, Western Union, Contact, Sberbank Rossii, Blizko, BEST, Aziya Ekspres**⁷⁷.

O'zbekistondan mehnat migratsiyasining yuqoriligi hisobga olinsa, mamlakatda xalqaro pul o'tkazmalariga ehtiyoj baland. Markaziy bank ma'lumoti bo'yicha, quyida mamlakatimizga xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari orqali kelib tushgan valyutalar tushumining so'nggi uch yillik dinamikasi aks ettirilgan.

⁷⁷ <https://plusworld.ru/daily/cat-analytics/sostavlen-rejting-tsifrovizatsii-sistem-denezhnyh-perevodov/>



9.1-rasm. Xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari orqali mamlakatga chet el valyutasi tushumi, mln. AQSH doll⁷⁸

Ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, bunday tushumlarning hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Ushbu fakt mehnat migrantlarining soni hamda ular yuborayotgan mablag'larning ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

Quyidagi paragraflarda xalqaro pul o'tkazmalari tizimlariga alohida to'xtalib, ularning xususiyatlari tahlili keltirilgan.

9.2. Xalqaro pul o'tkazish tizimlari va ularning ishlash prinsiplari

Hozirgi paytda keng tarqalgan xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari sifatida **Western Union, Contact, MoneyGram, Zolotaya Korona, Yunistrim, Blizko, BEST, Aziya Ekspress** tizimlarini qayd etishimiz mumkin.

Western Union – xalqaro pul o'tkazmalari tizimidir. Ushbu kompaniyaga 1851 yilda Amerika qo'shma shtatlarining Nyu-york shtatida asos solingan. Kompaniya tashkil qilingan paytda The New York and Mississippi Valley Printing Telegraph Company deb nomlangan va telegraf xizmati bilan shug'ullangan. 1856 yilda tashkilot nomini The Western Union Telegraph Company deb qayta nomlashadi. Pul o'tkazmalari xizmatlari ushbu tashkilot tomonidan 1871 yildan

⁷⁸Kratkiy obzor vnutrennego valyutnogo rinka za 2021 god - Tsentralniy bank Respubliki Uzbekistan (cbu.uz).

boshlab taqdim qilina boshlangan va keyinchalik bunday xizmatlar kompaniya asosiy xizmat turiga aylanadi⁷⁹.

Hozirgi paytda Western Union dunyoning 200 dan ortiq davlatlari bilan hamkorlik qiladi. O'zbekistonda ko'plab tijorat banklari ushbu tashkilot bilan hamkorlikda xalqaro pul o'tkazmalarini qabul qilish yoki yuborish xizmatlarini amalga oshirmoqda.

Tizim jismoniy shaxslarga ham, biznes sub'yektlariga ham transchegaraviy to'lov xizmatlarini taqdim etadi.

Jismoniy shaxslarga pul yuborish yoki qabul qilishning quyidagi usullari mavjud:

- Pul mablag'larini onlayn yuborish (qabul qilish);
- Western Union ilovasi orqali yuborish (qabul qilish);
- Western Union shahobchalari orqali shaxsan yuborish (qabul qilish).

Pul mablag'larini onlayn yuborish uchun tizim saytida ro'yxatdan o'tib, mijoz o'zi uchun profil ochishi va ushbu profil orqali pul mablag'larini tegishli manzilga yuborishi (qabul qilish) mumkin.

Western Union ilovasini yuklash orqali esa, pul mablag'larini yuborish, qabul qilish, valyuta ayirboshlash kurslarini kuzatib borish, shuningdek, yuborilgan va qabul qilingan mablag'lar monitoringini amalga oshirish mumkin.

⁷⁹ https://www.banki.ru/wikibank/sistema_denejnyih_perevodov_western_union/

**ATB “Kapital bank” orqali WESTERN UNION pul o‘tkazmalari
bo‘yicha tariflar (AQSH dollarida)⁸⁰**

№	Xizmat shartlari	Tariflar	Komissiya narxlari
1	“Western Union” tizimida MDH mamlakatlariga pul mablag‘larini o‘tkazish	Tarif “Muddatli” O‘tkazma summasi(\$) 0,01–200,00 200,01–2000,00 2000,01–3000,00 3000,01 va ortiq Tarif “12 soat” 0,01 – 200,00 200,01–300,00 300,01–3000,00	Tarif “Muddatli” \$ 3,00 1,7% o‘tkazma summasidan 1,3% o‘tkazma summasidan 1,0% o‘tkazma summasidan Tarif “12 soat” \$ 2,00 1,0% o‘tkazma summasidan 0,5% o‘tkazma summasidan
2	Boshqa davlatlarga ⁸¹ “Western Union” tizimida pul mablag‘larini o‘tkazish	50,00 va undan kam 50,01-100,00 100,01-200,00 200,01-300,00 300,01-400,00 400,01-500,00 500,01-750,00 750,01-1 000,00 1 000,01-1 500,00 1 500,01-1 750,00 1 750,01-2 000,00 2 000,01-2 500,00 2 500,01-3 000,00 3 000,01-3 500,00 3 500,01-4 000,00 4 000,01-4 500,00 4 500,01-5 000,00	13,00 15,00 22,00 29,00 34,00 40,00 45,00 51,00 76,00 81,00 91,00 111,00 121,00 141,00 161,00 181,00 201,00
3	“Western Union” tizimida Xitoyga pul mablag‘larini o‘tkazish	100,00 va undan kam 100,01-300,00 300,01-500,00 500,01-800,00 800,01-1000,00 1000,01-1500,00 1500,01-2000,00 2000,01-5000,00	15,00 20,00 25,00 30,00 35,00 40,00 45,00 50,00
5	“Western Union” tizimida kelib tushgan mablag‘larni berish		Komissiya olinmaydi

⁸⁰ <https://kapital24.uz/ru/money-transfer/western-union/> (saytga murojaat sanasi: 14.12.2022)

⁸¹ Xitoy va MDH davlatlaridan tashqari boshqa davlatlar.

Shuningdek, dunyo bo‘ylab Western Unionning 57 000 dan ortiq shahobchalari mavjud bo‘lib, mijozlar shaxsan ushbu bo‘linmalar orqali borib mablag‘larni yuborishlari yoki qabul qilishlari mumkin⁸².

Yuqoridagi mahalliy banklardan ATB “Kapitalbank”ning Western Union orqali to‘lovlar bo‘yicha tariflarini keltirildi:

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turganidek, «Western Union» tizimi orqali pul o‘tkazmalarini o‘tkazishda turli davlatlarga turli tariflar belgilangan.

MoneyGram International, Inc. – xalqaro pul o‘tkazmalari xizmatini taqdim etuvchi amerika moliya tashkiloti. Tashkilot 1940 yilda tashkil etilgan bo‘lib, bosh ofisi Dallasda joylashgan. Tashkilot dunyoning 200 dan ortiq mamlakatlarida 380 mingdan ortiq xizmat ko‘rsatish nuqtalariga ega va 400 dan ortiq tijorat banklari bilan hamkorlik qiladi⁸³.

Ushbu tizim orqali ham jismoniy shaxslarga pul yuborish yoki qabul qilishning quyidagi usullari mavjud:

- Pul mablag‘larini onlayn yuborish (qabul qilish);
- MoneyGram ilovasi orqali yuborish (qabul qilish);
- MoneyGram shahobchalari orqali shaxsan yuborish (qabul qilish).

Faqat ushbu usuldagi pul o‘tkazmalarini amalga oshirish bo‘yicha turli davlatlarda turlicha imkoniyatlar taqdim etilgan. Masalan, kompaniya sayti ma’lumotlariga ko‘ra, onlayn pul o‘tkazmalarini amalga oshirish imkoniyatiga 33 ta davlatda imkon yaratilgan bo‘lsa, shahobchalar orqali 200 dan ortiq davlatda bunday imkoniyatlar mavjud.

Mahalliy banklardan ATB “InFinBank” ning xalqaro pul o‘tkazmalari xizmatlari tahlil qilinganida ushbu bank orqali YUNISTRIM, Contact, MoneyGram, Western Union, Zolotaya korona tizimlari bilan hamkorlik munosabatlari o‘rnatilganini ko‘rish mumkin. Ushbu bankning aynan MoneyGram orqali to‘lovlar komissiyalarini quyida keltirildi.

⁸² <https://www.westernunion.com/us/en/home.html>

⁸³ <https://www.moneygram.com/intl/despre-moneygram-ro>

ATB “InFinBank”da MoneyGram pul o‘tkazmalarining tarifi⁸⁴

MDH davlatlariga (Armaniston, Belarusiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston) va Gruziyaga	
O‘tkazma summasi	Komissiya
1,00-200,00	3,00
200,01-400,00	6,00
400,01-600,00	9,00
600,01-800,00	12,00
800,01-1000,00	15,00
1000,01-2000,00	30,00
2000,01-3000,00	36,00
3000,01-4000,00	40,00
4000,01-5000,00	50,00
Ukraina va Turkmanistonga	
O‘tkazma summasi	Komissiya
1,00-200,00	5,00
200,01-400,00	9,00
400,01-600,00	15,00
600,01-1000,00	20,00
1000,01-1500,00	35,00
1500,01-2000,00	40,00
2000,01-3000,00	45,00
3000,01-4000,00	50,00
4000,01-5000,00	60,00
Xitoyga	
O‘tkazma summasi	Komissiya
1,00-300,00	9
300,01-600,00	18
600,01-1000,00	25
1000,00-1500,00	35
1500,01-2000,00	40
2000,01-5000,00	45
Boshqa davlatlarga	
O‘tkazma summasi	Komissiya
1,00-100,00	10,00
100,01-250,00	18,00
250,01-400,00	24,00
400,01-600,00	34,00
600,01-800,00	39,00
800,01-1000,00	44,00
1000,01-1200,00	60,00
1200,01-1800,00	65,00
1800,01-2500,00	70,00
2500,01-5000,00	100,00

⁸⁴ [https://www.infinbank.com/ru/private/denper/moneygram/\(saytga murojaat sanasi: 14.12.2022\)](https://www.infinbank.com/ru/private/denper/moneygram/(saytga%20murojaat%20sanasi%3A%2014.12.2022))

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, turli davlatlar uchun tizimda xalqaro pul o'tkazmalariga turli komissiya narxlari belgilangan.

An'anaviy bank tizimida banklar yuqoridagi kabi pul o'tkazmalari tizimlari bilan hamkorlikda alohida bo'limlar orqali aholiga pul o'tkazmalari xizmatlarini amalga oshirib kelganlar. Bunda alohida xodimlar, alohida ofis yoki maxsus jihozlangan xona va boshqa xarajatlar talab qilingan. Pul o'tkazmalari tizimlarining raqamlashtirilishi banklarga to'lov tashkilotlari bilan hamkorlikda mobil ilova orqali xalqaro pul o'tkazmalari lahzada o'tkazish imkonini beradi. Bu texnologiyaning joriy etilishi tijorat banklari uchun operatsion xarajatlarning qisqarishiga, mijozlar uchun xalqaro o'tkazmalarni arzonroq va lahzada o'tkazish imkonini beradi.

Muqobil kanallar orqali transchegaraviy pul o'tkazmalari esa bu kabi xarajatlardan holi hamda sutkaning istalgan paytida belgilangan mamlakatlar doirasida to'lovlarni lahzada o'tkazib berish imkoniyatiga ega.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Pul o'tkazmalari tizimlari, Zolotaya Korona, Yunistrim, Western Union, Contact, Sberbank Rossii, Blizko, BEST, Aziya Ekspres, xalqaro pul o'tkazmalari, to'lovlar.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Xalqaro pul o'tkazmalari tushunchasiga izoh bering.
2. Keng tarqalgan xalqaro pul o'tkazmalari tizimlarini sanab, ularning ishlash prinsiplarini tushuntirib bering.
3. Tijorat banklarining mobil ilovalari orqali pul o'tkazmalari qanday amalga oshiriladi?
4. Xalqaro pul o'tkazmalariga raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi masalalariga to'xtaling.

X BOB. BANK XAVFSIZLIGINING MAQSADI VA VAZIFALARI

10.1. Bank xavfsizligining mazmuni, uning maqsadi va turlari

Bank xavfsizligi – moliyaviy faoliyatni himoya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui bo'lib hisoblanadi. Bank xavfsizligini ta'minlash bo'yicha umumiy tizim bank binosi va hududini, moddiy va moliyaviy resurslarini, xodimlarni, ma'lumotlarni, mijozlarni, amalga oshiriladigan operatsiyalarni himoya qilishni nazarda tutadi.

Bank xavfsizligini ta'minlash faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Xavfni prognoz qilish, aniqlash, tahlil qilish va baholash;
- Himoya chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llash;
- Xavfni bartaraf qilish;
- Salbiy ta'sirlarga chidamlilikni oshirish;
- Buzuvchi harakatlar oqibatlarini yo'qotish tizimini yaratish.

Bank depozitlari xavfsizligi aholi omonatlarini kafolatlash fondi tomonidan ta'minlanadi.

Bank kartalari xavfsizligi bir necha darajali himoya tizimi orqali ta'minlanadi. Bunga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- Bir necha darajali himoya tizimiga ega kartalar chiqarish orqali qalbakilashtirish xavfini oldini olish (magnit tasmasi yoki chip, karta egasining imzosi, CVV2 yoki CVC2 kodi, golografik belgilar, shtrix-kod va b.);
- Kartaning qalbaki emasligini tekshirish uchun maxsus dasturiy ta'minotni o'rnatish;
- Operatsiyalarni amalga oshirish uchun parol va kod o'rnatish;
- Bajirilgan operatsiyalar to'g'risida SMS-xabar yuborish tizimini o'rnatish;
- Bakomatlarni buzishdan himoyalash;
- Bir martada yechiladigan pul mablag'lariga limit o'rnatish.

Bank operatsiyalarini amalga oshirish xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- Tranzaksiyalarni amalga oshirishning ishonchli usullarini qo'llash;

- Aloqa kanallarini himoyalash;
- Ma'lumotlarni rezerv ko'chirish usulini qo'llash;
- Kod, parollarni qo'llash;
- Ma'lumotga ruxsat huquqlarini bo'lish;
- Operatsiyani amalga oshirishga limit belgilash;
- Maxsus dasturiy ta'minot;
- Xodimlar malakasini oshirish, ish faoliyatini nazorat qilish.

Bank operatsiyalarining xavfsizligiga bank mas'ul xodimlari, rahbariyat, xavfsizlik xizmati xodimlari javob beradi.

To'lovlar xavfsizligi. Yuqoridagi boblarda ko'rib o'tilganidek, to'lov usullari naqd va naqdsiz usulda amalga oshirilishi mumkin. Naqd pulsiz to'lovlar to'lov topshiriqnomalari, to'lov talabnomalari, inkasso topshiriqnomasi, akkreditivga ariza, memorial orderlar orqali amalga oshiriladi. Har bir to'lov turi uchun hujjatlar, ma'lumotlar, dasturiy ta'minot, xodim faoliyati nazorati kabilar bo'yicha xavfsizlikni ta'minlash tizimi ishlab chiqiladi. Bu kabi bir necha darajali xavfsizlik tizimi pul o'tkazmalarini amalga oshirish va tranzaksiyalarni amalga oshirishda risklarni minimallashtirishga yordam beradi.

Ma'lumot xavfsizligi – ma'lumotlar konfidensialligini, yaxlitligini, ishonchliligini va ommabopligini ta'minlash chora-tadbirlari yig'indisidir.

Bank tizimida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash choralari quyidagilar kiradi:

- Tizimga ruxsatsiz kirishdan himoyalash;
- Foydalanuvchilarni avtorizatsiya va identifikatsiyadan o'tkazish;
- Ma'lumotlarni o'tkazuvchi kanallarni himoyalash;
- Bank binosi, hududi, ma'lumotlar omborini himoyalash;
- Ma'lumotlarni rezerv ko'chirish tizimini yo'lga qo'yish.

10.2. Bank xavfsizligining vazifalari

Bank xavfsizligi tizimining asosiy maqsadi bankning barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash hamda uning xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xatarlarni oldini olish, kredit tashkilotining qonuniy manfaatlarini noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilish, xodimlar sog'ligi va hayotini himoyalash, moliyaviy va moddiy-texnik vositalarning o'g'irlanishiga yo'l qo'ymaslik, mulk va qimmatliklarning yo'q qilinishiga yo'l qo'ymaslik, ma'lumotlarning oshkor qilinishi, yo'qotilishi, buzib ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik, texnik vositalarning buzilishini oldini olish, samarali ish faoliyatini ta'minlash, shuningdek, informatsion vositalarning ish faoliyati buzilmasligini ta'minlashdan iboratdir.

Bank xavfsizligining *vazifalari* quyidagilardan iborat:

- Bank personal va resurslariga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan xatarlarni prognoz qilish, vaqtida aniqlash va ularning oldini olish; moliyaviy, moddiy va ma'naviy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, faoliyat yuritishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan sabab va sharoitlarni bartaraf qilish;
- Ma'lumotlarni turli chegaralangan kategoriyalarga ajratish (davlat siri, faoliyat siri, bank siri va tijorat siri, noqonuniy foydalanishdan himoya qilinishi lozim bo'lgan boshqa konfedensial ma'lumot), boshqa resurslarni esa turli xavfsizlik darajasiga qarab turlarga bo'lish;
- Bank faoliyatida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarga operativ javob qaytarish sharoit va mexanizmlarini yaratish;
- Xodimlar hayotiga va resurslarga turli tahdidlarni samarali bartaraf qilish, bank xavfsizligini tashkil qilishning samarali choralarini ko'rish;
- Xavfsizlikning buzilishi, noqonuniy xatti-harakatlar natijasida yuzaga kelgan zararining maksimal darajada qoplanishi bo'yicha shart-sharoitlarni ishlab chiqish.

Tijorat bankining faoliyatiga tahdid tug'diishi mumkin bo'lgan xatar turlariga qarab, bank xavfsizligini ta'minlashni quyidagi yo'nalishlarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Informatsion-analitik tadqiqotlar va xavfsizlikni prognoz baholash;
- Xodimlar xavfsizligi;
- Moliyaviy vositalar va ob'yektlarning yaxlitligini saqlash va himoya qilish;
- Informatsion resurslar xavfsizligini ta'minlash.

Informatsion-analitik tadqiqotlar va xavfsizlikni prognoz baholash yo'nalishida asosiy vazifalar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Jahon va milliy moliya bozoridagi ma'lumotlarni yig'ish, ularni tahlil qilish va kelgusi rivojini prognoz qilish;
- Konfidentsial ma'lumotni aniqlash bo'yicha ishlarni tashkillashtirish, ma'lumotning konfidentsiallik darajasini asoslash va ularni himoyalashni tashkil qilish;
- Milliy va xorijiy hamkorlar bilan samarali ish munosabatlarini ta'minlash maqsadida iqtisodiy, texnik-ilmiy ma'lumotlarni yig'ish, ular tarkibida ishonchsiz hamda jinoiy guruhlariga aloqasi bor tashkilotlarni aniqlash;
- Mamlakatda iqtisodiy va pul-kredit tizimi bilan bog'liq jinoyatlar holatini o'rganish, tahlil qilish va baholash;
- Bank rahbariyatini xavfsizlik sohasidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash;
- Xavfsizlik xizmati bo'linmasi faoliyatini boshqarish va bankning boshqa bo'linmalari bilan xavfsizlik muammolarini hal qilishda hamkorlik qilish.

Xodimlarning xavfsizligini saqlash ularning hayotiga, moddiy qimmatliklariga, shaxsiy ma'lumotlariga xavf solishi mumkin bo'lgan noqonuniy xatti-harakatlardan ularni asrash bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy vositalar va ob'yektlarning yaxlitligini saqlash va himoya qilish bo'yicha vazifalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Bank binolarida qo'riqlash rejimining yo'lga qo'yilishi;
- Ruxsat orqali kirib-chiqish rejimining o'rnatilishi;
- Hujjatlar va qimmatliklar saqlanishini ta'minlash;
- Moddiy himoyani ta'minlashda barcha tarkibiy qismlarning hamkorligini ta'minlash.

Informatsion resurslar xavfsizligini ta'minlash yo'nalishining asosiy vazifalari quyidagilar:

- Xodimlarning hujjatlar va ma'lumotlardan chegaralangan ruxsat bilan foydalanish tizimini yo'lga qo'yish;
- Yopiq yozishmalar va aloqa tizimini yo'lga qo'yish;
- Axborot va aloqa tizimlari orqali qayta ishlanadigan va yuboriladigan axborotlarni himoyalashni tashkil qilish;
- Konfidensial yig'ilish, suhbatlar jarayonlarini xavfsizligini ta'minlash;
- Konfidensial hujjatlar saqlanishi, yaxlitligini nazorat qilish.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Bank xavfsizligi, magnit tasmasi yoki chip, karta egasining imzosi, CVV2 yoki CVC2 kodi, golografik belgilar, shtrix-kod, to'lov xavfsizligi, ma'lumot xavfsizligi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Bank xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
2. Depozit operatsiyalari xavfsizligiga izoh bering.
3. Kredit operatsiyalari xavfsizligiga kengroq to'xtalib o'ting.
4. To'lov operatsiyalari xavfsizligiga izoh bering.

XI BOB. BANK XAVFSIZLIGIGA TA'SIR QILUVCHI XATAR SHAKLLARI

11.1. Bank xavfsizligiga ta'sir qiluvchi xatar shakllari

Bank xavfsizligiga ta'sir qiluvchi xatar shakllari turlicha bo'lishi mumkin. Ularni ichki va tashqi xatar shakllariga bo'lish o'rinlidir.

11.1-jadval

Bank xavfsizligiga ta'sir qiluvchi xatar shakllari

Ichki	Tashqi
1. Riski yuqori bo'lgan kredit siyosatini yuritish bilan bog'liq xatarlar.	1. Mamlakat iqtisodiy, siyosiy va sotsial sohalaridagi o'zgarishlar sababli kelib chiqadigan xatarlar.
2. Bank menejmentining sifati pastligi sababli kelib chiqadigan xatarlar.	2. Nosoz bozor konyukturasi sababli kelib chiqadigan xatarlar.
3. Bank faoliyatining likvidligini noto'g'ri boshqarishdan kelib chiqadigan xatarlar.	3. Bank tizimidagi noqonuniy operatsiyalar orqali kelib chiqadigan xatarlar.
4. Bank qonunchiligini buzilishidan kelib chiqadigan xatarlar.	4. Jahon moliya bozoridagi salbiy o'zgarishlardan kelib chiqadigan xatarlar.

Bank faoliyati xavfsizligi darajasi bank bo'linmalari tomonidan mumkin bo'lgan xatarlarni qanchalik samarali ravishda oldi olinib, bartaraf qilinishi bilan bog'liq.

Tijorat bankining iqtisodiy xavfsizligini ko'rsatuvchi quyidagi asosiy belgilarni keltirish mumkin:

- 1) Bankning xalqaro reyting agentliklarida kredit reytingining darajasi;
- 2) Bank faoliyati majburiy normativlarini bajarilish darajasi;
- 3) Tijorat bankining risk darajasi;
- 4) Bankning xodimlar faoliyati xavfsizligi ta'minlanishi samaradorligi darajasi;
- 5) Bankning texnik va ma'lumot xavfsizligi darajasi.

Kredit reytingi emitentning kreditga layoqatliligining mustaqil va ishonchli bahosini aks ettiradi.

Xalqaro reyting agentliklari tomonidan beriladigan bankning kredit reytingi tijorat bankining iqtisodiy xavfsizligini belgilovch ko'rsatkichlardan asosiysi hisoblanadi.

Moody's, Standard and Poor's va Fitch Ratings kabi xalqaro reyting agentliklari hamda Axbor-Reyting mahalliy reyting agentligi mavjud tijorat banklari faoliyatini har yili tahlil qilgan holda reyting natijalarini e'lon qilib boradilar. Ushbu reyting natijalari bankning faoliyati xavfsizligini belgilashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi, bankning reytingi qanchalik yuqori bo'lsa, uning iqtisodiy xavfsizligi shunchalik yuqori bo'ladi, deya olamiz.

Shuningdek, *Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan bank faoliyati majburiy normativlarining bajarilishi* bank faoliyati iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi.

Kapital monandlilik koeffitsiyenti banklar to'lov qobiliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bazel III standartlariga ko'ra, bank jami kapitalining monandlilik koeffitsiyenti riskka tortilgan aktivlarga nisbatan kamida 8 foiz bo'lishi tavsiya etilgan. Bundan tashqari, Bazel III standartlarida bank kapitaliga nisbatan konservatsiya buferi (2,5 foiz), kontrsiklik kapital buferi (0–2,5 foiz), mahalliy va global tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi (aniq chegarasi belgilanmagan) kabi qo'shimcha talablarni o'rnatish ko'zda tutilgan. O'zbekistonda bank tizimi barqarorligining joriy holati hamda Bazel III tomonidan tavsiya etilgan qo'shimcha kapital bufer talablarini ham inobatga olgan holda tijorat banklari uchun kapital monandlilik koeffitsiyenti 13 foiz qilib belgilangan.

Markaziy bank Bazel III tavsiyalariga mos ravishda kapitalga qo'yilgan minimal me'yoriy talablarini bosqichma-bosqich o'zgartirdi. 2015 yilda birinchi darajali kapital nisbatining talabi ikki marta 5 foizdan 8,5 foizgacha, kapital monandlilik koeffitsiyenti esa 10 foizdan 11,5 foizgacha oshirildi. Ushbu o'zgarishlarga ko'ra, birinchi darajali kapital – birinchi darajali asosiy kapital (CET1) va birinchi darajali qo'shimcha kapitalga ajratilgan. Navbatdagi

o'zgartirishlarda regulyativ kapital yetarliligi va birinchi darajali kapital yetarliligi uchun minimal talab 1 foiz bandga oshirildi va 2017 yil 1 yanvardan kuchga kirdi.

2017 yil 1 oktyabrdagi me'yoriy o'zgartirishlar kiritilgunga qadar xususiy va boshqa tijorat banklari uchun eng kam ustav kapitali mos ravishda 5 mln va 10 mln yevroni tashkil qilgan. Hozirgi paytda, barcha tijorat banklari uchun eng kam ustav kapitalining qiymati 100 mlrd so'm etib belgilangan.

Tijorat banki faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini aniqlovchi ko'rsatkichlardan yana biri bu uning *risklari darajasidir*. Bank risklari darajasi qanchalik past bo'lsa, uning iqtisodiy xavfsizligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Risk darajasi ushbu risk yuzaga kelganda ehtimoli bo'lgan yo'qotishlar darajasi bilan belgilanadi.

Risk darajasini aniqlash uchun banklar quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- Risk summasi (darajasi) – ehtimoliy yo'qotishlar summasi;
- Salbiy oqibat ehtimolligi darajasi;
- Risk davri davomiyligi.

Kadrlar xavfsizligini ta'minlashning samaradorligi bank xavfsizligini belgilovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich bank faoliyatini tashkillashtirishning muhim jihatlaridan biri bo'lgani sababli kadrlar xavfsizligi ko'rsatkichini tahlil qilish asosiy ahamiyatga ega.

Jahon amaliyoti bo'yicha tahlillarga ko'ra, banklarda amalga oshirilgan ko'plab jinoyatlarning qariyb yarmidan ko'pi o'z xodimlari tomonidan yo'l qo'yilgani kuzatilgan. Bunday holatlarni bartaraf qilish faqat kadrlar xavfsizligi tizimini yo'lga qo'yish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Xodimlar tomonidan mehnat tartibining buzilishi, resurslardan samarali foydalanmaslik, konfidensial ma'lumotlarning ochilishi, bankning mulki, reputatsiyasi va xavfsizligiga nisbatan xatarlarni yuzaga keltiradi.

Xodimlar xavfsizligi darajasini quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin:

- Xodimlar jami soni;
- O'rta va oliy ma'lumotli xodimlarning jami xodimlar soniga nisbati;

- Umumiy daromadning ish bilan bandlar soniga nisbati orqali hisoblanadigan ish samaradorligi koeffitsiyenti;
- Bankdagi o'rtacha ish haqining umumiy iqtisodiyotdagi o'rtacha ish haqiga nisbati.

Kadrlar xavfsizligi xataridan bank tashkilotlari uchun moddiy va reputatsiyaning yo'qolishi, aksiyalar narxining tushishi, hamkorlar bilan munosabatlarning buzilishi kabi nomoddiy yo'qotishlarni olib kelishi mumkin.

Bank xavfsizligini ta'minlash maqsadida xodimlar riskini iloji boricha kamaytirish bo'yicha ishlar olib borilishi zarur.

Tijorat banki xavfsizligining asosiy xatarlaridan biri bu *texnik va ma'lumot xavfsizligi* bo'lib hisoblanadi.

Bankning ma'lumot xavfsizligi – bu uning barcha ma'lumot aktivlarining himoyalanganlik holatidir.

Bankning raqobatbardoshligi uning ma'lumot xavfsizligiga bog'liq. Texnik va informatsion xavfsizlik qanchalik yuqori bo'lsa, bankning iqtisodiy xavfsizligi shunchalik kamroq xatarlarga ega bo'ladi.

Informatsion xavfsizlik quyidagilarni ta'minlaydi:

- Bank, tijorat siri bo'lib hisoblangan ma'lumotlarning oshkor etilishi riski;
- Qimmatli ma'lumotlarning yo'qotilishi riski;
- Bank faoliyatida, shuningdek, boshqaruv qarorlarining qabul qilinishida to'liq bo'lmagan va buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishlatilishi riski va boshqalar.

Ma'lumot xavfsizligi manbalari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- Ichki va tashqi yomon maqsaddagi ma'lumot xavfsizligini buzuvchilar;
- Informatsion tizimning dasturiy buzilishlari;
- Informatsion tizimning normal ishlashiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan tabiiy xatarlar.

Bank informatsion tizimiga hujum qiluvchi xakerlarning asosiy maqsadi kredit tashkilotining ma'lumot aktivlari ustidan nazoratni qo'lga olish, keyinchalik shu yordamida noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirish bo'lib hisoblanadi.

11.2. Xavfsizlik tizimida sifatni ta'minlash

Xavfsizlik tizimining zarur tarkibiy qismi ish sifatini va qo'llaniladigan himoya vositalari va choralari ta'minlash bo'lishi kerak, uning me'yoriy-huquqiy bazasi davlat organlari tomonidan tasdiqlangan xavfsizlik bo'yicha standartlar va boshqa me'yoriy, texnik va uslubiy hujjatlar tizimidir. Axborot xavfsizligi standartlari va talablarini belgilashda ularning vakolatlari axborotni himoya qilishning turli sohalarida bo'ladi.

Ushbu talablariga muvofiq axborot tizimlarini loyihalashdan oldin tekshirish va loyihalash, ushbu tizimlarda foydalanish uchun mo'ljallangan axborot xavfsizligi va boshqarish vositalarini buyurtma qilish, informatika ob'yektlarini sertifikatlash, shuningdek axborot resurslari xavfsizligini nazorat qilish kerak.

Standartlashtirish tizimi bilan birgalikda axborot xavfsizligi talablariga muvofiq mahsulot va xizmatlar sifatini ta'minlashning yagona tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- axborot xavfsizligi talablariga muvofiq kompyuter va aloqa uskunalari va tizimlarini sertifikatlash;
- axborot xavfsizligi xizmatlarini litsenziyalash;
- axborot xavfsizligi talablariga muvofiq informatsion ob'yektlarini attestatsiyadan o'tkazish.

Ushbu tizimlarning talablariga muvofiq, axborotni muhofaza qilish sohasida uchinchi tomon tashkilotlariga xizmat ko'rsatish huquqi faqat ushbu faoliyat turi uchun ruxsatnoma (litsenziya) bo'lgan tashkilotlarga beriladi. Maxfiy axborotni qayta ishlash (uzatish) uchun mo'ljallangan kompyuter texnologiyalari va kommunikatsiyalari vositalari va tizimlari, bunday axborotni himoya qilish va himoya qilish samaradorligini nazorat qilish vositalari axborot xavfsizligi talablariga muvofiq majburiy sertifikatlashtirilishi kerak, shuningdek, maxfiy va boshqa maxfiy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan informatsion ob'yektlari davlat, shuningdek maxfiy muzokaralar olib borish uchun axborot xavfsizligi talablariga muvofiq majburiy sertifikatlanishi kerak.

Avtomatlashtirish ob'yekti uchun axborotni himoya qilishning keng qamrovli tizimini ishlab chiqishda axborot xavfsizligi talablariga muvofiq sertifikatlangan mavjud kompyuter va aloqa uskunalardan, xavfsizlikni muhofaza qilish va boshqarish vositalaridan maksimal darajada foydalanish, asl texnik yoki dasturiy ta'minotni himoya qilish vositalarini ishlab chiqish yoki buyurtma qilish kerak. Zarur natijalarga erishish mumkin bo'lmagan hollarda mavjud vositalardan kelib chiqib, turli darajadagi va maqsadlardagi avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqish, texnik vositalarni tanlashga va butun tizimni qo'llab-quvvatlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Axborot tizimlarini rivojlantirish strategiyasini tanlashda xuddi shu holatlarga e'tibor qaratish kerak.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Ichki va tashqi xatarlar, bankning xalqaro reyting agentliklarida kredit reytingining darajasi, bank faoliyati majburiy normativlarini bajarilish darajasi, tijorat bankining risk darajasi, xodimlar xavfsizligi, texnik va ma'lumot xavfsizligi darajasi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Bank xavfsizligiga ta'sir qiluvchi ichki xatar turlarini sanang.
2. Bank xavfsizligiga ta'sir qiluvchi tashqi xatar turlarini sanang.
3. Kredit reytingi nima?
4. Bank faoliyati majburiy normativlarini sanab bering.
5. Xodimlar xavfsizligi qanday amalga oshiriladi?
6. Texnik va ma'lumot xavfsizligi qanday ta'minlanadi?

XII BOB. BANK XAVFSIZLIGINI XIMOYALASHNI TASHKIL ETISH

12.1. Bank xavfsizligi ob'yektlarining xavfsizligini ta'minlash

Bank ma'lumot xavfsizligini himoyalashni ta'minlashga qaratilgan asosiy yo'nalishlar quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- Informatsion resurslarni noqonuniy yo'l orqali o'g'irlash, yo'qotish, yo'q qilib yuborish, ochish, buzib ko'rsatish va qalbakilashtirishdan himoyalash;
- Binoda mavjud imkoniyatlar sababli ma'lumotlarning akustik, bino konstruksiyalari orqali chiqishini oldini olish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha informatsion xavfsizlikni ta'minlash texnik siyosatining tegishli chora-tadbirlarini amalga oshirish talab etiladi.

12.1-jadval

Informatsion xavfsizlikni ta'minlash texnik siyosatining tegishli chora-tadbirlari

Chora-tadbir nomi	Chora-tadbir xarakteri
Tizimga ruxsat	Foydalanuvchilarning konfidentsial xarakterdagi ma'lumotlar va hujjatlarga ruxsatini amalga oshirish tizimi
Tizimdan foydalanishni chegaralash	Tizimdan foydalanuvchilar va begona shaxslarning bank binosi, konfidentsial xarakterdagi ma'lumotlar qayta ishlanadigan binoga kirishlarini chegaralash
Hujjatlar hisobini yuritish	Hujjatlar, ma'lumotlar hisobini yuritish, informatsion tizim foydalanuvchilarining hakatlari registratsiyasini olib borish
Ma'lumotning kriptografik qayta shakllantirilishi	Hisoblash texnik vositalari orqali yuboriladigan va qayta ishlanadigan ma'lumotlarning kriptografik qayta ishlanishi
Informativlik darajasini pasaytirish	Ishlash faoliyatini ta'minlash va avtomatlashgan informatsion tizim texnik vositalarini elektromagnit nurlanish va boshqa texnik vositalar orqali axborotlarning chiqishini kamaytirish
Akustika darajasini pasaytirish	Akustik nurlanish darajasini pasaytirish
Shovqin	Turli diapazonlarda faol shovqinning ta'minlanishi

Informatsion xavfsizlikni ta'minlash uchun fishing va kontaktsiz texnologiyalar orqali pul mablag'larini o'g'irlashga qarshi usullar qo'llaniladi.

Fishing (ingl. phishing, fishing – baliq ovlash) – internet yordamida amalga oshiriladigan ma'lum firibgarlik turi bo'lib, bank yoki brendlar nomidan elektron xatlarni jo'natish orqali foydalanuvchilarning personal ma'lumotlariga, login va parollariga ruxsatni qo'lga kiritishdan iboratdir. Xatda ko'p hollarda haqiqiy saytdan qariyb farq qilmaydigan saytga avtomat qayta yo'llash funksiyasi mavjud bo'ladi. Foydalanuvchi qalbaki saytga o'tganida firibgarlar turli psixologik yo'llar bilan foydalanuvchini qalbaki saytda o'z parol va loginlarini kiritishga ko'ndiradilar. Bu esa firibgarlarga foydalanuvchining bank hisobraqamiga yo'l beradi. Fishing qurbonlari moliyaviy savodxonligi yetmaydigan foydalanuvchilardir. Chunki haqiqiy servislar foydalanuvchining parol va loginini so'rab xat yubormaydi.

Fishingga qarshi kurash bir necha usullarni o'z ichiga oladi. Ulardan biri – *foydalanuvchilarni fishingni tanishga va unga qarshi kurashishga*, masalan, xat yuborilgan kompaniyaning o'zi bilan bog'lanib, xatning asl yoki yo'qligini *tekshirishga o'rgatishdir*. Ekspertlar fikricha, kelajakda informatsiyani o'g'irlashning keng tarqalgan turi farming (foydalanuvchini yolg'on IP-adresga yo'naltirish) va turli zararli dasturlar bo'lishi mumkin.

Fishingga qarshi kurashishning yana bir usuli *texnik usullar* bo'lib, fishing xavfi haqida ogohlantiruvchi brauzer, avtorizatsiya jarayonlarini qiyinlashtiruvchi usullarni qo'llash.

Fishingga qarshi kurashish yo'llaridan yana biri *monitoring xizmatidir*. Ba'zi kompaniyalar banklarga fishing hujumlariga qarshi sutkalik rejimda monitoring xizmatini taklif qilishadi. Jismoniy shaxslar fishing hujumlari haqida xabar berib, bunday kompaniyalarga yordam berishlari mumkin.

Kiberjinoyatlarga qarshi huquqiy chora-tadbirlarning joriy qilinishi fishingga qarshi kurashning samarali boshqa usuli bo'lib hisoblanadi.

12.2. Bank moliyaviy faoliyati barqarorligini sog'lomlashtirish yo'llari

Bankning moliyaviy barqarorligi ichki va tashqi salbiy omillar ta'siriga qarshi bankning qarshi tura olishiga yordam beradi.

Bankning moliyaviy barqarorligi deganda uning turli iqtisodiy tebranishlarga chidamliligi, shu jarayonlarda ham jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'larini omonatga qabul qilish, bank hisobraqamlarini ochish va yuritish,

shuningdek, jalb qilingan mablag'larni to'lovlilik, muddatlilik va qaytarishlik shartlari asosida qayta joylash operatsiyalarini amalga oshirish qobiliyati tushuniladi.

Quyida banklarning o'z mablag'lari yetarliligi va sifatini oshirish ko'rsatkichlari keltirilgan.

12.2-jadval

Banklarning o'z mablag'lari yetarliligi va sifatini oshirish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkichlar tavsifi
1.Mablag'larni jalb qilish	Mavjud yoki yangi aktsiyadorlarning mablag'larini ustav kapitaliga yoki bankning o'z kapitalining boshqa instrumentlariga jalb qilish
2.Dividendlar to'lashni to'xtatish	Aktsiyadorlarga dividendlar to'lashni to'xtatish, bonuslar to'lovlarini chegaralash
3.Qarz majburiyatlari	Qarz majburiyatlarini chiqarish

Tijorat banklari:

- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar, jumladan, likvidlilik va kredit risklarining bank moliyaviy barqarorligiga ta'siri bo'yicha turli ssenariylar asosida stress-testlar o'tkazib borishi;
- aktivlar tarkibini o'zgartirish va barqaror resurs bazasini shakllantirish orqali bankning yuqori likvidlilik ko'rsatkichlarini minimal talablardan kam bo'lmasligini ta'minlashi;
- bank xodimlarining mijozlar bilan ishlash yondashuvini o'zgartirish hamda ularning malaka va ko'nikmalarini uzluksiz oshirib borishi lozim.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Ma'lumotlar xavfsizligi, xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlari, ma'lumotning kriptografik qayta shakllantirilishi, akustika darajasini pasaytirish, fishing, bankning moliyaviy barqarorligini sog'lomlashtirish. .

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Fishing nima?
2. Bankning moliyaviy barqarorligini sog'lomlashtirish yo'llarini sanab bering.
3. Informatsion xavfsizlikni ta'minlash texnik siyosatining tegishli chora-tadbirlarini tushuntirib bering?
4. Banklarning o'z mablag'lari yetarliligi va sifatini oshirish ko'rsatkichlarini sanab bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Normativ – huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida” gi Qonuni (11.11.2019 y., O'RQ-582).

1.2. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida” gi Qonuni (05.11.2019 y., O'RQ-580).

1.3. O'zbekiston Respublikasi “To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida”gi 01.11.2019 yildagi O'zRQ-578-sonli Qonuni.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni

1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi PF-5296-sonli “O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.

1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli “2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-sonli “O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi “Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3945-sonli Qarori.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning “Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida”gi Nizom (14.02.2006 y., № 1545).

1.10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning “O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida” gi Nizom (13.04.2020 y., № 3229).

1.11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning "Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi 2006 yil 14 fevraldagi 1545-sonli Nizom.

1.12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 2570, 2014 yil 4 aprel).

1.13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi Qoidalari" (ro'yxat raqami 3231, 2020 yil 29 aprel).

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruza va asarlari

2.1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz".- Toshkent: 2016.-56 b.

2.2. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak".- Toshkent: "O'zbekiston". 2017.-104 b.

2.3. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". – Toshkent: "O'zbekiston". 2017. – 48 b.

2.4. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. - 592 b.

2.5. Mirziyoyev Sh.M. "Xalqimizning roziligi bizning faolyatimizga berilgan eng oliy bahodir" - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. - 508 b.

2.6. Mirziyoyev Sh.M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. - 400 b.

2.7. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" - Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2019. - 156 b.

2.8. Sh.M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi 14.12.2016

2.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi

III. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

3.1. "Ipoteka-bank" ATIBning yillik hisobot ma'lumotlari

3.2. "Enhancing cross-border payments: buildingblocks of a global roadmap" Stage 2 report to the G20 – technical background report, July 2020, Bank for International Settlements.

3.3. "Number of payments per type of payment service".
<http://sdw.ecb.europa.eu/reports.do?node=1000001387>

3.4. "Payment aspects of financial inclusion in the fintech era", Committee on Payments and Market Infrastructures, World Bank Group, April 2020.

3.5. "Payment systems worldwide a snapshot - summary outcomes of the fourth global payment systems survey", 2018//The World Bank Group.

3.6. "Payment systems worldwide a snapshot Summary outcome of the fifth global payment systems survey", The International Bank for Reconstruction and Development/The World Bank Group, 2020.

3.7. "World Payments Report 2019" – Capgemini Research Institute. Bank for International Settlements «Red Book, 2017».

3.8. "Платежные системы" Учебное пособие / Под редакцией С.Е. Дубовой, А.С. Обаевой. — Киров: МЦНИП, 2014.

3.9. "Повышение финансовой компетентности и финансовой доступности в Узбекистане", Оценка со стороны спроса Узбекистан, июнь 2020 г, InternationalFinanceCorporation 2020.

3.10. "Стоимость ведения бизнеса в Узбекистане 2021», PricewaterhouseCoopers (PwC) ».

3.11. Abdugafarov I. "Ensuring Stability of the Payment System in Uzbekistan", Central Bank Payments news, July 2021.

3.12. Abrazhevich D. "Electronic payment systems: a user-centered perspective and interaction design"/ Eindhoven: Technische universiteit eindhoven, 2004. – Proefschrift;

3.13. Ana Păstrăvanu, “Direct Debit Trends and Updates” – The Paypers - Payment Methods Report 2019 Innovations in the Way We Pay, p.63

3.14. Awais Ahmed, Abdul Aziz, Muhammad Muneeb, “Electronic payment system: A complete guide”, Journal of Multidisciplinary Sciences, 14 July 2019.

3.15. [Bankovskoe delo/teoreticheskie osnovy funkcionirovaniya kliringov yh sistem raschetov](https://studbooks.net/1253909). <https://studbooks.net/1253909>

3.16. Barnett, W., M. Chauvet, D. Leiva-Leon, and L. Su. 2016. “Nowcasting Nominal GDP with the Credit-Card Augmented Divisia Monetary Aggregates.” Working Papers Series in Theoretical and Applied Economics No. 201605, University of Kansas, Department of Economics.

3.17. Biagio Bossone and Massimo Cirasino, “The Oversight of the Payments Systems: A Framework for the Development and Governance of Payment in Emerging Economies”, World Bank, July 2001

3.18. Central bank survey on CBDCs, “Payment aspects of financial inclusion in the fintech era” – April 2020, Bank for International Settlements 2020.

3.19. Digital-wallets-types-ideas-and-future-of-such-products.
<https://agilie.com/en/blog/>

3.20. Emma Runnemark, Jonas Hedman Do consumers pay more using debit cards than cash? // Electronic Commerce Research and Applications Volume 14, Issue 5, September–October 2015, Pages 285-291

3.21. Esteves, P. S. 2009. “Are ATM/POS Data Relevant When Nowcasting Private Consumption?” Technical Report.,

3.22. FATF (2016), Guidance for a RiskBased Approach for Money or Value Transfer Services <http://www.fatf-gafi.org>

3.23. Fisher, I. 1912. The Purchasing Power of Money. New York: Macmillan Company

3.24. J. Rajaet all, “E-payments: Problems and Prospects” – Journal of Internet Banking and Commerce, <http://www.icommercecentral.com/open-access/epayments-problems-and-prospects.phpaid=38419>.

3.25. Jasmine Glasheen “Payment Depot. Popular Payment Methods for Millennial Customers” - The Paypers - Payment Methods Report 2019 Innovations in the Way We Pay, p.19.

3.26. Jérôme Traisnel “Innovations in the Way We Pay”, The Paypers - Payment Methods Report 2019.

3.27. Kim Ford, “What-s-in-a-Faster-Payment-or-Faster-Payments-System-for-That-Matter”- March 3, 2020. <https://fasterpaymentscouncil.org/blog/1487/>

3.28. Kokkola T. The Payment System // “Payments, Securities and Derivatives, and the Role of the Eurosystem”, ECB, 2010, p.25.

3.29. McKinsey & Company (2019): “Global Payments Report 2019 – amid sustained growth, accelerating challenges demand bold actions”, September, <https://www.mckinsey.com>

3.30. Migration and Development Brief 35 www.knomad.org

3.31. Raluca Constantinescu, “E-wallets, Mobile Wallets, and P2P Payments the Evolution and Adoption of E-wallets” – The Paypers - Payment Methods Report 2019 Innovations in the Way We Pay, p.27.

3.32. “The Fed Explained What the Central Bank Does”// Fostering Payment and Settlement System Safety and Efficiency//Board of Governors of the Federal Reserve System, August 2021.

3.33. The payment system. Payments, securities and derivatives, and the role of the eurosystem. / Editor Tom Kokkola.- Frankfurt am Main Germany.: European Central Bank, 2010.

3.34. Valentina Aprigliano, Guerino Ardizzi, and Libero Monteforte - Banca d’Italia, “Using Payment System Data to Forecast Economic Activity”, International Journal of Central Banking, October 2019.

3.35. Williamson, S., and R. Wright. 2010. “New Monetarist Economics: Models.” In Handbook of Monetary Economics, Vol. 3, ed. B. M. Friedman and M. Woodford, 25–96 (chapter 2). Elsevier

3.36. Yiping Liu & Danqing Ma, “Research on the Correlation between Payment Methods of M&A and M&A Performance of Listed Company”, International Journal of Economics and Finance; Vol. 10, No. 6; 2018.

3.37. Abdullaeva Sh. “Bank ishi” — T.: “Moliya”, 2019

3.38. Abdullaeva Sh.Z. – “Pul, kredit va banklar” - T.: -Iqtisod-moliya – 2007, 31-bet.

3.39. Azizov U.O’., Qoraliev T.M. va boshqalar “Bank ishi” Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2016.

3.40. I.Toymuxamedov, Z.Umarov, G’.Xusainov “Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to‘lov tizimi”/ O‘quv qo‘llanma, LESSON PRESS, Toshkent – 2018.

3.41. X.U.Raximova, I.F.Sayfiddinov “To‘lov tizimi va bank xavfsizligi”/Darslik, “Iqtisod-Moliya” - T.:2020.

3.42. Бабаева О.Б. “Электронные деньги и платежные системы” Economics, no. 3 (4), 2015, pp. 33-36.

3.43. Банковское дело: учебник/ Лаврушин О.И. и др. – 9 издание стер. – М.: КНОРУС, 2011.

3.44. Бондарович Е.П. «Обеспечение надежности платежной экосистемы Российской Федерации»/ Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования «Государственный университет управления», диссертационная работа на кан. эк. наук, Москва, 2020.

3.45. Всемирный банк (2016a). «Развитие цифровой экономики в России». <http://www.vsemirnyjbank.org/ru/events/2016/12/20/developing-the-digital-economy-in-russia-international-seminar-1>.

3.46. Директива Европейского парламента и Совета Европейского Союза от 13.11.2007 № 2007/64/ЕС «О платежных услугах на внутреннем рынке».

3.47. Коралиев Т.М., Омонов А.А. «Деньги и банки» –Т.: «Iqtisod-Moliya» - ТФИ. 2018, 296 стр.

3.48. Кочергин Д.А., «Современная интерпретация и классификация платежных систем. Проблемы современной экономики», 2016.

3.49. Краткий обзор внутреннего валютного рынка за 2021 год - Центральный банк Республики Узбекистан (cбу.uz).

3.50. Криворученко С.В., Лопатин В.А. «Национальная платежная система: структура, технологии, регулирование, международный опыт и российская практика» – М: ЦИПСИР, 2013.

3.51. Mahmudov U. “Milliy to’lov tizimlarimiz qay darajada rivojlanmoqda?”, Bank axborotnomasi gazetasi № 08 (1291) 3 mart 2021 yil.

3.52. Mahmudov U. “Raqamli iqtisodiyot: moliyaviy xizmatlarda uning ahamiyati qanday? ”, Xalq so’zi gazetasi, 7 noyabr 2020 yil.

3.53. Mejdunarodnie platejnie sistemi - URL: <http://www.iccwbo.ru/blog/2016/mezhdunarodnye-platezhnye-sistemy>

3.54. Murugova I.A., Babaeva G.Ya. Platejnaya sistema i bankovskaya bezopasnost. - T.: Iqtisod-moliya 2019 g.-164 s

3.55. Navro’zova K.N., Ortiqov O.A. “Banklarda hisob va to’lov tizimi”/ Toshkent Moliya instituti, 2005, 174b.

3.56. Norqobilov S., Dadaboeva H., Jo’raev O’. “Xalqaro amaliyotda bank nazorati” / Toshkent Moliya instituti.–T.: IQTISOD–MOLIYA, 2007, 180 bet.

3.57. Pogosyan A.M. “Sovershenstvovanie innovatsionnix protsessov sozdaniya i kommertsializatsii platejnix servisov”/ Finansoviy universitet pri pravitelstve rossiyskoy federatsii, dissertatsionnaya rabota na kan. ek. nauk, Moskva, 2019

3.58. Raximova H.U, “Organizatsiya i razvitie platejnoy sistemi Respubliki Uzbekistan” avtoreferat dissertatsiya kand. ekon. nauk, Bankovsko-finansovaya akad.RUz. 2006

3.59. Reshenie Visshego Evraziyskogo ekonomicheskogo soveta “Ob Osnovnix napravleniyax realizatsii tsifrovoy povestki Evraziyskogo ekonomicheskogo soyuza do 2025 goda” №12 ot 11.10.2017 g.

3.60. Sayfiddinov I.F. “To’lov aylanmasi, uning muammolari va hal etish yo’llari” - Iqtisod fanlari nomzodi drajasini...dissertatsiya – Toshkent, 2012

3.61. O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistik hisoboti

3.62. Umarova M.B., “O‘zbekistonda bank infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari”/ TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi, falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, 2020.

3.63. Shangin, A.A., dissertatsionnaya rabota kand. ekon. nauk “Elektronnie platejniye sistemi v sfere roznichnix raschetov”, 2003

3.64. Shirinova Sh.S. Osnovi funktsionirovaniya elektronnix koshelkov WEBMONEY, QIWI, YOOMONEY v Uzbekistane s pozitsii sistemnogo analiza / “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil

3.65. “Pul-kredit siyosatining 2021 yilga va 2022-2023 yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari”, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2020 yil.

3.66. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020 yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot, Toshkent-2021.

3.67. Davlat statistika qo‘mitasining “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali.

3.68. “Povishenie finansovoy kompetentnosti i finansovoy dostupnosti v Uzbekistane” - Otsenka so storoni sprosa Uzbekistan, iyun 2020 g., International Finance Corporation 2020.

3.69. “Cross-border retail payments”, February 2018, Bank for International Settlements.

3.70. Markaziy banknig Statistik byulletenlari—2017, 2018, 2019, 2020, 2021 yillar.

3.71. “Sifrovie aktivi — budushchee transgranichnix platejey”, 02.04.2020, Garantex. <https://hub.forklog.com/tsifrovye-aktivy-budushhee-transgranichnyh-platezhej/>

IV. Boshqa adabiyotlar

4.1. www.gov.uz O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali

4.2. www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti

4.3. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

4.4. www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi rasmiy sayti

4.5. www.ipotekabank.uz Ipotekabank ATIBning rasmiy sayti

4.6. www.bis.org Bazel qo'mitasi rasmiy sayti

4.7. www.elsevier.com Elsevier kompaniyasi rasmiy sayti

4.8. www.scopus.com Scopus kompaniyasi rasmiy sayti

4.9. www.worldbank.org Jahon banki rasmiy sayti

4.10. www.norma.uz Norma MChJ ning rasmiy sayti

4.11. www.ifc.org Xalqaro moliya korporatsiyasi rasmiy sayti

4.12. www.federalreserve.gov AQSH federal rezerv tizimining rasmiy sayti

4.13. www.ecb.europa.eu/ Yevropa Markaziy banki rasmiy sayti

4.14. www.cbr.ru/ Rossiya Markaziy banki rasmiy sayti

4.15. www.snb.ch/en Shvedtsariya Markaziy banki rasmiy sayti

4.16. www.banque-france.fr/en Frantsiya Markaziy banki rasmiy sayti

4.17. www.boj.or.jp/en Yaponiya Markaziy banki rasmiy sayti

4.18. www.nbrb.by/ Belorusiya Markaziy banki rasmiy sayti

4.19. nationalbank.kz/ Qozog'iston Markaziy banki rasmiy sayti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

TO‘LOVLAR VA TO‘LOV TIZIMLARI TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 19-sentabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2019-yil 11-oktabrda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi to‘lovlar va to‘lov tizimlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Ushbu Qonunning qo‘llanilish sohasi

Ushbu Qonunning amal qilishi to‘lov xizmatlarini yetkazib beruvchi va to‘lov xizmatlaridan foydalanuvchi bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida to‘lovlarni amalga oshirish hamda to‘lov xizmatlari ko‘rsatish chog‘ida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu Qonunning amal qilishi kriptο-aktivlarga doir operatsiyalarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3-modda. To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risidagi qonunchilik

To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining to‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

4-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

benefitsiar — pul mablag‘larini oluvchi shaxs;

valyutalash sanasi — tashabbuskor tomonidan to‘lov hujjatida ko‘rsatilgan, benefitsiarning bank hisobvarag‘iga pul mablag‘lari o‘tkazilishi kerak bo‘lgan sana;

identifikatsiya vositasi — farmoyishni jo‘natuvchining elektron raqamli imzosi yoki harflar, raqamlar yoki ramzlar uyg‘unligidan iborat noyob identifikator yoxud to‘lov xizmatlarini yetkazib beruvchi tomonidan to‘lov xizmatlaridan foydalanuvchini identifikatsiyalash uchun belgilangan hamda u bilan kelishilgan boshqa identifikator (shaxsiy parol, bir martalik identifikatsiya kodi, biometrik identifikatsiyalash vositasi);

kliring — to‘lov tizimi ishtirokchilarining pulga doir o‘zaro talablari va majburiyatlarini yig‘ish, taqqoslash hamda hisobga o‘tkazish jarayoni;

masofaviy xizmat ko'rsatish tizimi — elektron xizmatlardan foydalanish uchun to'lov xizmatlaridan foydalanuvchi va ushbu xizmatlarni yetkazib beruvchi o'rtasidagi aloqani ta'minlaydigan telekommunikatsiya vositalari, raqamli va axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minot va uskunalar majmui;

operatsiya kuni — farmoyishlarni qabul qilish va ularga ishlov berish amalga oshiriladigan vaqtning davri;

tashabbuskor — to'lovni amalga oshirish uchun farmoyish bergan shaxs;

to'lov — pul majburiyatini naqd pul mablag'lari bilan bajarish yoxud pul mablag'larini to'lov vositalaridan foydalangan holda o'tkazish;

to'lov agenti — bank yoki to'lov tashkiloti bilan to'lov xizmatlari ko'rsatish uchun agentlik shartnomasini tuzgan, bank hisoblanmaydigan yuridik shaxs;

to'lov vositasi — to'lovni amalga oshirish uchun asos bo'ladigan yoki foydalaniladigan to'lov hujjati yoki elektron to'lov vositasi;

to'lov subagenti — to'lov agenti bilan to'lov xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha subagentlik shartnomasini tuzgan, bank hisoblanmaydigan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

to'lov tashkiloti — bank hisoblanmaydigan, to'lov xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan yuridik shaxs;

to'lovchi — to'lov kimning hisobidan amalga oshirilayotgan bo'lsa, o'sha shaxs;

to'lov xizmati — to'lov xizmatini yetkazib beruvchining to'lov xizmatlaridan foydalanuvchiga ko'rsatadigan xizmati;

to'lov xizmatlari bozori — to'lov xizmatlarini ko'rsatish va ulardan foydalanish, shuningdek to'lov vositalarini chiqarish va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar majmui;

to'lov xizmatlaridan foydalanuvchi — to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchining to'lov xizmatlaridan foydalanadigan jismoniy va yuridik shaxs;

farmoyish — to'lov tashabbuskorining to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchiga to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi ko'rsatmasi bo'lib, u elektron to'lov vositasidan yoki masofaviy xizmat ko'rsatish tizimidan foydalanilganda to'lov hujjatlari shaklida yoki to'lov xizmatlaridan foydalanuvchining roziligi ko'rinishida ifodalanadi;

elektron pullar — elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlari.

2-bob. To'lov tizimlari

5-modda. To'lov tizimi va to'lov tizimining ishtirokchilari

To'lov tizimi to'lovlarni to'lov tizimining operatori, to'lov tizimi ishtirokchilari va (yoki) to'lov tashkilotlarining to'lov tizimi operatori tomonidan

belgilangan to'lov tizimining tartib-taomillarini, infratuzilmasini va qoidalarini qo'llash vositasida hamkorlik qilish yo'li bilan amalga oshirishni ta'minlaydigan munosabatlar majmuidir.

To'lov tizimi operatori bilan hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi va to'lov tizimida ishtirok etish to'g'risida shartnoma tuzgan banklar to'lov tizimining ishtirokchilari hisoblanadi.

6-modda. To'lov tizimlarining turlari, ularning muhimligini aniqlash mezonlari

To'lov tizimlari muhim to'lov tizimlari va boshqa to'lov tizimlariga bo'linadi.

Agar to'lov tizimining uzluksiz ishlashi O'zbekiston Respublikasi to'lov xizmatlari bozorining barqaror faoliyat ko'rsatishiga yordam bersa, uning ishidagi to'xtalishlar (uzilishlar) esa O'zbekiston Respublikasi to'lov xizmatlari bozorida tavakkalchiliklarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) ushbu to'lov tizimini muhim to'lov tizimi jumlasiga kiritadi.

Agar to'lov tizimi to'lov xizmatlari bozorining Markaziy bank tomonidan mazkur bozor uchun belgilangan miqdordan ko'p ulushini egallagan bo'lsa va (yoki) to'lovlar to'lov tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi hududida Markaziy bank tomonidan belgilanadigan ko'rsatkichlardan kam bo'lmagan hajmda bir yil davomida amalga oshirilsa, bu tizim muhim to'lov tizimi jumlasiga kiradi.

Ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida keltirilgan to'lov tizimlarining tavsiflariga mos kelmaydigan to'lov tizimlari boshqa to'lov tizimlari hisoblanadi.

7-modda. To'lov tizimining operatori

O'zbekiston Respublikasi hududida to'lov tizimining ishlashini ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs to'lov tizimining operatoridir.

To'lov tizimining operatori bo'lmagan yuridik shaxs o'z nomida va (yoki) tovar belgisida "to'lov tizimi" degan so'zlarni hamda mazkur so'zlardan hosil bo'lgan, to'lov tizimining ishlashini ta'minlash bo'yicha faoliyatni ushbu yuridik shaxs amalga oshirayotganligini taxmin qilish imkonini beradigan so'zlardan foydalanish huquqiga ega emas.

To'lov tizimining operatori:

to'lov tizimining qoidalarini belgilaydi va to'lov tizimining ishtirokchilari tomonidan ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

to'lov tizimi ishtirokchilarining (ishtirokchilariga) to'lovga va axborotga doir xabarlariga ishlov berilishini hamda ushbu xabarlarning berilishini, farmoyishlarning yakka tartibda bajarilishini yoki kliringni amalga oshiradi;

to'lov tizimining ishtirokchisi bilan to'lov tizimida ishtirok etish to'g'risida shartnoma tuzadi;

to'lov tizimi infratuzilmasining ishlab turishini ta'minlaydi;

axborot xavfsizligi talablariga va to'lov tizimining uzluksiz ishlash choralariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

to'lov tizimining ishtirokchilari o'zlariga ko'rsatiladigan xizmatlardan teng va ochiq holda foydalanishini ta'minlaydi.

To'lov tizimining operatori to'lov tizimi to'g'risida axborot taqdim etganda to'lov tizimining operatori faoliyatini amalga oshirishga doir o'z litsenziyasi raqamini ko'rsatishi shart.

8-modda. To'lov tizimining qoidalari

To'lov tizimining qoidalari quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

to'lov tizimining ishlash tartib-taomillari, shu jumladan to'lov tizimida to'lovlarni amalga oshirish, to'lov xabarnomalari formatlarining qo'llanilish tartibi, to'lov tizimining ish jadvali va to'lov tizimidagi tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi;

to'lov tizimi operatori ko'rsatayotgan xizmatlarning va to'lov tizimida amalga oshirilayotgan operatsiyalarning tavsifi;

to'lov tizimida ishtirok etish shartlari;

to'lov tizimi ishtirokchilarining to'lov tizimi operatori bilan hamkorligi tartibi;

to'lov bo'yicha farmoyishni chaqirib olish tartib-taomili;

to'lov tizimi ishtirokchilarining to'lovga qobiliyatsizligini hal etish tartibi;

axborot xavfsizligi talablariga rioya etish tartibi;

to'lov tizimi qoidalarini buzganlik uchun to'lov tizimi ishtirokchisiga nisbatan qo'llaniladigan choralar.

To'lov tizimining qoidalariga ushbu to'lov tizimi ishtirokchilarining boshqa to'lov tizimlarida ishtirok etishini, shuningdek mazkur to'lov tizimining infratuzilmasiga xizmat ko'rsatuvchi shaxslarning boshqa to'lov tizimlariga xizmat ko'rsatishini (bundan ushbu to'lov tizimi operatorining xodimlari bo'lgan shaxslar mustasno) cheklovchi shartlarni kiritish taqiqlanadi.

To'lov tizimining qoidalari, ushbu qoidalarga doir o'zgartish va qo'shimchalar, to'lov tizimi operatorining tariflari (xizmatlari qiymati) hamda bu tariflarning (xizmatlar qiymatining) barcha o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'lov tizimi operatori tomonidan tasdiqlanganidan so'ng uch ish kuni mobaynida to'lov tizimi operatorining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi lozim.

To'lov tizimining qoidalari, ushbu qoidalarga doir o'zgartish va qo'shimchalar, to'lov tizimi operatorining tariflari (xizmatlari qiymati) hamda bu tariflarning (xizmatlar qiymatining) barcha o'zgarishlari to'lov tizimi operatorining

rasmiy veb-saytida e'lon qilinganidan so'ng o'n besh kun o'tgach to'lov tizimi operatori va ishtirokchilari tomonidan qo'llaniladi.

To'lov tizimlarining operatorlari o'z to'lov tizimlarining hamkorligi to'g'risidagi shartnomalarni, basharti to'lov tizimlarining qoidalarida bunday hamkorlik tartibi aks ettirilgan bo'lsa, tuzishi mumkin.

To'lov tizimining operatori Markaziy bankka:

to'lov tizimining qoidalariga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu o'zgartish hamda qo'shimchalar amalga kiritiladigan sanaga qadar o'n besh ish kunidan kechiktirmay;

to'lov tizimi operatori tariflarining (xizmatlari qiymatining) o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu o'zgarishlar amalga kiritiladigan sanaga qadar o'n besh ish kunidan kechiktirmay taqdim etadi.

9-modda. To'lov tizimidagi tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi

To'lov tizimidagi tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi tavakkalchiliklarni aniqlash, monitoring qilish va boshqarish, shuningdek to'lov tizimining uzluksiz ishlashini ta'minlash tartib-taomillarini belgilaydi hamda to'lov tizimi operatorining faoliyatini tiklash rejasini o'z ichiga oladi.

To'lov tizimidagi tavakkalchiliklarni boshqarish usullari to'lov tizimini tashkil etish xususiyatlari, tavakkalchiliklarni boshqarish modeli, to'lov kliringiga va hisob-kitobga oid tartib-taomillar, pul mablag'lari o'tkazmalarining soni hamda ularning summalari, yakuniy hisob-kitob vaqti hisobga olingan holda to'lov tizimi operatori tomonidan belgilanadi.

To'lov tizimidagi tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi tavakkalchiliklarni boshqarishning quyidagi usullarini nazarda tutishi mumkin:

tavakkalchilik darajasi hisobga olingan holda to'lov tizimi ishtirokchilari majburiyatlarining eng yuqori miqdorlarini (limitlarini) belgilash;

bankdagi alohida depozit hisobvaraqa to'lov tizimining kafolatli jamg'armasini tashkil etish;

to'lov tizimi ishtirokchilarining farmoyishlari navbatma-navbat bajarilishini boshqarish;

to'lov tizimida hisob-kitobni ish kuni davomida amalga oshirish;

hisob-kitobni to'lov tizimi ishtirokchilari taqdim etgan pul mablag'lari doirasida amalga oshirish;

kredit berish imkoniyatini ta'minlash.

10-modda. Muhim to'lov tizimi operatori

Muhim to'lov tizimi operatori ushbu Qonunning 7-moddasida ko'rsatilgan shartlarga qo'shimcha ravishda:

to'lov tizimi ishtirokchilarining va to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini ko'rsatiladigan xizmatlar sifati ularni qanoatlantirishi nuqtai nazaridan tahlil qiladi;

to'lov tizimi ishtirokchilari va to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilar bilan ikki tomonlama aloqa mexanizmining ishlashini ta'minlaydi;

to'lov tizimi ishtirokchilarining va to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarning qanoatlanganligi nuqtai nazaridan to'lov tizimi faoliyatining samaradorligini hisobot yilida ikki tomonlama aloqa mexanizmi vositasida kelib tushgan murojaatlar va so'rovlarni ko'rib chiqish natijalarini hisobga olgan holda tahlil qilish natijalarini o'z rasmiy veb-saytida bir yilda bir marta, hisobot davridan keyingi birinchi chorakdan kechiktirmay e'lon qiladi;

muhim to'lov tizimining ishlashini o'zini o'zi baholashdan o'tkazadi;

to'lov tizimining tavakkalchiliklarni boshqarish organini tashkil etadi va tavakkalchiliklarni boshqarishning kamida ikki usulidan foydalanadi;

ichki hujjatlarida:

1) to'lov tizimining tavakkalchiliklarini boshqarish organining ishlash reglamentini, shu jumladan uning vakolatlarini;

2) to'lov tizimi ishtirokchilarining ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga bo'lgan ehtiyojlari qanoatlantirilishi baholanayotgan to'lov tizimi ishining samaradorligini ta'minlash mezonlarini;

3) to'lov tizimi ishtirokchilari bilan nizolarni sudgacha hal qilish tartibini belgilaydi.

Ushbu moddada ko'rsatilgan hujjatlar tasdiqlanganidan keyin uch ish kuni mobaynida muhim to'lov tizimi operatori tomonidan o'z rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

11-modda. Muhim to'lov tizimining ishlashini o'zini o'zi baholashdan o'tkazish

Muhim to'lov tizimining operatori tomonidan mazkur to'lov tizimining ushbu Qonun talablariga va xalqaro standartlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui muhim to'lov tizimining ishlashini o'zini o'zi baholashdan o'tkazish hisoblanadi.

Muhim to'lov tizimining operatori to'lov tizimining ishlashini uning xalqaro standartlarga muvofiqligi nuqtai nazaridan uch yilda kamida bir marta o'zini o'zi baholashdan o'tkazadi.

Muhim to'lov tizimi operatori muhim to'lov tizimining ishlashini o'zini o'zi baholashdan o'tkazish natijalarini Markaziy bankka taqdim etadi va o'zini o'zi baholash tugallanganidan keyin uch ish kuni mobaynida o'z rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

12-modda. To'lov tizimidagi to'lovlarning yakunlanganligi

To'lovlar pul mablag'lari qaysi ishtirokchining foydasini ko'zlab amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha ishtirokchining hisobiga o'tkazilgandan so'ng to'lov tizimida yakunlangan deb hisoblanadi.

To'lov tizimining ishtirokchisi bank hisobvarag'i bo'yicha xarajatlar operatsiyalarini to'xtatib turish va (yoki) mijozning bank hisobvarag'idagi pul mablag'larini xatlash to'g'risidagi vakolatli davlat organlarining qarorlarini olguniga qadar ushbu ishtirokchi tomonidan to'lov tizimiga yo'naltirilgan to'lovlar chaqirib olinmaydigan va uzil-kesil to'lovlardir. Mazkur to'lovlar bajarilishi va yakuniga yetkazilishi lozim.

3-bob. To'lov xizmatlari bozori

13-modda. To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar

To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar quyidagilardan iborat:

Markaziy bank;

banklar;

to'lov tashkilotlari;

to'lov agentlari;

to'lov subagentlari.

Ushbu Qonunda banklar to'lov tashkilotlari, to'lov agentlari va to'lov subagentlari sifatida ko'rib chiqilmaydi.

14-modda. To'lov xizmatlarining turlari

Quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'lov xizmatlari jumlasiga kiradi: bank hisobvarag'idan foydalangan holda to'lovlarni qabul qilish va amalga oshirish;

naqd pul mablag'larini bank hisobvaraqlariga, shu jumladan uchinchi shaxslarning hisobvaraqlariga o'tkazish uchun qabul qilish;

to'lovchi tomonidan bank hisobvarag'ini ochmagan holda to'lovni amalga oshirish uchun naqd pul mablag'larini qabul qilish;

elektron pullarni chiqarish va qoplash;

bank kartalarini chiqarish;

elektron pullarni va bank kartalarini realizatsiya qilish;

elektron pullardan foydalangan holda amalga oshiriladigan to'lovlarni qabul qilish va bu to'lovlarga ishlov berish;

elektron shakldagi to'lovlarga ishlov berish va to'lovni amalga oshirish uchun zarur axborotni bankka berish yoki mazkur to'lovlar bo'yicha pul mablag'larini qabul qilish;

pul o'tkazmalari tizimi orqali pul mablag'larini qabul qilish va amalga oshirish.

Quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'lov xizmatlari jumlasiga kirmaydi:

to'lovchi qaysi shaxs oldida to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchining ishtirokisiz amalga oshiriladigan majburiyatlarga ega bo'lsa, o'sha shaxsga to'lovni amalga oshiruvchi shaxs tomonidan naqd pul mablag'larini berish;

banknotlarni, tangalarni va qimmatliklarni inkassatsiya qilish;

bank hisobvarag'ini ochmagan holda naqd chet el valyutasi bilan ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish;

uchinchi shaxslar ishtirokisiz qabul qilingan to'lovlar bo'yicha pul mablag'larini to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi tomonidan benefitsiar foydasiga o'tkazishni amalga oshirish chog'ida yuridik shaxs bo'lgan benefitsiar, yakka tartibdagi tadbirkor va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi o'rtasidagi axborot-kommunikatsiyaga oid va texnologik hamkorlikni ta'minlash.

15-modda. To'lov xizmatlari ko'rsatish

To'lov xizmatlari:

Markaziy bank;

banklar;

to'lov tashkiloti, bundan naqd pul mablag'larini bank hisobvaraqlariga o'tkazish uchun qabul qilish, elektron pullarni va bank kartalarini chiqarish xizmatlari mustasno;

banklar va to'lov tashkilotlari uchun ruxsat etilgan to'lov xizmatlarining turlari doirasida to'lov agenti hamda to'lov subagenti tomonidan ko'rsatiladi.

To'lov xizmatlaridan foydalanuvchi o'z bank hisobvarag'iga xizmat ko'rsatadigan to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchining masofaviy xizmat ko'rsatish tizimidan foydalanishga yoki boshqa to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchining xizmatlaridan foydalanishga, basharti to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchida bunday foydalanishning texnik imkoniyatlari mavjud bo'lsa, axborot xavfsizligi va to'lov xizmatlaridan barcha yetkazib beruvchilar teng foydalanishini ta'minlashga doir talablarga rioya etgan holda haqli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida to'lov xizmatlarini Markaziy bankning tegishli litsenziyasisiz ko'rsatish taqiqlanadi. Ushbu talab to'lov agentlarining va to'lov subagentlarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

To'lov tashkiloti to'lov xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha agentlik shartnomasi asosida to'lov agenti yoki to'lov subagenti sifatida to'lov xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishga haqli.

To'lov tashkiloti o'z faoliyati haqidagi axborotni taqdim etishda o'zining litsenziya raqamini ko'rsatishi shart.

16-modda. To'lov xizmatlari ko'rsatishga doir shartnoma

To'lov xizmati to'lov xizmatlaridan foydalanuvchi va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma, shu jumladan ommaviy oferta

tarzidagi shartnoma asosida ko'rsatiladi. To'lov xizmatlari ko'rsatishga doir shartnomada quyidagilar bo'lishi kerak:

- ko'rsatiladigan to'lov xizmatlarining turlari va umumiy xususiyati;
- to'lov xizmatlarini ko'rsatish tartibi va muddati;
- undiriladigan yig'imlarning va vositachilik haqlarining miqdorlari;
- to'lov xizmatlari haqidagi axborotni taqdim etish tartibi;
- ruxsat etilmagan to'lovlardan himoyalaniish harakatlarining tartibi;
- to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchining to'lov xizmatlari ko'rsatishni rad etish huquqiga ega bo'lish shartlari;
- ruxsat etilmagan to'lovlar bo'yicha masalalarni hal etish tartibi;
- to'lov xizmatlaridan foydalanuvchining shartnomani bekor qilish huquqi;
- e'tirozlar bildirish va nizolarni hal etish tartibi;
- to'lov xizmatlaridan foydalanuvchining farmoyishlarini bajarishni asossiz ravishda rad etganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun zararining o'rnini qoplash tartibi va zararining o'rnini qoplash bo'yicha to'lovlarning miqdori.

To'lov xizmatlari ko'rsatishga doir shartnomada to'lov xizmatlari ko'rsatish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha shartlar nazarda tutilishi mumkin.

To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi o'zi va to'lov xizmatlaridan foydalanuvchi o'rtasida shartnoma tuzilgan sanada belgilangan ko'rsatiladigan to'lov xizmatlari bo'yicha vositachilik haqi miqdorlarini bir tomonlama tartibda oshirish tomonga o'zgartirishga haqli emas. Bundan xalqaro to'lovlarni amalga oshirish chog'ida undiriladigan vositachilik haqlari mustasno bo'lib, bu haqlarning o'zgarganligi to'g'risida to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi to'lov xizmatlaridan foydalanuvchini shartnomada nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda xabardor qiladi.

17-modda. To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchiga qo'yiladigan talablar

To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi to'lov xizmatlarini faqat to'lov xizmatlaridan foydalanuvchining farmoyishida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq ko'rsatadi.

To'lov xizmatlaridan foydalanuvchining farmoyishi shartlari va rekvizitlarini to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi tomonidan o'zgartirish taqiqlanadi.

To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi to'lov xizmatlaridan foydalanuvchining farmoyishisiz to'lovni boshlashga haqli emas.

To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi to'lov xizmatlaridan foydalanuvchiga vositachilik haqining miqdori haqida to'lov xizmatlari ko'rsatilguniga qadar axborot taqdim etadi.

To'lov xizmatlari ko'rsatganlik uchun vositachilik haqini to'lov summasidan undirish taqiqlanadi, bundan benefitsiar va benefitsiarning to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchisi o'rtasidagi shartnomada to'lov summasidan chegirib tashlash yo'li bilan vositachilik haqini undirish sharti nazarda tutilgan hollar mustasno. Benefitsiarning to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchisi benefitsiarning talabiga ko'ra uni qabul qilingan to'lov summasi va undan amalga oshirilgan chegirmalar haqida xabardor qiladi.

To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi to'lov xizmatlarini ko'rsatishda quyidagi shartlarga rioya etilishini ta'minlaydi:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'lov xizmatlaridan foydalanuvchini lozim darajada tekshirishdan o'tkazish va identifikatsiya qilish;

to'lov hujjatida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda to'lovchi va benefitsiar bo'yicha nazarda tutilgan rekvizitlarning mavjud bo'lishi, bundan to'lov tashkilotining pul mablag'larini jo'natuvchi tomonidan bank hisobvarag'ini ochmagan holda to'lovlarni amalga oshirish uchun naqd pul mablag'larini qabul qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishi mustasno;

to'lovchini va (yoki) benefitsiarni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi ma'lumotlar to'lov xizmatlari ko'rsatilganidan keyin kamida besh yil davomida saqlanishini ta'minlash;

to'lov xizmatlaridan foydalanuvchining identifikatsiya vositalarini himoya qilish bo'yicha zarur huquqiy, tashkiliy va texnik choralar ko'rish.

To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi to'lov xizmati ko'rsatilganidan so'ng to'lov xizmatlaridan foydalanuvchiga to'lov xizmati ko'rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatni qog'ozda yoki elektron shaklda taqdim etadi. To'lov xizmatlari ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjatning mazmuniga doir talablar Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

To'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar to'lov xizmatlarini ko'rsatish chog'ida o'zi olgan ma'lumotlar sir saqlanishini ta'minlaydi hamda ularning uchinchi shaxslarga oshkor etilishiga yo'l qo'ymaydi, bundan "Bank siri to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan hollar mustasno.

18-modda. To'lov tashkilotining faoliyatiga doir cheklovlar

To'lov tashkilotlari to'lov xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlari bilan shug'ullanishga haqli emas.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan cheklov faoliyatning quyidagi turlariga nisbatan tatbiq etilmaydi:

reklama, marketing, maslahat va axborot xizmatlari;

dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, moslashtirish, modifikatsiya qilish va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq xizmatlar, shu jumladan axborot-texnik xizmatlar, ma'lumotlarga ishlov berish hamda ularni o'tkazishga doir xizmatlar, ma'lumotlar bazalarini va axborot resurslarini yaratish va ulardan foydalanish;

axborot tizimlari va tarmoqlarini yaratish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash;

axborotni kriptografik himoyalash vositalarini ishlab chiqish va realizatsiya qilish;

pochta aloqasi xizmatlari;

mikromoliya tashkiloti faoliyati.

Agar ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan faoliyat turlari amalga oshirilishi uchun litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxatiga kirsam, to'lov tashkiloti bu faoliyat turlarini amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli litsenziyani belgilangan tartibda olishi kerak.

19-modda. To'lov agentlari va to'lov subagentlari orqali to'lov xizmatlarini ko'rsatish

Banklar va to'lov tashkilotlari to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarga to'lov xizmatlarini to'lov agenti va to'lov subagenti orqali ko'rsatishga haqli.

To'lov xizmatlaridan foydalanuvchiga to'lov xizmati to'lov agenti yoki to'lov subagenti tomonidan quyidagi talablarga rioya etilgan holda ko'rsatiladi:

to'lov xizmatini bankning yoki to'lov tashkilotining nomidan ko'rsatish;

to'lov xizmatlaridan foydalanuvchiga to'lov xizmati ko'rsatilganligi faktini tasdiqlovchi va zarur rekvizitlarni o'z ichiga olgan hujjatni taqdim etish;

to'lov agenti tomonidan bank yoki to'lov tashkiloti bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq, to'lov subagenti tomonidan esa to'lov agenti bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq haq undirish.

To'lov xizmatlari ko'rsatish boshlanguniga qadar to'lov agenti yoki to'lov subagenti tomonidan to'lov xizmatlaridan foydalanuvchiga quyidagi axborot taqdim etiladi:

to'lov xizmatlarining nomi va ushbu xizmatlar ko'rsatiladigan joyning manzili;

soliq to'lovchining nomi, identifikatsiya raqami, bankning, to'lov tashkilotining va to'lov agentining joylashgan eri (pochta manzili), telefon raqami, to'lov xizmatlari to'lov subagenti tomonidan ko'rsatilgan taqdirda esa soliq

to'lovchining nomi yoki familiyasi, ismi, otasining ismi, identifikatsiya raqami, to'lov subagentining joylashgan eri (pochta manzili), telefon raqami;

bankning yoki to'lov tashkilotining litsenziyasi raqami;

to'lov xizmatlari ko'rsatilganda undiriladigan haqning miqdori.

Banklar va to'lov tashkilotlari to'lov agentlari hamda to'lov subagentlarining reyestrlarini yuritadi. To'lov agenti jalb etilgan to'lov subagentlarini mazkur reyestrga kiritish uchun ushbu subagentlar haqidagi axborotni bankka yoki to'lov tashkilotiga taqdim etadi.

Banklar hamda to'lov tashkilotlari to'lov xizmatlari ko'rsatishga doir agentlik shartnomasi shartlariga to'lov agenti tomonidan rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

To'lov agenti to'lov xizmatlari ko'rsatishga doir subagentlik shartnomasi shartlariga to'lov subagenti tomonidan rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

To'lov xizmatlari ko'rsatish bo'yicha to'lov agenti bilan agentlik shartnomalarini tuzgan bank va to'lov tashkiloti Markaziy bankka ushbu xizmatlar, shuningdek o'zining to'lov agentlari hamda to'lov subagentlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Bank va to'lov tashkiloti to'lov agenti hamda to'lov subagentining majburiyatlari bo'yicha to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilar oldida to'lov xizmatlarini ko'rsatishga doir agentlik shartnomalarini tuzgan to'lov agenti va to'lov subagenti bilan solidari javobgar bo'ladi.

4-bob. To'lov tizimlarini va to'lov xizmatlari bozorini tartibga solish

20-modda. To'lovlar va to'lov tizimlari sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

To'lovlar va to'lov tizimlari sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarning va to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

to'lov xizmatlari tizimini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish;

naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash.

21-modda. Markaziy bankning vakolatlari

Markaziy bank to'lov tizimlarining samarali, ishonchli va xavfsiz ishlashini ta'minlash maqsadida ularning O'zbekiston Respublikasi hududida ushbu Qonunga muvofiq tartibga solinishini amalga oshiradi.

To'lov tizimlarini tartibga solish maqsadida Markaziy bank:

to'lov tizimlari operatorlarining faoliyatini va to'lov tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalashni amalga oshiradi;

to'lov tizimlari operatorlarining va to'lov tashkilotlarining litsenziyalarini chaqirib oladi;

to'lov tizimlari operatorlarining va to'lov tashkilotlarining faoliyatini nazorat qilish va kuzatuvni amalga oshirish tartibini belgilaydi;

To'lov tizimlari operatorlarining reyestrini va To'lov tashkilotlarining reyestrini yuritadi;

to'lov tizimi qoidalarini va to'lov tashkilotining to'lov tizimi ishtirokchilari bilan hamkorligi tartibini kelishib olishni amalga oshiradi;

to'lov tizimlarining muhimlik mezonlarini aniqlaydi;

to'lov tizimlari ustidan nazoratni amalga oshiradi;

to'lov tizimlari operatorlariga va to'lov tashkilotlariga nisbatan ushbu Qonun talablarini buzganlik uchun choralar hamda sanksiyalar qo'llaydi;

O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz to'lovlarning amalga oshirilishi tartibini belgilaydi;

Markaziy bankning banklararo to'lov va kliring tizimlarining ishlashi qoidalarini belgilaydi;

bank hisobvaraqlarining ochilishi, yuritilishi va yopilishi tartibini belgilaydi;

to'lov tizimlarining operatorlari va to'lov tashkilotlari tomonidan Markaziy bankka to'lovlarga taalluqli ma'lumotlarning taqdim etilishi tartibini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalarini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalarini belgilaydi;

Markaziy bankning banklararo to'lov va kliring tizimlari bilan hamkorlikni ta'minlovchi dasturiy vositalarga, shu jumladan avtomatlashtirilgan bank tizimlariga, shuningdek to'lov tizimlarida axborot xavfsizligi choralarini ta'minlashga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydi;

to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdorini belgilaydi;

elektron pullar bilan to'lovlar va pul o'tkazmalariga doir operatsiyalar bo'yicha limitlarni belgilaydi;

to'lov xizmatlari bo'yicha tariflar asossiz ravishda oshirilganda monopoliyaga qarshi kurashish organiga taklif kiritishga haqli;

ishtirokchilari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradigan xalqaro to'lov tizimlariga nisbatan nazorat faoliyati ta'sirchanligini oshirish maqsadida boshqa mamlakatlarning nazorat organlari va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

22-modda. To'lov tizimlari operatorlarining faoliyatini litsenziyalash tartibi

Litsenziya da'vogari sifatida banklar va bank hisoblanmagan yuridik shaxslar to'lov tizimining operatori faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olish maqsadida Markaziy bank tomonidan belgilanadigan shakl bo'yicha Markaziy bankka litsenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qiladi.

Bankning litsenziya berish to'g'risidagi arizasiga quyidagilar ilova qilinadi:
bank boshqaruvining to'lov tizimini tashkil etish haqidagi qarorining ko'chirma nusxasi;

yaqin ikki kalendar yil uchun to'lov tizimini rivojlantirishga doir biznes-reja, unda to'lov tizimini tashkil etishning maqsadlari va rejalashtirilayotgan natijalari, shu jumladan bozor va infratuzilma omillarining tahlili ko'rsatiladi;

Markaziy bank tomonidan litsenziya da'vogarining arizasini ko'rib chiqqanlik uchun yig'im kiritilganligini tasdiqlovchi hujjat;
to'lov tizimining qoidalari.

Bank hisoblanmaydigan yuridik shaxsning litsenziya berish to'g'risidagi arizasiga quyidagilar ilova qilinadi:

yuridik shaxs vakolatli organining to'lov tizimini tashkil etish to'g'risidagi qarorining ko'chirma nusxasi;

yaqin ikki kalendar yil uchun to'lov tizimini rivojlantirishga doir biznes-reja, unda to'lov tizimini tashkil etishning maqsadlari va rejalashtirilayotgan natijalari, shu jumladan bozor va infratuzilma omillarining tahlili ko'rsatiladi;

to'lov tizimining qoidalari;

bankning to'lov tizimining hisob-kitob banki bo'lishga yozma roziligi, shu jumladan o'zi bilan qaysi shaklda shartnoma tuzilgan bo'lsa, o'sha shakldagi roziligi;

Markaziy bank tomonidan litsenziya da'vogarining arizasini ko'rib chiqqanlik uchun yig'im kiritilganligini tasdiqlovchi hujjat;

buxgalteriya balansi va oxirgi hisobot sanasiga doir moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;

muassislar (ishtirokchilar) haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan ularning kapitaldagi ulushi miqdori;

ijro etuvchi organning rahbari va a'zolari to'g'risidagi, shu jumladan ularning ma'lumoti, ish joyi va egallab turgan lavozimi haqidagi axborotni o'z ichiga olgan ma'lumotlar, bu ma'lumotlarga tasdiqlovchi hujjatlarning ko'chirma nusxalari ilova qilinadi;

tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi to'g'risidagi, shu jumladan to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarning pul mablag'lari but saqlanishini ta'minlashga doir talablar haqidagi ma'lumotlar;

xavfsizlik tizimlari, nazorat mexanizmlari hamda tizimlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

xavfsizlik siyosati haqidagi, shu jumladan tavakkalchiliklarni batafsil baholashni o'z ichiga olgan hujjat, shuningdek axborot xavfsizligi va to'lov xizmatidan foydalanuvchilarning himoya qilinishini ta'minlash uchun tavakkalchiliklarni, shu jumladan firibgarlik hamda maxfiy va shaxsga doir ma'lumotlardan qonunga zid ravishda foydalanish xavflarini kamaytirish bo'yicha ko'riladigan choralarning tavsifi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablari bajarilishini ta'minlash choralarning tavsifi.

Litsenziya berish to'g'risidagi arizaning shakli va zarur hujjatlarning ro'yxati Markaziy bankning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Markaziy bank litsenziyani berish haqidagi yoki uni berishni rad etish to'g'risidagi qarorni litsenziya da'vogarining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan birga olingan kundan e'tiboran o'ttiz kun muddat mobaynida qabul qiladi.

To'lov tizimi qoidalarini kelishib olish litsenziya da'vogarining arizasini va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqish bilan bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi.

Litsenziya berish to'g'risidagi yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng Markaziy bank litsenziya da'vogariga uch ish kuni mobaynida qaror qabul qilinganligi haqida xabarnoma yuboradi.

Litsenziya berish to'g'risidagi qaror qabul qilinganda Markaziy bank To'lov tizimlari operatorlari reyestriga to'lov tizimi operatori haqida tegishli yozuvni kiritadi.

Litsenziya berish to'g'risidagi qaror qabul qilinganligi haqidagi xabarnoma litsenziya da'vogariga bank hisobvarag'ining rekvizitlari va davlat bojini to'lash muddati ko'rsatilgan holda yozma shaklda yoki axborot tizimi orqali elektron shaklda yuboriladi (topshiriladi).

To'lov tizimi operatori o'z faoliyatini litsenziyani olganidan va to'lov tizimi qoidalarini kelishib olganidan keyin amalga oshiradi.

Markaziy bank litsenziya da'vogariga quyidagi hollarda litsenziya berishni rad etadi:

litsenziya da'vogari tomonidan tegishli tarzda rasmiylashtirilmagan hujjatlar taqdim etilganda;

litsenziya da'vogari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjud bo'lganda;

litsenziya da'vogari litsenziya talablariga va shartlariga muvofiq bo'lmaganda.

Litsenziya berish rad etilganligi to'g'risidagi xabarnoma litsenziya da'vogariga rad etish sabablari ko'rsatilgan holda yozma shaklda yoki axborot tizimi orqali elektron shaklda yuboriladi (topshiriladi). Litsenziya da'vogari ko'rsatilgan sabablarni bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ikki oydan oshmasligi kerak.

Litsenziya da'vogari litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan sabablarni bartaraf etgan taqdirda, Markaziy bank hujjatlarni takroran ko'rib chiqishni litsenziya da'vogarining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan birga olingan kundan e'tiboran o'n kun muddat mobaynida amalga oshiradi. Litsenziya da'vogarining arizasini takroran ko'rib chiqqanlik uchun yig'im undirilmaydi.

To'lov tizimining operatori haqidagi ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, to'lov tizimi operatori uch ish kuni mobaynida bu haqda Markaziy bankni yozma shaklda yoki axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor qilishi shart. To'lov tizimi operatoridan olingan xabarnoma asosida Markaziy bank To'lov tizimlari operatorlarining reyestriga uch ish kuni mobaynida tegishli o'zgartishlar kiritadi.

To'lov tizimi operatori faoliyatni ikki va undan ortiq to'lov tizimlarining operatori sifatida amalga oshirish uchun Markaziy bankka har bir to'lov tizimining operatori sifatidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya berish to'g'risida ariza bilan murojaat qiladi, arizaga ushbu moddada ko'rsatilgan hujjatlarni ilova qiladi.

23-modda. To'lov tizimi operatori litsenziyasini chaqirib olish

Markaziy bank quyidagi hollarda to'lov tizimi operatori litsenziyasini chaqirib olish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli:

to'lov tizimining operatori litsenziyasini chaqirib olish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etganda;

to'lov tizimining operatori bo'lgan bankda bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya chaqirib olinganda;

to'lov tizimining operatori tugatilganda — tugatilish paytidan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etilishi natijasida tugatilganda — qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, bundan uning o'zgartirilishi, shuningdek qayta tashkil etilayotgan to'lov tizimi operatorida yangitdan vujudga kelgan yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi sanasidagi faoliyatning litsenziyalanadigan ayni bir turini amalga oshirishga doir litsenziya mavjud bo'lganda qo'shib yuborilishi mustasno;

to'lov tizimining operatori litsenziya olingan kundan e'tiboran bir yil davomida faoliyatni amalga oshirmaganda yoki to'lov tizimi operatorining faoliyati olti oydan ortiq davrga to'xtatib turilganda;

ushbu Qonunda nazarda tutilgan talablar to'lov tizimining operatori tomonidan muntazam ravishda buzilganda yoki bir marta qo'pol tarzda buzilganda;

to'lov tizimining uzluksiz ishlashiga ta'sir ko'rsatuvchi qoidabuzarliklar Markaziy bankning birinchi ko'rsatmasi yuborilgan kundan e'tiboran uch oy mobaynida to'lov tizimining operatori tomonidan bartaraf etilmaganda;

Markaziy bankning litsenziya berish to'g'risidagi qarorining qonunga zid ekanligi aniqlanganda.

Litsenziyani chaqirib olish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda to'lov tizimi operatori quyidagilarni taqdim etishi shart:

1) to'lov tizimi operatori tugatiladigan taqdirda:

to'lov tizimi operatorini tugatish to'g'risida uning muassislari (ishtirokchilari) yoki ta'sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organi tomonidan tugatish sabablari ko'rsatilgan holda qabul qilingan qaror;

to'lov tizimi operatorining muassislari (ishtirokchilari) yoki ta'sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organi tomonidan tasdiqlangan, tugatish jarayonini, to'lov tizimi ishtirokchilari oldidagi majburiyatlarni bajarish hamda kreditorlarning talablarini qanoatlantirish tartib-taomillari va muddatlarini o'z ichiga olgan tugatish rejasi;

Markaziy bankka murojaat qilish paytidagi, kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun mablag'lar yetarli ekanligini tasdiqlovchi balans hisoboti;

tugatuvchi to'g'risidagi yoki tugatish komissiyasining tarkibi haqidagi axborot va boshqa zarur ma'lumotlar;

2) boshqa hollarda — to'lov tizimi ishtirokchilari oldidagi majburiyatlarni bajarish tartib-taomillari va muddatlari.

To'lov tizimi operatori litsenziyasini ushbu moddada nazarda tutilmagan asoslar bo'yicha chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi.

Markaziy bankning litsenziyani chaqirib olish to'g'risidagi qarori ushbu qaror qabul qilingan kuni to'lov tizimi operatori rahbariyatiga imzo qo'ydirilib topshiriladi. Litsenziyani chaqirib olish to'g'risidagi qaror to'lov tizimining operatori tomonidan olingan kundan e'tiboran o'n kun mobaynida litsenziya Markaziy bankka qaytarilishi va yo'q qilinishi lozim.

Markaziy bankning to'lov tizimi operatori litsenziyasini chaqirib olganligi to'g'risidagi qarori mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir kun ichida ommaviy axborot vositalarida, shuningdek Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi lozim. Markaziy bankning to'lov tizimi operatori litsenziyasini chaqirib olish to'g'risidagi qarori qabul qilingan sanadan e'tiboran litsenziyaning amal qilishi tugatilgan hisoblanadi.

Markaziy bankning litsenziyani chaqirib olish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Sud litsenziyani chaqirib olishni asossiz deb topgan taqdirda, Markaziy bank litsenziat oldida unga yetkazilgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

To'lov tizimi operatori litsenziyasi chaqirib olinganda to'lovlar va hisob-kitoblar bo'yicha operatsiyalarni yakunlash tartibi hamda muddatlari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

24-modda. To'lov tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash tartibi

Litsenziya da'vogari sifatida yuridik shaxslar to'lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olish maqsadida Markaziy bank tomonidan belgilanadigan shakl bo'yicha Markaziy bankka litsenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qiladi.

Litsenziya berish to'g'risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

to'lov tashkilotining yaqin ikki kalendar yil uchun biznes-rejasi;

to'lov tashkilotining arizasini Markaziy bank ko'rib chiqqanligi uchun yig'im kiritilganligini tasdiqlovchi hujjat;

oxirgi hisobot sanasiga doir buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;

to'lov tashkilotining to'lov tizimi operatori va to'lov tizimi ishtirokchilari bilan hamkorligi tartibi;

muassislar (ishtirokchilar) haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan ularning kapitaldagi ulushi miqdori;

ijro etuvchi organning rahbari va a'zolari to'g'risidagi, shu jumladan ularning ma'lumoti, ish joyi va lavozimi haqidagi axborotni o'z ichiga olgan ma'lumotlar, unga tasdiqlovchi hujjatlarning ko'chirma nusxalari ilova qilinadi;

tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi to'g'risidagi, shu jumladan mijozlarning pul mablag'lari but saqlanishini ta'minlashga doir talablar haqidagi ma'lumotlar;

xavfsizlik tizimlari, nazorat mexanizmlari hamda tizimlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

xavfsizlik siyosati haqidagi, shu jumladan tavakkalchiliklarni batafsil baholashni o'z ichiga olgan hujjat, shuningdek axborot xavfsizligi va to'lov xizmatidan foydalanuvchilarning himoya qilinishini ta'minlash uchun tavakkalchiliklarni, shu jumladan firibgarlik hamda maxfiy va shaxsga doir ma'lumotlardan qonunga zid ravishda foydalanish xavflarini kamaytirish bo'yicha ko'riladigan choralarning tavsifi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablari bajarilishini ta'minlash choralarining tavsifi.

Litsenziya berish to'g'risidagi arizaning shakli va zarur hujjatlar ro'yxati Markaziy bankning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Markaziy bank litsenziya berish haqida yoki uni berishni rad etish to'g'risida to'lov tashkilotining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan birga olingan kundan e'tiboran o'ttiz kun muddat mobaynida qaror qabul qiladi.

To'lov tashkilotining to'lov tizimi ishtirokchilari bilan hamkorlik qilish tartibini kelishib olish to'lov tashkilotining arizasini va unga ilova qilingan, litsenziyalash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni ko'rib chiqish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Litsenziya berish to'g'risidagi yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng Markaziy bank litsenziya da'vogariga uch ish kuni mobaynida qaror qabul qilinganligi haqida xabarnoma yuboradi.

Litsenziya berish to'g'risidagi qaror qabul qilinganda Markaziy bank To'lov tashkilotlari reyestriga to'lov tashkiloti haqida tegishli yozuvni kiritadi.

Litsenziya berish to'g'risidagi qaror qabul qilinganligi haqidagi xabarnoma litsenziya da'vogariga bank hisobvarag'ining rekvizitlari va davlat bojini to'lash muddati ko'rsatilgan holda yozma shaklda yoki axborot tizimi orqali elektron shaklda to'lov tashkilotiga yuboriladi (topshiriladi).

To'lov tashkiloti to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi sifatida o'z faoliyatini litsenziya olganidan so'ng amalga oshirishi mumkin.

Markaziy bank to'lov tashkilotiga litsenziya berishni quyidagi hollarda rad etadi:

to'lov tashkiloti tegishli tarzda rasmiylashtirilmagan hujjatlarni taqdim etganda;

to'lov tashkiloti tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjud bo'lganda;

to'lov tashkiloti litsenziya talablari va shartlariga muvofiq bo'lmaganda.

Litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi xabarnoma to'lov tashkilotiga rad etish sabablari ko'rsatilgan holda yozma shaklda yoki axborot tizimi orqali elektron shaklda yuboriladi (topshiriladi). To'lov tashkiloti ko'rsatilgan sabablarni bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ikki oydan oshmasligi kerak.

To'lov tashkiloti litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan sabablarni bartaraf etgan taqdirda hujjatlarni takroran ko'rib chiqish to'lov tashkilotining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan birga olingan kundan e'tiboran o'n kun muddat mobaynida Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. To'lov tashkilotining arizasini takroran ko'rib chiqqanlik uchun yig'im undirilmaydi.

To'lov tashkiloti to'g'risidagi ma'lumotlar o'zgargan taqdirda to'lov tashkiloti Markaziy bankni bu haqda uch ish kuni mobaynida yozma shaklda yoki axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor etishi shart. Markaziy bank to'lov

tashkilotidan olingan xabarnoma asosida To'lov tashkilotlarining reyestriga uch ish kuni mobaynida tegishli o'zgartishlar kiritadi.

25-modda. To'lov tashkiloti litsenziyasini chaqirib olish

Markaziy bank quyidagi hollarda to'lov tashkiloti litsenziyasini chaqirib olish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli:

to'lov tashkiloti litsenziyani chaqirib olish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etganda;

to'lov tashkiloti tugatilganda — tugatish paytidan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda — qayta tashkil etish paytidan e'tiboran, bundan to'lov tashkilotining o'zgartirilishi, shuningdek qayta tashkil etilayotgan to'lov tashkilotida yangitdan vujudga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida faoliyatning litsenziyalanadigan ayni bir turini amalga oshirishga doir litsenziya mavjud bo'lganda qo'shib yuborilishi mustasno;

to'lov tashkiloti faoliyatni litsenziya olingan kundan e'tiboran bir yil davomida amalga oshirmaganda yoki to'lov tashkilotining faoliyati olti oydan ortiq davrga to'xtatib turilganda;

ushbu Qonunda nazarda tutilgan talablar to'lov tashkiloti tomonidan muntazam ravishda buzilganda yoki bir marta qo'pol tarzda buzilganda;

Markaziy bankning litsenziya berish to'g'risidagi qarorining qonunga zid ekanligi aniqlanganda.

To'lov tashkiloti litsenziyasini ushbu moddada nazarda tutilmagan asoslar bo'yicha chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi.

Markaziy bankning litsenziyani chaqirib olish to'g'risidagi qarori ushbu qaror qabul qilingan kuni to'lov tashkiloti rahbariyatiga imzo qo'ydirilib topshiriladi. Litsenziyani chaqirib olish to'g'risidagi qaror to'lov tashkiloti tomonidan olingan kundan e'tiboran o'n kun mobaynida litsenziya Markaziy bankka qaytarilishi va yo'q qilinishi lozim.

Markaziy bankning to'lov tashkiloti litsenziyasini chaqirib olganligi to'g'risidagi qarori mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir kun ichida ommaviy axborot vositalarida, shuningdek Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi lozim. Markaziy bankning to'lov tashkiloti litsenziyasini chaqirib olish to'g'risidagi qarori qabul qilingan sanadan e'tiboran litsenziyaning amal qilishi tugatilgan hisoblanadi.

To'lov tashkilotiga Markaziy bankning litsenziyani chaqirib olish to'g'risidagi qarori berilganidan so'ng to'lov xizmatlarini ko'rsatishi taqiqlanadi va to'lov tashkiloti bir oy mobaynida o'zining nomidan "to'lov tashkiloti" degan so'zlarni chiqarib tashlashi kerak.

Markaziy bankning litsenziyani chaqirib olish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Sud litsenziyaning chaqirib olinishini asossiz deb

topgan taqdirda, Markaziy bank litsenziat oldida unga yetkazilgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

26-modda. To'lov tashkilotini qayta tashkil etish tartibi

To'lov tashkilotini qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) tashkilot muassislarining (ishtirokchilarining) qaroriga ko'ra Markaziy bankni xabardor qilgan holda amalga oshiriladi.

To'lov tashkilotini qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, to'lov tashkiloti quyidagi hujjatlarni taqdim etgan holda Markaziy bankni xabardor etadi:

to'lov tashkilotini qayta tashkil etish to'g'risidagi qaror;

to'lov tashkilotini qayta tashkil etish shartlari, shakllari, tartibi va muddatlari bayon etilgan hujjatlar;

to'lov tashkilotini qayta tashkil etish oqibatlarining moliyaviy prognozi;

auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq auditorlik hisoboti;

qayta tashkil etish natijasida tuziladigan to'lov tashkilotining yaqin ikki kalendar yil uchun biznes-rejasi;

qayta tashkil etish natijasida tuziladigan to'lov tashkilotining to'lov tizimi ishtirokchilari bilan hamkorligi tartibi.

Markaziy bank to'lov tashkiloti tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ular taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n besh ish kuni mobaynida ko'rib chiqish natijalari bo'yicha tavsiya berish huquqiga ega.

Qayta tashkil etilayotgan to'lov tashkilotlari Markaziy bankka qayta tashkil etish to'g'risida ma'lumot taqdim etgan kundan e'tiboran o'n besh kun mobaynida ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan o'zining rasmiy veb-saytida amalga oshirilayotgan qayta tashkil etish to'g'risidagi tegishli axborotni e'lon qilishi shart.

Qayta tashkil etish natijasida tuzilgan to'lov tashkilotini litsenziyalash ushbu Qonun talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

27-modda. To'lov tizimi operatorining va to'lov tashkilotining ijro etuvchi organlari rahbarlariga doir talablar

To'lov tizimi operatorining va to'lov tashkilotining ijro etuvchi organlari rahbarlari oliy ma'lumotga hamda bank-moliya sohasida yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kamida ikki yillik ish tajribasiga, shuningdek benuqson ishchanlik obro'siga, o'z vakolatlari doirasida to'lov tizimlari tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishini ta'minlash, asosli qarorlar qabul qilish uchun zarur tajriba, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

To'lov tizimi operatorining va to'lov tashkilotining ijro etuvchi organlari rahbarlari ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan talablarga muvofiq bo'lmagan taqdirda Markaziy bank to'lov tizimi operatorining va to'lov

tashkilotining ijro etuvchi organlari rahbarlarini almashtirish haqida ko'rsatma berishga haqli. Ushbu ko'rsatma ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

5-bob. To'lov tizimlarining ishlashi ustidan nazoratni va kuzatuvni amalga oshirish

28-modda. To'lov tizimlarining ishlashi ustidan nazoratni amalga oshirish

Markaziy bank to'lov tizimlarining ishlashi ustidan nazoratni amalga oshirishda:

to'lov tizimlari operatorlaridan va to'lov tashkilotlaridan to'lov tizimlarining ishlashi bilan bog'liq axborotni, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotni so'rab oladi;

to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari tomonidan to'lov tizimlarining ishlashi to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etish shakllari va muddatlarini, shuningdek hisobotlarni tuzish uslubiyotini belgilaydi;

to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari tomonidan to'lov tizimlarining ishlashi to'g'risida taqdim etilgan axborotni tahlil qiladi;

to'lov tizimlari operatorlarining va to'lov tashkilotlarining faoliyatini inspeksiya tekshiruvlaridan o'tkazadi;

to'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilgan taqdirda to'lov tizimlarining operatorlariga va to'lov tashkilotlariga nisbatan choralar hamda sanksiyalar qo'llaydi.

To'lov tizimlarining ishlashi ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

29-modda. Inspeksiya tekshiruvlarini o'tkazish tartibi

Markaziy bank to'lov tizimlari operatorlarining va to'lov tashkilotlarining faoliyatini bir yilda ko'pi bilan bir marta inspeksiya tekshiruvlaridan o'tkazishga haqli.

Muhim to'lov tizimining uzluksiz faoliyat ko'rsatishida buzilishlar bo'lgan taqdirda Markaziy bank navbatdan tashqari inspeksiya tekshiruvini o'tkazishga haqli.

Inspeksiya tekshiruvlari to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha o'tkazilishi yoki kompleks tekshiruvlar bo'lishi mumkin.

Markaziy bankning vakolatli vakillari to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini inspeksiya tekshiruvidan o'tkazish chog'ida quyidagi huquqlarga ega:

hujjatlarni olish va tekshirish;

zarurat bo'lganda, tekshiruv materiallariga ilova qilish uchun hujjatlardan ko'chirma nusxalar olish;

faoliyatga doir masalalar bo'yicha og'zaki va yozma tushuntirishlar olish;
faoliyatni amalga oshirish joyiga kirish;

tashkilotning axborot tizimlariga kirish, shu jumladan axborotni elektron shaklda olish (elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning boshlang'ich matnlaridan tashqari).

Inspeksiya tekshiruvni yakunlari bo'yicha Markaziy bankning vakolatli vakillari tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda, to'lov tizimi operatori va to'lov tashkiloti faoliyati to'g'risidagi umumiy axborotni, tekshiruv jarayonida aniqlangan qoidabuzarliklar haqidagi axborotni o'z ichiga olgan tekshiruv dalolatnomasini tuzadi.

Inspeksiya tekshiruvini o'tkazish muddati o'ttiz kundan oshishi mumkin emas.

30-modda. Markaziy bank tomonidan qo'llaniladigan choralar va sanksiyalar

Agar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablarining hamda to'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risidagi qonunchilik talablarining to'lov tizimi operatori va (yoki) to'lov tashkiloti tomonidan yo'l qo'yilgan buzilishlari to'lov tizimining uzluksiz ishlashiga bevosita ta'sir ko'rsatmasa, Markaziy bank:

to'lov tizimi operatorining va (yoki) to'lov tashkilotining boshqaruv organlarini aniqlangan qoidabuzarlik to'g'risida yo'l qo'yilgan qoidabuzarlikni va u bartaraf etilishi kerak bo'lgan muddatni ko'rsatgan holda yozma shaklda xabardor qiladi, bunda mazkur muddat o'n ish kunidan kam bo'lmasligi kerak;

to'lov tizimi operatorining va (yoki) to'lov tashkilotining boshqaruv organlariga aniqlangan qoidabuzarlikni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar yuboradi.

Agar to'lov tizimi operatori va (yoki) to'lov tashkiloti tomonidan yo'l qo'yilgan yuqorida ko'rsatilgan qonunchilikning buzilishlari to'lov tizimining uzluksiz ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatma, Markaziy bank to'lov tizimi operatorining va (yoki) to'lov tashkilotining boshqaruv organlariga qoidabuzarlikning bartaraf etilishi to'g'risida uni bartaraf etish muddatini ko'rsatgan holda ko'rsatma yuboradi, bu muddat o'n ish kunidan kam bo'lmasligi kerak.

To'lov tizimi operatori va (yoki) to'lov tashkiloti Markaziy bankning qoidabuzarlikni bartaraf etish to'g'risidagi ko'rsatmasini bajarmagan, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzgan taqdirda, Markaziy bank qonunchilikka muvofiq quyidagi sanksiyalardan birini qo'llaydi:

bazaviy hisob-kitob miqdorining besh ming baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima soladi;

to'lov xizmatlarining va (yoki) operatsiyalarning ayrim turlarini amalga oshirishni olti oygacha bo'lgan muddatga cheklaydi;

litsenziyaning amal qilishini o'n ish kunigacha bo'lgan muddatga to'xtatib turadi.

31-modda. To'lov tizimlarining ishlashi ustidan kuzatuv

To'lov tizimlarining ishlashi ustidan kuzatuv amalga oshirilayotganda Markaziy bank to'lov tizimlari to'g'risidagi axborotni umumlashtiradi, tizimlashtiradi va tahlil qiladi.

Muhim to'lov tizimlarining ishlashi ustidan kuzatuv amalga oshirilayotganda Markaziy bank:

muhim to'lov tizimlarini ularning xalqaro standartlarga va Markaziy bank talablariga muvofiqligi yuzasidan baholashni o'tkazadi;

muhim to'lov tizimlari operatorlarining va to'lov tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

Markaziy bank to'lov tizimlarining ishlashi ustidan kuzatuv natijalarining sharhini bir yilda kamida bir marta e'lon qiladi.

6-bob. To'lovlar

32-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida to'lovlarni amalga oshirish

O'zbekiston Respublikasi hududida to'lovlar quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

naqd pul mablag'larini o'tkazish;

elektron pullarni o'tkazish;

pul mablag'larini to'lov vositalaridan foydalangan holda o'tkazish;

pul majburiyatini yoki pul mablag'larini to'lash to'g'risidagi farmoyishni o'z ichiga olgan to'lov hujjatini berish;

elektron to'lov vositalaridan foydalanish.

To'lovni boshlash quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

to'lovchi tomonidan to'lov hujjatini taqdim etish;

saqlovchi tomonidan elektron to'lov vositasidan foydalanish;

to'lovchi tomonidan naqd pul mablag'larini bank kassalari, elektron terminallar va boshqa qurilmalar orqali o'tkazish uchun kiritish;

to'lovchining to'lovni masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalangan holda amalga oshirishga bo'lgan roziligini yuborish.

33-modda. To'lov hujjatlari

To'lov hujjati qog'ozda tuzilgan yoki elektron shaklda shakllantirilgan hujjat bo'lib, to'lov uning asosida yoki yordamida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida to‘lovlarni amalga oshirishda quyidagi to‘lov hujjatlaridan foydalaniladi:

to‘lov topshiriqnomasi;

to‘lov talabnomasi;

inkasso topshiriqnomasi;

memorial order;

akkreditivga ariza;

kim va chiqim kassa to‘lov hujjatlari.

To‘lov hujjatlarining shakllari, majburiy rekvizitlari va ularning mazmuniga doir boshqa talablar, elektron to‘lov vositalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

34-modda. Elektron to‘lov vositalari

Axborotni o‘z ichiga olgan va to‘lovchiga to‘lovni amalga oshirish, shuningdek to‘lovchi bilan elektron to‘lov vositalarining emitenti o‘rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradigan bank kartasi yoki boshqa elektron jismlar elektron to‘lov vositalaridir.

Elektron to‘lov vositasini chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs elektron to‘lov vositasining emitentidir.

Elektron to‘lov vositasining emitenti bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq elektron to‘lov vositasidan foydalanuvchi yoki unga egalik qiluvchi jismoniy shaxs elektron to‘lov vositasini saqlovchidir.

Elektron to‘lov vositalaridan foydalanilgan holdagi to‘lovlar elektron to‘lov vositalarini saqlovchining identifikatsiya vositalari orqali tasdiqlangan roziligi asosida amalga oshiriladi.

To‘lovni amalga oshirishda elektron to‘lov vositalarini saqlovchining roziligini taqdim etish hamda tasdiqlash tartibi va usuli elektron to‘lov vositasining emitenti va elektron to‘lov vositasini saqlovchi o‘rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

7-bob. Bank kartasi

35-modda. Bank kartasini chiqarish

Bank kartasi uni saqlovchiga elektron terminallar, aloqa kanallari orqali to‘lovlarni amalga oshirish yoki naqd pul mablag‘larini olish yoxud valyuta ayirboshlashni amalga oshirish va bank kartasining emitenti tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalarni bajarish imkonini beruvchi axborotni o‘z ichiga oladi. Bank kartasi debet, kredit kartasi, shu jumladan virtual (jismonan mavjud bo‘lmagan) karta bo‘lishi mumkin.

Bank kartalarini chiqarish va ulardan foydalanish bank kartasining emitenti hamda bank kartasini saqlovchi o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Bank kartasining emitenti boshqa tashkilotlar bilan birgalikda bank kartalarini to'lov xizmatlaridan va boshqa xizmat turlaridan foydalanuvchilarga ularning o'rtasida tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan tartibda hamda shartlarda berish uchun chiqarishga haqli.

Bank kartasining emitenti bank kartasini saqlovchi bilan shartnoma tuzilguniga qadar bank kartasini saqlovchini bank kartasidan foydalanish chog'idagi xavfsizlik shartlari va choralari, e'tirozlarni berish usullari va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida xabardor qilishi shart.

Bank kartasining emitenti o'z rasmiy veb-saytida bank kartalarining turlari va ularni berish shartlari, bank kartalaridan foydalanish chog'idagi xavfsizlik choralari to'g'risidagi axborotni joylashtiradi.

Bank kartasining emitenti bank kartasini saqlovchiga bank kartasiga xizmat ko'rsatish bo'yicha undiriladigan vositachilik haqining miqdori va uni undirish tartibi to'g'risida, vositachilik haqi to'lanmagan taqdirda qarzni hisoblash to'g'risida xabardor qiladi, shuningdek bank kartasini saqlovchiga uning bank kartasiga ular o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan tartibda xizmat ko'rsatganlik uchun bank kartasini saqlovchi tomonidan vositachilik haqi to'langanligi faktining tasdiqnomasi taqdim etilishini ta'minlaydi.

36-modda. Bank kartasidan foydalanilgan holdagi to'lovlar

Tovarlar va xizmatlarni chakana realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar to'lovlarning bank kartalaridan foydalangan holda qabul qilinishini ta'minlashi shart.

To'lov ishtirokchisining bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq huquq va majburiyatlari bank kartasidan foydalangan holda amalga oshiriladigan to'lov yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs tomonidan qabul qilingan paytdan e'tiboran yuzaga keladi.

To'lovlar bank kartasidan foydalangan holda amalga oshirilganda yakka tartibdagi tadbirkorda yoki yuridik shaxsda u bilan bank kartalariga xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzgan bankka nisbatan yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs tomonidan qabul qilingan to'lov summasida pul talab qilish huquqi, bankda esa yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yuridik shaxsning pulga doir talabini bajarish majburiyati yuzaga keladi.

Bank kartasining emitenti bank kartasidan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar haqida bank kartasini saqlovchini ular o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan hollarda va tartibda xabardor qiladi. Bunday xabarnomani yuborish tartibi va uning davriyligi, shuningdek bank kartasini saqlovchini bank kartalaridan foydalanilgan holdagi operatsiyalar to'g'risida xabardor qilganligi uchun bank kartasining emitenti tomonidan vositachilik haqini undirish miqdori va tartibi bank kartasi emitenti va bank kartasini saqlovchi o'rtasidagi shartnomada belgilanadi.

Bank kartasining emitenti bank kartasini saqlovchining talabiga binoan uning bank kartasidan foydalanish bilan bog‘liq tegishli hujjatlarni va axborotni shartnomada belgilangan tartibda taqdim etishi shart.

Bank kartasining emitenti bank kartasini saqlovchiga yuborilgan va undan olingan xabarnomalarning ushbu xabarnomalar yuborilgan va olingan kundan e‘tiboran uch yildan kam bo‘lmagan muddat mobaynida saqlanishini ta‘minlaydi.

Bank kartasining emitenti bank kartasini saqlovchining arizasini ariza kelib tushgan kundan e‘tiboran o‘n besh kun mobaynida ko‘rib chiqadi. Arizani ko‘rib chiqish uchun tekshirish o‘tkazish, qo‘shimcha materiallarni so‘rab olish yoki boshqa choralar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda arizani ko‘rib chiqish muddati ko‘pi bilan o‘ttiz kunga uzaytirilishi mumkin, bu haqda bank kartasini saqlovchiga xabar beriladi. Bank kartasidan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida foydalanilgan taqdirda bank kartasini saqlovchining arizasi ariza kelib tushgan kundan e‘tiboran qirq besh kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda ko‘rib chiqiladi. Bank kartasini saqlovchiga arizani ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risida yozma yoki elektron shaklda axborot yuboriladi.

Bank kartasidan foydalanish bank kartasini saqlovchidan olingan xabarnomaga asosan bank kartasining emitenti tomonidan yoki bank kartasini saqlovchi bank kartasidan shartnomaga muvofiq foydalanish tartibini buzgan taqdirda bank kartasi emitentining tashabbusiga ko‘ra to‘xtatib turiladi yoki tugatiladi.

Bank kartasini saqlovchining bank kartasidan foydalanishini to‘xtatib turish yoki tugatish bank kartasini saqlovchining va bank kartasi emitentining ushbu kartadan foydalanishni to‘xtatib turish yoki tugatish paytiga qadar yuzaga kelgan majburiyatlarini tugatmaydi.

37-modda. Bank kartasidan ruxsatsiz foydalanish

Bank kartasining emitenti bank kartasini saqlovchini bank kartasi yo‘qolganligi va (yoki) bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi to‘g‘risidagi xabarnomani tunu kun yuborish imkoniyati bilan ta‘minlashi shart.

Bank kartasining yo‘qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi fakti aniqlanganda bank kartasini saqlovchi bank kartasining emitentini bu haqda xabardor qiladi. Bank kartasining emitenti bank kartasi yo‘qolganligi yoki bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi to‘g‘risida xabardor qilinmagan taqdirda barcha tavakkalchiliklar bank kartasini saqlovchining zimmasida bo‘ladi.

Bank kartasining emitenti bank kartasi yo‘qolganligi yoki bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi to‘g‘risida xabarnoma olinganidan keyin bank kartasini darhol blokirovka qiladi. Bank kartasining emitenti bank kartasi yo‘qolganligi va (yoki) bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi to‘g‘risida xabarnoma olinganidan keyin bank kartasidan ruxsatsiz foydalanganlik uchun javobgar bo‘ladi.

Bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilgan taqdirda bank kartasini saqlovchi bank kartasining emitentiga bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi natijasida yo‘qotilgan pul mablag‘lari summalarining o‘rnini qoplash to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilishga haqli. Bank kartasini saqlovchining arizasi ushbu Qonun 36-moddasining yettinchi qismida nazarda tutilgan muddatlarda bank kartasining emitenti tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Bank kartasini saqlovchining arizasini ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha bank kartasining emitenti bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi natijasida yo‘qotilgan pul mablag‘lari summalarining o‘rnini qoplash haqida yoki qoplashni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi natijasida yo‘qotilgan pul mablag‘lari summalarining o‘rnini qoplash to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda bank kartasining emitenti pul mablag‘larini bank kartasini saqlovchiga qaror qabul qilinganidan keyin bir kundan kechiktirmay o‘tkazadi.

Bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi natijasida yo‘qotilgan pul mablag‘lari summalarining o‘rnini qoplashni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda bank kartasining emitenti bank kartasini saqlovchini qabul qilingan qaror haqida rad etish sabablarini ko‘rsatgan holda xabardor qiladi. Bank kartasini saqlovchiga bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi natijasida yo‘qotilgan pul mablag‘lari summasining o‘rnini qoplashni rad etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

bank kartasini saqlovchi tomonidan bank kartasidan foydalanishning shartnomada nazarda tutilgan xavfsizlik choralari rioya etilmaganligi;

bank kartasini saqlovchining o‘z bank kartasidan foydalangan holda jinoyatlar sodir etishda ishtirok etganligi fakti aniqlanganligi.

38-modda. Bank kartalaridan foydalanilgan holda banklararo to‘lovlar bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi banklari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi hududida ular tomonidan chiqarilgan bank kartalaridan foydalanilgan holda amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha to‘lovlarga ishlov berish hamda ularning kliringi Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi hududida O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan banklar tomonidan muomalaga chiqarilgan bank kartalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan banklararo to‘lovlar bo‘yicha operatsiyalarga xizmat ko‘rsatish tizimini ushbu tizimning ishlashini ta‘minlash bo‘yicha operatsiyalarga oid va texnologik vazifalarni muhim to‘lov tizimining operatori zimmasiga yuklatish yoki maxsus tashkilotni tuzish orqali tashkil etishga haqli.

Maxsus tashkilotning faoliyat ko‘rsatish tartibi va bank kartalarining emitenti bo‘lgan banklar bilan hamkorligi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

8-bob. Elektron pullar

39-modda. Elektron pullar tizimi

Elektron pullar tizimi operatorining elektron pullar emitenti va (yoki) elektron pullar egalari bilan hamkorligi orqali elektron pullardan foydalangan holda to'lovlar va boshqa operatsiyalar amalga oshirilishini ta'minlovchi to'lov tizimi elektron pullar tizimidir.

40-modda. Elektron pullarning emitentlari va egalari

Markaziy bank va banklar elektron pullarning emitentidir.

O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullar emitenti tomonidan chiqariladigan elektron pullar faqat milliy valyutada nominallashtirilgan bo'lishi kerak.

Elektron pullar emitenti tomonidan jismoniy shaxsga elektron pullarni ularning nominal qiymatiga teng bo'lgan pul mablag'lari summasiga almashtirish yo'li bilan to'g'ridan to'g'ri va (yoki) elektron pullar tizimining operatori yoxud elektron pullar tizimining agenti orqali berilishini nazarda tutuvchi to'lov xizmati elektron pullarni chiqarishdir.

Quyidagilar elektron pullarning egalari bo'lishi mumkin:

boshqa jismoniy shaxslardan, elektron pullarning emitentidan, elektron pullar tizimining operatoridan yoki elektron pullar tizimining agentidan elektron pullarni olgan jismoniy shaxslar;

elektron pullar tizimining agentlari — elektron pullar emitenti yoki elektron pullar tizimining operatori bilan tuzilgan shartnoma asosida elektron pullarni olish va jismoniy shaxslarga realizatsiya qilish operatsiyalarini amalga oshiruvchi banklar yoki to'lov agentlari;

jismoniy shaxslardan elektron pullarni bitimlar bo'yicha to'lov sifatida olgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar.

Elektron pullar egasining huquqlari elektron pullarni olgan paytdan e'tiboran yuzaga keladi.

41-modda. Elektron pullar tizimining operatori

Tegishli litsenziyaga ega bo'lgan va elektron pullar tizimining ishlashini ta'minlaydigan bank yoki boshqa yuridik shaxs elektron pullar tizimining operatoridir. Elektron pullar tizimining operatori elektron pullar emitenti bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq elektron pullar tizimining faoliyat ko'rsatish qoidalarini belgilaydi.

Elektron pullar emitenti va elektron pullar tizimining operatori o'rtasidagi munosabatlar, agar operator elektron pullarning emitenti bo'lmasa, ushbu Qonun va ular o'rtasida tuzilgan shartnoma bilan tartibga solinadi.

Elektron pullar tizimining operatori elektron pullar emitenti bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq va elektron pullar emitenti tomonidan o'ziga berilgan

vakolatlar asosida uning nomidan elektron pullar tizimida ishtirok etuvchi jismoniy shaxslar, elektron pullar tizimining agentlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar bilan shartnomalar tuzishga haqlidir. Bunday holda elektron pullarning egasi tomonidan elektron pullar tizimining operatori bilan tuzilgan shartnomalar elektron pullar emitenti tomonidan chiqarilgan elektron pullardan bir tizim doirasida foydalanilganda elektron pullarning emitenti bilan tuzilgan shartnomalarga tenglashtiriladi.

Elektron pullar tizimining operatori elektron pullar tizimining ishlashini to'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risidagi qonunchilikda hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan talablar va cheklovlarni hisobga olgan holda ta'minlashi shart.

Elektron pullar emitenti va elektron pullar tizimining operatori elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnoma shartlariga muvofiq elektron pullarga ruxsatsiz ega bo'lish va (yoki) ulardan ruxsatsiz foydalanganlik, shuningdek elektron pullar emitentining dasturiy ta'minoti ishidagi yoxud elektron pullar tizimining faoliyat ko'rsatishidagi xatolar yoki uzilishlar oqibatida elektron pullar egasiga yetkazilgan zarar uchun elektron pullarning egasi oldida javobgar bo'ladi.

42-modda. Elektron pullarni chiqarish va realizatsiya qilish

Elektron pullarning emitenti elektron pullarni chiqarishni jismoniy shaxslardan yoki elektron pullar tizimining agentlaridan o'z zimmasiga oladigan majburiyatlarning nominal qiymatiga teng bo'lgan summadagi pul mablag'larini olganidan keyin amalga oshiradi.

Elektron pullar emitenti o'zi chiqargan elektron pullarni ularning nominal qiymatiga muvofiq milliy valyutada qoplash bo'yicha so'zsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Elektron pullarning emitenti Markaziy bankni elektron pullarni chiqarish bo'yicha faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida xabardor qiladi.

Elektron pullarning emitenti tomonidan elektron pullar egasidan elektron pullarni chiqarganlik uchun, shuningdek elektron pullar emitenti tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlar uchun vositachilik haqi undirish elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Elektron pullar emitenti va bu pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxs o'rtasidagi munosabatlar ushbu Qonun va ular o'rtasida tuzilgan elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnoma bilan tartibga solinadi.

Elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnoma tuzilguniga qadar elektron pullar emitenti yoki elektron pullar emitenti nomidan ish yurituvchi elektron pullar tizimining operatori elektron pullar tizimida ishtirok etmoqchi bo'lgan jismoniy shaxsga:

elektron pullar emitentining va elektron pullar tizimi operatorining nomi hamda joylashgan eri (pochta manzili), shuningdek elektron pullar tizimining operatori bank hisoblanmagan hollarda esa uning litsenziyasi raqami to'g'risida;

elektron pullardan foydalanish shartlari haqida;

elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplashda elektron pullar emitenti va (yoki) elektron pullar tizimining operatori tomonidan elektron pullar egasidan vositachilik haqini undirish tartibi va miqdori to'g'risida;

e'tirozlarni berish usullari va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida, shu jumladan elektron pullar emitenti yoki elektron pullar tizimining operatori bilan bog'lanish uchun axborot taqdim etishi shart.

Elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnomada quyidagilar bo'lishi kerak:

elektron pullarni chiqarish (sotib olish) shartlari;

operatsiyalarni elektron pullardan foydalangan holda amalga oshirish shartlari, shu jumladan elektron pullardan foydalanish uchun belgilanadigan cheklovlar;

elektron pullar egasining elektron pullarga va ulardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirishga bo'lgan huquqlarini tasdiqlash tartibi;

elektron pullarni qoplashga taqdim etish tartibi va usullari, ularni qoplash tartibi;

elektron pullardan foydalanishda elektron pullar emitenti va ularning egasi o'rtasida axborot almashish tartibi, shu jumladan elektron pullardan foydalanish nazorati yo'qolganligi yoki bu pullardan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida elektron pullar emitentiga xabar berish tartibi va muddatlari;

tarablarning o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarligi.

Elektron pullarni jismoniy shaxslarga realizatsiya qilish yoki elektron pullarni jismoniy shaxslardan sotib olish elektron pullar emitenti yoki elektron pullar tizimining operatori bilan tuzilgan shartnoma asosida elektron pullar tizimining agenti tomonidan amalga oshiriladi, ushbu shartnomada tarablarning huquq va majburiyatlari, elektron pullarni realizatsiya qilish hamda sotib olish tartibi va shartlari belgilanadi.

43-modda. Elektron pullardan foydalanish

Elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxs elektron pullardan to'lovlarni va elektron pullar tizimining qoidalarida belgilangan hamda O'zbekiston

Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan shartlar asosida egasidan elektron pullarni elektron pullar tizimining boshqa ishtirokchisiga o'tkazish orqali boshqa operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilingan tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'lovlarni to'lashda faqat O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarilgan elektron pullar qabul qilinishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkor va (yoki) yuridik shaxs tomonidan elektron pullarni bitimlarni amalga oshirishda to'lov sifatida qabul qilish elektron pullar emitenti yoxud elektron pullar tizimining ishtirokchisi bo'lgan boshqa bank bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Bitimlarni tuzishda elektron pullar tizimidan elektron pullarni olgan yakka tartibdagi tadbirkor va (yoki) yuridik shaxsda elektron pullar emitentiga nisbatan qabul qilingan to'lov summasidagi pulni talab qilish huquqi yuzaga keladi.

Elektron pullar emitenti va elektron pullar tizimining operatori elektron pullar tizimida firibgarlikni hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni, terrorizmni moliyalashtirishni va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishni aniqlash, shuningdek ularning oldini olish maqsadida "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq tashkiliy hamda tartib-taomilga oid chora-tadbirlarni ta'minlash va joriy etish choralarini ko'radi.

Elektron pullar tizimining operatori "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablarining ta'sir doirasiga kiruvchi operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha vakolatli organga taqdim etadi.

Elektron pullar emitenti jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha vakolatli organga bank hisoblanmagan elektron pullar tizimining operatorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ular bilan tegishli shartnoma tuzilganidan keyin taqdim etadi.

Identifikatsiya qilingan elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan bitta operatsiyaning eng ko'p summasi bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravariga teng bo'lgan summadan oshmasligi kerak.

Identifikatsiya qilinmagan elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan bitta operatsiyaning eng ko'p summasi bazaviy

hisoblash miqdoriga teng bo'lgan summadan oshmasligi kerak. Mazkur summa oshirilganda elektron pullar egasini identifikatsiya qilishni amalga oshirish zarur.

Elektron pullar egasini identifikatsiya qilish elektron pullar emitenti va (yoki) elektron pullar tizimining operatori tomonidan elektron pullar egasining shaxsan hozirligida va o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda yoxud qonunchilik talablariga zid bo'lmagan boshqa usulda, shu jumladan masofaviy identifikatsiya qilish tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Identifikatsiya qilinmagan elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxsning bitta elektron qurilmasida saqlanadigan elektron pullarning eng ko'p summasi bazaviy hisoblash miqdorining besh baravariga teng bo'lgan summadan oshmasligi kerak.

44-modda. Elektron pullarni qoplash

Elektron pullar emitenti tomonidan o'zi chiqargan, elektron pullar egasi taqdim etgan elektron pullarni ularning nominal qiymati bo'yicha teng pul mablag'lari summasiga almashtirish amalga oshirilishini nazarda tutuvchi to'lov xizmati elektron pullarni qoplashdir.

Agar elektron pullar emitenti va elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxs o'rtasida tuzilgan shartnomada elektron pullar emitentiga yoki elektron pullar tizimi operatoriga vositachilik haqi nazarda tutilmagan bo'lsa, elektron pullarni qoplash elektron pullar emitenti tomonidan elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxsning bank hisobvarag'iga ularning nominal qiymati bo'yicha teng bo'lgan pul mablag'lari summasini o'tkazish yoxud unga naqd pul mablag'larini berish orqali amalga oshiriladi.

Agar elektron pullar emitenti va yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs o'rtasida tuzilgan shartnomada boshqa muddat nazarda tutilmagan bo'lsa, elektron pullar emitenti yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxslardan bitim bo'yicha to'lov chog'ida olingan elektron pullarni qoplashni elektron pullar kelib tushgan kun davomida amalga oshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs tomonidan olingan elektron pullar to'lovchi bo'lgan jismoniy shaxsga pullarni o'tkazishlar chog'ida qaytarish uchun ushbu Qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra yoki bitim bekor qilingan taqdirda qoplanmaydi.

Agar elektron pullar emitenti yoki elektron pullar tizimining operatori va elektron pullar egasi o'rtasida tuzilgan shartnomada elektron pullar emitentiga yoxud elektron pullar tizimining operatoriga vositachilik haqi nazarda tutilmagan bo'lsa, egalari yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki yuridik shaxslar bo'lgan elektron pullarni qoplash ularning nominal qiymati bo'yicha teng pul mablag'lari summasini yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yuridik shaxsning bank hisobvarag'iga o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

9-bob. Farmoyishni qabul qilish va bajarish

45-modda. Farmoyishni taqdim etish

Farmoyish topshiriqnoma yoki talabnoma shaklida (to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, inkasso topshiriqnomasi va akkreditivga ariza) qog'ozda yoki elektron tarzda taqdim etilishi mumkin.

Farmoyishni qabul qilish, shuningdek inkasso topshiriqnomasini chaqirib olish to'lovchining banki tomonidan operatsiya kuni davomida amalga oshiriladi.

Agar farmoyish operatsiya kuni tugaganidan keyin olingan bo'lsa, bunday farmoyish to'lovchining banki tomonidan keyingi operatsiya kuni boshlanganda olingan deb hisoblanadi.

Farmoyishni taqdim etish yoki uni chaqirib olish, shuningdek uning bajarilishini to'xtatib turish:

tegishli elektron aloqa kanallaridan va telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda elektron shaklda o'tkazish orqali;

elektron aloqa kanallaridan va telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish imkoniyati bo'lmaganda elektron jismda;

to'lov hujjatining asl nusxasini, uni chaqirib olish yoki uning bajarilishini to'xtatib turish to'g'risidagi ko'rsatmani qog'ozda taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Farmoyishni elektron usulda yoki elektron jismda taqdim etishga yoki chaqirib olishga, shuningdek uning bajarilishini to'xtatib turishga Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga rioya etilgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

Agar tashabbuskor bankning mijozi bo'lsa, tashabbuskor tomonidan bankka farmoyishni taqdim etish usullari, tartibi va shartlari ular o'rtasidagi shartnomada aks ettiriladi. Agar tashabbuskor bankning mijozi bo'lmasa, tashabbuskor tomonidan farmoyishni taqdim etish Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

46-modda. Farmoyishni bajarish

Bank farmoyishni qabul qilayotganda uning shartnoma talablari va shartlariga muvofiqligini tekshirishi hamda uni bajarishi yoki bajarishni rad etishi shart.

Benefitsiarning banki rad etish sabablarini ko'rsatgan holda farmoyishni bajarishni rad etadi hamda bu haqda darhol to'lovchiga xabar qiladi.

Agar to'lovchi va to'lovchining banki o'rtasidagi shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lovchining banki tomonidan farmoyish bajarilishi uchun to'lovchi farmoyishni bajarish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining summasini ta'minlashi shart.

Bank tomonidan farmoyishning bajarilishini rad etish quyidagi asoslarga ko'ra amalga oshiriladi:

agar shartnomada to'lovni amalga oshirish uchun to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi tomonidan to'lov xizmatidan foydalanuvchiga kredit ajratishga doir xizmat ko'rsatish nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari summasining mavjud bo'lishini to'lovchi ta'minlamaganda;

agar farmoyishda soxtalashtirish, tuzatish, to'ldirish va o'chirish belgilari bo'lsa, shu jumladan farmoyish to'lovchi va to'lovchining banki o'rtasidagi shartnomada belgilangan ruxsat etilmagan to'lovlardan himoya qilish harakatlari tartibi buzilgan holda topshirilgan bo'lsa;

tashabbuskor tomonidan farmoyishni tuzish va taqdim etish tartibiga doir shartnoma shartlarida belgilangan talablarga rioya etilmaganda;

“Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollarda;

bank hisobvarag'idan pul mablag'larini undirish to'g'risidagi talabnoma qonunchilikka muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan bank hisobvarag'iga taqdim etilgan hollarda;

ruxsat etilmagan to'lov aniqlanganda, shuningdek benefitsiar foydasiga o'tkaziladigan pul mablag'larini olishning qonunga zid faktlari aniqlangan va tasdiqlangan hollarda;

bank hisobvarag'iga doir bajarilmagan talablar va (yoki) vakolatli davlat organlarining bank hisobvarag'i bo'yicha xarajatlarga doir operatsiyalarni to'xtatib turish va (yoki) bank hisobvarag'idagi pul mablag'larini xatlash to'g'risidagi qarorlari mavjud bo'lganda.

Farmoyishni bajarish:

agar bank benefitsiarga xizmat ko'rsatmasa, farmoyishni benefitsiarning bankiga berish;

agar to'lovchining banki benefitsiarning banki bo'lsa, pul mablag'larini o'tkazishni yakunlash;

agar bank to'lovchiga xizmat ko'rsatmasa, naqd pul mablag'larini to'lash to'g'risidagi farmoyishni taqdim etgan tashabbuskorga naqd pul mablag'larini berish orqali amalga oshiriladi.

47-modda. Farmoyishni bajarish muddati

To'lovchi tomonidan farmoyish taqdim etilgan operatsiya kunida bank farmoyishning bajarilishini ta'minlaydi.

Xalqaro to'lovlar valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilgan holda, farmoyish olingan paytdan e'tiboran ikki operatsiya kundan kechiktirmay bajariladi.

Pul mablag‘larini benefitsiarning bank hisobvarag‘iga yoki pul mablag‘lari benefitsiarning foydasiga qabul qilinishini aks ettiruvchi boshqa hisobvaraqa o‘tkazishga doir farmoyishni bajarish farmoyish olingan kundagi operatsiya kuni davomida benefitsiarning banki tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning birinchi — uchinchi qismlarida nazarda tutilgan normalar:

inkasso topshiriqnomasi, to‘lov talabnomasi yoki akkreditivga ariza orqali taqdim etilgan;

noaniq muddatlarda bajarilishi lozim bo‘lgan;

kelgusidagi valyutashtirish sanasiga ega bo‘lgan;

chakana savdoda yoki elektron tijoratni amalga oshirishda tovarlar, ishlar va xizmatlarni olish uchun elektron to‘lov vositalaridan foydalanish chog‘ida to‘lov xizmatlaridan foydalanuvchining roziligi tarzida ifodalangan farmoyishning bajarilishiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

48-modda. Valyutashtirish sanasiga ega bo‘lgan farmoyishni bajarish

To‘lov hujjatida ko‘rsatilgan valyutashtirish sanasi to‘lov hujjati yozib berilgan sanadan e‘tiboran o‘n kundan oshishi mumkin emas.

Valyutashtirish sanasiga ega bo‘lgan farmoyishni bajarishda to‘lovchining pul mablag‘lari bank hisobvarag‘ida zaxiraga qo‘yiladi yoki to‘lovchi bankining ichki balans hisobvarag‘iga (tranzit hisobvarag‘iga) o‘tkaziladi.

Zaxiraga qo‘yilgan pul mablag‘larini o‘tkazish yoki to‘lovchi bankining maxsus tranzit hisobvarag‘idan pul mablag‘larini o‘tkazish to‘lov hujjatida ko‘rsatilgan valyutashtirish sanasidan kechiktirmay, benefitsiarning banki tomonidan pul mablag‘larini benefitsiarning bank hisobvarag‘iga o‘tkazish imkonini beradigan vaqt hisobga olingan holda, to‘lovchining banki tomonidan amalga oshiriladi.

Agar valyutashtirish sanasi dam olish kuniga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, benefitsiarning banki valyutashtirish sanasi deb belgilangan kundan keyingi birinchi ish kunida pul mablag‘larini benefitsiarning bank hisobvarag‘iga o‘tkazadi.

Pul mablag‘lari to‘lov hujjatida ko‘rsatilgan valyutashtirish sanasiga muvofiq bo‘lmagan operatsiya kunida benefitsiarning bank hisobvarag‘iga o‘tkazilgan taqdirda valyutashtirish sanasiga ega bo‘lgan farmoyish shartlarini buzgan bank bank hisobvarag‘i shartnomasida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

49-modda. To‘lovchida farmoyishni bajarish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘lari summasi mavjud bo‘lmaganda yoki yetarli bo‘lmaganda farmoyishni bajarish

To‘lovchida farmoyishni bajarish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘lari summasi mavjud bo‘lmaganda yoki yetarli bo‘lmaganda farmoyishni bajarish qonunga muvofiq amalga oshiriladi.

10-bob. To'lovlarni yakunlash va qaytarish

50-modda. To'lovlarni yakunlash

Agar to'lov naqd pul mablag'laridan foydalangan holda amalga oshirilsa, to'lovni yakunlash benefitsiar yoki benefitsiar vakolatli etib belgilagan shaxs tomonidan pul mablag'lari olingan paytda yuz beradi.

Agar to'lov to'lov hujjati asosida amalga oshirilsa, to'lovni yakunlash benefitsiarning hisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushgan paytda yuz beradi.

Agar to'lov pul mablag'larini o'tkazish orqali amalga oshirilsa, to'lovni yakunlash pul mablag'larini quyidagi yo'llar bilan o'tkazish yakunlangan paytda yuz beradi:

pul mablag'lari kelib tushganda benefitsiarning bank hisobvarag'i bo'yicha buxgalteriya yozuvini kiritishni amalga oshirish;

pulni o'tkazish benefitsiar hisobvarag'i ochilmasdan amalga oshirilganda benefitsiarning banki tomonidan benefitsiarga naqd pul mablag'larini haqiqatda berish;

boshqa hisobvaraq bo'yicha benefitsiar foydasiga pul mablag'larini qabul qilishni aks ettiradigan buxgalteriya yozuvini kiritishni amalga oshirish.

Agar to'lov elektron pullarni o'tkazish orqali amalga oshirilsa, to'lovni yakunlash benefitsiar tomonidan elektron pullar olingan paytda yuz beradi. Qabul qilingan elektron pullar summasi to'g'risidagi, ushbu pullar benefitsiar bo'lgan boshqa shaxs foydasiga kelib tushganligi haqida dalolat beruvchi axborotning elektron pullar tizimida aks ettirilishi elektron pullar olingan paytdir.

51-modda. Ruxsat etilgan va ruxsat etilmagan to'lovlar

Agar to'lov ushbu to'lovni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan shaxs tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo'lmasa, ruxsat etilgan to'lov bo'ladi. To'lov pul o'tkazish orqali amalga oshirilgan taqdirda, basharti farmoyish to'lovchining banki tomonidan ruxsat etilmagan to'lovlardan himoya qilish harakatlarining belgilangan tartibiga rioya etilgan holda qabul qilingan bo'lsa ham to'lov ruxsat etilgan deb hisoblanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan talablarga rioya etilmagan holda amalga oshirilgan to'lov ruxsat etilmagan to'lov hisoblanadi. Qalbaki to'lov vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan to'lov ham ruxsat etilmagan to'lov hisoblanadi.

Bank va to'lovchi elektron to'lov vositalari yordamida to'lovlarni amalga oshirish chog'ida ruxsat etilmagan to'lovlardan xavfsizlikni ta'minlash tartib-taomillarining bajarilishini ta'minlaydi.

Ruxsat etilmagan to'lovlardan xavfsizlikni ta'minlash tartib-taomillari to'lovlar ishtirokchilari o'rtasida tuzilgan shartnomalar va (yoki) elektron to'lov

hujjatlarini o'tkazish amalga oshiriladigan to'lov tizimining ishlash qoidalari bilan belgilanadi.

52-modda. To'lovlar bo'yicha pul mablag'larini qaytarish

Pul mablag'larini o'tkazishda amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha pul mablag'larini qaytarish pul mablag'larini o'tkazish yuzasidan noto'g'ri farmoyishni bajarish natijasida ruxsat etilmagan to'lov fakti aniqlangan hollarda amalga oshiriladi.

Tashabbuskor tomonidan yuborilgan farmoyish, agar unda oldingi jo'natuvchidan olingan farmoyishning rekvizitlariga mos kelmaydigan rekvizitlar mavjud bo'lsa yoki u takroran berilgan bo'lsa, noto'g'ri farmoyish bo'ladi.

Noto'g'ri farmoyish yoki ruxsat etilmagan to'lov bo'yicha pul mablag'larini qaytarish benefitsiarning banki tomonidan benefitsiar roziligisiz mazkur pul mablag'lari o'tkazilgan benefitsiarning bank hisobvarag'idagi pul mablag'larini olib qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Noto'g'ri farmoyish yoki ruxsat etilmagan to'lov bo'yicha pul mablag'larini qaytarish benefitsiarning banki tomonidan ushbu fakt aniqlangan kundan e'tiboran keyingi operatsiya kunidan kechiktirmay, benefitsiarning bank hisobvarag'ida mavjud pul mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi, bundan bank hisobvarag'iga doir bajarilmagan talablar va (yoki) vakolatli davlat organlarining bank hisobvarag'i bo'yicha xarajatlar operatsiyalarini to'xtatib turish va (yoki) bank hisobvarag'idagi pul mablag'larini xatlash to'g'risidagi qarorlari mavjud bo'lgan hollar mustasno.

Benefitsiarning bank hisobvarag'ida pul mablag'lari yetarli bo'lmagan yoki mavjud bo'lmagan hollarda, noto'g'ri farmoyish yoki ruxsat etilmagan to'lov bo'yicha pul mablag'larini qaytarishni ushbu mablag'larni noto'g'ri o'tkazishga yoxud ruxsat etilmagan to'lovga yo'l qo'ygan shaxs ushbu fakt aniqlangan kundan e'tiboran keyingi operatsiya kunidan kechiktirmay o'z pul mablag'lari hisobidan amalga oshiradi.

Pul mablag'lari qaytarilgan taqdirda, pul mablag'larini o'tkazishda ishtirok etadigan har bir jo'natuvchi bunday pul mablag'larini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan hamda pul mablag'larini qaytarish natijasida haqiqatda qilingan xarajatlarning o'rni to'lov tizimining (shu jumladan vositachi bankning) noto'g'ri farmoyishga yoki ruxsat etilmagan to'lovga yo'l qo'ygan ishtirokchisining pul mablag'lari hisobidan qoplanishi huquqiga ega bo'ladi.

11-bob. To'lov tizimida axborotni va xavfsizlikni himoya qilishni ta'minlash

53-modda. To'lov tizimida axborotni himoya qilish talablari va tartibi

To'lov tizimida axborotni himoya qilish va uni himoya qilish vositalaridan foydalanish tartibi ushbu Qonun hamda to'lov tizimlarining qoidalari bilan belgilanadi.

To'lov tizimlarining operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar:

to'lovlar to'g'risidagi axborotni shakllantirish, unga ishlov berish, uni uzatish va saqlashning barcha bosqichlarida ushbu axborotni uzluksiz himoya qilishni;

axborotning maxfiyligi va yaxlitligini, shu jumladan to'lov xizmatlaridan foydalanuvchining shaxsiga doir ma'lumotlarni himoya qilish uchun yetarli bo'lgan xavfsizlik rejimini;

axborot tizimlarida ishlash chog'ida, shu jumladan ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish muhiti va ish tizimida xodimlarning vakolatlarini chegaralashni;

axborot tarmoqlarini, shu jumladan Internet tarmog'ini, shuningdek serverlar va aloqa kanallarini ehtimol tutilgan hujumlardan himoya qilishni;

to'lovlar bo'yicha maxfiy ma'lumotlardan va o'ta muhim mantiqiy hamda jismoniy resurslardan (axborot tarmoqlari, axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalaridan, axborotni himoya qilish modullaridan) foydalanish monitoringini;

to'lovlarni va pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshirish chog'ida axborotning himoya qilinishini ta'minlashga doir talablarning buzilishi bilan bog'liq bo'lgan noxush hodisalarni aniqlash uchun mo'ljallangan axborotni himoya qilishning tashkiliy choralari va texnik vositalari qo'llanilishini;

axborotning himoya qilinishini ta'minlashga doir talablarning buzilishi bilan bog'liq bo'lgan aniqlangan noxush hodisalarga nisbatan ta'sir choralari ko'rilishini;

axborotning himoya qilinishini ta'minlashga doir talablarning buzilishi bilan bog'liq bo'lgan aniqlangan noxush hodisalar sabablarini tahlil qilishni, bunday noxush hodisalarga ta'sir ko'rsatish natijalarini baholashni ta'minlaydi.

To'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar:

farmoyish aloqa kanallari orqali jo'natilganda to'lov xizmatlaridan foydalanuvchini ko'p omilli autentifikatsiya qilish tartib-taomilini qo'llashi. Ko'p omilli autentifikatsiya mobil va aloqasiz to'lovlarni amalga oshirish chog'ida qo'llanilmaydi;

masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlarida himoyalangan aloqa kanalini tashkil etishi;

hodisalarni qayd etishning tegishli daftarlarini yuritish, saqlash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishi;

aloqa seansi doirasida Internet tarmog'i orqali axborotni kriptografik himoya qilishning litsenziyalangan vositalaridan foydalangan holda shifrlangan shakldagi maxfiy ma'lumotlarni almashishni amalga oshirishi shart.

To'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar faqat to'lov xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishi, ularga ishlov berishi va ularni saqlashi mumkin, bunda ular to'lov xizmatlaridan foydalanuvchidan xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlardan tashqari hech qanday ma'lumotlarni so'rashga haqli emas.

54-modda. To'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarga doir talablar

Elektron to'lov vositasi o'ziga taqdim etilgan to'lov xizmatlaridan foydalanuvchi elektron to'lov vositasidan uni berish va undan foydalanish shartlariga muvofiq foydalanishi, shuningdek to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchini yoki u tomonidan ko'rsatilgan shaxsni to'lov vositasi yo'qolganligi, o'g'irlanganligi, o'zlashtirilganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida darhol xabardor etishi shart.

55-modda. Xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq tavakkalchiliklar

To'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar operatsiyalarga doir tavakkalchiliklarni hamda to'lov xizmatlarini ko'rsatish chog'ida xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq tavakkalchiliklarni kamaytirish va nazorat qilish choralari tizimini ta'minlashi shart. To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar noxush hodisalarga ta'sir ko'rsatishning samarali tartib-taomillarini ishlab chiqishi va saqlab turishi shart.

To'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar har yili, kelgusi yilning birinchi apreldan kechiktirmay Markaziy bankka xavfsizlikning ta'minlanish holati to'g'risida hisobot taqdim etishi shart.

56-modda. To'lov tizimlari operatorlarining, to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarning va tashabbuskorning axborotni himoya qilishni ta'minlash bo'yicha javobgarligi

To'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar to'lov tizimlari yordamida ishlov beriladigan axborotni himoya qilish yuzasidan qonunchilikda va to'lov tizimlari qoidalarida belgilangan talablarni bajarishi shart.

Agar ruxsat etilmagan to'lovlar tashabbuskorning firibgarlik harakatlari natijasida yoki o'zining identifikatsiyalash vositalari himoya qilinishini ta'minlash uchun choralar ko'rmaganligi oqibatida sodir etilgan bo'lsa, tashabbuskor ruxsat etilmagan to'lovlar tufayli yetkazilgan zararlar uchun javobgar bo'ladi.

57-modda. Axborot xavfsizligi sohasida to'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar ustidan nazorat qilish

Axborot xavfsizligi sohasida to'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar ustidan nazorat Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.

Axborot xavfsizligi rejimi buzilgan taqdirda, to'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar qoidabuzarlik aniqlanganidan keyin bu haqda hamda uning oqibatlarini kamaytirish uchun ko'rilayotgan choralar to'g'risida Markaziy bankka tezkorlik bilan xabar berishi shart. Markaziy bank to'lov tizimlarining axborot xavfsizligi rejimi buzilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirishni va yuritishni amalga oshiradi.

12-bob. Yakunlovchi qoidalar

58-modda. To'lovlar bo'yicha majburiyatlar bajarilishini ta'minlash

To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi tomonidan to'lovlarni amalga oshirish muddatlari buzilgan taqdirda, u muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lashi shart.

To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchining aybi bilan to'lov noto'g'ri amalga oshirilgan taqdirda, u xato aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay pul mablag'larini oluvchining hisobvarag'iga o'tkazishi shart. Aks holda, to'lovchi qonunda belgilangan tartibda to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchidan mablag'larni qaytarishni, shuningdek muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun noto'g'ri amalga oshirilgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, biroq noto'g'ri amalga oshirilgan to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lashni talab qilish huquqiga ega.

59-modda. Nizolarni hal etish

To'lovlar va to'lov tizimlari sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

60-modda. To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

61-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

Markaziy bank ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

62-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

To'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ushbu Qonun kuchga kirgandan so'ng uch oy mobaynida o'z faoliyatini mazkur Qonun talablariga muvofiqlashtirishi shart.

63-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.11.2019-y., 03/19/578/3986-son;
Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;
12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)*

O'zbekistonda to'lov tashkilotlarining REYESTRI⁸⁵

№ t/r	To'lov tashkiloti nomi	To'lov tashkilotining tovar belgisi	Litsenziya berilgan sana	Litsenziya raqami	Yuridik manzili	Veb-sayti
1.	“Slick” MChJ	Slick	28.03.2020 y.	1	100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bratislava ko'chasi, 11-uy	www.click.uz
2.	“BRIO GROUP” MChJ	OSON	28.03.2020 y.	2	100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Kichik xalqa avtomobil yo'li ko'chasi, 44-uy, 9-xonadon	www.oson.uz
3.	“INSPIRED” MChJ	Payme	04.04.2020 y.	3	100077, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Chust ko'chasi, 1-uy	www.payme.uz
4.	“National Innovative Payment Technologies” MChJ	ATMOS	04.04.2020 y.	4	100066, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 1-uy	www.paymo.uz
5.	“PAYBOX” MChJ	PAYBOX	23.04.2020 y.	5	100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 29-uy	www.paybox.uz
6.	“Maroqand” MChJ	UPAY	23.04.2020 y.	6	100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Navnixol ko'chasi, 86-uy	www.upay.uz
7.	“MILLIY POCHTA TO'LOVLARI” MChJ	-	16.05.2020 y.	7	100000, Toshkent shahri, Oloy ko'chasi, 1-uy	www.pochta.uz
8.	“Payment Aggregation Systems” MChJ	Paysys	23.07.2020 y.	9	100011, Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Shayxontohur ko'chasi, 126-uy	www.paysys.uz

⁸⁵ <https://cbu.uz/oz/payment-systems/documents-license-applicati/payment-organizations/> - 03.01.2023y.holatiga.

9.	“Alif Tech” MChJ XK	alif.mobi	23.07.20 20 y.	10	100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Sh.Rustaveli ko‘chasi, 12-uy	-
10.	“WOOPPAY UZ” MChJ	WOOPPAY	15.08.20 20 y.	11	100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko‘chasi, 22-uy	www.wo oppay.uz
11.	“Genesis Innovation” MChJ	QR-pay	10.09.20 20 y.	12	100011, Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Abdulla Kodiriy ko‘chasi, 78-uy	www.ige nius.uz
12.	“Plum technologies” MChJ	MyUzcard	10.10.20 20 y.	13	100027, Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Abdulla Kodiriy ko‘chasi, 78-uy	www.plu mtech.uz
13.	“Global solutions” MChJ XK	GlobalPay	10.10.20 20 y.	14	100031, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Mirobod-2, 39a-uy	www.glo balsoluti ons.uz
14.	“AVTOMATL ASHTIRILGA N TRANSPORT TO'LOV TIZIMI OPERATORI” MChJ	ATTO	10.10.20 20 y.	15	100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Glinka ko‘chasi, 25-uy	www.att o.uz
15.	“Mayasoft” MChJ	MARTA	10.10.20 20 y.	16	100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 56-uy	www.ma rta.uz
16.	“E-services house” MChJ	WEBSUM	10.10.20 20 y.	17	100047, Toshkent shahri, O‘zbekiston ovozi ko‘chasi, 2-uy	www.we bsum.uz
17.	“Yurt Pay” MChJ	-	29.10.20 20 y.	18	100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shaxrisabz ko‘chasi, 36-uy	-
18.	“CHOYKHO NA” MChJ	-	26.12.20 20 y.	19	100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Sh. Rustaveli ko‘chasi, 32A	-

19.	“ZPLAT” MChJ	ZPLAT	26.12.20 20 y.	20	100077, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko‘chasi, 81/6-uy, 2- xonadon	www.zpl at.uz
20.	“CENTER FOR DIGITAL TECHNO LOGY AND INNOVA TION” MChJ	A-pay	09.01.20 21 y.	21	100090, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, A.Qahhor 9- tor ko‘chasi, 1A-uy	www.a- pay.uz
21.	“TEZPAY” MChJ	-	27.03.20 21 y.	22	140100, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Sattepo dahasi, Turkiston ko‘chasi, 157-uy	www.tez pay.uz
22.	“PAYLOAD” MChJ QK	-	27.03.20 21 y.	23	100001, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, M. Ulug‘bek ko‘chasi, 59-uy, 1- xonadon	-
23.	“Interpay Sys” MChJ	-	10.04.20 21 y.	24	100015, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 104B-uy, 403-xona	www.int erpay.uz
24.	“MULTI CARD PAYMENT” MChJ	-	12.05.20 21 y.	26	100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Sodiq Azimov ko‘chasi, 50-uy	www.mu lticard.uz
25.	“PAY-WAY” MChJ	-	22.05.20 21 y.	27	170100, Andijon viloyati, Andijon shahri, Boburshox ko‘chasi, 2-uy	-
26.	“SOURCE TO PAY” MChJ	-	10.07.20 21 y.	29	100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko‘chasi, 34-uy	www.s2p ay.uz
27.	“OZINTER PAY” MChJ	-	25.09.20 21 y.	30	230100, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, Dosnazarov ko‘chasi, 142-uy	-
28.	“MULTIPAY” MChJ	-	21.10.20 21 y.	31	100060, Toshkent shahri, Yashnobod tumani,	-

					Farg'ona yuli ko'chasi, 23/3	
29.	“Payment System Platform” MChJ	-	21.10.20 21 y.	32	100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram 7 ko'chasi, 92-uy	-
30.	“VENKON GROUP” MChJ	-	27.11.20 21 y.	33	100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Sh. Rustaveli ko'chasi, 53b-uy	www.venkon.uz
31.	“O'zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasi” AJ	-	27.11.20 21 y.	34	100090, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 77-uy	www.uzex.uz
32.	“UZPAYNET” MChJ	Paynet	25.12.20 21 y.	35	100021, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Furqat ko'chasi, 10-uy	www.paynet.uz
33.	“SOLUTIONS LAB” AJ	-	29.01.20 22 y.	36	100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Sh. Rustaveli ko'chasi, 12-uy	www.paymart.uz
34.	“INSTANT PAYMENT SOLUTIONS” MChJ	-	12.02.20 22 y.	37	100128, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Labzak ko'chasi, 64A-uy	www.ips-group.uz
35.	“NATIONAL PAY” MChJ	Milliy pay	12.02.20 22 y.	38	220803, Xorazm viloyati, Xonqa tumani, Madir, Ilg'or mahallasi	www.millipay.uz
36.	“CS EXPRESS PAY” MChJ	-	12.02.20 22 y.	39	100128, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Zulfiyaxonim ko'chasi, 12-uy	-
37.	“OCTAGRAM” MChJ	KarmonPay	10.03.20 22 y.	40	100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 7A	www.karmonpay.uz
38.	“TAPP PAYMENT” MChJ	-	14.05.20 22 y.	41	140100, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Ishtihon ko'chasi 14A-uy	www.tpayment.uz

39.	“SOLIQ SERVIS” DUK	-	09.06.20 22 y.	42	100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Muqimiy ko‘chasi, 166-uy	-
40.	“LIMON PAY” MChJ	-	16.07.20 22 y.	43	100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko‘chasi, 7a-uy	-
41.	“YANGI PAYMENT” MChJ	-	16.07.20 22 y.	44	100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Istiqbol ko‘chasi, 34-uy	-
42.	“CLOUD PAYMENTS” MChJ	-	13.08.20 22 y.	45	100031, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Afrosiyob ko‘chasi, 8a-uy	www.clo udpayme nts.uz
43.	“BEELAB” MChJ	-	08.09.20 22 y.	46	100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Buxoro ko‘chasi, 1-uy	www.bee pul.beeli ne.uz
44.	“MARKET PLACE TRADING” MChJ	Sello	19.11.20 22 y.	47	100128, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Zulfiyaxonim ko‘chasi, 12-uy	www.sell o.uz

O'zbekistonda elektron pullar tizimlari reyestri⁸⁶

№ t/r	Elektron pullar tizimi nomi	Operator nomi	Emitent nomi	Elektron pullar chiqarish bo'yicha faoliyati boshlangan sana
1.	"OSON"	"BRIO GROUP" MChJ	AT "Aloqabank"	11.10.2022 y.
2.	"E-CARD"	"INSPIRED" MChJ	ATB "Universal bank"	21.08.2020 y.
3.	"CLICK"	"CLICK" MChJ	"Agrobank" ATB	21.08.2020 y.
4.	"WOOPPAY"	"WOOPPAY UZ" MChJ	"Uzum bank" AJ	10.11.2022 y.
5.	"alif.mobi"	"ALIF TECH" MChJ	AT "Aloqabank"	02.11.2020 y.
6.	"Interpay"	"Interpay sys" MChJ	"Uzum bank" AJ	11.10.2022 y.
7.	"A-pay"	"CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION" MChJ	"Uzum bank" AJ	01.07.2022 y.
8.	"QIWI Uzbekistan"	"Payment Aggregation Systems" MChJ	"Uzum bank" AJ	11.08.2022 y.
9.	"1HLSW"	"Genesis Innovation" MChJ	AT "Aloqabank"	17.11.2021 y.
10.	"GlobalPay"	"Global Solutions" MChJ	AT "Aloqabank"	17.11.2021 y.
11.	"Payway"	"Payway" MChJ	"Uzum bank" AJ	29.07.2022 y.

⁸⁶ <https://cbu.uz/oz/payment-systems/documents-license-applicati/payment-organizations/> - 03.01.2023y.holatiga.

12.	“Apelsin”	“Uzum bank” AJ	“Uzum bank” AJ	29.07.2022 y.
13.	“ExMoney”	“O’zbekiston Respublikasi Tovar-xomashyo birjasi” AJ	“Trastbank” XAB	30.08.2022 y.
14.	“AIST”	“Ozinterpay” MChJ	ATB “Universal bank”	30.08.2022 y.
15.	“PAYNET WALLET”	“INSTANT PAYMENT SOLUTIONS” MChJ	AT Xalq banki	30.08.2022 y.

MUNDARIJA:

		bet
KIRISH		7
I BOB.	TO'LOV TIZIMI VA UNING STRUKTURASI.....	6
1.1.	To'lov va to'lov tizimining mohiyati va uning turlari hamda tashkiliy asoslari	6
1.2.	To'lov tizimlarida qo'llaniladigan to'lov instrumentlari va to'lov usullari.....	13
1.3.	To'lov tizimlarining samarali faoliyati bo'yicha ilg'or xorij tajribasi.....	21
1.4.	O'zbekiston Respublikasi to'lov tizimi, uning rivojlanish bosqichlari hamda mamlakat to'lov tizimi arxitekturasi.....	30
II BOB.	NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR TIZIMI.....	40
2.1.	Naqd pulsiz hisob-kitoblarning mazmuni va tamoyillari	40
2.2.	O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitob shakllari.....	44
2.3.	Plastik kartochkalar bilan operatsiyalar va ularning milliy to'lov tizimidagi o'rni.....	51
2.4.	Elektron pullar bilan bog'liq hisob-kitoblar, ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	56
III BOB.	ELEKTRON TO'LOV TIZIMI VA UNING BANKLARARO HISOB-KITOBLARNI TASHKIL ETISHDAGI O'RNI.....	70
3.1.	Elektron to'lov tizimining mohiyati va uning O'zbekistonda tashkil etilishi asoslari.....	70
3.2.	Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi, uning ishlash prinsiplari.....	75
3.3.	Markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring tizimi, uning tashkil qilinishi va ishlash prinsiplari.....	80
3.4.	Markaziy bankning Tezkor to'lovlar tizimi, uning tashkil qilinishi va ishlash prinsiplari.....	82
IV BOB	YAGONA VAKILLIK HISOBVARAG'I ORQALI HISOB-KITOBLARGA ASOSLANGAN TO'LOV TIZIMI.....	87

4.1.	Tijorat banklarining vakillik munosabatlari, yagona vakillik hisobvarag‘ining mohiyati, to‘lov tizimida tutgan o‘rni.....	87
4.2.	Tijorat banklarining yagona vakillik hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalari	89
V BOB	MIJOZLARGA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA “BANK – MIJOZ” DASTURINING O‘RNI.....	95
5.1.	Masofaviy bank xizmatlarining mazmuni va uning tashkil etilishi.....	95
5.2.	“Bank-mijoz” dasturiy ta‘minoti va uning asosiy vazifalari.....	97
5.3.	Bank-mijoz dasturi bo‘yicha mijoz va bankning ish tartibi	99
VI BOB	“INTERNET-BANKING” ELEKTRON TO‘LOVLAR TIZIMI.....	102
6.1.	“Internet-banking” xizmati va uning mohiyati.....	102
6.2.	“SMS-banking” xizmati va uning asosiy xususiyatlari.....	106
VII BOB	YANGI BANK TEXNOLOGIYALARI.....	108
7.1.	Raqamli moliyaviy texnologiyalar va ularning to‘lov tizimidagi o‘rni.....	108
7.2.	Raqamli to‘lov texnologiyalari va to‘lov mahsulotlari.....	112
7.3.	Markaziy banklarning raqamli pullari, ularning xususiyatlari, O‘zbekistonda joriy qilinishi imkoniyatlari.....	119
VIII BOB	SWIFT XALQARO TO‘LOV TIZIMI.....	125
8.1.	SWIFT xalqaro to‘lov tizimining mazmuni va uning tashkil etilishi.....	125
8.2.	SWIFT tizimi orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi.....	127
8.3.	SWIFT tizimiga muqobil boshqa tizimlar.....	128
IX BOB	PUL O‘TKAZISH TIZIMLARI.....	132
9.1.	Pul o‘tkazish tizimlarining mohiyati va ularning turlari.....	132
9.2.	Xalqaro pul o‘tkazish tizimlari va ularning ishlash prinsiplari.....	133
X BOB	BANK XAVFSIZLIGINING MAQSADI VA VAZIFALARI..	139
10.1.	Bank xavfsizligining mazmuni va uning maqsadi.....	139
10.2.	Bank xavfsizligining vazifalari.....	141

XI BOB	BANK XAVFSIZLIGIGA TA’SIR QILUVCHI XATAR SHAKLLARI.....	144
11.1.	Bank xavfsizligiga ta’sir qiluvchi xatar shakllari.....	144
11.2.	Xavfsizlik tizimida sifatni ta’minlash.....	148
XII BOB	BANK XAVFSIZLIGINI XIMOYALASHNI TASHKIL ETISH.....	150
12.1.	Bank xavfsizligi ob’yektlarining xavfsizligini ta’minlash.....	150
12.2.	Bank moliyaviy faoliyati barqarorligini sog’lomashtirish yo’llari.....	151
ADABIYOTLAR RO’YXATI.....		154
ILOVALAR.....		163